

**RIZAYEV JASUR ALIMJANOVICH  
MUXAMADIYEVA LOLA ATAMURADOVNA  
MAMATKULOVA DILRABO HAMIDOVNA  
TURAYEVA NAFISA OMANOVNA**



**PEDIATRIYA  
TIBBIY GENETIKA**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

RIZAYEV J.A., MUXAMADIYEVA L.A.,  
MAMATKULOVA D.H., TURAYEVA N.O.



## PEDIATRIYA. TIBBIY GENETIKA

*Darslik*

Tibbiyot oliv o'quv yurtlari stomatologiya fakulteti talabalari uchun  
darslik



UO'K 616-053.2+575(075.8)

BBK 57.3+28.04ya73

P 29

J.A. Rizayev., L.A. Muxamadiyeva., D.H. Mamatkulova., N.O. Turayeva.  
Pediatriya. Tibbiy genetika [Matn]: darslik/ J.A. Rizayev., L.A. Muxamadiyeva.,  
D.H. Mamatkulova., N.O. Turayeva. Samarqand. 2024.-232 b.

**Tuzuvchilar:**

**RIZAYEV JASUR ALIMDJANOVICH** – Tibbiyot fanlari doktori, professor

**MUXAMADIYEVA LOLA ATAMURADOVNA** – Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**MAMATKULOVA DILRABO HAMIDOVNA** – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**TURAYEVA NAFISA OMONOVNA** – PhD, dotsent

**Taqrizchilar:**

**NAVRUZOVA SHAKAR ISTAMOVNA** - Tibbiyot fanlari doktori, professor

**RABBIMOVA DILFUZA TOSHTEMIROVNA** – Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

*Darslik pediatriya va klinik genetika fanlariga bag'ishlangan bo'lib, unda tibbiyot oly o'quv yurtlari stomatologiya fakulteti talabalari uchun ishlab chiqarilgan va namunaviy dasturga kiritilgan mavzular yoritilgan. Stomatologiya fakulteti talabalari uchun pediatriyada dolzarb bo'lgan bolalarning antropometrik tekshiruv usullari, o'sish parametrlari, erta yoshdag'i bolalarni to'g'ri ovqatlantirish va shu yoshda eng ko'p uchraydigan kasaliklar haqida malumotlar berishgan. Genetikaning tekshirish usullari, irsiyatning molekulyar asoslari, irsiyatga muhit omillarining ta'siri, nasliy kasaliklar, tibbiy genetik maslahat asoslari yoritilgan. Darslik mualliflari, talabalarga pediatriya va tibbiy genetika bilimlarining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishining asosilarini aks ettirishga intilishgan. Darslikka kiritilgan testlar va vaziyatli masalalar pediatriya va tibbiy genetika bilimlarini yaxshiroq tushunishga va olgan bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi.*

*Darslik tibbiyot fani va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan oly o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.*

ISBN 978-9910-771-17-0

## MUNDARIJA

QISQARTMALAR RO'YXATI.....	5
KIRISH.....	6
I BOB. I.1. BOLANING O'SISHI VA RIVOJLANISHINI BAHOLASH .....	8
1.2. Bolalarda antropometrik tekshiruv usullari .....	9
II. BOB. BOLALARNI OVQATLANTIRISH .....	17
2.1. Bolalarni tabiiy, sun'iy va aralash ovqatlantirish. ....	17
2.2. Ko'krak suti bilan emizib boqishning fiziologik asoslari.....	21
2.3. Qo'shimcha ovqatlantirish .....	34
Normada oshqozon-ichak tizimi. O'zgarishlar semiotikasi. Oshqozon- ichak tizimining funksional buzilishlari.....	53
Oqsil energetik yetishmovchilik, etiologiyasi, klassifikatsiyasi, diagnostikasi, klinikasi. Davolash usullari va profilaktikasi .....	76
III BOB. ERTA YOSHDAGI BOLALAR KASALLIKLARI .....	89
3.1.Bolalarda raxit .....	89
NAFAS OLISH TIZIMINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	98
BOLALARDA O'PKALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI:.....	105
3.2. Bronxitlar.....	122
3.3.Pnevmoniyalar.....	126
3.4.Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari.....	130
ANEMIYA .....	130
MEGALOBLASTIK ANEMIYALAR.....	133
VITAMIN B <sub>12</sub> DEFITSIT ANEMIYASI DIAGNOSTIKASI.....	134
FOLAT TANQISLIK KAMQONLIGI .....	138
IV BOB. TIBBIY GENETIKA.....	140
4.1.Irsiyatning molekulyar asoslari. irsiyatga muhit omillarining ta'siri.....	141
4.2.Tibbiy genetikaning o'rGANISH usullari. .....	155
4.3. Irsiy kasalliklarning (preklinik) klinika aniqlanguncha	

diagnostikasi .....	179
4.4. Xromosoma kasalliklarining umumiyl xususiyatlari .....	185
4.5. Xromosoma kasalliklarining asosiy shakllari klinikasi .....	194
Daun sindromi .....	194
Patau sindromi .....	203
Edvards sindromi .....	205
Xromosomalarning tuzilishini buzilishi bilan bog'liq xromosoma kasalliklari.....	208
"Mushuk qichqirig'i" sindromi.....	208
Klaynfelter sindromi.....	210
Shershevskiy-Terner sindromi.....	211
IRSIY KASALLIKLARNI DAVOLASH PRINSIPLARI.....	214
V BOB. IRSIY KASALLIKLAR PROFILAKTIKASINING ASOSIY YO'NALISHLARI .....	221
4.5.Genetik atamalar.....	229
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: .....	231

## QISQARTMALAR RO'YNATI

<b>ADA</b>	- adenozindezaminaza
<b>AFP</b>	- Alfafetoprotein
<b>KZLP</b>	- kam zichlikdagi lipoprotein
<b>MFK</b>	- multifaktorial (ko'p omilli) kasalliklar
<b>TTG</b>	- tireoid stimullahtiruvchi gormon
<b>PZR</b>	- polimeraza zanjir reaktsiyasi
<b>UTT</b>	- ultratovush tekshirishlar
<b>EDS</b>	- Elers - Danlo sindromi
<b>FKU</b>	- senilketonuriya
<b>TGM</b>	- tibbiy-genetik maslahat
<b>FISH</b>	- fluorescent gibridizatsiyasi
<b>XMT</b>	- xromosoma mikromatrik tahlili

## KIRISH

Pediatriya - yunoncha paid - bola, iatria - davolash so'zlaridan olingan bo'lib, bolalar organizmining homila sifatida paydo bo'lish davridan boshlab, tug'ilib, toki o'smirlik davrigacha bo'lgan oraliqdagi anatomo-fisiologik xususiyatlari, rivojlanishi va shu orada bo'ladigan kasalliklarning kechishining o'ziga xos xususiyatlarini hamda davolash va parvarish qilish jarayonidagi amaliy ko'nikmalarni bajarish yo'l-yo'rqlarini o'rgatadi. Demak, pediatriya -tibbiy davoning saqat bolalarga yo'naltirilgan sohasidir. Pediatriya o'z navbatida qiyin soha bo'lib, bo'lg'usi tibbiyat xodimlaridan o'ta qat'iy mas'uliyat, sabr-qanoat va matonat talab qiladi. Chunki bola tug'ilib rivojlanishi jarayonida, ayniqsa, 5-6 yoshlik davrigacha o'zida bo'layotgan o'zgarishlarni tartibli va tushunarli qilib bayon eta olmaydi. Ikkinchidan, boladagi aksariyat o'zgarishlarni o'ta sinchkovlik va kuzatuvchanlik hamda chuqur bilim asosidagina payqash va tegishli xulosalar chiqarish, shu asnoda bolaga zarur bo'lgan yordamni tanlash mumkin. Vaqtida tegishli xulosa chiqarilmasa va tayinli yordam ko'rsatilmasa, bolaning hayoti xavf ostida qolishi mumkin.

Zamonaviy tibbiyotning nazariy va amaliy rivojlanishi genetik usullardan keng foydalanish bilan xarakterlanadi. Bu albatta bir necha omillardan iborat. Birinchidan odam organlarining rivojlanishidagi individual qonuniyatlar haqida bilimlarning ko'payib borishi natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, postnatal davrda ma'lum bir tashqi muhit ta'siri natijasida ota-onadan olingan genetik omillar jinsiy xujayralar tomonidan shakllantiriladi.

Ikkinchidan odam patologiyasi strukturasidagi zamonaviy o'zgarishlar nasliy moyillik faktorlarining o'sib borayotgan rolini isbotlab bermoqda.

Uchinchidan multifaktorial kasalliklarning (yurak ishemik kasalligi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi, qandli diabet va hokazo)etiologiyasi va patogenezi o'rganib chiqilishi natijalari nasliy moyillik faktorlari bo'lganda ushbu kasalliklarning rivojlanishi aniqlandi.

To'rtinchidan ma'lumki patologiya bu patogen omil organizmning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan holat. Genetik jihatdan har bir inson takrorlanmas xususiyatga ega bo'lganligi tufayli bu o'zaro ta'sir ham individual tusga kiradi.

Ilmiy tibbiyot nafaqat umumiy organizm reaktsiyalarini o'rganmay, balki konkret individning spetsifik ko'rinishlarini ham o'rganadi, shundagina nasliy kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasiga yuqori yutuqlarga erishish mumkin. Ushbu darslikni yozishda mualliflar tibbiyot o'quv yurtlari o'quv rejalaridagi mavzularga asoslanib darslikda pediatriyada dolzarb bo'lgan bolalarning o'sish parametrlari, erta yoshdagи bolalarni to'g'ri ovqatlantirish va shu yoshda eng ko'p uchraydigan kasalliklar haqidа va klinik genetika asoslari, usullari, nasliy patologiya haqidа ma'lumot berishdi.

Darslikda mualliflar tomonidan nashr etilgan "Klinik genetika" darsligi, "Bolalarda uchraydigan eng ko'p somatik kasalliklar" o'quv qo'llanmasi, UNISEV va JSSTning malumotlaridan foydalanishgan.

## I BOB. 1.1. BOLANING O'SISHINI VA RIVOJLANISHINI BAHOLASH

Bolaning o'sishini baholash uning ovqatlanishi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va salomatligi to'g'risida muhim ma'lumot olish imkonini beradi. Bolaning o'sishini baholashning bir necha usuli bor, shu jumladan: yoshga nisbatan vazn, vaznni bo'yga nisbati va yoshga nisbatan bo'y ko'rsatkichlari. Avvallari ko'pchilik mamlakatlarda bolaning o'sishini baholash uchun ham, uning ovqatlanish statusini baholash uchun yoshga nisbatan vazn ko'rsatkichidan foydalanilgan. Ovqatlanish statusi ko'rsatkichi sifatida bunday baholashning o'z kamchiliklari bor. Berilgan yosh uchun tana vazni kam bo'lgan bola o'sishdan orqada qolishi va bu yosh uchun nisbatan normal tana vazniga ega bo'lishi mumkin (organizm tuzilishidan kelib chiqib). JSSTning o'sishni baholash normalariga ko'ra, bolalarning ovqatlanishi holatini baholashning standarti sifatida vaznning bo'yga nisbati ko'rsatkichi tavsiya etiladi. Shuningdek, o'g'il bolalar va qizlar uchun alohida standartlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bolaning jismoniy rivojlanish darajasi va surati ko'pgina omillarga bog'liq

**Genetik omillar:** 100 tadan ortiq genlar o'sish gormonlari va omillari sintezini boshqaradi

**Gormonal omillar:** STG, boshqa gormonlar (tireoid, jinsiy, insulin).

**Tashqi omillar:** Alimentar omillar, iqlim va geografik omillar, turmush tarzi, kasallanishlar

Jismoniy rivojlanishni baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi.

- Somatoskopik- konstitutsiya va tana tuzilishi proporsionalligini vizual baholash.
- Somatometrik- (antropometrik)- jismoniy rivojlanishning asosiy parametrlarini o'chash va baholash: tana vazni, bo'y, bosh va ko'krak aylanasи.
- Fiziometrik- asboblar yordamida o'pkaning tiriklik sig'imiini aniqlash, dinamometr yordamida kuchni o'chash.

## 1.2. Bolalarda antropometrik tekshiruv usullari

### Bo'yni o'chanash

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar yotgan holatda bo'yлari gorizontal rostomer yordamida o'chanadi. Bolani yelkasiga yotqizib, uning boshini rostomerning devoriga tekkizamiz. Boshni shunday fiksatsiya qilish kerakki ko'z kosasining pastki qirrasi tashqi eshitish yo'lining yuqori qirrasi bilan bitta vertikal tekislikda bo'lishi zarur. Bolaning tizzasiga astagina bosgan holatda oyog'ini tekislaymiz, rostomerning plankasini tovonga tekizamiz. Bolaning bo'yini rostomerning harakatsiz va harakatchan devori orasidagi masofaga teng.

2 yoshdan katta bo'lgan bolalar bo'yini vertikal rostomer yordamida o'chanadi. Bolalarni rostomerga orqasi bilan joylashtiriladi, bolaning to'pig'i, dumg'aza, kuraklar orasi, ensasi rostomerga tegib turishi lozim. Boshni shunday tekislash lozimki ko'z kosasining pastki qirrasi va tashqi eshitish yo'lining yuqori qirrasi bitta gorizontal tekislikda bo'lishi kerak. Harakatlanuvchi plankani boshiga tekkizamiz. ( 1- rasm)



1-rasm.

### Aylanalarni o'chanash

Bosh aylanasi santimetrlı lenta bilan o'chanadi. U qoshlar ravog'i va ensa sohasidan o'tishi zarur, lentani biroz tortiladi.

### Ko'krak qafasi aylanasini o'chanash.

Ko'krak qafasi aylanasi 3 marta o'chanadi- bola tinch holatda nafas olayotganda, nafas olish cho'qqisida va maksimal nafas chiqarayotganda. Santimetrlı lentani orqa tomondan kurak qirralari sohasiga qo'llari ikki tomonga yozilgan holatda qo'yildi, oldindan esa ko'krak uchi ustidan o'chanadi (2, 3 rasm).



2- rasm



3-rasm

### Tana vaznini o'chanash

Ko'krak yoshidagi bolalarning tana vazni maxsus bolalar uchun elektron tarozida o'chanadi. (10 kggacha tana vaznini o'chanadigan tarozining 1 grammgacha aniqlikdagi bo'lishi tavsiya etiladi) (4- rasm).



4- rasm

Katta yoshdagagi bolalarning tana vazni och qorinda 50 grammgacha aniqlikda tibbiy tarozida o'chanadi.

### Bo'yni baholash

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bo'y 48-52 sm, 1 jadvalda 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'rtacha bo'y uzunligi ko'rsatilgan. (Jadval 1)

Jadval 1.

#### *I yoshgacha bo'lgan bolalarning bo'y uzunliklari*

Bola yoshi, oylarda	Bo'y uzunliklari, sm	
	1 oyda	kvartalda
0-3	3	9
4-6	2,5	7,5
7-9	1,5-2	4,5-6
10-12	1	3

1 yil ichida bolaning bo'y 12-13 smga o'sadi. 1-yoshinig oxirida 75-77 smni tashkil qiladi. 2-yilda bo'y 12-13 smga o'sadi, 3 yoshda 7-8smga.

1 yoshdan katta bo'lgan bolalarning bo'yini aniqlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin- 4 yoshda yangi tug'ilgan chaqaloqning bo'y 2 marta o'sadi va o'rtacha 100smni tashkil etadi. Agar bola 4 yoshdan kichik bo'lsa bo'y 100-8(4-n). Agar 4 yoshdan katta bo'lsa 100+ 6(n-4) formulalari asosida aniqlanadi.

8 yoshda bo'y 130smni, 12 yoshda bolaning bo'y tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 3 karra ortadi va 150 smni tashkil etadi.

10-12 yoshdan bo'y o'sish tezlashadi, o'g'il bolalarda 13,5-15,5 yoshda, qiz bolalarda esa 10-12 yoshda maksimumni tashkil etadi.

Bo'y cho'zilish vaqtida tana uzunligi o'rtacha 1 yilda 8-10 smga o'sadi. Bu jarayon individual va konstitutsional xususiyatga bog'liq. Bo'y o'sishi o'g'illarda 18-19 yoshlarda tugaydi, qizlarda esa 16-17 yoshlarda.

### Bosh aylanasini baholash

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bosh aylanasi 34-36 smni tashkil etadi, uning o'sishi 2 jadvalda keltirilgan. 1 yoshda bosh aylanasi o'rtacha 46 smni, 5 yoshda 50 smni, 10 yoshda 55 smni tashkil etadi. Bola hayotining 1 yilida bosh aylanasining o'sishi 2 jadvalda berilgan.

Jadval 2.

#### *Bola hayotining 1 yilida bosh aylanasining o'sishi*

Yoshi, oylarda	Bosh aylanasining o'sishi	
	1 oyda	1 kvartalda
0-3	2	6
4-6	1	3
7-12	0,5	1,5

## Ko'krak qafasi aylanasining bosh aylanasiga nisbati

Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh aylanasi (34-36 sm), ko'krak qafasi aylanasiga (32-34 sm) nisbatan 1-2 smga ko'proq. 3-4 oylikda bu parametrlar tenglashadi. 1 yoshning oxirida ko'krak qafasi aylanasi bosh aylanasidan 1-2 sm ga ustun turadi. 1 yoshdan so'ng ko'krak qafasi aylanasi bosh aylanasidan n dan 2n gacha ortiq bo'ladi, bu erda n bolaning yoshi.

## Tana vaznnini baholash

Muddatida tug'ilgan chaqaloqning vazni 3200-3500g ni tashkil etadi. 3-4 kun ichida vazni 5-6%ga kamayadi. Fiziologik vazn tashlash ro'y beradi. Bola hayotining 7-10 kunlarida ushbu tanqislik tiklanadi, so'ng vazn to'xtamay o'sadi.

### Vaznning har kunlik oshishi:

- Xayotining birinchi 3 oyida -23-30 g;
- 4 oydan 6 oygacha - 20-25 g

### O'rtacha har oyda tana vazni oshishi quyidagicha:

- Birinchi yarim yillikda- 800 g
- Ikkinci yarim yillikda- 400 g

Hayotining birinchi yarim yilligida bolalarning me'yoriy vazninining taxminiy hisobi quyidagi formula asosida aniqlanadi: 6 oylik bolaning vazni 8200g ga teng, har bir etmaydigan oyga 800 g dan ayriladi.

Sog'lom bola 6 oyda o'rtacha 4300 g vazniga oshadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilligida bolalarning me'yoriy vazninining taxminiy hisobi quyidagi formula asosida aniqlanadi: 6 oylik bolaning vazni 8200g ga teng, keyingi har bir oyga 400 g qo'shiladi (12 oylikgacha).

Keyinchalik bolaning tana vazni o'rtacha quyidagicha o'sadi:

- hayotining 2 yilida- 2,5 kg;
- hayotining 3 yilida -2 kg;
- 3-10 yoshda –har yilda 2 kg ga;
- 10-15 yosh –har yilda 3-4 kg ga.

2-11 yoshli bolalarning tana vaznnini aniqlashda quyidagi formuladan foydalilanadi:

**Tana vazni (kg)= $10,5 + 2n$**

n-bolaning yoshi, 10,5 bu 1 yoshli bolaning o'rtacha tana vazni.

3 yoshdan katta bo'lgan bolalarning o'rtacha taxminiy vazni quyidagicha bo'ladi:

- 7 yoshli bolaning bo'yni 125 sm, vazni 25 kg bo'ladi
- yetmaydigan har 5 smiga 25 kg dan 2 kg ayiramiz
- ortiqcha har 5 sm ga 25 kg ga 3 kg qo'shamiz.balog'at yoshidagi bolalar uchun 3.5 kg qo'shamiz.

Shunday qilib o'sayotgan bolaning vazni quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

- 1 yoshning oxirida bolaning vazni 3 karra oshadi
- 6-7 yoshda bolaning tana vazni 2 karra oshadi
- 11-12 yoshda bolaning tana vazni 3 karra oshadi

### **Antropometrik ko'rsatkichlarni baholash**

Antropometrik ko'rsatkichlar quyidagi metod asosida baholanadi:

- parametrik (sigmal) usul
- noparametrik (sensil usul)
- regressiv analiz usul
- TVI ni aniqlash yordamida

### **Parametrik usul**

Bu usul ko'rsatkichlarning o'rta arifmetik( $M$ ) qiymatini hisoblashda asoslangan og'ish ( $\sigma$ ) va ularning o'rtacha kvadrat yoshi va jinsiga mos guruhlarga nisbatan baholanadi. Quyidagi baholash kategoriyalari mavjud:

- I — o'rtacha ( $M \pm a$ ).
- II — o'rtadan past ( $M - 1a$  dan  $M - 2a$  gacha).
- III — past ( $M - 2a$  dan  $M - 3a$  gacha).
- IV — o'rtadan yuqori ( $M + 1a$  dan  $M + 2a$  gacha).
- V — yuqori darajada ( $M + 2a$  dan  $M + 3a$  gacha).
- VI — juda yuqori /past ko'rsatkichlar ( $3a$  dan yuqori/ past).

Vrach xulosasi belgilar rivojlanish ko'rsatkichlaridan tashqari uning garmonik o'sishi, sigmal og'ishlar 1 a dan ko'p bo'lmasligini ham e'tiborga olish kerak. Parametrik usuldan bolaning o'sishda buzilishlar aniqlanganda foydali hisoblanadi.

### **Noparametrik usul**

Bu usul sentil tipidagi jadvallarni qo'llanishiga asoslangan. Jadval asosida bolaning ko'rsatkichlari qaysi oraliqqa to'g'ri kelishini aniqlash lozim (bo'yni, vazni, ko'krak qafasi aylanasi).

Bolaning bo'yni, vazni, ko'krak aylanasi kabi ko'rsatkichlarini baholagandan so'ng sentil jadvali asosida qaysi koridorga kirganligiga qarab uning jismoniy rivojlanishi aniqlanadi.

**Xulosa:**

- 0-2 garmonik rivojlanish
- 3 – disgarmonik rivojlanish
- 4-7 o'ta disgarmonik rivojlanish.

**Tana vazni indeksi**

Tana vazni indeksi (TVI) yoki indeks Ketele butun dunyoda garmonik rivojlanishning eng yaxshi ko'rsatkichi hisoblanadi. Quyidagi formuladan iborat:

$$\text{TVI} = \text{Vazn (kg)} / \text{bo'y (m)}^2$$

Turli yosh uchun tana vazni indeksi ko'rsatkichlari 3 jadvalda keltirilgan.

Jadval 3.

*Turli yosh uchun tana vazni indeksi ko'rsatkichlari.*

Yoshi	O'g'il va qizlar	O'g'illar	Qizlar
6-8	16		
9-10	17		
11	18		
12	19		
13-16		20	
17		21	
18-19			20
15-17			21

Tana vazni ortiqcha bo'lishini aniqlash zaruriy ko'rsatkichga 2 shartli belgi qo'shiladi. Masalan, 6-8 yoshli bolalarda ortiqcha vazn 18 ( $16+2$ ), 9-10 yoshli bolalar uchun 19 ( $17+2$ ) dan boshlanadi va hokazo.

Ortiqcha vazn «1» bilan, qolgan hollarda «2» bilan baholanadi.

Bola jismoniy rivojlanishini sifat baholash undagi ma'lum muddatlarda aniqlangan ketma-ket o'lchashlarni tahlil qilib o'tkaziladi.

- 1 yoshgacha (har oy)
- 3 yoshgacha (kvartalda 1 marta)
- 3-7 yosh (yilida 2 marta)
- 7-17 yosh (yilida 1 marta)

**Yoshga nisbatan vazn**

Yoshga nisbatan vazn bolaning ma'lum kundagi yoshiga nisbatan tana vazni ko'rsatkichini aks ettiradi. Keyingi o'lchab ko'rishlar vaqt o'tishi bilan bolaning vazni ortayotganini (yoki ortmayotganini) ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ham bu ko'rsatkich o'sishning

muhimi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bola vazni normadan past yoki ancha past ekanligini baholash uchun qo'llaniladi, lekin u bolani ortiqcha vaznli yoki semirgan sisatida tashxislashda ishlatalmaydi. Vaznni o'lhash nisbatan oson mumkin bo'lgani uchun bu ko'rsatkich keng qo'llaniladi, lekin bolaning yoshini aniq belgilashning imkoniy yo'q vaziyatlarda bu ushubga to'liq ishonib bo'lmaydi. Berilgan yosh uchun tana vaznining kamligi (oriqlik) aholining, shu jumladan bolalar alimentar salomatligi holatini aks ettiruvchi kam ovqatlanishning (to'yib ovqatlanmaslik) birlinchi belgisidir. Belgilangan yosh uchun tana vaznining kamligi, vaznning qo'shilmayotgani yoki vazn yo'qotilayotganining natijasi hisoblanadi. Vazn tez ko'payishi, ko'payishdan birdan to'xtashi va o'tkir va/yoki surunkali ovqat yetishmasligini kasallikni (to'g'ri ovqatlanmaslik, diareya, o'tkir nafas infeksiyalari, qizamiq va boshqalar) qo'shilganligini ko'rsatishi mumkin. Shuni qayd etish lozimki, ovqatlanish buzilganida tana vazni boshqa parametrlardan oldin o'zgaradi, bo'yning sekinlashishi va to'xtashi uchun esa ancha ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun ham bolaning tana vaznini kuzatib borish, ayniqsa chaqaloqlik paytida juda muhim ahamiyatga ega.

#### Tana uzunligi/ bo'yga nisbatan tana vazni

Erta yoshdagи bolalar ovqatlanishi holatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri berilgan bo'yga nisbatan vazn kamligining (oriqlik) tarqalganligidir. Bu ko'rsatkich bolaning ayni vaqtida ovqatlanish holatini ko'rsatadi. Berilgan bo'yga nisbatan kam tana vazn – yoki tana vaznining ortmayotganidan, yoki uning kamayayotgani natijasi hisoblanadi. Vazn tez qo'shishi, vazn qo'shishdan birdan to'xtashi va og'ir darajadagi oziqlanishning buzilganligini ko'rsatadi. Bo'yga nisbatan tana vazni berilgan yoshga nisbatan tana vaznidan ko'ra aniqroq ko'rsatkich hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, alimentar davolash va reabilitatsiyaga muhtoj bolalarni aniqlashda bu ko'rsatkich ko'proq ishonchlidir. Bu ko'rsatkich vazn-bo'y indeksi (VBI) hisoblanib, quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

$$VBI = \frac{\text{Bolaning tana vazni, kg}}{\text{Tana uzunligi / bo'y m}^2}$$

Vazn-bo'y indeksi kilogrammdagi tana vaznining kvadrat metrdagi yotgan holda tana uzunligiga (2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) yoki tik turgan holda bo'yiga (2 yoshdan katta bolalar uchun) nisbatini

ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich ayniqsa bolaning yoshi noma'lum bo'lgan vaziyatlarda (masalan, qochoqlar lagerida) juda qo'l keladi. Bolaning vazni-tana uzunligi/bo'y diagrammasi oziqlanishning turli darajadagi oqsil-energetik yetishmovchiligi (oriqlik) bor, kam vaznli va past bo'yli bolalarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu diagrammalar ortiqcha vaznli yoki semiz bo'lgan, yuqori vazn-tana uzunligi/bo'yli bor bolalarni ham aniqlashga yordam beradi. Yoshga nsibatan tana uzunligi/bo'y erta yoshdagи bolalar ovqatlanishi holatining asosiy ko'rsatkichlaridan yana biri bo'y o'sishining kechikishidir (berilgan yoshga nisbatan bo'yning pastligi). Bo'y o'sishining orqada qolishi suyak tizimi rivojlanishining kechikishi natijasida kelib chiqadi. Umuman olganda, u surunkali jarayonni aks ettiradi va surunkali to'yib ovqatlanmaslik ko'rsatkichi sisatida soydalanadi. Bo'y o'sishining kechikishi ko'pincha qisqa muddat ichida – tug'ilgandan keyingi bir necha oydan taxminan 2 yoshgacha sodir bo'lishi mumkin. Bu bolaga qo'shimcha ovqat berish vaqtiga to'g'ri keladi. Yelka aylanasi Yosh bolalarda yelka aylanasining 115 mm dan kam bo'lishi to'yib ovqatlanmaslik og'ir shaklining ko'rsatkichidir.

## II. BOB. BOLALARNI OVQATLANTIRISH.

### 2.1. Bolalarni tabiiy, sun'iy va aralash ovqatlanadirish.

#### Ko'krak suti bilan emizib boqishning afzalliklari

Ko'krak suti emizikli bolalar uchun eng yaxshi ozuqa hisoblanadi, unda hayotning ilk 6 oyi davomida bola uchun zarur bo'lgan barcha ozuqa moddalari mavjud. Ko'krak suti bilan emizib boqishning bola uchun ham, ona uchun ham qator afzalliklari mavjud. Ko'krak sutidagi ozuqa moddalari bola ehtiyojini qoplash uchun yetarli darajada bo'ladi. U sigir suti yoki sut aralashmasiga qaraganda organizm tomonidan ancha yengil hazm qilinadi. Sigir sutiga bo'lgan allergiya sun'iy sut bilan emizilgan bolalarda, ko'krak suti bilan emizilgan bolalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Ona sutida allergenlar kuzatilmaydi. Ona sutining o'sish va rivojlanish omillari bola ichagini shilliq qavvati yetilishiga yordam beradi va uni oqsillar o'tib ketishi uchun chidamliroq qiladi. Oqsil moddalarning so'riliishi kamayishi yo'li bilan allergik reaksiyani oldini olish mumkin bo'ladi.

Muddatidan avval tug'ilgan bolaning ona sutida, muddatiga yetib tug'ilgan bola ona sutidagiga nisbatan oqsil va tuzlar miqdori ko'proq bo'ladi, bu esa muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarni ko'proq bo'lgan ehtiyojlarini qoplash uchun xizmat qiladi. Ona sutidagi oqsilning katta qismi – zardobli proteindir. U sigir sutida ko'p bo'lgan kazeinga qaraganda yengilroq hazm bo'ladi. Ona sutidagi yog'lar yengil hazm bo'ladigan yog' kislotalariga boy bo'ladi. Ona suti rux va temir kabi mineral moddalarning so'riliшини оsonlashtiradi. Ona sutida sigir sutiga nisbatan linolen kislotosi 8 marta ko'pdir. Linolen kislotosi bolalarning me'yorida o'sishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Ona sutida oqsil va mineral moddalar sigir sutiga nisbatan kam, lekin u chaqaloq ehtiyojini qondirish uchun yetarli darajadadir. Bunday moddalarning ortiqchasi buyrak orqali chiqarilgani uchun ko'krak suti bilan emizib boqiladigan chaqaloqlarda buyrakka kamroq yuk tushadi. Laktatsiya jarayonida ona sutidagi yog' miqdori farqlanadi. Uning miqdori emizishning oxirida ko'tarilib, chaqaloqda to'yinish hissini hosil qiladi. Bunday xususiyat ortiqcha ovqatlanish va semirishni oldini oladi, degan farazni yuzaga keltiradi. Ona sutida sigir suti yoki sun'iy sutga qaraganda ~~colesterol miqdori yuqori~~. Bu yog' yig'ilishining oldini olish uchun ferment tizimini tezlashtiradi. Ona sutida laktoza miqdorining ko'pligi tulayli kalsiyning

ichakda so'rilishi yaxshilanadi. Shuningdek, lakteza ichakda sut kislotasi hosil qiladigan bakteriyalar ko'payishi va ichak florasi shakllanishiga yordam beradi. Ona suti yana hazm qilishni yengillashtiradigan amilaza va lipaza kabi fermentlarga boy. Ona sutida sigir sutiga qaraganda A va S vitaminlari miqdori yuqori.

Adabiyotlarda bola hayotining dastlabki 6 oyi davomida faqat ko'krak suti bilan emizib boqish bolalarning kasallanishi va o'lim holatlarini kamaytirishiga olib keluvechi ko'plab dalillar mavjud. Immun tizimini faoliyatini yaxshilash ko'krak suti bilan emizib boqishning infeksion kasalliklarga qarshi himoya samarasining aksariyati passiv hisoblanadi, ya'ni ko'krak sutidagi immunitetning himoya qiluvchi omillari oshqozon-ichak trakti, hamda nafas olish yo'llari shilliq qatlamining yuza qismini himoyalaydi va bu bilan infeksiya yuqishi xavfini kamaytiradi. Lekin shu bilan birga, ko'krak suti bolaning immun tizimiga faol ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar ham bor. To'rt oylik yoshda ko'krak suti bilan emizib boqiladigan bolaning qalqonsimon bezi sun'iy ovqat bilan oziqlantiriladigan bolaniqiga nisba-tan ikki marta katta bo'ladi, bundan tashqari, ko'krak suti bilan emizib boqiladigan bolalarda sut aralashmasi bilan ovqatlanadigan bolalarga nisbatan ba'zi emlashlarga ta'siri yaxshiroqdir. Shuningdek, infeksiyalarga qarshi himoya faoliyati ko'krak suti bilan emizish to'xtatilgandan keyin ham uzoq yillarda saqlanib qolishi to'g'risida ham ma'lumotlar ko'p. Ona ko'krak sutida bolaning o'z immun tizimini yaxshilashga javob beruvchi omil noma'lum, lekin bunday o'rinni B-limfotsitlar va T-limfotsitlar, antiideo-tipik antijismilar, sitokinlar va o'sish omillari o'ynashi ehtimoldan holi emas. Surunkali kasalliklar Ko'krak suti bilan emizib boqishning bolalarda rivojlanadigan surunkali kasalliklarga ta'sirini o'rganish borasidagi tadqiqotlar retrospektiv yo'nalishida chegaralaniladi xolos. Insulinga bog'liq bo'lgan qandli diabet va ko'krak suti bilan emizib boqish o'rtasida teskari bog'liqlik borligi haqida ma'lumotlar ham mavjud. Insulinga bog'liq bo'lgan qandli diabet autoimmun kasallik hisoblanadi, balki ko'krak suti bilan emizish bolaning immun tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatar. Erta yoshda (4 oygacha) sigir suti oqsillarining organizmga kirishi insulinga bog'liq bo'lgan qandli diabetning erta rivojlanishini kuchaytirishi ham mumkin. Adabiyotlardan ko'krak suti bilan emizib boqish bilan Kron kasalligi, nospesifik yarali kolit va leykemiya kasalliklaridan himoya qilishi mumkin, degan farazni tasdiqlovchi ayrim ma'lumotlar bor.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bolaning qabul qilish faoliyatini baholash natijalari ko'krak suti bilan emizib boqilgan bolalarda sun'iy sut bilan boqilgan bolalarga nisbatan o'rtacha 2, 3 daraja yuqoridir. Ko'krak suti bilan emizib boqish ona uchun ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli afzallikkarga ega. Chaqaloq tug'ilgan zahoti uni ko'krakka to'g'ri tutish tufayli tug'ruqdan keyingi qon ketish havfi kamaytirilishi mumkin. Emizayotgan onalarda ko'krak bezi va tuxumdon saratoni rivojlanishi havfi kamroq bo'lishining tobora ko'proq isbotlari paydo bo'lmoqda. 6 oy mobaynida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish 1984 yilda mayjud tadqiqotlar natijalarining tahlili 0-6 oylarda diareyadan o'lim havfi ko'krak suti bilan qisman emizilgan bolalarda istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilgan bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, istisnosiz ko'krak suti bilan emizilgan bolalarda diareya ko'rsatkichi o'rtacha 8,6 foizni tashkil etdi, shu bilan birga istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqishning ko'krak suti bilan qisman emizib boqishga nisbatan afzalliklari yuqori ekanligi aniqlandi. Ko'krak suti iste'mol qilmagan bolalarda istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilgan bolalarga nisbatan kasallikni rivojlanish havfi 25 marta yuqoriligi kuzatildi. 1987 yilda Braziliyada o'tkazilgan tadqiqot natijalarida, ko'krak suti bilan qisman emizib boqilgan bolalarda istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilganlarga nisbatan 4,2 marta o'lim havfi yuqori bo'lganligi, ko'krak sutining bolaga umuman berilmasligi holatida esa bu havf 14,2 marta yuqori bo'lishi kuzatilgan. Keyinchalik Bangladesh poytaxti Dakkada o'tkazilgan tadqiqot bola hayotining ilk to'rt oyida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish ko'krak suti bilan qisman emizib boqishga nisbatan diareya va pnevmoniyanidan o'lim holati uchdan bir qismiga kam bo'lishini ko'rsatgan.

Aniqlanishicha, 6 oy davomida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish 3 va 4 oy davomida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqishga nisbatan diareya va nafas yo'li kasalliklari havfini kamaytirgan. Agar ko'krak suti bilan emizib boqish texnikasi qoniqarli bo'lsa, bola hayotining ilk 6 oyi davomida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish bolalarning aksariyatida energiya va ozuqaga bo'lgan ehtiyojning qondirilishini ta'minlaydi. Boshqa hech qanday ovqat yoki suyuqlikka ehtiyoj bo'lmaydi. Tadqiqotlar natijalarining taxlili ko'rsatishicha, agarda sog'lom chaqaloqlar hayotining ilk 6 oy davomida, istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilsa, hatto issiq iqlimda ham ular qo'shimcha suvg'a ehtiyoj sezmaydilar. Ko'krak suti 87-93 foizi suvdan iborat bo'lib, u

bolaning chanqog'ini qondirish uchun yetarli. Qo'shimcha suyuqlik berilishi ko'krak suti bilan ovqatlanishning kamaytirilishiga olib keladi. Shunga qaramay, ko'pchilik bola hayotning birinchi haftalaridanoq chaqaloqlarga suv va choy beradilar. Bunday amaliyot bolada diareya rivojlanishi havsfining ikki marta ortishiga olib kelishi mumkin. Fertillikka erta qaytishni oldini olish, hamda homiladorlikkacha bo'lgan vaznni tez tiklash maqsadida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish ona uchun bo'lgan afzalliklaridan yana biri hisoblanadi. Tez-tez va istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqadigan ayollarda tug'ruqdan keyingi birinchi 6 oy davomida, amenoreya saqlangan xolatda homilador bo'lish havfi 2 soizga kamayadi 6 oydan boshlab qo'shimcha ovqat berish 6 oydan boshlab chaqaloqning energiya va ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyoji ona suti bilan ta'minlanadigan moddalardan yuqori bo'la boshlaydi va yetishmayotgan energiya va ozuqa moddalari o'srnini to'ldirish uchun qo'shimcha ovqat berish zarurati tug'iladi. Agar bu yoshda qo'shimcha ovqat berilmasa yoki u noto'g'ri berila boshlansa, bu chaqaloqning o'sishi va rivojlanishi salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'plab mamlakatlarda qo'shimcha ovqat berish davri 6-23 oylarni tashkil etadi – bu davr bolani o'sishdan to'xtagan, mikronutrientlarning yetishmovchiligi mavjud bo'lgan va infektion kasalliklar paydo bo'lishi ko'paygan davrdir. Qo'shimcha ovqat berish boshlagandan so'ng ham ko'krak suti bilan emizib boqish chaqaloq va bola uchun ozuqa moddalarining muhim manbai bo'lib qolaveradi. U bir yoshgacha bo'lgan bolaga zarur bo'lgan energiyani taxminan yarmini, ikkinchi yildagi bolaga zarur bo'lgan energiyani uchdan bir qismini yetkazib beradi.

Ko'krak suti bilan emizib boqish qo'shimcha ovqatga nisbatan yuqori sisatli ozuqa moddalarini yetkazib turishda davom etadi va himoya omillarini mustahkamlaydi. Shu tufayli ham, ko'krak suti bilan emizib boqish qo'shimcha ovqat berish bilan birga 2 yosh va undan ko'p muddatgacha davom ettirilishi tavsiya etiladi. Qo'shimcha ovqat bolaning energiya va ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida oziqlanish xususiyatlari bo'yicha munosib bo'lib, xavfsiz bo'lishi va to'g'ri tarzda berilishi kerak. Shunga qaramay, qo'shimcha ovqat berish mahsulotini o'ta suyultirilishi, chaqaloqni tez-tez va yetarli miqdorda ovqatlantirmaslik, past sisatli mahsulot berish kabi muammolar tez-tez uchrab turadi. Ovqatning o'zi kabi uni berish usuli ham qo'shimcha ovqatlantirish jarayoniga ta'sir qiladi, shu sababli ham onalar va ham

bolani boquvchilar qo'shimcha ovqatni to'g'ri berish bo'yicha qo'llab-quvvatlashga va to'g'ri maslahatlarga muhtojdirlar.

## 2.2. Ko'krak suti bilan emizib boqishning fiziologik asoslari

### Ko'krak suti tarkibi

Ko'krak suti tarkibida chaqaloq hayotining ilk 6 oyida zarur bo'lgan barcha ozuqa moddalari – yog'lar, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, mikronutrientlar va suv bor. U yengil hazm bo'ladi va samarali foydalilaniladi. Ko'krak sutida shuningdek chaqaloqning infeksiyaga qarshi himoyasini ta'minlovchi immun tizimini mustahkamlaydigan biologik faol komponentlar, hamda ozuqa moddalarini hazm qilish va singishiga yordam beradigan boshqa komponentlar mayjud.

Yog'lar. 100 ml ko'krak suti tarkibida taxminan 3,5-4,2 g yog' bo'lib, bu sutning taxminan yarim energetik quvvatini ta'minlaydi. Yog' mayda tomchilarga ajralib chiqadi va uning miqdori emish jarayonida ortib boradi. Natijada emishning oxiriga kelganda sut yog'ga boy bo'lib, qaymoq-oq rangga kiradi. Bola hayotining ilk kunlarida emadigan og'iz sutda yog' kam bo'ladi va uning rangi nimhavorang-kulrang bo'ladi. Ko'krak suti tarkibida uzun zanjirli to'yinnagan yog' kislotalari (dezoksigekson kislotosi DGK va araxidon kislotosi ARK) bo'lib, ular faqat ko'krak suti tarkibida bo'ladi. Bu yog' kislotalari bolaning asab tizimi rivojlanishi uchun muhim hisoblaniladi. DGK va ARKnii bolalar qo'shimcha ovqatlarining ba'zi turlariga qo'shiladi, lekin bu ko'krak suti bilan solishtirilganda hech qanday foydaga ega emas va ko'krak sutidagiday samarali emas.

Uglevodlar. Ko'krak sutida uglevodlarning asosiy turi lakteza bo'lib, uning hissasiga sut kaloriyasining taxminan 40 foizi to'g'ri keladi. 100 g ko'krak sutida taxminan 7 g lakteza bo'lib, bu miqdor sutning boshqa turlariga qaraganda ko'pdir va yana bir muhim energiya manbai hisoblanadi. Lakteza epitely tarkibida bo'lgan laktaza ta'sirida ingichka ichakda hazm bo'ladi va so'rildi (>90%). Hazm bo'limgan lakteza yo'g'on ichakka o'tib, u yerdagi mavjud bakteriyalar ta'siridagi fermentatsiya natijasida qisqa zanjirli yog' kislotosi va laktatga aylanadi, ular esa o'z navbatida so'rilib energiya ishlatalishiga o'z hisssasini qo'shadi hamda yo'g'on ichakda kalsiy so'riliishini yaxshilash orqali yo'g'on ichakda PHni kamaytiradi. Lakteza laktobatsillalar o'sishiga ko'maklashadi va yo'g'on ichakda gastroenteritdan himoyalovchi qulay

flora rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Ko'krak sutida mavjud bo'lgan boshqa uglevod turi oligosaxaridlardir, ular bola organizmini virus, bakteriyalar va ularning toksiniga qarshi himoya bilan ta'minlaydi va yo'g'on ichak florasi, shu jumladan, bifidobakteriya kabi probiotik ta'sirga ega bo'lishi mumkin bo'lgan shtammlar o'sishiga ko'maklashadi.

Oqsil. Ko'krak suti oqsili hayvonlar sutidan ham miqdori, ham sifati bo'yicha farq qiladi va unda bolaga mos keladigan aminokislotalar balansi mavjud. Ko'krak sutida oqsil konsentratsiyasi (100 mlda 0.9 g) hayvonlar sutidan ko'ra kamroq. Hayvon suti tarkibidagi oqsil miqdorining nisbatan ko'pligi chaqaloqning yetilmagan buyragiga azot chiqindilari bilan ortiqcha yuk bo'lishi mumkin. Ko'krak sutida kazein – oqsili kam bo'lib, u boshqa sut emizuvchilar sutidagi kazeinidan farqlanadi va bola uni oson hazm qilishiga imkon beradigan kimyoviy xususiyatlarga ega. Ko'krak sutidagi oqsillarning asosiy qismini alfa-laktalbumin va laktoserrin tashkil etadi – ular emizikli bola uchun juda kerakli aminokislotalarning asosiy manbai hisoblanadi. Sigin suti tarkibida ko'krak sutida uchramaydigan va chaqaloqlar hazm qila olmaydigan beta-laktoglobulin bor. Vitaminlar va minerallar. Bolaning me'yorida rivojlanishi uchun xatto juda past ovqatlanish statusiga ega ayolning ham organizmi yetarli miqdor va tarkibda sut ishlab chiqaradi. Lekin, ko'krak suti tarkibidagi mikronutrientlarining optimal tarkibi va emizikli bolaning optimal mikronutrientlarni qabul qilishi onaning normal ovqatlana olish imkoniga bog'liq. Emizikli bolada yoki onada mikronutrientlar yetishmasligi havfini, hamda onaning qo'shimcha moddalar olishi ko'krak suti tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatishini prognoz qilish va qo'shimcha tegishli choralarни ko'rishni rejalashtirish maqsadida ko'krak sutidagi mikronutrientlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

Ona ovqatlanish darajasining pastligi sutdag'i ozuqa moddalari tarkibiga ta'sir ko'rsatadi, ularning ko'krak suti tarkibida kam bo'lishi bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ozuqa moddalari aksariyatining bola organizmida zahirasi kam bo'lib, tez tugaydi, natijada bolaning bu moddalarning ko'krak suti va/yoki qo'shimcha ovqat orqali kelishiga qaramligi oshadi. Ko'krak sutidagi konsentratsiya onaning ovqatlanish sifati yaxshilanishi bilan tez tiklanishi mumkin. Onaning bu mikronutrientlarni (qo'shimcha ovqat bilan birga) iste'mol qilishi va ularning ona organizmida yetishmasligi ko'krak suti tarkibidagi miqdoriga kam ta'sir qiladi. - Laktatsiya paytida onaning bu ozuqa

moddalar qo'shimchalarini iste'mol qilishi boladan ko'ra onaning o'ziga foydali bo'ladi.

Ko'krak suti tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlar, ularning ona iste'mol qiladigan ovqatda bo'l shiga bog'liq, yog'da eriydigan vitaminlarni esa bog'liqligi darajasi kamroq. Odatiy vitaminlar, hatto onaning o'zi uchun yetarli bo'l magan taqdirda bo'lsa ham, ko'krak sutning tarkibida bola uchun yetarli miqdorda bo'ladi. Bundan D vitaminini istisnodir. Endogen D vitaminini ishlab chiqarish uchun chaqaloq ultrafiolet nurlariga boy quyosh nuri ta'sirida bo'l shi yoki, buning imkonni bo'lmasa, qo'shimcha sifatida qabul qilishga muhtojdir. Temir va rux minerallari ko'krak sutida nisbatan kam miqdorda mavjud, biroq ularni organizm tomonidan qabul qilinishi va so'rilib imkon katta. Onada temir yetarli miqdorda bo'lsa, muddatiga yetib tug'ilgan chaqaloqlarda o'z ehtiyojini qondirish uchun yetarli temir zahirasi bo'ladi; kam vazn bilan tug'ilgan chaqaloqlarga esa istisnosiz ko'krak suti bilan 6 oygacha qo'shimcha temir kerak bo'l shi mumkin. Istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolalarda klinik belgili mikronutrientlar yetishmasligi birinchi 6 oyda kamdan-kam uchraydi.

Agar onada homiladorlik va laktatsiya paytida mikronutrientlar miqdori qoniqarli bo'lsa, istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan 6 oygacha bo'lgan bolalarga qo'shimcha vitamin va minerallar berishga hojat yo'q. Agar mikronutrientlar yetarli bo'lmasa, onaning ovqatlanishi yaxshilanishi, hamda qo'shimcha vitamin va minerallar qabul qilishi ijobjiy natijaga olib keladi, shu bilan birga ham ona, ham bola uchun foydali bo'ladi. Infeksiyaga qarshi omillar ko'krak sutida mikrobga qarshi omillar va hali yetuk bo'l magan immun tizimini mustahkamlovchi va hazm qilish tizimini himoya qiluvchi boshqa moddalar bor, ular infeksiyalarga qarshi, shu jumladan, oshqozon-ichak tizimi va nafas yo'llari infeksiyalariga qarshi himoyani shakllantiradi. Ko'krak sutidagi asosiy immunoglobulinlar sekretor immunoglobulin A va laktoferrindir. Sekretor immunoglobulin A ichak epiteliysini ichak bo'shlig'idagi antigenlardan himoya qiladi va chaqaloq immun tizimini yaxshilaydi. Laktoferrin temirni bog'lovchi oqsil bo'lib, temir uchun bakteriyalar bilan raqobatga kirishadi va bakteriyalar yashovchanligini kamaytirish orqali oshqozon infeksiyalari, shu jumladan, Escherichia coli va Staphylococcus spp bakteriyalari tarqalishi xavfini kamaytiradi. Sanoatda ishlab chiqariladigan sut aralashmalarida yoki qo'shimcha ozuqada bunday immunologik omillar yo'q. Shuning uchun ham sun'iy ovqat bilan

parvarishlanayotgan bolalar infeksiyalardan kamroq himoyalangan bo'ladi. Ko'krak sutida hazm qilish tizimini himoyalash va uning mustahkamlanishida ishtirot etishi mumkin bo'lgan yana boshqa ko'plab himoya va trofik omillar bor Ko'krak sutida mavjud bo'lgan ba'zi himoyaviy va biologik faol omillar Sekretor immunoglobulin A Ichak epiteliysini ichak bo'shlig'idagi antigenlardan himoya qiladi va chaqaloqning immun tizimini yaxshilaydi. Laktosferrin Temir uchun bakteriyalarga qarshi raqobatga kirishadi. Lizotsim Bakteriyaga qarshi ferment: hujayra devorlarida lizis hosil qiladi Bisidus- faktor yo'g'on ichakdagagi bifidobakteriyalar kabi sut kislota hosil qiladigan bakteriyalarni shakkantiradi Makrofaglar bakteriyalarni yutib oladi. Limfotsitlar immunoglobulinlar (B-hujayralar) va T-hujayralar ishlab chiqaradi. Proteaza ingibitorlari sutda biologik faol oqsillar qayta ishlanishini to'xtatadi, komplement bakteriyalar lizisiga yordam beradi. interferon virusga qarshi omil, o't kislotalari tuzlari bilan rag'batlanuvchi (stimullovchi) lipaza chaqaloqda yog'lar parchalanishini yaxshilaydi dokozageksaen va araxidon kislotalar bosh miya to'qimasi va nerv to'qimasida hujayra membranalarini tashkil etadi, antioksidantlar erkin radikallar parchalanishidan himoyalaydi. Ko'krak sutidagi infeksiyaga qarshi moddalar miqdori bola hayotining birinchi yildan keyingi vaqtida ham saqlanib qoladi va bir yoshdan keyingi davrda ham infeksiyalardan himoya qilishda davom etadi. Bundan tashqari, immunoglobulinlarni ishlab chiqarilishi ayolning ovqatlanish va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bog'liq emas. Infeksiyalar keng tarqalgan mamlakatlarda o'tkazilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bola hayotining ikkinchi yilda ham ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolalarning tirik qolish darajasi ko'krak suti bilan emizib boqish to'xtatilgan bolalarga nisbatan birmuncha yuqori. Ko'krak suti organizmni infeksion kasalliklardan, ayniqsa dispeptik kasalliklaridan himoya qilishini tasdiqlovchi ma'lumotlar juda ko'p: sun'iy ovqatlantirilayotgan bolalarda ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolalarga nisbatan diareya ko'proq uchraydi. Shuningdek, neonatal reanimatsiya bo'limlarida tarqalgan oshqozon-ichak kasalligi – nekrotik enterokolit sun'iy ovqatlantirilayotgan bolalarda ko'proq uchraydi. Hatto bola ko'krak suti bilan qisman oziqlantirilayotgan bo'lsa ham, ko'krak sutining himoya ta'siri – garchi birmuncha susaygan darajada bo'lsa ham saqlanib qoladi. Ko'krak sutining shuningdek quyi nafas yo'llari kasalliklaridan ham himoya qilishi to'g'risida ishonchli dalillar bor. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga

ko'ra, ko'krak suti bilan emizib boqish erta yoshdagি bolalarni ayniqsa birinchi oylarda zotiljamdan himoya qiladi. Sut aralashmasи bilan parvarishlanayotgan bolalarda ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolalarga nisbatan zotiljam bilan shifoxonaga tushish xavfi 17 marotaba ko'proqdir. Qolaversa, ko'krak suti bilan emizib boqishning o'rta quloq shamollashi havfini kamaytirishi haqidagi ma'lumot qator tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. Ko'krak suti bilan emizib boqish bakteriemiya va meningit, botulizm va siyidik yo'llari infeksiyalari rivojlanishi oldini olishi mumkin, lekin bu ma'lumotlar to'laqonli tasdiqlanmagan.

### Og'iz suti va yetilgan sut

Og'iz suti – tug'ruqdan keyingi ilk 2-3 kun mobaynida keladigan maxsus sutdir. U kam miqdorda bo'lib – birinchi kun taxminan 40-50 ml ishlab chiqariladi, lekin bu vaqtida chaqaloqqa zarur bo'lgan barcha xususiyatlarga ega bo'ladi. Og'iz suti leykotsitlar va antitanachalar, ayniqsa immunoglobulinga boy bo'ladi va uning tarkibidagi oqsil, mineral moddalar va yog'da eriydigan vitaminlar (A, E, D, K) foizi keyinroq keladigan sutga nisbatan yuqori bo'ladi. A vitaminini ko'z himoyasi va epitelial yuzalarning butunligi uchun muhim o'rinni tutadi va u odatda sutga sarg'ish rang beradi. Og'iz sut tarkibida atrof-muhitdagи mikroorganizmlar ta'siriga uchragan chaqaloqning immun himoyasi mavjud bo'ladi va epidermal o'sish omili ichakning shilliq qatlami tomonidan sutli ozuqa moddalari qabul qilinishini tayyorlashda yordam beradi. Bu davrda bolalar boshqa ozuqa bilan emas, og'iz suti bilan oziqlanishlari juda muhim. Ko'krak suti bilan emizib boqishdan oldingi boshqa ozuqa - laktatsiya oldi oziqlantirilishi, deb ataladi. Sut tug'ruqdan keyingi 2-4 kunlarda ko'p miqdorda ishlab chiqarila boshlaydi, uning natijasida ko'krak to'lishadi: shu paytda sut «keldi» deyishadi. Uchinchi kunga kelib chaqaloq odatda 24 soat mobaynida 300-400 ml, beshinchi kunga kelib 500-800 ml sut ema boshlaydi. 7 dan 14 kunga qadar sut o'tish davri suti, ikki haftadan keyin esa yetilgan sut deyiladi.

Hayvonlar suti va qo'shimcha ovqatlantirish. Hayvonlar suti (sigir, echki) ham ozuqa moddalari miqdori, ham ularning sisati bilan ko'krak sutidan farq qiladi. 6 oygacha bo'lgan chaqaloqlarga hayvon sutini faqat o'ta murakkab sharoitda va qisqa muddat davomida uni iste'molga yaroqli qilish uchun suv, shakar va mikronutrientlar qo'shib, berish mumkin, lekin u hech qachon ko'krak suti o'rmini to'liq bosolmaydi va undagi kabi antibakterial xususiyatga ega emas. 9 oydan so'ng chaqaloqlarga qaynatilgan suyultirilmagan sut berish mumkin. Sut

aralashmasi odatga ko'ra sigir suti yoki soya mahsulotlarini sanoat yo'li bilan boshqa shaklga keltirish orqali tayyorlanadi. Ishlab chiqarish jarayonida tarkibidagi ozuqa moddalari miqdori ko'krak sutiga moslashtiriladi. Shunga qaramay, yog va oqsillar tarkibi, sisatidagi farqni o'zgartirib bo'lmaydi, hamda antibakterial va biologik faol komponentlar sun'iy sutda bo'lmaydi.

Quruq sut aralashmasi steril mahsulot emas va har doim ham xavfsiz bo'lmaydi. Quruq sut aralashmasida topilgan Enterobacter Sakazakii kabi patogen bakteriyalar chaqaloqning hayotiga havf soluvchi infeksiyalar bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Soya aralashmasi tarkibida ta'sir jadalligi odamdag'i estrogen gormoniga o'xshaydigan fitoestrogenlar bo'ladi, estrogen - o'g'il bolalarda tug'ilish miqdorining kamayishiغا, qiz bolalarda esa erta jinsiy yetilishiga olib kelishi mumkin.

### Ko'krak bezi anatomiyasи

Ko'krak bezi anatomiyasи ko'krak uchi, areola, to'qima va yog ni birlashtirib turuvchi ko'krak bezi to'qimasi, qon, limfatik tomirlar va asab tolalaridan iborat. Ko'krak bezi to'qimasi. Bu to'qima – alveolalar (sut ajratuvchi kichkina qopchalar) va sutni tashqariga olib chiquvchi naylardan iborat. Emizishlar oralig'ida sut alveolalar va naylar oralig'ida yig'iladi. Alveolalar qisqarish orqali sutni naylarda oqishga majburlaydigan mioepitelial yoki mushak to'qimalari savati bilan o'ralgan bo'ladi.

Ko'krak uchi va areola. Ko'krak uchi terisining ichki qismidan o'rtacha to'qqiztadan tashqariga chiqadigan sut naylari, hamda mushak tolalari va asab tolalari ega bo'ladi. Ko'krak uchi terisining tashqi tomonidan Montgomer bezlari joylashgan va pigmentlangan areola bilan o'ralgan. Bu bezlar laktatsiya davrida ko'krak uchi va areolani himoyalovchi yog simon suyuqlik ajratadi, hamda bolani ko'krakka jalb qiluvchi o'ziga xos ona hidni tarqatadi. Emizish vaqtida oksitotsin refleksi ta'siri ostida areolaning ichki qismidagi naylar sut bilan to'ldiriladi.

### Sut ishlab chiqarilishining gormonal nazorati

Ko'krak suti bilan emizib boqishga bevosita ta'sir qiladigan ikki gormon turi bor: prolaktin va oksitotsin. Estrogen kabi qator boshqa gormonlar laktatsiya jarayonida bilvosita ishtirop etadi. Bola emayotgan vaqtida sensor impulslar ko'krak uchidan miyaga o'tadi. Bunga javoban gipofizning old qismidan prolaktin, orqa qismidan esa oksitotsin ishlab chiqarilib, qonga ajratiladi. Prolaktin alveola hujayralari tomonidan sut ajralib chiqarilishi uchun xizmat qiladi. Qondagi prolaktin darajasi

homiladorlik davrida keskin ko'tariladi, hamda ko'krak bezi to'qimasi o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qilib, sut ishlab chiqarishga tayyorlanishda yordam beradi. Lekin, bu davrda sut kelmaydi, chunki homiladorlik gormonlari bo'lgan progesteron va estrogen prolaktinning bu harakatini to'sib qo'yadi. Tug'ruqdan keyin progesteron va estrogen darajasi keskin kamayib ketadi. prolaktin ta'siri ostida sut ajralib chiqqa boshlaydi. Prolaktin bolani emizishni boshlangandan so'ng taxminan 30 daqiqa davomida eng yuqori darajada bo'ladi, shu tufayli ham uning eng asosiy samarasini keyingi emizish uchun sut tayyorlashdan iborat.

Ko'krak suti bilan emizib boqishning butun davri mobaynida bola qancha ko'p emib, ko'krak uchini stimullasa, shuncha ko'p prolaktin va uning ta'siri ostida sut ham ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Bu ayniqsa laktatsiya hosil bo'layotgan davrda juda muhimdir, agar ona ko'krak suti bilan emizishdan to'xtasa – sut ham ishlab chiqarilmaydi. Prolaktin ona emizib bo'lgandan so'ng keyingi emizishga tayyorlanish uchun ishlab chiqariladi. Prolaktin asosan tunda ko'p ajralib chiqadi, shuning uchun ham bolani tunda emizish ona organizmida doimiy sut ishlab chiqarilishi uchun foydalidir. Prolaktin onani tinchlantiradi va uyqusiragan his qilishga majbur etadi, shu sababli ona tunda emизса ham, odatda yaxshidam oladi. Emish jarayonida ona organizmida gipofiz tomonidan boshqa gormonlar, shu jumladan gonadotropin-rilizing gormon (LG), follikulani stimullovchi lyuteinlashtiruvchi gormonlarini ajralib chiqariladi, bu esa ovulyatsiya va hayzni bostiradi. Shunday yo'l bilan tez-tez emizish keyingi homiladorlikning oldini olishda yordam beradi. Tungi emizish bu xususiyat samarasini yanada oshiradi va uni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Oksitotsin alveolalar atrofidiagi mioepitelial hujayralarning qisqarishiga olib keladi. Bu alveolalarda yig'ilgan sutni oqishga va naylarni to'ldirishga majbur qiladi Oksitotsin sutni oqishga majbur qilish uchun bolani emizish vaqtida yoki undan oldin ona organizmida ishlab chiqariladi. Oksitotsin refleksi yana «sut chiqarish refleksi» ham deyiladi. Oksitotsin prolaktinga qaraganda tezroq ishlab chiqariladi. Uning ta'siri ostida ko'krakda bo'lgan sut, sut yo'llaridan oqib chiqadi va bola ko'krakni yengil emishiga yordam beradi. Oksitotsin ona organizmida bolani emizishga tayyorlanayotgan vaqtida va bola emayotgan paytdan ishlay boshlaydi. Refleks onaning sezish, hid bilish, ko'rish kabi his va tuyg'ulariga bog'liq, ona bola yig'layotganini eshitsa yoki bolaga mehri to'yg'anda oksitotsin to'liq ishlay boshlaydi. Agarda ona jiddiy kasallik bilan og'rigan yoki tushkun kayfiyatda bo'lsa, oksitotsin refleksi

bostirilib, uning suti to'satdan kamayib ketishi mumkin. Agar emizikli onani qo'llab-quvvatlashsa, o'zini yaxshi his qilishiga yordam berishsa va u ko'rak suti bilan emizishda davom etsa, sut kelishi yana tiklanadi va yaxshilanadi. Oksitotsin refleksi tushunish muhim, chunki u nima uchun ona va bola birga bo'lishi kerakligi va nima uchun jismongan yaqinlikda bo'lishi kerakligini anglashga yordam beradi. Oksitotsin tug'ruqdan keyin bachadonning qisqarishiga olib keladi va qon ketishini kamaytirishga yordam beradi. Emayotgan bolaning ilk bir necha kunida ona bachadonining qisqarishi jiddiy og'riq keltirib chiqarishi mumkin.

Faol oksitotsin refleksi belgilari. Onalar oksitotsin refleksi faolligini ko'rsatuvchi belgilarni bilishlari mumkin:

- bolani emizish vaqtida va undan oldin ko'krakda sanchiq his qilish:
  - ona bolasi haqida o'ylaganda yoki uning yig'isini eshitganda sut ko'krakdan oqa boshlaydi:
    - bola emayotganda, sut ikkinchi ko'krakdan oqadi;
    - bola emishdan to'xtagan vaqtida sut ko'krakdan otilib chiga boshlaydi;
  - bolaning sekin va chuqur emishi va yutinishi sutning bola og'ziga oqayotganini ko'rsatadi;
    - bachadonda og'riq yoki bachadondan qon kelishi;
    - emizish vaqtida chanqoqlik.

Yuqorida keltirilgan belgilardan bir yoki bir nechtasining borligi refleks ishlayotganidan dalolat beradi. Bu belgilarni bo'lmasa ham, bu refleks mavjud bo'ladi, ya'ni belgilarning yo'qligi refleksning faolligini belgilamaydi. Belgilar aniq bo'lmasligi va ona ularni sezmasligi mumkin.

Oksitotsinning psixologik ta'siri. Oksitotsin muhim psixologik ta'sirga ham ega, hayvonlarda o'tkazilgan tekshiruvlarda uni onalik instinktiga ta'sir qilishi aniqlangan. Odamlarda oksitotsin xotirjamlik uyg'otadi va stressni kamaytiradi. U ona va bola o'rtasidagi yaqinlik va mehr tuyg'usini kuchaytirishi, shuningdek bu tuyg'uning rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Yoqimli tarzda ona va bola tanalarining o'zaro teginishi oksitotsin, u bilan birga prolaktin ajralib chiqishini kuchaytiradi, bu esa tug'ruqdan keyin ona va bola o'rtasidagi jismoniya yaqinlikni rivojlantiradi, ko'krak suti bilan emizib boqish jarayonida ham ma'naviy yaqinlikni ushlab turishga yordam beradi. Teskari aloqa tipidagi laktatsiya ingibitori Sutning ishlab chiqarilishi ko'krakda teskari aloqa tipidagi laktatsiya ingibitori, ya'ni TLI (polipeptid) deb nomlanuvchi.

ko'krak sutida mavjud bo'lgan modda tomonidan nazorat qilinadi. Ba'zida bir ko'krakda sut kelishi saqlangan holda ikkinchi ko'krakda sut bo'lmasligi, masalan: bola bir ko'krakni emayotganida, ikkinchisida sut kelmay qoladi. Buning sababi shundaki, sut ishlab chiqarilishining mahalliy nazorati har bir ko'krakda mustaqil amalga oshiriladi. Agar emizish jarayonida ikkinchi ko'krakda yig'ilgan sut bolaga berilmasa, ingibitor ko'krakning haddan tashqari to'lib ketishi orqali hosil bo'ladigan salbiy ta'sirdan saqlash maqsadida sut ajralib chiqishini to'xtatib qo'yadi. Agar ko'krak suti bolaga berilsa, ingibitor ham olib tashlanadi va sut ajralib chiqarilishi tiklanadi. Agar bola ema olmasa, sutni sog'ib olish orqali olib tashlash mumkin. TLI bolaning qancha sut emib olishiga, bolaga qancha sut kerakligiga qarab ishlab chiqarilayotgan sut miqdorini tartibga solish imkonini beradi. Bu mexanizm ayniqsa laktatsiya o'rnatilgandan so'ng doimiy tartibga solinib turish uchun muhim. Bu bosqichda sut miqdorini nazorat qilmasdan ishlab chiqarish imkonи bo'lishi uchun prolaktin kerak bo'ladi.

Bola reflekslari. Ko'krak suti bilan emizib boqish munosib bo'lishida bola reflekslari muhim o'rinni tutadi. Asosiy reflekslar – o'zak, so'rish va yutinish reflekslaridir. Bolaning lablari yoki lunjiga biron narsa teginsa, u buning sababini qidirib yuzini shu tarafga buradi va og'zini ochib, tilini yuqori va pastga aylantira boshlaydi. Bu o'zak refleks bo'lib, u homildadorlikning qariyb 32-hastasidan paydo bo'ladi. Bolaning tanglayiga biron narsa teginsa, u so'ra (ema) boshlaydi. Bu so'rish refleksidir. Bolaning og'ziga sut to'lsa, u yuta boshlaydi. Bu yutinish refleksidir. Muddatidan avval tug'ilgan chaqaloqlar gestatsiya yoshining taxminan 28-hastasidan ko'krak uchini tuta olishlari mumkin va taxminan 31-hastadan boshlab biroz sut so'ra boshlaydi. So'rish, yutish va nafas olish koordinatsiyasi homildadorlikning 32 va 35 haftalari oralig'ida paydo bo'ladi. Chaqaloqlar bu yoshda qisqa davr faqat emishlari mumkin, lekin shu vaqtida ular piyoladan qo'shimeha ovqat ham yeyishlari mumkin. Gestatsiya yoshining 36 haftasidan boshlab aksariyat bolalarni to'liq ko'krak suti bilan emizish mumkin. Istisnosiz ko'krak suti bilan emizishni boshlash va davom ettirishda ona va bolani qo'llab-quvvatlash uchun bu reflekslar haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim, chunki bu reflekslarning yetuklik darajasi bolani bevosita ko'krak suti bilan emizib boqish mumkinligi yoki ovqatlanishning boshqa usulini vaqtincha qo'llagash ma'qulligini ko'rsatishi mumkin.

### Bolani ko'krakka to'g'ri tutish qoidalari

Bola sutni qiyinehiliksiz ema olishi maqsadida ko'krak uchini stimullash va undan sut chiqishini ta'minlash, hamda sutning yetarli miqdorda kelishi uchun bolani ko'krakka to'g'ri tutish kerak. Bola og'ziga ko'krakni to'g'ri olmagani sababli, yaxshi ema olmaydi va bu bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. olani ko'krakka to'g'ri tutish usulining belgilari:

- bolaning og'zida areolaning katta qismi va uning ostidagi to'qima (katta naylar bilan birga) bo'ladi;

- ko'krak to'qimasi uzun «ko'krak uchi» shaklini keltirib chiqaradi, lekin haqiqiy ko'krak uchi uning faqat uchdan bir qismini tashkil etadi;

- bolaning tili quyi milk va sut sinusi o'rtaSIDA joylashgan va oldinga biroz chiqqan bo'ladi (aslida bolaning tili «ko'krak uchi»ni o'rabi olgan xolda bo'ladi,);

- bola ko'krak uchini emas, ko'krakni emadi. Bola emayotganda ko'krak uchini qattiq tanglayga bosgan holda, til mushaklarining to'lqinsimon xarakatlari til yoqalab oldindan orqaga o'tadi va sut sinuslaridan sutni bolaning og'iz bo'shilig'iga siqib chiqaradi, keyin esa bola sutni yuta boshlaydi. Bola emayotganda ko'krak to'qimasini yoyish va uni o'z og'zida ushlab turishga harakat qiladi. Oksitotsin refleksi ko'krak sutini naylardan ajralib chiqishga majbur qiladi va bola til harakati bilan sutni naylardan siqib chiqaradi. Bolaga ko'krak to'g'ri tutilgan bo'lsa, uning og'zi va tili ko'krak uchi terisi va areolasiga ishqalanmaydi va ularni shikastlantirmaydi. Bolaning emishi ona uchun noqulay va ko'pincha yoqimli bo'ladi. Ona og'riqni his qilmaydi.

Quyidagilarni qayd etish zarur:

- bolaning og'zida ost to'qimalar yoki naylar emas, faqat ko'krak uchi bo'ladi;

- bolaning tili og'iz ichida chuqur joylashib, sut sinusini bosmaydi.

Bolani ko'krakka noto'g'ri tutib emizish ona uchun noqulay, og'riqli bo'lishi mumkin, hamda ko'krak uchida qizarish, yoriqlar orqali ko'krak uchi terisi va areolaga shikast yetkazishi mumkin. Ko'krakka noto'g'ri tutish – ko'krak uchi yallig'lanishining eng keng tarqalgan va eng asosiy sababi bo'lib, sutning noto'liq emilishiga va yetarli miqdorda sut ishlab chiqarilmasliga olib kelishi mumkin. Bolani ko'krakka tutishning to'g'ri va noto'g'ri usullari belgilari. to'g'ri va noto'g'ri

ko'krak tutishning to'rt eng asosiy tashqi belgilari ko'rsatilgan. Bu belgilarga qarab ona va bola maslahatga muhtoj ekanligini aniqlash mumkin. Bolani ko'krakka to'g'ri tutishning to'rt alomati:

■ areolaning ko'p qismi bolaning pastki labi emas, yuqori labi ustidan ko'rinish turadi;

■ bolaning og'zi katta ochiq;

■ bolaning pastki labi tashqariga qayrilib ko'rinish turadi;

■ bolaning iyagi ko'krakka tegib yoki nisbatan tegib turadi.

Bu alomatlar bolaning ko'krakka yaqinligini va ko'krakning ko'p qismini qamrab olish uchun og'zini ochishini ko'rsatadi. Birinchi belgi bolaning ko'krak va ko'krak uchini pastdan olish orqali ko'krakning bola tanglayiga tiralishiga va sut naylari ustiga bosish uchun tilning ko'krak bezi to'qimasi ostiga joylashishiga imkon berishini ko'rsatadi. Barcha to'rt alomatning borligi bolaga ko'krak to'g'ri tutilganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, emizish ona uchun qulay bo'lishi kerak. Bolani ko'krakka noto'g'ri tutish alomatlari:

■ areolaning ko'p qismi bolaning yuqori labi emas, pastki labi ustidan ko'rinish turadi – yoki bo'lmasa yuqoridan va pastdan bir xil bo'ladi;

■ bolaning og'zi katta ochilmagan;

■ bolaning pastki labi pastga qaragan yoki ichga qayrilgan bo'ladi;

■ bolaning iyagi ko'krakdan uzoqda bo'ladi.

Agar bu alomatlardan birortasi kuzatilsa yoki emizish og'riqli, noqulay bo'lsa, bolaga ko'krakni to'g'ri tutish amaliyotini qo'llash lozim bo'ladi. Bolani emayotganini baholash jarayonida bola ko'krakka juda yaqin bo'lsa, uning pastki labi qanday joylashganligini ko'rish qiyin bo'ladi. Ba'zi ayollarning areolasiga katta bo'lib, bolaning og'zi uni to'liq qamrab olmasligi mumkin. Ya'ni, areolaning ko'p qismi bola og'zidan tashqarida bo'lishi mumkin, bu alomat ko'krakka noto'g'ri tutilganligining ishonchli belgisi emas. Ko'krak uchi aylanasining o'chhami bola og'zining tepasida va pastida bir xil bo'lsa, yoki areolaning katta qismi bolaning pastki labidan ko'rinish tursa, u holda ushbu belgi bolaning ko'krakka noto'g'ri tutilganligi bo'lib areolaning tashqi umumiy o'chhamidan ko'ra ishonchliroq alomati hisoblanadi.

### To'g'ri emish refleksi

Agar bola ko'krakka to'g'ri tutilgan bo'sagina, u to'g'ri (samarali) emishi mumkin. Emishning to'g'ri refleks belgilari sut bola og'ziga ajralib chiqayotganini bildiradi. Bola bir soniya davomida sekin va chuqur

emadi, keyin esa uning yutinganini ko'rish va eshitish mumkin. Ba'zan bir necha soniyaga emishdan to'xtaydi, bu naylarning yana sutga to'lishi imkonini beradi. Bola yana ema boshlaganda, sut oqishini ta'minlash uchun bir necha marta tez emishi mumkin, keyin esa sekin va chuqur ema boshlaydi. Emizish vaqtida bolaning lunjlari yumaloq bo'ladi. Emizish so'ngida chuqur emishlar soni kamayishi va ular o'rtaсидagi pauza uzayishi bilan emish sekinlashadi. Bu paytga kelib sut miqdori kamayadi, lekin eng oxirida keladigan sut yog'larga boy bo'lishini hisobga olib, emizishda davom ettirish kerak. Bola to'yg'andan keyin odatda ko'krakni o'z-o'zidan qo'yib yuboradi. Ko'krak uchi bir yoki ikki soniya davomida cho'zilgan bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin u tez o'z shakliga qaytadi.

Noto'g'ri emish refleksining belgilari. Ko'krakka noto'g'ri tutilgan bola yaxshi ema olmasligi mumkin. U yutinmasdan tez emaverishi, uning lunjlari emish vaqtida tortilib (ichkariga kirib) turishi mumkin, bu sutning bola og'ziga to'g'ri ravishda kelmayotganligini bildiradi. Bola emishdan to'xtaganda, ko'krak uchi tortilib, tepasida yoki pastida burishmalar bilan biroz yassilashgan bo'lib ko'rindi, bu ko'krak noto'g'ri tutilgani sababli ko'krak uchining shikastlanganini ko'rsatadi. Noto'g'ri emish refleksining oqibatlari. Bola noto'g'ri emayotgan bo'lsa, u yetarlicha sutni emib ololmaydi va buning natijasida:

- yetarli miqdordagi sut olib tashlanmayotganligi uchun ko'krak shishiib qolishi, sut naylarining tiqilib qolishi yoki mastit kelib chiqishi mumkin;
- bola ko'krak sutini kam iste'mol qilishi va uning vazni kamayishiga olib kelishi mumkin; ■ bola ko'krakdan o'zini tortib, emmay qo'yishi mumkin;
- bola to'yaganligi sababli uzoq muddat yoki juda tez-tez emishi mumkin;
- haddan tashqari uzoq emizish ko'krak uchining uzoq qo'zg'atilishiga va natijada sutning ortiqcha ishlab chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Bolani noto'g'ri ko'krakka tutishning sabablari. Ma'lumki, ko'krakdan emish mexanizmi butilkadan emishdan farq qilganligi sababli, ko'krak suti bilan emizishdan oldin bolani butilkadan ovqatlantirish ko'krakka noto'g'ri tutish sabablarini keltirib chiqarishi mumkin. Tekis yoki yassi ko'krak uchi, yoki bo'Imasa chaqaloqning juda kichkina va zaif bo'lishi kabi omillar ham bolani ko'krakka noto'g'ri utilishi sababi bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, eng muhim sabablar –

bu onaning tajribasizligi va uni kuzatayotgan tibbiyot xodimlari tomonidan malakali tibbiy maslahat berilmasligidir. Ko'pchilik onalarga tug'ruqdan keyingi ilk kumlarda bolani ko'krakka to'g'ri tutish va uning yaxshi emishiga ishonch hosil qilish uchun malakali yordam kerak bo'ladi. Shu o'rinda tibbiyot xodimlari bunday yordamni ko'rsatish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Bolani ko'krakka to'g'ri tutish uchun ona va bolaning holati. Ko'krakka to'g'ri tutish uchun bola va uning onasi to'g'ri holatda bo'lishlari kerak. Ular uchun turli holatlar mavjuddir, lekin har qanday holatda ham asosiy qoidalarga rioya qilinishi kerak. Onaning holati Ona o'z xohishiga qarab o'tirishi, yotishi yoki tik turgan xolatda bo'lishi mumkin. Lekin u o'zini umuman bo'sh tutishi va bezovta bo'lmasligi, ayniqsa bel sohasi tarang holda bo'lmasligi kerak. O'tirgan holatda orqaga tayanch kerak bo'lib, bolani oldinga egilmasdan tutib tura oladigan holatda bo'lishi kerak. Bolaning holati emizish paytida bola onasiga nisbatan turli holatda – ko'ksida, qornida, qo'li ostida yoki tanasi yonida bo'lishi mumkin. Onaning va bolaning onaga nisbatan xolati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, amal qilinishi lozim bo'lgan to'rt asosiy qoida bor:

- bolaning boshi va gavdasi bir chiziqdida bo'lishi kerak. Bola ona ko'kragiga qaratilgan bo'lishi kerak. Uning burni ko'krak uchi qarshisida bo'lishi kerak. U onadan uning yuzini ko'rish uchun yetarli darajada uzoqligida bo'ladi. Bu bolaning ko'krakni yaxshi emishi uchun eng qulay holatdir, chunki aksariyat ayollarda ko'krak uchi biroz pastga qaragan bo'ladi.

- bolaning tanasi onaga yaqin bo'lishi kerak, bu uning ko'krakka yaqin bo'lishi va yaxshi emishiga imkon beradi.

- ona bolaning butun badanidan tutib turishi kerak. Bola to'shakka yotqizilgan xolatda, yostiq bilan ushlab turgan yoki onaning tizzasida, yo qo'lida bo'lishi mumkin. Ona bolani faqat boshi, yelkasi yoki tananing quyi qismidan tutib turmasligi kerak, bu bolani ko'krakdan uzoqlashtiradi, buning natijasida esa uning ko'krakka yetishib, areola ostini to'liq til bilan qamralishini qiyinlashadi. Bu qoidalarga amal qilish chaqaloq hayotining ilk ikki oyida ayniqsa muhimdir.

## 2.3. Qo'shimcha ovqatlantirish

Bola o'sib, yanada faol bo'lib borgani sari uning ozuqa va fiziologik ehtiyojlarini qoplash uchun birgina ko'krak sutinining o'zi yetarli bo'lmay qoladi. Istisnosiz ko'krak suti hisobidan ta'minlanadigan energiya, temir va alishmaydigan ozuqa moddalari miqdori, hamda o'sayotgan emizikli bolaning ehtiyojlari qoplash uchun bolaga moslashtirilgan oila dasturxonidan qo'shimcha ozuqa (o'tish davri ovqati) kerak bo'ladi. Ulg'aygan sari bu farq ortib boradi hamda energiya va ozuqa moddalari, ayniqsa temirga bo'lgan extiyoj ko'krak suti bilan birga boshqa ovqatni ham talab qiladi. Qo'shimcha ovqat asab-mushak faoliyatining rivojlanishida ham muhim o'rinni tutadi. Emizikli bolalar istisnosiz ko'krak sutidan so'ng to'g'ridan-to'g'ri kattalar ovqatini iste'mol qilishi uchun fiziologik jihatni tomonidan tayyor bo'lmaydi. Shuning uchun bu ehtiyoj va imkoniyat o'rtasidagi farqni bartaraf etish maqsadida maxsus moslashtirilgan oila dasturxonidan qo'shimcha ozuqa (o'tish davri ovqati) talab qilinadi, ularga talab bola taxminan bir yoshga to'lib, oddiy oila dasturxoni ovqatini yeyishga tayyor bo'lmaguncha saqlanib qoladi. O'tish davri ovqatini tanovul qila boshlaganda, bola turli xil tuzilish va konsistensiyalarga ega ozuqa maxsulotlariga duch keladi, bu esa chaynash kabi muhim harakat ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.

To'g'ri tanlangan qo'shimcha ozuqaning o'z vaqtida berila boshlanishi jadal o'sish davrida emizikli va erta yoshdag'i bolalar salomatligining mustahkamlanishi, ovqat qabul qilishning yaxshilanishi va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi, hamda bu masala esa tibbiyot xodimlarining diqqat markazida bo'lishi kerak. Qo'shimcha ovqat berishning to'liq davrida ona suti emizikli bola iste'mol qilayotgan asosiy sut turi bo'lishi kerak. Qo'shimcha ovqatni taxminan 6 oydan bera boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Qo'shimcha ovqat berish nima?**

Qo'shimcha ovqat berish – emizikli bolalarga ko'krak sutiga qo'shimcha ravishda ozuqa va suyuqliklar berishdir. Qo'shimcha ovqatni quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

o'tish davri ovqati – emizikli bolaning alohida ozuqa va fiziologik ehtiyojlarini qondirishga maxsus moslashtirilgan mahsulotlar;

oila dasturxonidan ovqat yoki uy ovqati – erta yoshdagи bolalarga beriladigan, oilaning boshqa a'zolari ham iste'mol qiladigan mahsulotlardir.

Ma'lumki istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish bola hayotining ilk 6 oy davomida tavsiya qilinadi, bola hayotining so'ngi davri o'tish davri hisoblanib, emizikli bolalar bosqichma-bosqich qo'shimcha ovqat bilan oziqlantirilib oila dasturxonidan yeyishga o'tkazilib boriladi, to bunday ovqat ko'krak suti o'rnnini to'la egallamaguncha, bolani ko'nikib borishi ta'minlanadi. Bolalar oila dasturxonidagi mahsulotlarni iste'mol qilishga bir yoshga kelib jismonan tayyor bo'ladir, shundan so'ng emizikli bolaning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun bu ovqatni alohida toifalashtirishga zarurat bo'lmaydi. O'tish davri ovqatini bera boshlash davri bola rivojlanishida noziq davr hisoblanadi. Bolaning ratsioni juda jiddiy o'zgaradi – bu asosiy energiya manbai yog bo'lgan yagona mahsulotdan (ona suti) ozuqa ehtiyojlarini qondirish uchun lozim bo'lgan turli-tuman mahsulotlarga o'tishdir. Bu o'tish nafaqat ozuqa mahsulotlariga ehtiyojlarning ortishi va o'zgarishi, balki bolaning tez o'sishi, fiziologik yetilishi va rivojlanishi bilan ham bog'liqidir. Bunday o'ta mulhim davrda bolani ovqatlantirishning noto'g'ri tamoyillari va usullari jismoniy rivojlanishda buzilishlar (oriqlab ketish va o'sishdan to'xtash) va ozuqa moddalari, ayniqsa temirning yetishmasligi xavfini oshirishi, hamda salomatlik va aqliy rivojlanish uchun uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun xarajatlar nuqtai nazaridan tibbiyot xodimlari amalga oshirishi va qo'llab-quvvatlashlari mumkin bo'lgan eng samarali choralar qatoriga alimentar ovqat berish va emizikli bolalarni ovqatlantirish tamoyil va usullarini yaxshilash ishlarini kiritish mumkin.

Qo'shimcha ovqatning bola fiziologik rivojlanishi va yetilishiga ta'siri «quyuq» ovqatni iste'mol qilish moslashuvi asab-mushak, hazm qilish, buyrak va himoya tizimlarining yetilishini talab qiladi.

Asab-mushak boshqaruvi. Asab-mushak boshqaruvining yetilishi «quyuq» ovqat berish muddatiga va emizikli bolaning uni iste'mol qila olishiga ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanishning turli bosqichlarida kuzatiladigan ko'pgina oziqlantirish bilan bog'liq reflekslari turli xil ovqat berishni yo osonlashtiradi, yo qiyinlashtiradi. Masalan, bola tug'ilgan vaqtidan ko'krak suti bilan emizish, ham ko'krakni topish refleksi, ham so'rish va yutinish reflekslari tufayli osonlashadi, lekin quyuq ovqat berilishiga esa qayt qilish refleksi xalal beradi. To'rt oygacha

bo'lgan emizikli bolalarda og'izda luqum yasash, uni tomoqqa yuborish va yutish uchun asab-mushak boshqaruvi shakllanmagan bo'ladi. Bosh harakatlarini boshqarish va umurtqa tayanchi hali rivojlanmagan bo'ladi, shuning uchun chaqaloqlarga yarim-quyuq ovqatni shimish va yutish uchun o'z gavdasini mahkam ushlab turish qiyin bo'ladi. Taxminan 5 oyga kelib bolalar narsalarni og'ziga sola boshlaydi va bu paytda «chaynash refleksi» rivojlanishi tish bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar, ba'zi qattiq mahsulotlarni iste'mol qilish imkonini beradi. Taxminan 8 oyga yetganda bolalarning ko'pchiligi mustaqil o'tira oladi, ilk tishlar paydo bo'ladi va til nisbatan quyuq bo'lgan ovqat luqma yutish uchun yetarli darajada egiluvchan bo'ladi. Bundan keyin ko'p o'tmay, bolalarda mustaqil ovqatlanish, idishni ikki qo'lda tutgan holda suv ichishning ilk ko'nikmalari paydo bo'ladi va ular oila dasturxonidagi ovqatni tanovul qilishi mumkin bo'ladi. Bolalarni tegishli bosqichlarda chaynash va og'izga olib kelish kabi ovqatlanish ko'nikmalarini egallahsha rag'batlantirish juda muhim. Agar bu ko'nikmalar o'z vaqtida egallanmasa, keyinchalik xulq-atvor va ovqatlanish bilan bog'liq muammolar paydo bo'lishi mumkin.

### **Qo'shimcha ovqat berish muddatlari**

O'tish davri ovqatini bera boshlashning optimal yoshini turli muddatlarning afzallik va kamchiliklarini taqqoslash orqali aniqlash mumkin. Bola o'sishini qo'llab quvvatlash va yetishmovehilik xolatlarini oldini olishni ushlab turish uchun, qay darajada ko'krak suti energiya va ozuqa moddalarini yetarli miqdori bilan ta'minlay olishini, shu bilan birga zaharlangan ozuqa moddalarini va «begona» oqsillar iste'molidan kelib chiqadigan infeksion va allergik kasalliklar bilan kasallanish xavfi qandayligini baholash kerak. E'tiborga olish kerak bo'lgan qo'shimcha muhim jihatlarga – bolaning fiziologik rivojlanishi va yetukligi, ovqat iste'mol qilishga tayyorligini ko'rsatuvchi turli rivojlanish ko'rsatkichlari, shu bilan birga – ona iste'mol qilgan ovqatining tarkibi, bolani emizishi kamayishining ona fertilligiga ta'siri va bolani parvarishlash imkoniyati mavjudligi kabi ona bilan bog'liq omillar, yana esa erta yoshdagи bolalarni parvarishlashning tamoyil va usullari kiradi. Qo'shimcha ovqatni muddatidan ancha avval bera boshlashning o'ziga xos kamchiliklari mavjud, ya'ni:

ko'krak suti qo'shimcha ovqat tomonidan surib chiqarilishi mumkin, bu ko'krak suti ishlab chiqarilishning kamayishiga, demakki

bolaning yetarli miqdorda energiya va ozuqa moddalarini olmasligiga olib keladi;

emizikli bolalar oziq-ovqat mahsulotlari va suyuqliklarda uchrashi mumkin bo'lgan kasallik keltirib chiqaruvchi mikroblarni iste'mol qilishi mumkin, bu dispeptik kasalliklar xavfini oshiradi, uning natijasida esa oziqlanishning yetishmovchiligi yuzaga keladi;

ichakning yetilmaganligi sababli dispeptik kasalliklar va allergiya xavfi kuchayadi va buning natijasida oziqlanishning yetishmovchiligi yuzaga keladi; emishning kamayishi ovulyatsion muddatni tezroq qisqartirgani tusayli onalarda fertillik nisbatan tezroq qayta tiklanadi.

Qo'shimcha ovqatni muddatidan ancha kech bera boshlagan taqdirda ham muammolar kelib chiqadi, ya'ni:

birgina ko'krak sutidan beriladigan energiya va ozuqa moddalarining yetishmasligi o'sishning to'xtashiga va oziqlanishning yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin;

ko'krak sutining bola ehtiyojlarini qondira olmasligi natijasida mikronutrientlar, ayniqsa temir va ruxning yetishmasligi kelib chiqishi mumkin;

chaynash, ovqatning yangi ta'mi va tuzilishini ijobiy qabul qilish kabi harakat ko'nikmalari to'liq rivojlanmasligi yoki rivojlanishdan orqada qolishi mumkin.

Shuning uchun qo'shimcha ovqatni o'z vaqtida, bola rivojlanishining tegishli bosqichlarida bera boshlash maqsadga mqvosiq bo'ladi. Qo'shimcha kiritish uchun esa – bolaning to'liq 6 oylik davri optimal muddat bo'lib hisoblanadi.

### **Qo'shimcha ovqat mahsulotlari tarkibi**

Qo'shimcha ovqat uchun mahsulotlarni tanlashda, ko'krak suti va energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan turli hajmdagi energetik zichlikka ega qo'shimcha ozuqani ovqatlanish oralig'iga ta'sirini hisobga olinadi, bunda oshqozon hajmi kichiklididan kelib chiqqan xolda ozuqa miqdori chegaralanganligini ham inobatga olish tavsiya qilinadi. Asosiy ovqat – emizikli bola iste'moli uchun juda quyuq bo'lmasligini, energiya va ozuqa moddalari zichligi kamaymasligi uchun juda suyuq ham bo'lmasligini. shu bilan birga ozuqa tarkibida (ta'm, xushbo'y ifor) va amalda hazm qilinadigan har bir ozuqa moddasini (biologik moslik va ozuqaviy zichligi) ozuqa miqdoriga ta'sir qiluvchi boshqa omillarini ham inobatga olish kerak. Energetik zichlik va yopishqoqlik chaqaloq o'zining energiya va ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyojlarini qay darajada qoplay

olishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, bu qo'shimcha ozuqaning konsistensiyasi va zichligi (hajm birligida energiya miqdori), hamda ovqatlantrishning oraligi idir. Kraxmal – ko'p xollarda asosiy energiya manbai bo'ladi, lekin uni suvda isitish jarayonida kraxmal donlari sirachlanadi (kleysterlanadi) va hajmli, quyuq (yopishqoq) bo'tqa hosil qiladi. Bu xususiyatlari tufayli emizikli bolalar bunday bo'tqalarni yutishi va hazm qilishi qiyin. Bundan tashqari, kam kaloriyaliligi va ozuqa zichligi emizikli bola ehtiyojlarini qondirish uchun ko'p miqdorda ovqat qabul qilishi kerakligini anglatadi.

Bola oshqozonining hajmi va bir kunda ovqatlanish soni cheklanganligi sababli, odatda buning imkonini yo'q. Quyuq bo'tqani yutishni osonlashtirish uchun suyuqlik bilan aralashtirish esa uning energetik zichligini yanada kamaytiradi. Odatda qo'shimcha ovqat kam energetik zichlikka va oqsillar miqdoriga ega bo'ladi, uning suyuq konsistensiyasi iste'molni osonlashtirsa-da, bolaning energiya va ozuqa moddalariga ehtiyojini qondirish uchun kerakli bo'lgan hajm aksariyat hollarda bola qabul qilishi mumkin bo'lgan hajmdan katta bo'ladi. Kam miqdorda o'simlik yog'i qo'shilsa, ovqat hatto sovuq holida ham iste'mol uchun yumshoq va oson bo'ladi. Biroq ko'p miqdorda shakar yoki yog' qo'shilishi, ovqatning energetik quvvatini ko'paytirsa-da, yopishqoqlikni (quyuqlik) oshiradi va shu sababdan ovqatni katta miqdorda iste'mol qilish uchun juda og'irlashtiradi. Shunday qilib, qo'shimcha oziqlantirish taomi energiya, oqsil va mikronutrientlarga boy bo'lishi, shu bilan birga yengil hazm qilish imkonini beruvchi konsistensiyaga ega bo'lishi kerak.

Ozuqa zichligi va biologik mavjudlik. Emizikli bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlash uchun mavjud ozuqa moddalarining miqdori ham, ularning ko'krak sutida va o'tish davri ovqatidagi miqdori ham, ularning biologik mosligiga bog'liq. Biologik moslik ozuqa moddalarining so'rilib darajasi va ularning modda almashinuvni maqsadida foydalanishda ishtiroki bo'lsa, ozuqa moddalarining zichligi esa u yoki bu ozuqa moddasining energiya birligi, masalan og'irlilik birligi 100 gr miqdordagi ozuqada 100 kDj energiya bo'lishi. Hayvon va o'simlik mahsulotlari o'ttasida ozuqa moddalarining zichligi va mikroelementlarning biologik mosligi bo'yicha katta farqlar bor. Hayvon mahsulotlarida odatda bir energiya birligida A, D va E vitaminlari, riboflavin, B12 vitamini, kalsiy va rux kabi ba'zi ozuqa moddalarini ko'proq bo'ladi. Temir (jigar, go'sht, baliq va parranda kabi) ba'zi hayvon mahsulotlarida ko'p bo'lsa, (sut va sut mahsulotlari) larida esa kam

bo'ladi. Aksincha, tiamin, B6 vitamini, folat kislotasi va S vitamini zichligi o'simlik mahsulotlarida yuqori bo'lsa, dukkaklilar va jo'xori kabi mahsulotlarida temir moddasi miqdori ancha ko'p bo'ladi. Umuman aytganda, o'simlik mahsulotlaridagi minerallarning hayvon mahsulotlaridagi minerallarga nisbatan organizmda so'rilib darajasi va modda almashinuvida ishtiroki (biologik mosligi) kamroq.

O'simlik mahsulotlarida past biologik moslikka ega ozuqa mikronutrientlariga bargli mahsulotlar va ba'zi sabzavotlardagi temir, rux, kalsiy va  $\beta$ -karotin kiradi. Bundan tashqari, ratsionda yog' tarkibi oz bo'lsa,  $\beta$ -karotin, A vitamini va boshqa yog'li muhitda eriydigan vitaminlar qiyin so'rilib. Ozuqa moddalarning yuqori biologik mosligiga ega bo'lgan ratsion turli-tuman bo'lib, bu ratsionga ko'p miqdorda dukkaklilar va S vitaminiga boy mahsulotlar, biroz miqdorda go'sht, baliq va parranda kiradi. Ozuqa moddalarning past biologik mavjudligiga ega bo'lgan ratsioni esa asosan donli, dukkakli va ildizmevali mahsulotlardan iborat bo'lib, unda go'sht, baliq yoki S vitaminiga boy mahsulotlar nihoyatda kam bo'ladi. Turli-tumanlik, ta'm va xushbo'y hid o'sayotgan bolalarning energiya va ozuqa moddalaring ehtiyojini qondirish uchun, yuqori ozuqaviylik quvvatiga ega ko'p turdag'i mahsulotlar turini berish kerak. Bundan tashqari, bolalarga ovqatlar turli-tuman qilib berilsa, ishtahasi yaxshilanishi mumkin.

Ovqat tuzilishi har safar o'zgarsa-da, bola organizmi qabul qilayotgan energiya miqdorini keyingi ovqatlanishlarda muvosiqqlashtiriladi, ya'ni bir kunda iste'mol qilinadigan energiyaning jami qiymati deyarli o'zgarmaydi. Shunga qaramay, energiya iste'moli hajmi ba'zi kunlarda biroz o'zgarishi mumkin. Bolalarga turli-tuman mahsulotlar taklif etilganda, o'zlari ko'proq xush ko'radigan mahsulotlardan tayyorlangan ovqatni tanlaydilar va natijada yaxlit alimentar ratsion shakllanadi.

Bolaning o'tish davri ovqatini tanovul qilishiga ta'm, hid, tashqi ko'rinishi va tuzilishi kabi organoleptik xususiyatlar ta'sir qilishi mumkin. Tilning ta'm bilish so'rg'ichlari birlamchi bo'lgan to'rt xil ta'm sifatlarini ajratadi: shirin, achchiq, sho'r va nordon. Ta'm bilish bolani zararli narsalarni yeyishdan himoyalaydi va uning ovqatlanish miqdorini tartibga solishga yordam berishi mumkin. Garchi bolalarning shirin yoki sho'r taomni yaxshi ko'rishni o'rganishlari shart bo'lmasa-da, tasdig'ini topgan ma'lumotlarga ko'ra, bolalarning aksariyati tomonidan ozuqa

mahsulotlarini tanlashiga mahsulotni o'rganish va amaliyotidagi tajribasi katta ta'sir ko'rsatadi.

Odamlarda tug'ilgandanoq biron ta'mni afzal bo'lishi faqat shirin ta'mga oiddir, hatto chaqaloqlar ham shirinlikni yaxshi ko'radi. Bolalarda yoqib qolgan u yoki bu ta'm ta'siri takrorlanishini shakllantirish muammoga olib kelishi mumkin. Shirin ta'mli taomdan, boshqa barcha taomlarni rad etish, bola iste'mol qilayotgan ovqat va ozuqa moddalarini ratsiondan ko'ra turli-tuman bo'lgan ratsionda ko'proq ovqat iste'mol qiladi. Qo'shimcha ovqat berish vaqtida bolalarga yangi mahsulotlarni tatib ko'rish imkonini bir necha marotaba berilishi kerak, bu ovqatni ijobjiy qabul qilishning sog'lom tizimi shakllanishi uchun muhim. Turli taomni kamida 8-10 marta tatib ko'rish kerak, bolaning u yoki bu taomni ijobjiy qabul qili iste'mol qilish darajasi uni 12-15 marta qabul qilgandan keyin ortishi haqida farazlar mavjud. Shunday qilib, ota-onalarga bolaning taom yeyishni rad etishi normal holat ekanligini tushuntirib, ularni tinchlantirish kerak. Mahsulotlarni bolaga bir necha marotaba taklif qilish kerak, chunki bola avvaliga rad qilayotgan mahsulotlarni keyinchalik iste'mol qila boshlaydi. Agar birinchi marta rad etilishi doimiy deb qabul qilinsa, bunday mahsulot bolaga boshqa berilmasligi mumkin, bu bilan bolaning yangi taomlar iste'mol qilishi va yangi ta'mlarni bilishi imkoniyati yo'qqa chiqishi mumkin. Qo'shimcha ovqatni bera boshlash jarayoni bolaning yangi taomdan lazzatlanishga o'rgana olish-olmasligiga bog'liq. Ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolalar, sun'iy sut aralashmalari bilan parvarishlanayotgan bolalarga qaraganda qattiq ovqatni tezroq ijobjiy qabul qilishlari mumkin, chunki ular ona suti bilan beriladigan turli ta'm va hid tuslariga o'rgangan bo'ladi.

Qo'shimcha ovqat berishning asosiy tamoyillari 6 oylikdan keyin bolaning ozuqaviy ehtiyojlarini istisnosiz ko'krak suti bilan qoplash qiyin bo'lib boradi. Bundan tashqari, bolalarning aksariyati taxminan olti oydan boshlab boshqa mahsulotlarni qabul qilishga tayyor bo'ladi. Yomon sanitar-gigienik sharoitlarda olti oydan keyingi davrda qo'shimcha ovqatni bera boshlash bolalarning ovqatdan kelib chiqadigan kasalliklarga chalinishini kamaytirishi mumkin. Lekin bu yoshda bolalar atrof-muhitni faol o'rgana boshlagani uchun, ularga qo'shimcha ovqat berilmasa ham, yer va boshqa predmetlardan mikrob yuqish xavfi ortadi. Shunday qilib, 6 oy qo'shimcha ovqat bera boshlashni tavsiya qilinadigan eng maqbul yoshdir. Qo'shimcha ovqatni bera boshlash vaqtida kam

oziqlanish xavfi ortishi kuzatiladi. Bu ko'pincha qo'shimcha ovqatning ozuqaviy sisati to'g'ri kelmasligi, uning juda erta yoki juda kech, kam miqdorda yoki uzoq muddat oralig'ida berilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'krak bilan emizishni erta to'xtatish yoki kamdan-kam emizish ham 6 oydan o'tgan bolalarning to'yib ovqatlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

#### Ovqatlantirish tamoyillari.

1-TAMOYIL. Tug'ilgandan 6-oylikkacha istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqing, 6 oydan (180 kun) boshlab emizishni davom ettirgan holda qo'shimcha ovqat berib boring. 6 oy mobaynida istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqish bola va onaga qator afsalliklar beradi. Ularning eng asosiysi nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydigan oshqozon-ichak infeksiyalariga qarshi himoya omilidir. JSSTning bolalar o'sishini baholash me'yorlari bo'yicha, istisnosiz ko'krak suti bilan parvarishlanadigan bolalar boshqa bolalarga qaraganda hayotining dastlabki 6 oyi mobaynida tezroq o'sadi. Emizikli bolalarga qo'shimcha ovqat bera boshlash qoidalari

1. Tug'ilgandan 6-oylikkacha istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqing, 6 oydan (180 kun) boshlab emizishni davom ettirgan holda qo'shimcha ozuqani berib boring.

2. Tez-tez emizib turishni 2 yosh va undan ortiq vaqtgacha davom ettiring.

3. Psixologik yordam tamoyillarini qo'llagan holda bolaning javob berishiga qarab ovqatlantiring.

4. Gigienaga amal qiling va mahsulotlarni xavfsiz tayyorlashga e'tibor qarating.

5. Bolaga olti oydan boshlab tez-tez emizishni davom ettirgan holda kam kamdan, oz miqdorda taom bera boshlang va bola ulg'ayib borishi bilan ozuqa miqdorini ko'paytirib boring.

6. Bola ulg'ayib borishi bilan uning talab va imkoniyatiga qarab ovqat konsistensiyasi va turli-tumanligini oshirib boring.

7. Bola ulg'ayib borishi bilan qo'shimcha ovqat miqdorini ko'paytirib boring.

8. Bola ehtiyojlarini to'la qoplash uchun ozuqa moddalariga boy turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlari bilan parvarishlang.

9. Zarurat tug'ilganda vitaminlari kuchaytirilgan qo'shimcha ozuqa yoki chaqaloqlar uchun vitamin-mineral qo'shimchalardan foydalaning.

10.6 oydan keyingi davrda bola kasal bo'lganda suyuqlik miqdorini oshiring va tez-tez emizing, hamda bolaning o'zi yaxshi ko'radigan yumshoq mahsulotlarini yeyishini rag'batlantiring. Kasallikdan so'ng odatdagidan ko'proq yeyishini rag'batlantiring va ozuqa istemolini bolaning yoshiga oid miqdoriga moslashtiring. Odatga ko'ra, bola 6 oyga kelib tug'ilgandagi vaznidan ikki baravar og'ir bo'ladi va ancha faol bo'lib qoladi. Energiya va ozuqa ehtiyojlarini qoplash uchun istisnosiz ko'krak suti bilan parvarishlashning o'zi yetarli bo'lmay, qo'shimcha ovqat bera boshlash kerak bo'ladi. Taxminan 6 oylik davrida chaqaloq boshqa mahsulotlarni ham o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. Hazm qilish tizimi sutdan tashqaridagi kraxmal, oqsil va yog'larni hazm qilish uchun yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Juda kichkina bolalar mahsulotlarni tili bilan chiqarib tashlashi mumkin, lekin 6 va 9 oy oralig'ida chaqaloqlar quyuq, bo'tkasimon taomni og'zida nisbatan oson ushlab turadi.

**2-TAMOYIL.** Bola talabiga qarab ikki yoshgacha va undan keyin ham tez-tez emizishni davom ettiring. Ko'krak suti bilan emizish qo'shimcha ovqat berish bilan birga 2 yoshgacha va undan ortiq vaqt davom etishi kerak, shu bilan birga bolaga istagancha vaqt oralig'ida emish imkonи berilishi kerak. Ko'krak suti 6-12 oy oralig'ida bolaning energiyaga bo'lgan ehtiyojining yarmidan ko'pini, 12-24 oy oralig'ida esa energiya va boshqa yuqori sifatli ozuqa moddalariga ehtiyojning uchdan birini berishi mumkin. Ko'krak suti qo'shimcha ovqat tarkibiga nisbatan ko'proq himoya omillari va yuqori sifatli ozuqa moddalarini bilan ta'minlashda davom etadi. Bola kasal bo'lgan vaqtida ko'krak suti energiya va ozuqa moddalarining eng asosiy manbai bo'ladi, shu bilan birga to'yib ovqatlanmaydigan bolalar orasida o'lim holatini kamaytiradi. Bundan tashqari, 1-bobda aytiganidek, ko'krak suti o'tkir va surunkali kasalliklar havfini kamaytiradi. Qo'shimcha ovqat berila boshlashi bilan bolaning ko'krak sutiga intilishi pasayadi va shuning uchun uning emishini faol rag'batlantirib borish kerak.

**3-TAMOYIL.** Ijtimoiy-psixologik yordam tamoyillarini qo'llagan holda bolaning munosabatiga qarab ovqatlantirishni qo'llang. Qo'shimcha ovqatning maqbul bo'lishi nafaqat nima bilan ovqatlantirishga, balki qanday, qachon, qaerda va kim tomonidan ovqatlantirilishiga ham bog'liq. Bolaning munosabatiga qarab ovqatlantirish – bu:

- Chaqaloqni o'zingiz ovqatlantiring va kattaroq yoshdag'i bolalarning ovqatlanishiga yordam bering.

- Shoshilmasdan, sabr bilan ovqatlantiring, bolaning ovqat yeyishini rag•batlantiring, lekin majburlamang.
- Agar bola ko•p mahsulotlarni yeyishdan bosh tortayotgan bo•lsa, turli kombinatsiya, ta•m, tuzilish va rag•batlantirish usullarini qo•llang.
- Agar bola ovqatga qiziqishini tez yo•qotadigan bo•lsa, chalg•ituvechi omillarni kamaytiring. ■ Shuni yodda tutingki, ovqatlantirish vaqtı – o•rgatish va mehr-muhabbat paytidir, ovqatlanish vaqtida ko•z ko•zga tushgan holda bola bilan gaplapping.

Ko•pgina tadqiqotlarining natijasi ko•rsatishi bo•yicha hulq-atvorni o•rganishda, ba•zi xalqlarda ovqatlantirishning tasodifiy usuli ustun kelar ekan. Ovqatlanishda bolalar o•z holiga tashlab qo•yiladi, taomga rag•batlantirish kam uchraydi. Bunday sharoitda ovqatlantirishning faol uslubi ratsionni yaxshilashga yordam beradi. «Munosabatga qarab ovqatlantirish» atamasi ijtimoiy-psixologik yordam tamoyillarini qo•llagan holda parvarishlashni ifodalash uchun ishlataladi. Parvarishlovchi shaxs bolaning yetarlicha ovqatlanayotganini bilishi va nazorat qilib borishi uchun bolaning o•z tovoqchasi bo•lishi kerak. Bolani ovqatlantirish uchun taom turiga qarab qoshiq yoki toza qo•llardan foydalanish mumkin. Idish bolaning yoshiga mos bo•lishi kerak. Ko•pgina davlatlarda bola qattiq ovqat iste'mol qila boshlaganda kichkina qoshiqdan foydalanadi. Keyinchalik katta qoshiq yoki sanchiqdan foydalanish mumkin.

Qo•shimcha ovqat berish uchun eng maqbul vaqt bola ovqatlanishga tayyor bo•lgan vaqt, ya•ni qorni och va ona o•z bolasiga ko•proq vaqt ajrata oladigan vaqtadir. Kunning birinchi yarmi afzalroqdir. Ko•krak suti kamayishining oldini olish uchun qo•shimcha ovqatni emizgandan so•ng berish mumkin.

**4-TAMOYIL.** Gigienaga riosa qiling va mahsulotlarni xavfsiz tayyorlang. Qo•shimcha ovqatning mikrob bilan ifloslanishini kuchaytiradi ayniqsa 6 dan 12 oygacha bo•lgan bolalarda tez-tez uchraydigan oshqozon-ichak kasalliklarining asosiy sababchisi hisoblanadi. Qo•shimcha ovqatni xavfsiz holda tayyorlash va saqlash mikrob tushishini oldini olishi, shu bilan birga diareya xavfini kamaytirishi mumkin. Suyuqlik berish maqsadida so•rg•ichli butiliklardan foydalanish piyoladan (chashka) foydalanishga qaraganda ko•proq infeksiya yuqishini keltirib chiqarish extimoli kuchliroq, shuning uchun undan imkon qadar kamroq foydalanilgani ma'qul.

Chaqaloq va kichkina bolani ovqatlanirishda ishlataladigan piyola, tovoqcha va qoshiq kabi barcha buyumlar yaxshilab yuvilishi lozim. Ko‘p davlatlarda qo‘l bilan yeyish odat hisoblanadi, ba’zan «qo‘lda yeyiladigan taom» deb ataladigan ovqatning qattiq bo‘laklarini bolalar qo‘liga tutqazish mumkin. Unday holda parvarishlochining ham, bolaning ham qo‘llari ovqatlanishdan avval sovun bilan yaxshilab yuvilgan bo‘lishi kerak. Bakteriyalar issiq haroratda tez tarqaladi, ovqat sovuq joyda saqlansa, sekin tarqaladi. Issiq iqlimda yuzaga kelgan bakteriyalarning ko‘pchiligi kasallik xavfsini oshiradi. Ovqatni muzlatkichda saqlashning imkonи bo‘lmasa, uni tayyorlangandan ko‘p o’tmay (2 soatdan ortiq emas) bakteriya ko‘paya boshlamasidan iste’mol qilish kerak. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha asosiy tavsiyalar:

- Tozalikka rioya qiling;
- Xom va qaynatilgan mahsulotlarni alohida saqlang;
- Mahsulotlarga lozim bo‘lgan issiqlikda yaxshilab ishlov bering;
- Ovqatni optimal haroratda saqlang;
- Sanitariya normalari bo‘yicha xavfsiz suv va yarim tayyor mahsulotlarni ishlating.

**5-TAMOYIL.** 6 oydan boshlab, bolaga kichik miqdorlarda ovqat bera boshlang va bola ulg‘ayib borishi bilan, tez-tez emizishni davom ettirgan holda, ovqat miqdorini ko‘paytirib boring. Ovqatning umumiyligi qiymati odatda oson bo‘lishi uchun energiya ko‘rsatkichi bilan, ya’ni bola ehtiyojidagi kilokaloriyalar (kkal) miqdori bilan o‘chanadi. Lekin boshqa ozuqa moddalari ham muhim hisoblanib, ular asosiy ozuqa mahsulotlarining yo bir qismi bo‘ladi, yo ularga qo‘srimchadir. Tushunish mumkinki, ko‘krak suti olti oygacha bolaning barcha ehtiyojni qoplaydi, lekin 6 oydan keyin qo‘srimcha ovqat hisobiga qoplanishi kerak bo‘lgan energiya yetishmasligi paydo bo‘ladi. Ko‘krak sutiga qo‘srimcha ravishda zarur bo‘lgan energiya 6-8 oylik bolalarda kuniga 200 kkal, 9-11 oylik bolalarda kuniga 300 kkal va 12-23 oylik bolalarda esa kuniga 550 kkal ni tashkil etadi. Tanqislikni qoplash uchun zarur bo‘lgan ovqat miqdori bola katta bo‘lgan sari va ko‘krak sutini kamroq iste’mol qilib borgan sari ko‘payib boraveradi.

Bola ulg‘aygan va rivojlangan sari ovqat miqdori ham ortib boradi. Zarur bo‘lgan ovqat miqdori uning energetik zinchligiga bog‘liq. Bu ovqatda 1 ml yoki grammida mavjud kilokaloriyalar sonini bildiradi. 100 ml ko‘krak sutida taxminan 700 kkal yoki 1 ml sutda 0,7 kkal bor. Bu qiyamat qo‘srimcha ovqatda o‘zgaruvchan bo‘ladi va odatda bir grammida

0,6 dan 1,0 kkal gacha bo'ladi. Suyuq va aralashtirilgan mahsulotlar bir grammida taxminan 0,3 kkal dan oshmaydi. Qo'shimcha ovqat 1 grammida 1,0 kkal bo'lishi uchun ancha quyuq va tarkibida energiyaga boy hisoblangan yog' yoki moy bo'lishi kerak. Qo'shimcha ovqat ko'krak sutiga qaraganda ko'proq energetik zichlikka, ya'ni kamida 1 grammida 0,8 kkal bo'lishi kerak. Agar qo'shimcha ovqat ko'proq kaloriyalı bo'lsa, energiya tanqisligini qoplash uchun uni kamroq miqdorda iste'mol qilish kerak bo'ladi. Agar qo'shimcha ovqat ancha suyultirilgan bo'lsa, ehtiyojni qoplash uchun ko'proq hajmda berilishi talab qilinadi. Qo'shimcha ovqat berilayotganda bola ko'krak sutiga kamroq intiladi va u iste'mol qilayotgan sut miqdori kamayib boradi, shu yo'l bilan ovqat ko'krak sutini siqib chiqaradi. Agar qo'shimcha ovqat ko'krak sutiga nisbatan ko'proq suyultirilgan bo'lsa, bola qabul qilayotgan kaloriya miqdori ham istisnosiz ko'krak suti emganga qaraganda kamayadi va bu to'yib ovqatlanmaslikning muhim sababiga aylanishi mumkin. Bolaning ishtahasi odatda berilishi kerak bo'lган ovqat miqdorini aniqlashda o'lechov birlik bo'lib xizmat qiladi.

Biroq kasallik va to'yib ovqatlanmaslik ishtahani pasaytiradi, natijada bola o'ziga kerak bo'lgandan kamroq ovqat yeyishi mumkin. Kasallikdan yoki to'yib ovqatlanmaslikdan tiklanayotgan bola iste'moliga kerakligini ta'minlash uchun qo'shimcha yordam talab qilinishi mumkin. Agar bola tuzalishi bilan uning ishtahasi yaxshilansa, berilayotgan qo'shimcha ovqat miqdorini ko'paytirish lozim bo'ladi.

**6-TAMOYIL.** Bola ulg'ayib borishi bilan, uning talab va imkoniyatiga qarab, taom konsistensiyasi va turli-tumanligini sekin-asta ko'paytirib boring. Chaqaloq yoki kichkina bola uchun oziqlanish mahsulotlarining eng maqbul konsistensiyasi yosh va nerv-mushak tizimi rivojlanishiha bog'liq. Olti oydan boshlab bola pyure, qirg'ichdan o'tkazilgan yoki yarimqattiq mahsulotlarni iste'mol qila oladi. Sakkiz oyga kelib bola odatda qo'lda ushlab yeydigan ovqatlarni iste'mol qila boshlashi mumkin. 12 oyga kelib esa bolalarning aksariyati oilaning boshqa a'zolari ham iste'mol qiladigan taomlarni yeyishi mumkin. Shunga qaramay, ular ozuqa moddalariga boy ovqatga ehtiyoj sezadilar, lekin yong'oq kabi allergiya qo'zg'ashi mumkin bo'lган mahsulotlardan tiyilgan ma'qul. Qo'shimcha ovqat qoshiq uchida turadigan va oqib ketmaydigan darajada quyuq bo'lishi kerak. Umuman olganda, quyuqroq va qattiqroq mahsulotlar suyuq, suvli va yumshoq mahsulotlarga qaraganda ko'proq energetik quvvatga va ko'proq ozuqa moddalari

zichligiga ega bo'ladi. Bola quyuq, qattiq ovqat yeganda unga ko'proq kkal berish va ozuqa moddalariga boy turli ingredientlarni, shu jumladan, hayvon mahsulotlarini qo'shib berish oson bo'ladi. «To'g'r algan» («bo'lakchali») ovqat bera boshlashning o'ta muhim davri haqida belgi bor: agar u 10 oylik yoshdan o'tguncha berilmasa, keyinchalik ovqatlantirish bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Yarimqattiq ovqat berishda davom etish vaqtini tejashi mumkin, lekin bolaning optimal rivojlanishi uchun sekin-asta ovqat quyuqligini oshirib borish muhim.

**7-TAMOYIL.** Bola ulg'ayib borgani sari qo'shimcha ovqat berish sonini ko'paytirib boring. Bola katta bo'lib, ko'proq ovqat miqdoriga ehtiyoji har kuni ortib borgani sari ovqatlantirish sonini ko'paytirib borish kerak. Chaqaloq yoki kichkina bolaga kerak bo'lgan ovqatlanish soni quyidagilarga bog'liq: ■ energiya tanqisligini qoplash uchun bolaga zarur bo'lgan mahsulotlar. Bolaga har kuni qancha ko'p ovqat kerak bo'lsa, talab qilinadigan energiya ko'rsatkichiga qarab ta'minlash uchun shuncha ko'p marta ovqatlanish kerak bo'ladi.

■ bir o'tirishda bola yeyishi mumkin bo'lgan ovqat miqdori. Bu bolaning odatda bir kilogramm vaznga 30 milligrammni tashkil etadigan oshqozoni hajmi va o'lchamiga bog'liq. Sakkiz kilogrammlik bola oshqozoni hajmi 240 ml.ga teng bo'ladi, bu katta chashkaga teng deganidir va bolaning bundan ko'p ovqat yeyishini kutish noto'g'ri bo'lardi.

■ berilayotgan ovqatning energiya zichligi. Qo'shimcha ovqatning energiya zichligi ko'krak sutinikidan yuqori, ya'ni kamida bir grammda 0,8 kkal bo'lishi kerak. Agar energiya zichligi past bo'ladi bo'lsa, unda ovqat miqdorini ko'paytirish kerak (ovqatlanish soni ham shunga yarasha ko'payishi mumkin). Ko'krak suti bilan emizilayotgan 6-8 oylik bola kuniga 2-3 marta, 9-23 oylik bola esa kuniga 3-4 marta ovqatlantirilishi kerak. Bolaning ishtahasiga qarab, 1-2 marta qisqa tamaddi berish mumkin. Tamaddi deganda bu yerda ovqatlanishlar orasida qabul qilinadigan, odatda bola o'zi mustaqil qo'lida yeydigan, tayyorlanishi oson va oddiy bo'lgan taom nazarda tutilyapti. Agar u qovurilgan bo'lsa, energiya zichligi yuqori bo'lishi mumkin. Ikki martalik ko'shimcha ovqatdan uch martalikka, kam miqdordan ko'p miqdorga o'tish bolaning ishtahasi va qanday rivojlanayotganiga qarab, sekin-asta yosh guruxlari o'rtasida amalga oshiriladi. Agar bola juda kam ovqat

yesa, u energiya ehtiyojini qondirish uchun yetarli ovqat qabul qilolmaydi. Agar bola juda ko'p yesa, bu uni kamroq emishga yoki emizishni umuman to'xtatishga olib kelishi mumkin (sudan chiqarish). Hayotning birinchi yilida ko'krak sutining (qo'shimcha ovqat tomonidan) surib chiqarilishi bola iste'mol qilayotgan ozuqa moddalarining sisati va soni kamayishiga olib kelishi mumkin.

**8-TAMOYIL.** Ehtiyojlarni qoplash uchun ozuqaviy moddalarga boy turli-tuman mahsulotlar bilan ovqatlantiring. Qo'shimcha ovqat bolaning energiya va ozuqa tanqisligini qoplash uchun yetarli miqdorda energiya, oqsil va mikronutrientlar bilan ta'minlaydi, demak u ko'krak suti bilan birga bolaning barcha ehtiyojlarini qondiradi. Eng katta tanqislik bu temir tanqislidir, shuning uchun qo'shimcha ovqatda temirning bo'lishi maqsadga muvofiqdir, imkonи bo'lsa go'sht, uy parrandasи yoki baliq kabi hayvon mahsulotlarini istemoli juda muhim. Dukkaklilar (no'xat, loviya, yasmiq) va S vitaminiga boy, temir so'rilihiga yordam beruvchi mahsulotlar muqobil bo'lishi mumkin, lekin ular hayvon mahsulotlari o'rnnini to'liq bosolmaydi. Yaxshi qo'shimcha ovqat xususiyatlari:

■ energiya, oqsil va mikronutrientlarga (ayniqsa temir, rux, kalsiy, A vitamini, S vitamini va folat kislotasiga) boy;

- achchiq va sho'r emas;
- bola uni oson iste'mol qiladi;
- bola uni xush ko'radi;

■ mahalliy darajada (do'kon yoki bozorda) mavjud va narxi qimmat emas.

"Mal'absorbsiya sindromi" (yomon so'riliш) – simptomokompleks bo'lib, ingichka ichakda xazm bo'lishining buzilishi (mal'digestiya) va so'riliш buzilishi (mal'absorbsiya), surunkali diareya bilan va og'ir ovqatlanishning buzilishiga olib keluvchi kasallik xisoblanadi.

#### A. Uglevodlar mal'absorbsiyasi

- laktaza yetishmovchilik;
- saxaroza-izomal'taza yetishmovchilik;
- monosaxaridlar mal'absorbsiyasi (glyukoza, galaktoza).

#### B. Seliakiya –glyuten xazm qila olmaslik.

### Klinik ko'rinishlari:

- ishtaxaning buzilishi;
- qorinning kattalashuvi;
- meteorizm;
- axlat tez-tez(**osmotik** diareya), ko'piksimon, acheniq-o'tkir hidli.

**Girshprung kasalligi** - bu yo'g'on ichakning anomal rivojlanishi bo'lib, ichak devorida intramural nerv gangliylarining yetishmovchiligi va bo'lmasligi bo'lib, buning natijasida ichakning o'sha soxasida peristaltika bo'lmay, ichak bo'shlig'idagi oziq mahsulotlari ushlanib qoladi.

### Klinik belgilari:

- yangi tug'ilgan chaqaloqlarda mekoniyning chiqmasligi;
- gaz chiqishining qiyinlashuvi;
- qorinning kattalashuvi;
- yangi tug'ilgan chaqaloqlarda paradoksal ich ketishlar va quisish.

Anamnez yig'ayotgan vaqtida quyidagilarga e'tibor berish kerak: ich qotishlar qaysi yoshda paydo bo'ldi; necha sutka mustaqil axlat qila olmaslik; bolada uzoq muddatli ich qotishdan keyin ich ketish kuzatildimi (ponos); tozalovchi klizmalar o'tkazilganmi va u yordam bergenmi?. Xayot anamnezidan quyidagilarni so'rash lozim: bola xayotining birinchi kunida 24 saat ichida mekoniy chiqganmi?; jismoniy rivojlanish qanday kechgan, gipotrofiya kuzatilganmi va xokazolar.

Oshqozon-ichak traktining funksional buzilishlari birinchi oylikda bo'lgan bolalar orasida keng tarqalgan muammolardan biridir. Farqli tomoni shundaki, bu holatda klinik simptomlar bo'lib, lekin oshqozon-ichak traktida organiq o'zgarishlar (tuzilishining anatomiyası, yalliglanish o'zgarishlari, infeksiyalar yoki o'smalar) va metabolik o'zgarishlar bo'lmaydi. Oshqozon -ichak traktining funksional buzilishlarida xazm qilish, motor fuksiyalar, so'rilishi, xazm kilish oziq moddalarining ichak mikroflorasiga va immun sistemasining buzilishiga olib keladi. Funksional buzilishlarning sababi shikastlanmagan organda nerv va gumoral boshqaruvining oshqozon-ichak traktida buzilishidir. Xalqaro ishechi guruuning III Rim mezonlariga binoan funksional buzilishlar 2006 yilda oshqozon-ichak traktining funksional buzilishiga 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladi:

- \*G 1 Chaqaloqlarda emgan sutining qisman qaytib kelishi
- \*G 2 Chaqaloqlarda qayt qilish

\*G 3 Siklik qusish sindromi

\*G 4 Yangi tug'ilgan chaqaloqlar kolikasi

\*G 5 Funksional diareya

\*G 6 Go'daklarda og'riqli va qiyin defekatsiya (disxeziya)

\*G 7 Funksional qabziyat

Ko'krak yoshidagi bolalarda ayniqsa 6 oygacha bo'lgan bolalarda emgan sutning qisman qaytib chiqishi, ichak kolikasi va funksional qabziyat ko'p uchraydi. Ko'p bolalar har xil kombinatsiyada, kamroq bitta cheklangan simptom bo'ladi. Oshqozon –ichak traktining funksional buzilishiga olib keladigan bitta bolada bir nechta simptom mujassam bo'lishi mumkin. Gipoksiya bilan tug'ilgan bolalarda vegeto-visseral buzilishlar, motorika giper- yoki gipotonik genez, boshqaruvchi bajaruvchi peptidlarning faoliyatini buzilishi, bir vaqtda qisman qaytib chiqishi (sfinkterlarining spazmi) kolikalar(oshqozon-ichak trakti motorikasining buzilishi va gaz xosil bulishining oshishi), qabziyat (gipotoniya yoki ichak spazmi).

Oshqozon ichak traktining funksional buzilishini 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ona bilan bog'liqligi
2. Bola bilan bog'liqligi

**1. Birinchi guruh sabablarga quyidagilar kiradi:**

\*akusherlik anamnezi

\*stress vaziyatlarda onaning emotsiyal labilligi

\*emizikli onanining ovqatlanishi buzilishi

\*ovqatlanish texnikasining buzilishi: tabiiy va suniy ovqatlanishda meyordan ko'proq ovqatlantirish

\*sutli aralashmalarni noto'g'ri tayyorlash

\*ayolning chekishi

**2. Bola bilan bog'liq sabablar quyidagilar:**

\*anatomik va funksional ovqat xazm qilish azolarining etilmaganligi (qizilo'ngachning kaltaligi, sfinkter yetishmovchiligi, ovqat xazm qilish tizimini koordinatsiyasini ishlamasligi).

\*ichak markaziy va periferik nerv tizimining etilmaganligi natijasida oshqozon-ichak tizimi funksiyasining buzilishi

\*ichak mikrobiotining shakllanishi

\*uyqu va sergaklik ritmining shakllanishi

Ovqatning og'iz bo'shilig'iga qisman qaytib kelishi,kolika, axlatning buzilishi(vegetovisseral bosh miya ishemiyasi) qisman laktaza

etishmasligiga va ovqat allergiyasining gastrointestinal formasida kuzatiladi. Ovqatning og'iz bo'shlig'iga qisman qaytib kelishi (regurgitatsiya) deganda oshqozondagi ovqatning o'z-o'zidan qisman og'iz bo'shlig'iga qaytib kelishiga aytildi. Tekshiruvlar natijasi shuni ko'rsatdiki, l yoshgacha bo'lган bolalarning 18% dan 50 % gacha og'iz bo'shlig'iga ovqatning qisman qaytib kelishi uchraydi. Ko'pincha og'iz bo'shlig'iga ovqatning qisman qaytib kelishi birinchi 4-5 oylikda, qisman esa 6-7 oylikda, quyuq bo'tqalarning ovqat ratsioniga qo'shilganda (qo'shimcha ovqat maxsulotlari) bu holat yani ovqatni oshqozondan og'iz bo'shlig'iga qaytib kelishi kuzatiladi, bola ko'proq vertikal xolatda yoki o'tirganda xam bu xolat deyarli kuzatiladi.

Jadval 5

Og'iz bo'shlig'iga ovqatning qisman qaytib kelishi intensivligini baholovchi shkala (Y.Vandenplas et al., 1993)	
0 ball	Og'iz bo'shlig'iga ovqatning qisman qaytib kelishi kuzatilmaydi
1 ball	Sutkada 5martadan ko'p bo'Imagan va xajimi 3 ml gacha ovqatning qaytib kelishi
2 ball	Sutkada 5martadan ko'p va xajimi 3 ml dan ko'p ovqatning qaytib kelishi
3 ball	Sutkada 5 martadan ko'p berilgan ovqatning ½ qismi 1 mahal berilgan ovqatning yarmi
4 ball	Ovqatning og'iz bo'shlig'idagi qayta kelishi xam xajmda 30 minut davomida, keyin esa har bir ovqatlangandan keyin
5 ball	Ovqatning og'iz bo'shlig'iga qisman qaytib kelishi emgan ovqatinining ½ va to'liq emganini qaytib kelishi

Og'iz bo'shlig'iga ovqatning qaytib kelishi darajasini ekspertlar besh ballik shkala bilan baholadilar:

Kam miqdorda va ko'p bo'Imagan og'iz bo'shlig'iga emgan ovqatini qaytib kelishi kasallik deb xisoblanmaydi, chunki bu holat bolaning sog'lig'iga tasir ko'rsatmaydi. Bolalarda 3 balldan 5 ballgacha ovqatning og'iz bo'shlig'iga qaytib kelishi qo'yidagi asoratlarga olib keladi-ezofagit, jismoniy rivojlanishdan orqada qolishi, temir yetishmovchiligi anemiyasi, lor azolarining kasalligi kuzatiladi. Ezofagitning klinik ko'rinishi disfagiya, ishtaxaning pasayishi va ovozning bo'g'ilishi.

Bolalarda ko'p uchraydigan keyingi oshqozon-ichak tizimining buzilishi bu ichak kolikasi bulib, bu 1 xafizada 3 martadan kam bo'Imagan kuniga 3 saat davom etadigan bolaning bezovtalanishi, og'riqdan yig'lashi bilan kuzatiladigan holat xisoblanadi. Bu holatning boshlanishi

bola xayotining 2-3 xtaftaligida va kulminatsiyaga o'tishi ikkinchi oylikda, sekintlik bilan 3-4 oylikda ketadi. Ichak kolikasining tipik vaqtı kechki payt xisoblanadi. Kolikaning boshlanishi va tugashi to'satdan bo'ladi, xech kanday sabablarsiz. Ichak kolikasining uchrashi 20%-70% gacha kuzatiladi. Ichak kolikalarining uzoq muddat o'rganilishiga qaramasdan etiologik sabablari nomalumligicha qolmoqda. Ichak kolikalari uchun og'riqdan yig'lash, yuzning qizarishi, bolaning majburiy holatni egallashi, oyoqlarini qorniga bukishi, gaz va axlatning qynoqli chiqishi xos. Defekatsiyadan keyin engillik kuzatiladi. Bola ishtaxasi yaxshi, jismoniy rivojlanishi yoshiga mos bulsa ham ota-onalarda ichak kolikalari xavotirni uyg'otadi. Bola tabiiy yoki suniy ovqatlanishda bulsa xam bir xilda kuzatiladi. Kuzatishlar shuni kursatdiki, bolaning tana massasi va gestatsion yoshi qancha kichik bulsa ichak kolikalari shuncha kup kuzatiladi.

Sunggi yillarda "kolika" yuzaga kelishida ichak mikroflorasi katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, bolalardagi bu funksional buzilishda ichakda mikrobiotlar tarkibining uzgarishi, shartli-patogen mikroorganizmlar kupayishi va ximoya florasi - bifidobakteriya va ayniqsa laktobakteriyalarning kamayishi bilan xarakterlanadi. Proteolitik anayrob mikrofloraning miqdorining kupayishi sitotoksin gazlar hosil bulishiga sabab buladi. Bolalarda kuchaygan ichak kolikasida yallig'lanish oqsili - kalprotektin miqdori tez-tez oshib turadi.

Funksional qabziyat bolalar xayotining birinchi yilida 20-35 % hollarda uchraydi va utkazilgan ichak funksiyasining buzilishlar soniga bogliq buladi.

Qabziyat deyilganda-defekatsiya akti oralig'idagi intervalning fiziologik normadan 36 soatdan ortiqcha yoki ichakning muntazam notuliq evakuatsiyasi tushuniladi.

Normada bolalarda defekatsiya soni: 0-4 oylik bolalarda sutkada 1 tadan 7 tagacha, 4 oydan 2 yoshgacha 1dan 3 martagacha ichaklar evakuatsiyasi bulishi kerak. Go'daklarda defekatsiya buzilishi disxeziya - og'riqli defekatsiya, yani kichik chanoq bo'shlig'ida mushaklar dikneziyasi va axlatning funksional to'xtashiga tushuniladi. Bu xolatda axlatning hajmi katta, konsistensiyasi yumshoq, defekatsiya akti oralig'i uzoq bo'ladi.

Ko'krak yoshidagi bolalarda qabziyat kelib chiqish mexanizmida asosiy bo'lib, yo'g'on ichak disxeziyasi hisoblanadi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ich qotishning asosiy sababi alimentar buzilishlardir.

Funksional buzilish va patologik xolat orasida aniq bir chegara yo'qligi sababli chuqr diagnistik tekshiruvlar olib borish kerak.

Emizikli bolalarda OIT ni funksional buzilishini davolashda bir qator ketma-ket chora tadbirlar olib borilishi kerak:

\*Ota-onasiga psixologik yordam va tushuntirish ishlari olib borilishi;

\*Dietoterapiya;

\*Dori-darmon terapiyasi;

\*Dori-darmonsiz terapiya. Dori darmonsiz davolashga: massaj, suv mashqlari, musiqa terapiya, aromaterapiya.

Og'iz bo'shlig'iqa qisman ovqatning qaytib kelish xolati simtomatik terapiya o'tkazish yani bola tana holatini o'zgartirish, bu refleks darajasi va qizilungachdagi ovqat qoldiqlaridan tozalashga sabab bo'ladi. Bu esa aspiratsion pnevmoniya va ezofagit paydo bo'lishi darajasini kamaytiradi. Go'dak tana holatini 45-60 gradusga o'tirgan holatda emizish kerak. Emizishdan so'ng 20-30 minut mobaynida ortiqcha xavoning chiqib ketishini taminlash maksadida vertikal holatda ushlab turish zarur. Bolani tabiiy oziqlantirishda onaga birinchi navbatda laktatsiyaning buzilmasligini oldini olish uchun osoyishta muhit yaratib qo'shimcha ovqat va aerofagiyaning oldini olish zarur. Onaning ovqat ratsionidan gaz hosil qiluvchi (konditer maxsulotlari, sutli choy, uzum, alkogolsiz gazli ichimliklar) va ekstraktiv moddalari (go'shtli va baliqli bulyonlar, piyoz, chesnok, konserva, tuzlamalar, dudlangan maxsulotlar) bo'lgan ovqat maxsulotlarini cheklash lozim.

Ko'pgina olimlarning fikricha oshqozon-ichak tizimining buzilishi oziq mahsulotlarini ayniqsa sigir sutini hazm qila olmaslik natijasida kelib chiqadi. Bunday paytlarda onalarga gipoallergik dieta buyuriladi, ratsiondan sigir suti chiqariladi.

Yuqoridagi choralar effekt bermaganda va ovqat maxsulotlarining og'izga qaytib kelganda quyuqlashtiriluvchi bo'tqalar masalan, Bioguruchli qaynatma sutga aralashtirilib emizishdan oldin beriladi. Ko'krak yoshidagi bolalarda suniy ovqatlantirilganda aralashmani to'g'ri tanlash muxim axamiyatga ega. Sutli mahsulotlar, pre- va probiotiklar bilan boyitilgan hamda sut kislotali 1 va 2, NAN sut kislotali 1 va 2, Nutrilon sut kislotali, Nutrilac sut kislotali. Agar qo'llanilgan maxsulotlar foyda bermassa NAN komfort, Nutrilon komfort 1 va 2, Frisovom 1 va 2 buyuriladi. Agar disfunksiya laktaza tufayli sodir bo'lsa u holda laktozasiz aralashmalar buyuriladi.

Agar laktaza etishmasligi natijasida buzilish kelib chiqsa, bolaga asta-sekinlik bilan laktazasiz aralashma buyuriladi. Oziq-ovqatga allergiyasi bo'lsa ixtisoslashgan maxsulotlarga ega bo'lgan yuqori gidrolizlangan sutli oziq tavsiya etiladi. Ovqatning og'iz bo'shlig'iga qisman qaytib kelishi sabablaridan biri, perinatal davrda markaziy nerv sistemasining buzilish natijasida kolik va axlat chiqishining nevrologik buzilishiga olib keladi.

Tabiiy ovqatlantirishda xam xuddi suniy ovqatlantirishdagiga o'xshab, ovqatlantirish orasida bolaga qaynatilgan suv beriladi, bu ayniqsa ich qotishiga moyil bolalarda beriladi. Oziq maxsulotlarining qaytib kelishi bo'lgan bolalarda standart aralashmalar effekt bermaganda antireflyuks mahsulotlar (AR-aratashmalar) berilib, ularning tarkibida maxsuslashtirilgan qo'yqalar bo'ladi. Bu maqsadda 2 turdag'i polisaxaridlar qo'llaniladi:

- hazm bo'lmaydigan(kamedlar)
- hazm bo'ladigan(guruchli va kartoshkali kraxmal)

Jadval 6

#### *Antireflyuksli sutli aralashmalar*

Mahsulotning nomi	Firma, mamlakat	Quyuqtirgichning turi va ko'rinishi	Zardobdag'i oqsil/kazeinning nisbati
Frisovom 1, Frisovom 2	Frizlend Kampina, Niderlandiua	Kamed (0,5 va 0,4) +GOS	60/40
Nutrilon Antireflyuks	Nutritsiya Niderland	Kamed (0,4)	20/80
Xumana ARAntireflyuksnaya	Xumana, Germaniya	Kamed (0,5) Kraxmal (0,3)	56/44
Nutrilak Antireflyuk	Nutritek, Rossiya	Kamed (0,34)	20/80
NAN Antireflyuks	Nestle, Shvetsariya	Kraxmal (2,9)	60/40
Enfamil A.R.	Mid Djonson, SSHA	Kraxmal (2,1)	20/80
Sempir Lemolak	Semper Fuds, Shvetsiya	Kraxmal (0,9)	60/40

KDR, bolalar bo'tqasi mahsulotlari tarkibidagi shak-shubxasiz asosiy qism hisoblanadi va biz u haqida to'liqroq to'xtalib o'tmoqchimiz. KRD ning asosiy fiziologik faol tarkibiy qismi bu polisaxaridlar- galaktomonandlardir. U tolali ozuqalar tarkibiga kirib, 2 ta o'zaro bog'lik vazifani bajaradi. KRD qorin bo'shlig'idagi bo'tqa massasini konsistensiyasini quyuklashtiradi va shu orqali oziq-ovqatning og'iz bo'shlig'iga qisman qaytib kelishini oldini oladi. Shu bilan birga

KRD parchalanmaydigan ammolari tolali bo'tqalarni fermentlash xususiyatiga ega, bu klassik probiotiklar xususiyatini beradi. "Parchalanmaydigan bo'tqa tolalari" jumlesi ostida uning pankreatik amilaza tasiriga va ingichka ichak disaxaridazga chidamliligi tushuniladi. "Fermentlanuvchi oziq tolalari" tushunchasi ostida ularning yo'g'on ichakning foydali mikroflorasini ayniqsa bifidum bakteriyani fermentlanishi tushuniladi. Bunday fermentlanish natijasida organizm uchun muhim fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi, bular:

- yo'g'on ichak bo'shilig'ida bifidobakteriyalar miqdorining oshishi
- metabolitlar hosil bo'ladi, yani yog' kislotalari ular Ph kislotali tomonga burib ichak epiteliyalarini trofikasini yaxshilaydi.
- Ph kislotali muxit oshishi natijasida bifidobakteriyalarining miqdori oshadi, bu esa ichak mikrobiotlarini yaxshilanishiga olib keladi.

KRD (kamed) qo'shilgan aralashmalar funksional ich qotish berishi isbotlangan. Ichakdagagi muhitning kislotali muhitga o'zgarishi, ichak bo'shilig'idagi foydali ichak mikroflorasi ko'payishi hisobiga ichakdagagi bor moddalar ko'payadi va shular hisobiga ximus yumshab peristaltika oshadi. Bunday aralashmalarga Frisovom 1 va Frisovom 2 kiradi.<sup>1</sup> 1 aralashma tug'ilgandan 6 oygacha bo'lgan bolalarga, 2 aralashma 6 oylikdan 12 oylikkacha bo'lgan bolalarga beriladi. Bunday aralashmalar to'liq xajmida, yoki 1/3-1/2 kerakli xajmni har bir ovqatlantirishda va adaptatsiyalangan sutli aralashmalar ovqatlantirish mumkin noto'liq terapevtik bo'lgunga qadar beriladi. Boshqa AR quyuqlashtirilgan aralashmalar oshqozon-ichak tizimining yuqori qismiga tasir etib, ularni to'liq qo'llaganda natija beradi.

### **Oqsil energetik yetishmovchilik, etiologiyasi, klassifikatsiyasi, diagnostikasi, klinikasi. Davolash usullari va profilaktikasi**

Distrofiya- (grekcha dys-buzilish, trophe- ovqatlanish) –erta yoshli bolalarda uchrab, uchta turi bor. Gipotrofiya (ovqatlanishning kamayishi), semizlik (ovqatlanishning kupayishi), ya paratrofiya (normaga qaraganda tana og'irligi va bo'yining ko'pligi yoki tana massasining bo'y uzunligidan 10 % ga ko'payishi).

#### **Gipotrofiya**

Gipotrofiya (grekcha hypo-past, pasayish, trophe-ovqatlanish)- ovqatlanishning surunkali buzilishi hisoblanib, tana massasining defitsiti

natijasida kelib chiqadi. Ovqatlanish yetishmovchiligining asosiy variant bo'lib oqsil energetik etishmovchilik OKE hisoblanadi.

Etiologiyasi bo'yicha gipotrofiya 2 guruhg'a bo'linadi: ekzogen va endogen. Ekzogen sabablarda birlamchi gipotrofiya, endogen sabablarda ikkilamchi (simptatik) gipotrofiya tafovut qilinadi.

#### Gipotrofiyaning ekzogen sabablari

- Alimentar omillar: ona tomonidan- gipogalaktiya, sut bezining yassi so'rg'ichi va h. k., bola tomonidan- qushish, qayt qilish, pastki jag'ning kichiklig'i yoki yoshiga mos kelmagan aralashmalar berish, qo'shimcha ovqatni kech kiritish, sutkalik ratsionda oqsil, yog', vitaminlar, temir, mikroelementlarning kamayishi. Infektion omillar: homila ichi infeksiyasi (sitomyog'aliya, va h.k.), intranatal infeksiyalar, toksiko-septik holat, pielonefrit, siyidik yo'llari infeksiyasi va h.k. Gipotrofiyaning asosiy sababi bo'lib, ko'pineha oshqozon-ichak traktining infektion jarohatlanishi hisoblanadi. Buning natijasida ichaklar shilliq qavatida morfologik o'zgarishlar, disaxaridaz (laktoza) aktivligining susayishi, ichak devorining immunopatologik jarohatlanishi, disbakterioz natijasida uzoq kechadigan diareya, malabsorbsiya kelib chiqadi.

- Toksik omillarga sifatsiz, muddati o'tib ketgan sutli aralashmalarni qabul qilish, gipervitaminoz D, A, dorilar natijasida zaharlanish kiradi.

*Gipotrofiyaning endogen sabablari-* turli sababli perinatal ensefalopatiyalar, bronx-o'pkali displaziya, oshqozon-ichak traktining tug'ma rivojlanish nuqsonlari (pilorostenoz, dolixosigma, Girshprung kasalligi va h.k.).

Ichak rezeksiyasidan sung rivojlangan «kalta ichak sindromi».

Nasliy (birlamchi) va ikkilamchi immunodefitsit holatlar.

- Birlamchi malabsorbsiya va maldigestiya (laktoza, saxaroza, glyukoza, fruktoza ko'tara olmaslik, seliakiya, mukovissidoz, ekssudativ enteropatiya), hamda ikkilamchi malabsorbsiya (soyali yoki sigir sutini ko'tara olmaslik va h. k.).

- Modda almashinuvining nasliy anomaliyalari (galaktozemija, fruktozemija, leysinoz va x. k.).

- Endokrin kasalliklar (adrenogenital sindrom, gipotireoz, gipofizar nanizm va x. k.).

- Anoreksiya sabab buluvchi nevroz va psixopatiyalar.

**Patogenezi.** Gipotrofiyada ichak va to'qimalarda ovqat maxsulotlarining utilizatsiyasi buziladi, oshqozon, ichak, oshqozon osti bezining fermentativ aktivligi pasayadi, ichaklar kengayadi, uzunlashadi, va ich qotishiga, disbakteriozga olib keladi. Oqsil energetik yetishmovchilikda jigar funksiyasi (oqsil-sintetik, uglevod, oqsil va x. k.), yurak, bo'yruk, o'pka va h. k. organlarning funksiyasi buziladi. Bunday holatda oqsil, temir, mis, rux, folat kislota, piridoksin va boshqa vitaminlarning defitsiti natijasida anemiya kelib chiqadi. Modda almashinuvining buzilishiga quyidagilar hos: gipoproteinemiya, gipoalbuminemija, aminoatsiduriya, gipoglikemiya, atsidoz, gipokaliemiya, gipokalsiemiya, gipofosfatemija. Na va K almashinuvining buzilishi bo'yruk osti bezining disfunksiyasi natijasida kelib chiqadi. Oqsil energetik etishmovchilikning klinik simptomatikasi qo'yidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Trofik buzilishlar sindromi- teri osti yog' qavatining ingichka bo'lishi, tana massasining defitsiti va tana tuzulishining proporsionalligining buzilishi (CHulitskaya L. I. va F. F. Erisman indekslarining kamayishi), to'qima turgorining pasayishi va poligipovitaminoz (A, B, B2, B6, D) belgilari
2. Ovqat hazm qilish organlarining buzilish sindromlari- ishtahaning pasayishi, anoreksiya, ahlatining o'zgaruvchanligi, ich qotishi, disbakterioz, ovqatga tolerantlikning pasayishi.
3. Markaziy asab sistemasi disfunksiyasi sindromi- emotsiyal tonusning buzilishi, kam harakatchanlik, termoryog'ulyasiya va uyquning buzilishi, psixomotor rivojlanishdan orqada qolish, mushak gipo va distoniyasi.
4. Gemopoez buzilishi va immunobiologik reaktivlikning pasayish sindromi- anemiya, ikkilamchi immunodefisitsit holat, infeksiyonning lanish kasalliklarining atipik kechishi. Immunologik reaktivlik pasayishining asosiy sababi oqsil almashinuvining buzilishi hisoblanadi.

#### Klassifikatsiya

Og'irligiga qarab gipotrofiya 3 ta darajaga bo'linadi: I, II, III. Diagnozda gipotrofiya etiologiyasi, hamroh kasalliklari, asoratlari qayd qilinishi kerak. Birlamchi va ikkilamchi (simptomatik) gipotrofiya tafovut qilinadi. Birlamchi gipotrofiya ovqat yetishmovchiligi natijasida, ikkilamchi gipotrofiya- asosiy kasallik asorati sifatida kelib chiqadi.

### Klinikasi

**Gipotrofiya I darajasi** – tananing hamma qismida, ayniqsa qorinda teri osti yog<sup>\*</sup> qavatining kamayishi bilan harakterlanadi. Chulitskaya indeksi 10-15 ga teng.

To'qimalar turgori, mushaklar tonusi pasaygan. Teri va shilliq qavatlarning kam ifodalangan oqarishi, teri elastikligi va turgorligining pasayishi kuzatiladi. Bolaning bo'yli yoshiga mos, tana massasi esa normaga qaraganda 11-20% ga kamaygan bo'ladi. Bolaning umumiy ahvoli qoniqarli. Psixomotor rivojlanishi yoshiga mos, lekin bola bezovta, injik, tez charchaydi, uyqusi notinch.

**Gipotrofiya II daraja.** Teri osti yog<sup>\*</sup> qavati qorinda, ko'krakda, oyoq-qo'llarda kamaygan, faqat yuzda saqlangan. Chulitskaya indeksi 1-10 ga teng. Bola terisi oqargan, kul rangda, burmaga engil yig'iladi. Sonning ichki yuzasida ilviragan bo'ylama ketgan, xaltachaga o'xshagan burmalar paydo bo'ladi. Poligipovitaminoz (terining marmarsimon bo'lishi, burmalarda qipiqlanishi va giperpigmentatsiyasi, tirnoq va sochlarning sinuvchanligi, og'iz burchagida o'yilmalarning paydo bo'lishi va x.k.) belgilari rivojlanadi. To'qimalar turgori pasaygan. Mushak tonusining pasayishi natijasida qorin kattalashadi, ichak atoniyasi va meteorizmga olib keladi. Gipotrofiyada raxit kasalligi mushak gipotoniyasi, osteoporoz, osteomalyasiya, gipoplaziya, kraniotabes, katta likildok atrofining yumshashi, tishlarning kech chiqishi, lordoz, kifoz, skolioz bilan namoyon bo'ladi. Tana massasi 20-30 % ga kamaygan, bo'y uzunligi normaga qaraganda kamaygan. Bola holsiz, bezovta, injiq, tashqi muhitga befarq. Bolaning ishtahasi, ovqatga tolerantligi pasaygan. Uyqusi bezovta, termoregulyasiya buzilgan, bola tezsovqotadi yoki isib ketadi.

Ko'pgina bemorlarda otit, pnevmoniya, pielonefrit va boshqa infekzion kasalliklar kam simptomlar bilan kechadi. Gipotrofiya II darajasida bemorlarning ahlati o'zgaruvchan: ich qotishi dispeptik ahlat bilan almashinadi.

**Gipotrofiya III - darjası (marazm, atrofiya).** Birlamchi gipotrofiyaning III darajasida bemorning tashqi ko'rinishi teri bilan tortilgan skeletni eslatadi. Teri osti yog<sup>\*</sup> qavati qorin, ko'krak, qo'llyoqlarda, tanada yuqolgan, yuzida esa juda kamaygan yoki umuman yo'q bo'ladi. Teri kul rangda, quruq, oyoq-qo'llari sovuq. Teri elastikligi yo'qolib, yuzida ajinlar ifodalangan. Chulitskaya indeksi manfiy. Terida va shilliq qavatlarda gipovitaminoz (S, A, B vitaminlar) belgilari rivojlangan. Bemorning og'zi katta, og'iz burchagida bichilishlar ko'zga

tashlanadi. Ba'zida teri qoplamalarida ho'l eritemalar kuzatiladi. Bemorning yuzi qari odam yuzini eslatadi (ajinlar hisobiga). Qorni katta, damlagan, ahlati o'zgaruvchan, ich qotishi ich ketishi bilan almashinadi. Tana harorati pasaygan. Bemor tez sovqotadi yoki isib ketadi. Tana harorati sababsiz ko'tarilib turadi. Immunologik reaktivlikning susayishi natijasida otit va boshqa infeksiya o'choqlari (zotiljam, pielonefrit, kolienterit va h. k.) rivojlanib, kam ifodalangan simptomlar bilan kechadi. Bemorda raxitning gipoplaziya va osteomalyasion belgilari kuzatiladi. Bemorning tana massasi normaga qaraganda 30 % va undan kam. Bemorning bo'y uzunligi ham kamaygan.

Ikkilamchi gipotrofiyaning III- darajasida kasallikning klinik manzarasi birlamchi gipotrofiyaga nisbatan engilroq kechadi, agar asosiy kasalligi aniqlanib, tezda davolansa bolaning ahvoli yaxshilanib boradi.

#### SOG'LOM BOLA



#### OQSIL ENERGETIK YETISHMOVCHILIGI I DARAJA



#### OQSIL ENERGETIK YETISHMOVCHILIGI II DARAJA



#### OQSIL ENERGETIK YETISHMOVCHILIGI III DARAJA



7- rasm. Oqsil energetik yetishmovchiligi darajalari

## Gipotrofiyaning kechish variantlari

Gipostatura (grekcha hypo- past, statura-bo'y uzunligi)- bemor bo'y uzunligi va tana massasining bir xilda kamayishi. Chulitskaya indeksi pasaygan. Gipostatura miya va yurak nuqsonlari, ensefalopatiya, endokrin patologiya, bronx-o'pka displaziysi bilan tug'ilgan bemorlarga xos. Agar asosiy kasallik davolansa, masalan, yurak tug'ma nuqsoni jarrohlik yo'li bilan korreksiya qilinsa, bemorning jismoniy rivojlanishi normallashadi. Bemorning terisida poligipovitaminoz belgilari, trofik buzilishlar, disproteinemiya, aminoatsiduriya va h. k. kuzatiladi.

Kvashiorkor - tropik mamlakatlarda go'dak bolalarda gipotrofiyaning o'ziga xos kechish varianti, faqat o'simlik mahsulotlari bilan oziqlanish natijasida kelib chiqadi, hayvon oqsili defitsiti kelib chiqadi. Oqsil yetishmovchiligiga qo'yidagilar olib kelishi mumkin:

1. Uzoq diareya natijasida oqsil adsorbsiyasining pasayishi,
2. Proteinuriya, infektion kasalliklar, gelmintozlar, kuyish, kuchli qon ketish natijasida ko'p oqsil yuqotish,
3. Jigarning surunkali kasalliklarida ko'p oqsil yuqotish.

Kvashiorkorning asosiy simptomlari qo'yidagicha:

1. Nerv-psixik buzilishlar (apatiya, holsizlik, uyquchanlik, ko'p yig'lash, ishtahaning yuqligi, psixomotor rivojlanishdan orqada qolish).
2. Shishlar (kasallikning boshida gipoproteinemiya natijasida shishlar paydo bo'lib, keyinchalik shishlar yuzda, qo'l-oyqoda kuzatilib, yolg'on semizlikka olib keladi.
3. Mushak massasining kamayishi, mushaklar atrofiysi, to'qimalar trofikasining pasayishi kuzatiladi.
4. Jismoniy rivojlanishdan orqada qolish

Bu simptomlar D. B. Djeliff tetradasi deyiladi.

Kvashirkorda yana qo'yidagi simptomlar kuzatilishi mumkin-sochlarning o'zgaruvchanligi (to'qilishi, ingichkalanishi, xira bo'lishi), dermatit (terida gipovitaminoz belgilari), anoreksiya, oysimon yuz, anemiya, diareya) kuzatilishi mumkin. Kvashiorkorning kam uchraydigan simptomlariga qo'yidagilar kiradi: dermatoz (terida yumaloq qizil-malla rangdagi maydonlar), hepatomegaliya (jigarning yog'li infiltratsiyasi natijasida), terida ekzematoz o'zgarishlar, ekximoz, petexiyalar, poligipovitaminoz belgilari (A, B1, B2, D), bo'yrik funksiyasining pasayishi, qon zardobida - giproteinemiya, gipoglikemiya, aminoatsiduriya va h. k. Qon analizida anemiya, limfotsitopeniya, SOE

oshgan. Immunitet pasayishi natijasida infekzion kasalliklar og'ir kechadi.

Marazm- maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda uchraydi-bolaning och qolishi natijasida kelib chiqadi. Marazmning asosiy simptomlariga tana massasining defitsiti (60 % dan kam), teri va teri osti yog' qavatining yo'qolishi, qo'llarining ingichkalanishi, yuzi qari odamga o'xshab qoladi. Marazmning kam uchraydigan simptomlariga sochlarning o'zgarishi, vitaminlar yetishmovchiligi, diareya, retsidivlanuvchi infeksiyalar kiradi.

#### *Diagnoz va differential diagnoz*

Gipotrofiya diagnozining asosiy ko'rsatkichi bo'lib teri osti yog' qavatining qalinligi hisoblanadi.

*Differensial diagnostikasi.* Gipotrofiyani xondrodistrofiyadan, suyaklarning to'g'ma chiqishi, vitamin D rezistent raxit, vitamin D ga bog'lik raxitdan qiyosi tashxis o'tkazish kerak.

#### **Davolash**

Gipotrofiya bilan kasallangan bemorlarda davolash kompleksli bo'lishi kerak:

1. Gipotrofiya sababini aniqlash, uni yuqotish, va korreksiya qilish;
2. Dietoterapiya;
3. Ratsional rejim, tarbiya, massaj, gimnastika tashkil qilish;
4. Infekzion o'choqlarni, raxit, anemiya, hamroh kasalliklarni davolash;
5. Stimullovchi, simptomatik, fermento-vitaminoterapiya.

**Dietoterapiya-** Gipotrofiyada ratsional davolashning asosi hisoblanadi. Gipotrofiyada dietoterapiyaning asosiy prinsiplari uch fazali ovqatlanishdan iborat:

1. Ovqatga tolerantlikni aniqlash davri;
2. O'tuvchi davr;
3. Kuchli (optimal) ovqatlantirish davri.

Gipotrofiyada dietoterapiyaning keyingi muhim prinsiplariga qo'yidagilar kiradi:

1. Davolashning erta etaplarida engil hazm bo'lувchi ovqat mahsulotlari (ona suti, nordon sutli, atsidofil aralashmalar, «Malyutka», «Malish», «Biolakt», va h. k.) berish;
2. Tez-tez ovqatlanish (gipotrofiya I- darajasida-7 marta, II-darajasida- 8 marta, III- darajasida-10 marta);

3. Ovqatlanishni sistematik nazorat qilish (kundalik tutib, eyilgan ovqat miqdorini, ichilgan suyuqlik miqdorini, ahlat, diurez miqdorini qayd qilish):

Jadval 7

YOSHI	Sutkalik suv ehtiyoji, ml/kg tana og'irligiga
3 kun	80-100
10 kun	125-150
3 oy	140-160
6 oy	130-155
9 oy	125-145
1 esh	120-135
2 esh	115-125
4 esh	100-110
6 esh	90-100
10 esh	70-85

Ovqatga tolerantlikni aniqlash davri-gipotrofiya I- darajada – 1-2 kun, II- darajada-3-7 kun, III- darajada-10-14 kunni tashkil qiladi.

Davolashning birinchi kunidan bolaning faktik massasiga qarab suyuqlik miqdori berish kerak.

Davolashning birinchi kunida sutkalik aralashmasining sutkalik hajmi gipotrofiya I- darajasida 2/3 qismi, gipotrofiya II- darajasida-1/2, gipotrofiya III -darajasida 1/3 tana massasiga nisbatan beriladi. Kaloraj esa qo'yidagicha: gipotrofiya I- darajasida-100-105 kkal/kg; II- darajasida- 75-80 kkal/kg; III- darajasida-60 kkal/kg; oqsil mikdori-2g/kg sutkada I darajali gipotrofisyada, II- dar.-1,5 g/kg, III- dar.-0,6-0,7 g/kg. Etmagan suyuqlik miqdori enteral glyukoza, tuzli aralashmmalar (oralit, regidron, sitroglyukosolon) sifatida beriladi.

Sirkulyasiyalovchi qonning normal hajmini tiklash, elektrolitlar almashinuvini korreksiya qilish, oqsil sintezini stimulyasiya qilish- og'ir gipotrofiyada birinchi va ikkinchi kun vazifalariga kiradi. Parenteral oziqlanishda aminokislota eritmalar (aminokislota gidrolizatlari), 5% li albumin qo'llaniladi. Ovqatga tolerantlikni aniqlash davrida har kuni har bir oziqlanishga 10-20 ml asosiy aralashma miqdori kupaytirilib boriladi.

O'tuvchi (oraliq) davrda asosiy aralashmagaga davolovchi aralashmalar (umumiy hajmning 1/3 qismidan) qo'shiladi, ya'ni tarkibida

ona sutiga qaraganda ko‘p ingredientlari bor bo‘lgan adaptirlangan aralashmalar qo‘shiladi.

Ovqatlanishning hajmi va tarkibini bolaning bo‘lishi kerak bo‘lgan og‘irligigaq oshirib boriladi. Ratsionda oqsil miqdorini oshirish uchun oqsil aralashmali va mahsulotlari (oqsilli enpit, yog‘sizlangan kefir, tvorog, tuxum sarigi, va h. k.) tavsiya qilinadi.

Dietoterapiya effektivligining kriteriyasi bo‘lib qo‘yidagilar hisoblanadi: emotsiyal holatining yaxshilanishi, ishtahaning normallashuvi, teri qoplamlari va to‘qimalar turgori holatining yaxshilanishi, kunlik tana og‘irligining 20-30 g kupayishi, L. I. Chulitskaya indeksining normallashuvii.

Kuchli ovqatlanish davrida gipotrofiya I- darajasida-140-160 kkal/kg sutkada, II-III darajasida- 160-180 kkal/kg sutkada tavsiya qilinadi, oqsil miqdori -3,5-4g/kg ni tashkil qiladi. Dietoterapiya effektivligining asosiy kriteriyasi bulib qo‘yidagilar hisoblanadi: ovqatlanish va psixomotor status, modda almashinuv ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi, kunlik tana og‘irligining 25-30 ga oshishi.

I darajali gipotrofiya asoratlanmagan bo‘lsa, uydai davolash mumkin. II va III darajali gipotrofiya statsionar sharoitida davolanadi. Palata toza, yorug, xona harorati 24-25 0 s bo‘lishi kerak. Gipotrofiyada massaj va gimnastika bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiqdir.

**Ichak disbakteriozining korreksiysi:** gipotrofiyada disbakteriozni korreksiya qilish uchun bifidumbakterin yoki bifikol 3 hafta mobaynida qo‘llaniladi.

**Fermentoterapiya-** gipotrofiyada ovqatga tolerantlikni aniqlash davrida qo‘yidagi fermentlar ishlataladi: abomin, festal, mezim forte, kreon, oshqozon shirasi va h.k. Agar koprogrammada neytral yog‘, yog‘ kislotalarining mikdori ko‘p bo‘lsa, pankreatin, panzinorm, pansitrat qo‘llaniladi.

**Vitaminoterapiya-** kasallikning boshida vitaminlar parenteral, so‘ng per os buyuriladi. Birinchi kunlari vitamin S, B 1, B 6 beriladi. Davolashning 2-3 davrlarida vitamin A, PP, B 15, B5, E, folat B12 qo‘llaniladi.

**Stimullovchi terapiya-** apilak, dibazol, pentoksil, metatsil, pantokrin, jenshen qo‘llaniladi. Infeksiya bilan kechadigan og‘ir gipotrofiyada immunoglobulin qo‘llaniladi. Stimullovchi terapiya

maqsadida 20 % li karnitin xlorid 1 tomchidan 1 kg tana og'irligiga tавсиya qилинади (qaynagan suvga qo'shib ichiladi).

*Simptomatik terapiya:* Anemiyanı davolash maqsadida temir preparatlari, folat kislota qo'llaniladi, gemoglobin miqdori 70 g/l dan past bo'lsa, eritrotsitar massa qo'yish tавсиya qилинади.

Gipotrofiyani davolashda vrach har bir bolaga individual yondoshishi kerak.

**OQIBATI:** Gipotrofiyani sababini yo'qotishga, xamrox kasalliklar va asoratlar borligiga, bemor yoshiga, ovqatlanish xarakteriga, muhit sharoiti, gipotrofiya darajasiga bogliq.

#### PROFILAKTIKA

1. Tabiiy ovqatlantirish muhim.
2. Gipogalaktiyani erta aniqlab, ratsional davolash.
3. Yoshiga qarab tug'ri ovqatlantirish.
4. Ovqatning etarli vitaminizatsiyasi.
5. Raxit profilaktikasi.
6. Kunlik marom va parvarishni tashkil qilish.
7. Raxit, anemiya, nafas, oshqozon-ichak sistemasi organlari, bo'yralar, endokrin kasallikkarni erta diagnostikasi va tug'ri davolash.

#### Suyak toqimasi fiziologiyasi

Suyak toqimasining 2 turi mavjud-plastinkasimon(kortikal) kollagen fibrillalari bir xil yonalishga ega va tolali (trabekulyar),tolalari har xil yonalishga ega. Kortikal to'qima inson suyaklarining asosini tashkil etadi(ularning massasining 80%), tashqi suyakni qoplaydi va asosiy yukni ko'taradi,qo'llab-quvvatlash va tikish funksiyasini bajaradi. Govaksimon moddaning tuzilishi, uning ustida faol statik yuk bilan belgilanadi.Trabekulalarning eng ko'p yuklangan qatorlari eng katta kuchga ega.Qo'llab-quvvatlovchi funksiyadan tashqari, suyak to'qimasi inson organizmida Ca va P metabolizmasida faol ishtirok etadi.

*Embriogenet:* suyak toqimasining hosilasi homila ichi hayotning ikkinchi oyida sodir bo'ladi.Mezenxima hujayralarinig toplanishidan tog'ay to'qimasi hosil bo'ladi, 5-7 haftasida ossifikatsiya nuqtalari paydo bo'ladi.Odatda tug'ilish vaqtida mezenximal hujayralar yo'q. Suyaklanish jarayoni homila ichi davridan boshlanadi va uzun suyaklarning diafizini va ayrim epifizlarni( yuqori va pastki boldir suyagi boshlari,katta boldir suyagining yuqori boshchasi, kubga o'hshash suyagi) o'z ichiga oladi.

Suyak tuzilishi: suyak to'qimasi suyak chiziqlarining noziq tizimi emas,balki qalin tolali, torsimon (retikulyar) tuzilishga ega.Suyak kanallari ko'p, keng va tartibsiz shakkllardir.

Suyaklarning uzunligi o'sishi,ayniqsa, 2-3 yil ichida yaqqol namoyon bo'ladi. Suyak to'qimasi juda kuchli yangilanish qobiliyatiga ega. Masalan, t ug'ruq vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan omrov suyagi yoriqlarining bitishi 5-6 kunda kuzatiladi.Suyaklar yaxshi qon bilan ta'minlanadi va tomirlarning oxirgi uchlari shu erda joylashadi.Bu ko'pincha gematogen osteomiyelitlarning paydo bo'lishiga yordam beradi,chunki infektsiya gematogen yol orqali tarqalib, gavers kanallarida joylashadi.

Suyaklar juda ko'p suvni o'z ichiga oladi, ayniqsa yangi tug'ilgan chaqaloqlarda -65 % va yoshi bilan uning miqdori kamayadi va yiliga 20%. Yosh bolalarda suyaklarning kamligi va yoshi bilan tuzlarning soni ortadi. Xomilaning qolgan qismi 39%, va 4 yil ichida-47% yetadi.

#### **Bosh suyagi suyaklari:**

- bir necha suyaklar birkkan joyda-liqildoq hosil boladi
- 2 ta yon (oz vaqtida tugilgan chaqaloqlarda yopilgan)
- kichik liqildoq yangi tugilgan 25% chaqaloqlarda ochiq, kamida 2 oylikda yopilishi mumkin
- katta liqildoq yangi tugilgan chaqaloqlarda olchami 2-2,5 sm, 1-1,5 yoshda yopiladi

#### **Tishlar:**

- embrional vaqtida 40-kundan boshlab hosila shakllanadi
- bola tishlarsiz tugiladi(ham sut tishlari,ham doimiy tish ozaklari mavjud)
- tishlar chiqishining aniq muddati mavjud
- sut tishlari 6 oylikdan chiqishni boshlab,2 yoshda tugaydi.

Ularning soni quyidagi formula orqali aniqlanadi: n-4, bu yerda n-bolaning yoshi oylarda(6-24 oylikda)

- doimiy tishlar chiqishi 5-6 yoshdan boshlanib,11-12 yoshda tugaydi. Ularning soni quyidagi formula orqali aniqlanadi: 4n-20, bu yerda n-bolaning 5 yoshdan oshgan yoshi
- pubertat vaqtidan song aql tishlari chiqadi.

## Mushak sistemasi

Mushak tizimining embriogenezi: skelet mushaklari mezodermadan rivojlanadi. Embriionning 3 haftasida mezoderma dorsal qismlari, bosh oxiridan boshlab somitlarga bo'linadi. Segmentatsiya kraniokaudal yo'nalishda tez tarqaladi va 6 haftasiga qadar 39 juft somiti hosil bo'ladi. Har bir somit skleroderma-tom, dermatom va miptom bilan ajralib turadi. Miotomlardan deyarli barcha kondalang-targ'il mushaklar hosil bo'ladi.

4 haftalik embrionda miptomalar asosan bitta yadroli yumaloq va keyinchalik ğaltaksimon shaklidagi hujayralar-mioblastlardan iborat. 5-haftadan boshlab mioblastlar DNKnini taqsimlash va sintez qilish qobiliyatini yo'qotadi. Ular qisqaruvchan oqsillarni-miyozin, aktin va boshqalarni jadal sintez qila boshlaydi. Ulardan qisqaruvchan filamentlar -miyofilamentlar hosil boladi. Kelajakda mushak tolasiga aylanadigan ko'p yadroli mushak naychalar(mionaylar) hosil bo'ladi.

8-haftada embrionning deyarli barcha mushaklari anatomik ravishda farqlanadi va 10-haftada mushaklarning pay tugunlari allaqachon rivojlangan. Yumshoq mushaklar mezodermadan rivojlanadi va turli organlarning epiteliya tuzilmalarini o'rab turgan mezenximadan farq qiladi.

Bolaning yoshiga qarab mushak massasining o'sish dinamikasi:

\*yangi tuğilgan chaqaloqlarda 23-24%

\*8 yoshda 27-28%

\*12 yoshda 30%

\*14-15 yoshda 32-33%

\*17-18 yoshda 44%

Mushak tizimining morfologik xususiyatlari:

- kattalarga qaraganda 5 barobar ingichkarol

- yaxshi rivojlangan interstitial toqimaga ega

- miofibrillalari kam

- qisqa, noziq va oqargan

- kam miqdorda qisqaruvchan oqsillar-miyozin va aktinga ega

- yadrolari yumaloq shaklga ega

- yoqlar, oqsillar, neorganiq moddalar kam, suvgaga boy

Mushak birliklarining innervatsiyasi va qon bilan ta'minlanishi-mushaklardagi nerv oxirlaridagi harakat tug'ilishdan ancha oldin paydo

bo'ladi va tug'ilganidan keyin uzoq vaqt davomida ularning tarmog'i rivojlanishda davom etadi. Biroq proprioceptor apparati tez sur'atlarda shakllanadi va ularning rivojlanishi motor oxirlaridan oshadi. Tug'ilgan vaqtga kelib, nerv-mushak chizig'i allaqachon yaxshi rivojlangan kapsula,to'plamlar va tarqalgan nerv tolalari va mushak sterjiniga ega. Yosh otgan sari nafaqat strukturasi,balki ularning mushaklardagi taqsimoti ham o'zgaradi.

Embrional va erta bolalik davrida mushaklar qon ta'minoti allaqachon yaxshi rivojlangan, lekin bu davrda kattalar organizmidan farqli o'laroq, mushak tomirlarining tarqalish turi boshqa, u tarqalgan yoki o'tib ketuvchi, kattalarda esa-magistrilar tarqalgandir.

### III BOB. ERTA YOSHDAGI BOLALAR KASALLIKLARI.

#### 3.1.Bolalarda raxit

Raxit (yun. rhachis - umurtqa). Yosh bolalarda uchraydigan kasallik. Kasallikning tarqalish to'grisida aniq ma'lumotlar etarli emas. Statistika ma'lumotlariga qaraganda Angliyada 80%, AQSHda 87,7%, Germaniyada 74,2%, Rossiyada 80 - 90% gacha bolalar raxit kasalligi bilan xastalanganligi qayd qilinadi.

Organizmda vitamin D yetishmasligi tufayli fosforkalsiy almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Raxitga ko'pincha bolaning chala tug'ilishi, quvvatsizligi, sun'iy ovqatlantirish sabab bo'ladi. Bola yaxshi parvarish qilinmasa, ochiq havo va quyosh nuridan bahramand bo'lmasa, noto'g'ri ovqatlantirilsa, uning organizmiga vitamin D yetarli miqdorda kirmaydi yoki ultrabinafsha nurlar yetishmasligidan terisida vitamin D hosil bo'lishi buzilib, raxit kasalligi kuchayadi. Bundan tashqari, bolaning tez-tez kasallanishi, onaning homiladorlik vaqtida ovqat ratsionining buzilganligi ham raxit kasalligiga sabab bo'ladi. Raxit kasalligi moddalar almashinuvining buzilishiga xamda turli a'zo va sistemalar ishining izdan chiqishiga olib keladi. Bu kasallikda fosfor va kalsiy kabi mineral tuzlar almashinuvি ayniqsa kuchli buziladi. Ichakda kalsiyning so'riliishi va suyaklarga cho'kishi o'zgaradi, bu - suyakning ingichkalashib, to'qimalarining yumshashiga, nerv sistemasi va ichki a'zolar ishining buzilishiga sabab bo'ladi.

Bolalarda suyak tuzilishining o'ziga xos anatomik – fiziologik xususiyatlari suyak to'qimasining shakllanishiga bog'liqdir. Bolalarning suyak to'qimasini katta yoshdagi odamlarnikiga nisbatan kimyoviy tarkibida suv miqdorining ko'pligi, mineral moddalarning esa kamligi bilan farqlanadi. Mineral moddalarning kattalarnikiga nisbatan kamligi bolalarda suyakning yumshoq eguluvchan bo'lishini ta'minlaydi. Suyakka taz'yiq o'tkazilganda u o'z shaklini darhol o'zgartiradi, lekin sinmaydi. Suyakning o'sishi va tiklanish qobiliyati ham kattalarnikidan farq qiladi. Shuning uchun xam bolalarda singan suyaklar kattalarnikiga nisbatan tezda bitib ketadi. Bolalarda suyak tuqimasining qarshilik ko'rsatish qobiliyati va uning yumshoqlik darajasi ham yuqoridir. Kasallik asosan 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'proq uchraydi.

## Etiologiyasi.

Birlamchi vitamin D- defitsitli raxitni keltirib chiqaruvchi sabablar va moyillik tug'diruvchi omillar:

1. Quyosh nurining etishmasligi va toza havoda sayr qildirmaslik - organizmda hosil bo'ladiigan 90% endogen vitamin D<sub>3</sub> (xolekalseferol) quyosh nuri ta'sirida terida hosil bo'ladi. Aniqlanishicha (1,5 yoshdan oshgan bolalar uchun) bolani har kuni quyosh nurida 1-2 soat davomida sayr qildirish kalsitriolning mo'tadil ko'rsatkichini bir hafta davomida ushlab turadi.

2. Ovqat faktorlari - bolani sun'iy ovqatlantirishda adaptatsiyalanmagan aralashimalardan foydalanish, uzoq vaqt sutli ovqatlantirish (1 litr ona sutida 50-70 XB, sigir sutida 20-30XB vitamin D<sub>3</sub> bor), sigir suti tarkibida fosfatlar miqdorining ko'pligi kalsiy, fosfor nisbatini o'zgartiradi va natijada kalsiyning ichaklardan so'riliishiga monelik qiladi. Qo'shimcha ovqatlarni kechiktirib kiritish (1g tuxum sariq'ida 140-390XB vitamin D<sub>3</sub> bor). Bundan tashqari sabzavot bo'tqalarini uzoq vaqt, hayvon oqsillarisiz berish ham raxitga olib kelishi mumkin, chunki bunda bola organizmi etarli darajada kalsiy, fosfor, mikroelementlarni, vitamin, aminokislota va lipidlarni qabul qilmaydi va bo'tqalar, sabzavotlar tarkibidagi fitin kislotasi kalsiyni ichaklarda bog'lab olib, uning so'riliishini kamaytiradi, va vitamin D va uning metabolitlarini so'riliishiga to'sqinlik qiladi.

3. Perinatal faktorlar- chala tug'ilgan bolada vitamin D, Ca va P zaxirasi kam bo'ladi. Onadan Ca va P ning yo'ldosh orqali bolaga intensiv ravishda o'tishi 36 haftalikdan (homiladorlikning 26 haftasida Ca 100-120mg/kg, P-60mg/kg sutkasiga o'tsa, 36 haftalikdan- Ca 120-150mg/kg, P- 85mg/kg sutkasiga o'tadi ) boshlanadi. Postnatal davrda o'sish esa chala tug'ilgan bolalarda yuqori bo'ladi, bu esa Ca, P va vitamin D ga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarda Ca ga bo'lgan sutkalik ehtiyoj 70-75 mg/kg bo'lsa, chala tug'ilgan chaqaloqlarda 200-225 mg/kg gacha sutkasiga tashkil qilishi mumkin. Kattalarda esa bu ko'rsatkich 8mg/kg ni tashkil qiladi. P ga bo'lgan sutkalik ehtiyoj vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarda 40mg/kg bo'lsa, chala tug'ilgan chaqaloqlarda 110-150mg/kg ni tashkil qiladi.

Ikkilamchi vitamin D - defitsit raxitni keltirib chiqaruvchi sabablarga quyidagilar kiradi:

1. Malabsorbsiya sindromi - seliakiya, mukovissidoz va oshqozon osti bezining boshqa kasalliklari ovqat mahsulotlaridan yog'ning

so'rilishini buzulishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida yog'da eruvchi vitamin Dning so'rilishini ham pasaytiradi. Eksudativ enteropatiya va ichaklarning boshqa surunkali kasalliklari Ca bog'lovchi oqsil sintezi va kalsitriol sintezi buziladi.

2. Jigar va buyrakning surunkali kasalliklari vitamin D<sub>3</sub>ning aktiv metabolitlarining hosil bo'lshini kamaytiradi.

3. Yatrogen faktorlar - talvasaga qarshi dorilarini (fenobarbital, disenin) uzoq vaqt davomida berilishi, vitamin Dning metabolizmini kuchaytiradi va uning endogen yetishmovchiliga olib keladi. Siyidik haydovchi vositalarni uzoq vaqt davomida qo'llash va parenteral ovqatlantirish nafaqat Ca, balki vitamin D yetishmovchiliga ham olib keladi.

4. Ekologik faktorlar - Tuproqda, suvda, oziq moddalarda stronsiy, simob, rux va boshqa metallarning ko'pligi suyaklarda kalsiyini o'tmini qoplaydi va natijada raxit, osteomalyasiya, osteoporozning rivojlanishiga olib keladi.

5. Psixosotsial faktorlar va harakat aktivligining yetishmovchiligi - nafaqat perinatal ensefalopatiya ta'sirida, balki oilada jismoniy rivojlanirish elementlarining yo'qligi (massaj, gimnastika va boshq.), mushaklar faoliyatining pastligi, suyaklarning qon bilan ta'minlanishini kamaytiradi.

6. Vitamin D va kalsiy- fosfor almashinuvining nasliy anomaliyalari.

7. Modda almashinuvining nasliy kasalliklari (sistinuriya, tirozinemiya va boshq.).

8. Poligipovitamininozlar.

9. Surunkali infeksiyon jarayonlar.

*Vitamin D ning asosiy vazifalari:*

1. Vit D - ichaklarda kalsiy bog'lovchi oqsil sintezini kuchaytirib, Ca va Pni ichaklardan so'rilishini ta'minlaydi.

2. Suyak - qon chegarasida sitratlar sintezini kuchaytirib, suyaklarning miniralizatsiyasini stimullaydi.

3. Osteoblastlar tomonidan osteokalsin (suyakning asosiy kollagen bo'limgan oqsili, suyaklanish indikatori) sintezini stimullaydi.

4. Ca ni suyaklarda to'planishini ta'minlaydi.

5. Qonning kislota - ishqorlik muhitini boshqaradi.

6. Ca, P ni buyrak kanalchalarida qayta so'rilishini ta'minlaydi.

7. Immunomodulyatorlik xususiyatiga ega bo'lib, vitamin D defitsit holatida organizmda fagotsitoz, interleykin 1.2, interferon sintezi pasayadi.

8. Mushaklar retseptorlari bilan bog'lanib, ularga kalsiyning o'tishini tezlashtiradi va mushaklar qisqaruvchanligini oshiradi.

### Raxit kasalligining patogenezi

Organizmdagi gipovitaminoz D holati ichaklarda kalsiy bog'lovchi oqsil sintezini kamaytirib, kalsiyning ichakkardan so'rilibshini, suyaklarning kalsiyni liksatsiya qilish xususiyatini, to'qimalarda sitratlar sintezini pasaytiradi. Qonda gipokalsiyemiya holati natijasida qalqonsimon oldi bezlarining faoliyati buzilib paratgarmon ishlab chiqishi kuchayadi. Paratgarmon suyakdag'i kalsiyni qonga yuvib chiqaradi, osteoklastlar funksiyasini kuchaytirib, osteoblastlar sintezini pasaytiradi. Buyrak kanalchalarida fosfatlar, bikarbonatlar va aminokislotalarning rearbsorbsiyasini tormozlab, siydiq bilan ajralishini kuchaytiradi. Paratgarmonning aynan shu xususiyati raxitda gipofosfatemiya, metabolik atsidozga sabab bo'ladi. Gipofosfatemiya organiq birikmalardan fosforning tezlik bilan ajralishiga olib keladi. Bu birinchi navbatda nerv ustunlari va nerv hujayralaridagi mielin pardasinining fosfatidlariga, mushak to'qimasidagi adinozinfosfor kislotasidan fosforning ajralishiga taluqlidir. Demielinizatsiya dastlab qo'zg'aluvchanlikning oshishiga, keyinchalik tormozlanish reaksiyalarining almashinishiga olib keladi. Mushak to'qimasida energetik almashinuvning buzilishiga va mushaklar tonusining pasayishiga olib keladi. Bu hol esa vegetativ asab sistemasining qo'zg'aluvchanliginig oshishi belgilari bilan kechadi (ko'p terlash, uyquning buzilishi, uchib-uchib tushish, bezovtalik). Raxitda qon zardobida ishqoriy fosfataza miqdori oshib ketadi, ammo uning ahamiyati hozirgacha to'liq o'rganilmagan. Lekin ba'zi olimlar ishqoriy fosfatazani oshishini organiq birikmalardan fosforning ajralishi bilan bog'lashadi. Giperparatireoidizm va vitamin D etishmasligi aminokislatalarning siydiq bilan chiqishini, ya'ni aminoatsiduriyani kuchaytiradi. Suyaklarning organiq matritsasi bo'lgan kollagen oqsilining strukturasini buziladi. Vitamin D aktiv metabolitining defitsiti kalsiy, fosfor, sitratlar almashinuvida kamchiliklar osteogenet buzilishiga olib keladi. Suyaklardan kalsiyning yuvilishi osteoporozga olib keladi. Suyaklar astasekin yumshaydi va bosim ta'sirida qiyshayadi. Suyaklarning ohaklanishi astasekinlashadi. Ca, P tuzlari osteoid to'qimada ushlanmaydi., tog'ayning

normal rezorbsiyasi kuzatilmaydi. O'sish zonasida tog'ay va osteoid hujayralar tartibsiz bo'linib ko'payadi. Naysimon suyaklar episiz va o'sish nuqtasida suyak to'qimasi kengayadi (osteoid to'qima giperplaziysi). Bir vaqtda suyaklar o'sishdan orqada qoladi va suyak to'qimasi gipoplaziysi kuzatiladi.

Yuqoridagi patologik holatlardan kelib chiqqan holda raxit kasalligida suyak sistemasidagi o'zgarishlarni 4 guruhga bo'lib o'rghanish mumkin.

1. Osteomalyasiya simptomlari - suyaklarning yumshashi. Bunda eski suyak hujayralarining qayta so'riliishi holati, bosh suyaklarining yumshashi, kraniotabes, liqqildoq atrofining yumshashi, braxitsefaliya, uzun suyaklarning, o'mrov suyagining va qovurg'alarning egilishi, yumshashi kuzatiladi. (8-rasm)

2. Osteoid giperplaziya simptomlari - (bu simptomlar raxit o'tkir osti kechishida ustunlik qiladi). Peshona, tepe do'mbogi, raxitik bilaguzuklar, marvarid iplari, raxitik tasbehlar.(9-rasm)




8-rasm



9-rasm

3. Suyak to'qimasi gipoplaziyası simptomlari- naysimon suyaklarning o'sishdan orqada qolishi tufayli oyoqlarning kalta bo'lishi, sut va doimiy tishlarning kech chiqishi, katta liqqildoqning kech yopilishi, yassi chanoqlik, pastki jag'ning o'sishdan orqada qolishi, egarsimon burun.

4. Mushaklar gipotoniyasi natijasida hosil bo'lgan suyak deformatsiyalari -umurtqa pog'onasining qiyshayishi (lordoz, kifoz, skalioz), pastki aperturaning qayrilishi bilan xarakterlanadigan ko'krak qafasining deformatsiyasi (tovuqsimon va etikdo'z ko'krak qafasi). (10-rasm)



10-rasm

## Tasnifi

Raxitning tasnifi 1947 yili pediatrlarning butunittifoq VI-s'ezdida qabul qilingan (S.O.Dulitskiy). E.M. Lukyanova va hammuallislardan tomonidan 1988 yil qo'shimchalar kiritilgan.(Jadval 4).

Jadval 4

### *Vitamin D defitsitli raxitning tasnifi*

Davriga qarab	Faoliyat darajasi	Kechishi	Kechish turi bo'yicha
Boshlang'ich Avj olgan davri Tiklanish davri -Qoldiq asoratlar davri	I - engil daraja II - o'rta og'ir daraja III - og'ir daraja	O'tkir O'tkir osti Qaytalanuvchi raxit	Kalsiyopenik turi Fosfopenik turi Kalsiy va fosfor miqdorining yaqqol o'zgarishlarsiz turi

## Klinik manzarasi

Kasallikning klinikasi bolaning yoshiga, kasallikning fazasiga, davriga, kechishiga va og'irlik darajasiga bog'liq. Kasallik ko'pincha kechki kuz faslida, qishda kuzatiladi.

Kasallikning kechishida quyidagi asosiy davrlari farqlanadi:

- Boshlang'ich davri.
- Avjga olish davri.
- Rekonvalissensiya (tuzalish) davri.
- Qoldiq asoratlar davri.

Raxitning boshlang'ich davri belgilari bolaning 1,5-2 oyligida, chala tug'ilgan bolalarda esa 3-4 haftaligida paydo bo'ladi va uning ilk belgilari asab tizimiga aloqador funksional o'zgarishlar bilan xarakterlanadi:

Bola sababsiz, haddan tashqari ko'p terlaydigan bo'lib qoladi, shuning oqibatida unga issiqlik toshib, badan terisining bichilib turishi, ensa soxasining qichishishi va soching to'kilib ketishi kuzatiladi.

Bola hadeb cho'chiyveradigan, sababsiz injiqlik qiladigan bo'lib qoladi. Uyqusi behalovat, notinch bo'ladi.

Raxitning boshlang'ich davri 2-3 haftadan 2-3 oygacha davom etadi va bu davrning oxirlariga kelib suyak to'qimasida o'zgarishlar topiladi, bu o'zgarishlar katta liqaldoq chetlari, choklar hosil qiluvchi suyaklar chetlarining yumshoqroq bo'lib qolishi kuzatiladi.

Kasallik boshlang'ich davrida aniqlanmasa va tegishli davo qilinmaydigan bo'lsa, u ikkinchi davrga o'tadi, bunda ko'pgina tizim va

a'zolarda o'zgarishlar paydo bo'ladi. suyaklarga oid belgilari yaqqol namoyon bo'ladi.

Suyaklardagi o'zgarishlar bolaning jismoniy rivojlanishiga va parvarish xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lib boradi. Chunonchi, bola suyaklarining yumshoq va egiluvchan bo'lib qolganligidan bola ma'lum bir vaziyatda uzoqroq yotqizib qo'yilsa, faqat bir tomonga qaratib emizilsa, beshikda haddan tashqari ko'p yotadigan bo'lsa, pastda joylashgan va og'irlik tushishidan bosilib qolgan sohalardagi suyaklarda deformatsiyalar kelib chiqadi. Masalan, ensaning yassi bo'lib qolishi, peshona va tepe suyaklarida do'mboqlarning paydo bo'lishi, kalla suyagining turli tomonga qiyshayib qolishi, ko'krak qafasi shaklining raxitik «tovuq ko'kragi», «etikdo'z ko'kragi» kabi ko'rinishni olishi, bilak suyaklarining pastki uchlarida «bilakuzuklar» - kengaymalar paydo bo'lishi, kichik chanoq og'zining torayishi, oyoqlarning O yoki X simon shaklda qiyshayib ketishi, umurtqa pog'onasining pastki ko'krak va bel bo'limida kifoz, gohida skolioz (ko'krak bo'limida) va lordoz (bel bo'limida) paydo bo'lishi, tishlarning kech va noto'g'ri chiqishi shular jumlasiga kiradi.

Suyak tizimidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda raxitda mushaklar va boylam apparati tonusining pasayib ketishi -gipotoniyaga xos belgilari ham kuzatiladi. Kasallik avjiga chiqqan davr raxitning zo'rayib borishi bilan xarakterlanadi, nafas a'zolari va yurak-qon tomirlar tizimida ham funksional o'zgarishlar paydo bo'ladi. Rekonvalissensiya davri raxit simptomlarining susayib, keyinchalik esa asta-sekin qaytib ketishi bilan xarakterlanadi. Birinchi navbatda asab tizimiga aloqador simptomlar yo'qoladi, suyaklari qattiqlashib, tishlar paydo bo'ladi, statik va motor funksiyalar rivojlanib boradi, jigar bilan taloq kichrayadi, ichki a'zolar funksiyalaridagi o'zgarishlar asta-sekin yo'qolib ketadi.

Qoldiq belgilari, odatda, o'rtacha og'ir yoki og'ir (II va III darajali) raxitni boshidan kechirgan 2-3 yoshli bolalarda kuzatilib, tishlar va suyaklar shakllarining o'zgarib qolishi, ba'zan jigar bilan taloqning kattalashib qolgani, u yoki bu darajadagi anemiya bilan ifodalanadi.

Klinik ko'rinishlarining og'ir-yengilligiga qarab raxitning uch darajasi - I darajali (yengil), II darajali (o'rtacha og'ir) va III darajali (og'ir) farqlanadi.

Raxitning I darajasida suyak to'qimasidagi o'zgarishlar kam rivojlangan bo'lsa, II darajasida kasallik belgilari yaqqol rivojlangan

bo'ldi. Hozirgi vaqtida III darajadagi raxit kamdan-kam uchraydi. Raxitning o'tkir, o'tkir osti va qaytalanib turuvchi kechishi farqlanadi.

Katta liqaldoqning kech bekilishi, birinchi tishlarning kech chiqishi, harakat rivojlanishining orqada qolishi va boshqalar singari alomatlarga qarab raxit deb tashxis qo'yish mumkin emas. Bunday simptomlar bolalarda raxitga aloqasi yo'q patologik holatlar yuzaga kelganda ham kuzatilishi mumkin.

**Asoratlari.** Kasallik vaqtida aniqlanmasa va tegishli spetsifik va nospetsifik davo choralarini ko'rilmasa, bolaning qaddi-qomatida, suyak tizimida juda ham og'ir va qaytarilmas qoldiq belgilari (asoratlar) qoldirishi mumkin. Bosh miyaning normal joylashuvining buzilishidan kelib chiqadigan patologik holatlar, ko'krak qafasi shaklining buzilishidan kelib chiqadigan nafas olishga to'sqinliklar, ayniqsa, bo'lg'usi onalar-qizlarda chanoq suyaklarining deformatsiyalari, oyoqlarning haddan tashqari qiyshayib ketish hollari shular jum lasidandir.

**Oqibati.** Raxit vaqtida aniqlansa va tegishli davo olib borilsa oqibat asoratsiz tugaydi. Ayrim hollardagina onalarning beparvoligi natijasida yuqorida aytilgan asoratlar kelib chiqish hollari kuzatilishi mumkin.

**Davolash va parvarish qilish.** Raxitning davosi kasallikning og'irlik darajasiga, kechishiga va uning davrlariga bog'liq bo'lib, davolashning asosiy usullari diyeto-gigiyena, vitamin D va fizioterapevtik muolajalarni o'z ichiga oladi.

**Raxit profilaktikasi:** Nospetsifik va spetsifik, bularning har biri o'z navbatida tug'ruqdan oldingi va tug'ruqdan keyingi profilaktik chora-tadbirlardan iborat. Tug'ruqdan oldingi nospetsifik profilaktik chora-tadbirlar homilador ayol uchun eng yaxshi sharoitlar yaratib berish (ovqatni bekamu ko'st, xilma-xil qilib, vitaminlar bilan boyitish, vaqtida mehnat qilib, vaqtida dam olib turish, gigiyena qoidalariiga rioya etish, ochiq havoda ko'p yurish va boshqalar) yo'li bilan antenatal davrdayoq amalga oshirib borilishi kerak. Tug'uruqdan keyin quyidagi asosiy nospetsifik profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak: 1) bolani ko'krak berib to'g'ri emizib borish va sabzavot yoki meva pyurelarini vaqtida berib turishga o'tish; 2) bolani parvarish qilgan mahalda gigiyena qoidalariiga va bolaning yoshiiga to'g'ri keladigan kun tartibiga rioya qilib, bolani ochiq havoda uzoq olib yurish, 3) chiniqtiradigan muolajalarni qo'llash (havo, yorug'lik-havo vannalari va boshqalarni); 4) massaj va

gimnastikadan keng foydalanish: 5) bolani infektion kasalliklardan mumkin qadar asrab, ehtiyoq qilish.

## **NAFAS OLISH TIZIMINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

### **Nafas a'zolarini embriogenezi**

Embrional rivojlanishning uchinchi haftasidan boshlab nafas a'zolari shakllanib boradi va bola tug'ilganidan keyin ham uzoq vaqt davom etadi. Embriogenezning 3-haftasida endodermal trubkaning bo'yin qismida do'mboqcha paydo bo'ladi, u tez o'sa boshlaydi. 4-haftada u o'ng va chap qismalarga bo'linadi – bo'lajak o'ng va chap o'pkalar. O'z navbatida ularning har biri daraxtsimon shoxlanadi. Bronxlar shilliq mushaklari va tog'aylari mezodermal mezenximadan shakllanadi. Traxeya va bronxlarning tog'ay karkasi homila rivojlanishining 10-haftasidan boshlab shakllanib boradi. Kanalikulyar faza (rekanalizatsiya) 16-26 hafta davom etadi. Bu vaqtida bronxlar bo'shilg'ini hosil bo'lishi o'pka respirator qismini shakllanishi va vaskulyarizatsiyasi bilan davom etadi.

Tugallovchi faza (alveolyar) – alveolalar shakllanish davri 24-haftalikdan boshlanadi. Bola tug'ilganidan ham alveolalar shakllanishi hali tugamagan bo'lib ular postnatal davrda ham shakllanishda davom etadi. Bolalarda nafas a'zolarining o'lchami nisbatan kichik bo'ladi va anatomo-gistologik jihatdan to'liq rivojlanmaganligi bilan farq qiladi. Ertayoshdagagi bolalarning burni nisbatan kichik, burun yo'llari tor bo'ladi va pastki burun yo'li bo'lmaydi. Burun shilliq pardasi nozik, nisbatan quruq va qon tomirlariga boy bo'ladi. Burun yo'llarining torligi va uni qon tomirlariga boy bo'lganligi sababli salgina yallig'lanish ham kichik bolalarda burun orqali nafas olishni qiyinlashtiradi. Bola hayotining birinchi yarim yilligida og'iz orqali nafas ololmaydi, chunki, tili katta bo'lganligi sababli xiqildoq ustki tog'ayini qisib qo'yadi. Ertayoshli bolalarda asosan burun chiqish yo'li – xoanalar tor bo'ladi, bu ko'pincha ularda uzoq vaqt burun orqali nafas olishni buzilishiga sabab bo'ladi.

**Gazlar almashinuvini yoshiga mos ravishda o'ziga xos xususiyatlari**

Homilada gaz almashinuvni yo'ldosh orqali amalga oshadi. Ona qoni bachadon arteriyalari orqali vorsinkalar oralig'i lakunalariga tushadi. O'z navbatida, homila qoni kindik arteriyasi orqali yo'ldoshga keladi,

kapillyar tomirlar keng shoxlangan vorsinkalar oralig'i lakunalariga tushadi. Ona qonini va homila qonidan ajratib turuvchi barer qalintligi 3,5 mkm atrosida bo'ladi. U 3 qavatdan iborat bo'ladi. Ona qonida RO2 nisbatan pastroq bo'ladi (bu aralash qon) va shuning uchun, kindik venasi orqali homilaga tushadigan qonda RO2 o'rtacha 60 mm sim.ust. (8 kPa) ni tashkil etadi.

Ammo homila qonida RO2 pastligi fetal gemoglobinni kislородга bo'lган talabi oshishi hisobiga bartaraf etiladi. Bu eritrotsitlar miqdorini oshishi bilan birga, qonni kislородга bo'lган hajmini etarli darajada ta'minlaydi (16-17 ml/l gacha). Bundan tashqari, homilada qon aylanishini o'ziga xos xususiyatlari sababli, miya va yurak kabi hayotiy muhim a'zolarga kislородга boy bo'lган qon boradi. Homilaning boshqa organlariga oksigenatsiya miqdori pastligi sababli ATF nafaqat oksidlanish hisobiga, balki anaerob yo'l bilan ham hosil bo'ladi. SHuning uchun homila to'qimalari gipoksiyaga chidamli bo'ladi.

**Birinchi nafas.** Past amplitudali nafas harakatlari homila ichki rivojlanish davridayoq kuzatiladi. Tug'ruq paytida yo'ldosh orqali gazlar almashinuvi buziladi, bu gipoksiya va giperkapniya rivojlanishiga olib keladi. Bu bilan bir vaqtida xemoretseptorlar sezgirligi birdan oshadi, bu gipoksiya va giperkapniyaning birgalikdagi ta'siri nafas harakatini kuchaytirishga yordam beradi. Tug'ruq yo'llari orqali o'tayotganda suyuqlikning bir qismi siqib chiqariladi. Nafas yo'llaridagi qolgan suyuqlik, birinchi nafas olishni qiyinlashtiradi, bu holatda yuzaki zo'riqishni kuchini sezilarli darajada bartaraf qilish zarur.

Bu vaqtida hal qiluvchi narsa yangi tug'ilgan chaqaloq qonida CO<sub>2</sub> bosimi oshib borganda, kindikni bog'lash hisoblanadi. CO<sub>2</sub> kritik o'chamdag'i kattalikka etgach, markaziy xemoretseptorlar orqali inspirator neyronlar qo'zg'aladi va birinchi nafas olish kuzatiladi. Nafas olish paytida yangi tug'ilgan chaqaloqni plevra ichi bosimi 30 mm.sim.ust.gacha pasayishi mumkin. Dastlab yangi tug'ilagn chaqaloqni o'pkalari bir xilda ochilmaydi. Lekin, qolgan suyuqlikni doimiy ravishda so'rilib borishi va sursaktant biosintezi alveolalarni stabillashtiradi. O'pkalar ventilyasiyasi faqat bir necha sutkadan keyingina bir xil bo'ladi.

Qarish davrida ham nafas tizimida ma'lum darajada o'zgarishlar kuzatiladi: asosan erkaklarda o'pkalar tiriklik sig'imi pasayadi, anatomik va fiziologik o'lik bo'shlqlar ortib boradi, nafas tezlashadi, o'pka elastikligi, alveolalar devorida kapillyarlar miqdori kamayadi. Buning

natijasida o'pkalarda gazlar diffuziyasi, asosan jismoniy zo'riqish paytida ma'lum darajada kamayadi.

### Nafas a'zolarining anatomo – fiziologik xususiyatlari

Nafas tizimi a'zolari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Burun;
- Qo'shimcha bo'shliqlar;
- Halqum;
- Hiqildoq;
- Bronxial daraxt;
- O'pkalar.

Nafas tizimining asosiy vazifalari:

- Organizmni kislород bilan ta'minlash;
- Organizmdan karbonat angidridni chiqarish;
- Gazlar almashinuvi uchun havoni taqsimlash.

Havo organizmga quyidagi yo'llar bilan kiradi: burun, halqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar orqali. Gazlar almashinuvi alveolalarda sodir bo'ladi. Sirkulyator sistema kislородни butun organizm hujayralarida taqsimlanishini ta'minlaydi. Turli yoshdagи bolalarda nafas a'zolari tuzilishi, funksiyasi va fiziologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu bronx-o'pka kasalliklarini kechishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu xususiyatlarni bilish nafas sistemasini optimal rivojlanishini ta'minlashga sharoit yaratadi, patologik holatda esa ratsional parvarish va davolashni, profilaktikani samarali usullarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

### Nafas a'zolarini morfologik xususiyatlari.

#### YUqori nafas yo'llarini o'ziga xos xususiyatlari.

Erta yoshdagи bolalarda yuqori nafas yo'llari morfologik jihatdan tugallanmagan bo'ladi.

#### Bolalarda burunni o'ziga xos xususiyatlari

Kalla suyagini yuz qismini to'liq rivojlanmaganligi burun o'lchamlarini kichik bo'lishiga sabab bo'ladi. Burun yo'llari tor bo'ladi, ko'krak yoshidagi bolalarda pastki burun yo'li bo'lmaydi; pastki burun yo'llini shakllanishi bolaning 4 yoshida tugallanadi. Burun yo'llarini kengayib borishi bilan intensiv ravishda xoanalar ham rivojlanib boradi.

Burun shilliq pardasi yupqa, nozik, qon tomirlariga boy bo'ladi. Qon tomirlariga boyligi va burun yo'llarining torligi shilliq pardanining tez shishishiga va burun yo'llarini torayishiga olib keladi. Buning natijasida

ko'krak yoshidagi bolalarda odatiy rinitda ham burun orqali nafas olishi qiyinlashadi. bu bolani emishiga xalaqit beradi, nafas yetishmovchiligi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shilliq osti pardasida kavernozi to'qima kam bo'ladi, shuning uchun erta yoshli bolalarda burundan qon ketishi kam hollarda kuzatiladi. Kavernozi to'qima 8-9 yoshda yaxshi rivojlanadi. SHuning uchun, 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda burundan qon ketishi juda kam holatlardagina kuzatiladi. Kavernozi to'qima massasining oshishi bola hayotining 8-9-yilida to'g'ri keladi.

Burun-ko'z yosh yo'lining kengligi va klapanlarining rivojlanmaganligi yallig'lanishni burundan ko'z shilliq pardasiga o'tishiga sharoit yaratib beradi.

Burun orqali o'tayotgan atmosfera havosi isiydi, namlanadi va tozalanadi. Burun bo'shlig'i iga 1 sutkada 0,5-1 l shilliq ajraladi. Har 10 minutda burun-halqum orqali tarkibida bakteriotsid modda (lizotsim, komplement va b.), sekretor immunoglobulin A bo'lgan yangi shilliq o'tadi.

Erta yoshli bolalarda qo'shimcha bo'shliqlar etarli darajada rivojlanmagan bo'ladi:

- yuqori jag' (gaymor) bo'shlig'i homila ichki rivojlanishining 3-oyida, g'ovaksimon (etmoidal) bo'shliq esa 6-oyida rivojlanadi, lekin yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uning o'chamlari kichik va etarlicha shakllanmagan bo'ladi, rentgenologik tekshirishlarda bu bo'shliqni bolani 3 oyligidan boshlab ko'rish mumkin. Gaymor va g'ovaksimon bo'shliqni to'liq shakllanishi 15-20 yoshda tugallanadi.

- peshona (frontal) va xanjarsimon bo'shlig'i erta yoshli bolalarda bo'lmaydi. 2 yoshgacha peshona bo'shlig'i paydo bo'ladi. Uning rivojlanishi 7 yoshdan boshlanadi va 15-20 yoshda tugallanadi.

#### **Klinik ahamiyati:**

Yon bo'shliqlar rivojlanayotganligi uchun, erta yoshli bolalarda quyidagilar kuzatilmaydi: yallig'lanish jarayonini burun va burun-halqum dan peshona va asosiy bo'shliqqa o'tishi; juda kam holatlardagina - gaymorit, etmoidit va frontitga o'tishi. Ko'pincha faqat sinusopatiyalar - yuqori nafas yo'llarini yallig'lanishidan keyin bo'shliqlarda havoning kamayishi.

### **Halqumni o'ziga xos xususiyatlari:**

Erta yoshli bolalarda kalta va tor bo'ladi, kattalarga nisbatan vertikalroq joylashgan bo'ladi. Halqumni burun qismini nog'ora pardaga bilan tutashtirib turuvchi eshitish nayi kalta, keng va to'g'ri bo'ladi.

### **Klinik ahamiyati:**

Bu infeksiyani halqumni burun qismidan o'rta qulqoq bo'shlig'iga oson o'tishiga va bolalarda yuqori nafas yo'llari kasalliklarida ko'pincha otit rivojlanishiga olib keladi.

**Tomoq limfoid halqasi (Pirogov-Valdemeer)** – bu 6 ta bodomcha bezlaridan tuzilgan bo'lib, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda rivojlanmagan bo'ladi; bodomcha bezlarida kriptalar va tomirlar kuchsiz rivojlangan bo'ladi. Halqum dagi bodomcha bezlari bola hayotining 1-yili oxiridagina ko'zga ko'rindigan bo'lib qoladi. 4-10 yoshgacha bodomcha bezlari yaxshi rivojlanadi va ularning gipertrofiyasi oson rivojlanadi. O'smirlik davrida bodomcha bezlari gipotrofiyaga uchray boshlaydi.

### **Klinik ahamiyati:**

1 yoshgacha bo'lgan bolalarda angina kuzatilmaydi. Bodomcha bezlari mikroblar uchun o'ziga xos filtr hisoblanadi, lekin, ularda tez-tez kuzatiladigan yallig'lanish jarayonlari surunkali infeksiya o'choqlari rivojlanishiga olib keladi, umumiy intoksikatsiya va organizm sensibilizatsiyasiga sabab bo'ladi.

**Adenoidlar o'sishi (burun-halqum bodomcha bezlari)** asosan konstitutsiya anomaliyalari bo'lgan bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi, ko'pincha limfatiko-gipoplastik diatezlarda kuzatiladi.

### **Klinik ahamiyati:**

Bolalarda ko'pincha orqa burun teshigini (xoanani) yopib turuvchi halqum bodomcha bezlari gipertrofiyasi kuzatiladi, bu burun orqali nafas olishni qiyinlashtiradi. Agar adenoidlar ma'lum darajada kattalashsa – 1,5-2 – darajasida – ular olib tashlanadi, chunki bolalarda burun orqali nafas olish buziladi (bola og'zini ochib nafas oladi – havo burun orqali tozalanmaydi va shuning uchun ular tez-tez shamollash bilan og'rib turadi), yuz shakli o'zgaradi (adenoidli yuz: burun suyagi keng, ovoz tembri burun orqali, og'zi doim ochiq bo'ladi, uyqu paytida xurrak otadi va h.k.). Bolani xayoli tarqoq bo'lib qoladi (og'iz orqali nafas olish diqqatni chalg'itadi), ularni dars qilishi buziladi. Og'iz orqali nafas olishda qomat ham buziladi, adenoidlar tishlashni noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi.

**Hiqildoqni o'ziga xos xususiyatlari:**

Shaklini suv purkagichsimon bo'lishi;

Bo'shlig'i tor;

Tog'aylari nozik va yumshoq;

Nisbatan qisqa;

Shilliq pardasi nozik, yupqa, qon tomirlarga boy;

Ovoz yorig'i 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda tor;

Ovoz boyamlari kalta.

Bolalarda ovoz yorig'i tor bo'ladi. Ovoz boyamlari erta yoshli bolalarda kattalarnikiga qaraganda qisqaroq bo'ladi, shuning uchun ularni ovozi baland bo'ladi. 12 yoshdan boshlab o'g'il bolalarning ovoz boyamlari qizlarnikiga qaraganda uzunroq bo'la boshlaydi. Ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari xiqildoq shilliq pardasini engil yallig'lanishida ham kichik yoshli bolalarda stenotik o'zgarishlar rivojlanishi mumkinligi bilan tushuntiriladi. Kichik yoshli bolalarda asab-mushak qo'zg'aluvchanligini yuqori bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Kichik bolalarda ovoz bo'g'ilishi ko'pincha baqirganidan keyin kuzatiladi, ko'pincha u yallig'lanish bilan emas, balki, ovoz boyamlaridagi mushaklarni kuchsizligi sababli tez charchashiga bog'liq.

**Klinik ahaniyati:**

Ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari hiqildoq shilliq pardasini engil yallig'lanishida ham kichik yoshli bolalarda stenotik o'zgarishlar rivojlanishi mumkinligi bilan tushuntiriladi. Kichik yoshli bolalarda asab-mushak qo'zg'aluvchanligini yuqori bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Kichik bolalarda ovoz bo'g'ilishi ko'pincha baqirganidan keyin kuzatiladi, ko'pincha u yallig'lanish bilan emas, balki, ovoz boyamlaridagi mushaklarni kuchsizligi sababli tez charchashiga bog'liq.

**Pastki nafas yo'llarini o'ziga hos xususiyatlari**

**Traxeyani o'ziga hos xususiyatlari:**

Bo'shlig'i tor;

Shilliq pardasi nozik;

Qon tomirlariga boy;

Shilliq pardalari kuchsiz rivojlangan.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda traxeyaning yuqori chegarasi IV bo'yin umurtqasi sohasida joylashgan va yoshi kattalashib borgan sari asta-sekinlik bilan VII bo'yin umurtqasi sohasiga tushadi (kattalarnikiga o'xshab);

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda traxeya 12-20 ta yarim halqa tog'aylardan tuzilgan, buning soni umrini oxirigacha bir xil miqdorda saqlanadi;

Tog'ayli yarim halqalar yumshoq va egiluvchan bo'ladi;

Tog'ayli yarim halqalar da elastik tolalar yaxshi rivojlanmagan bo'ladi;

Erta yoshli bolalarda pardali qismi uni 1/3 qismini, kattaroq yoshdagи bolalarda 1/5 qismini tashkil etadi.

#### **Klinik ahamiyati:**

Bolalarda traxeyaning o'ziga xos tuzilishi yallig'lanish paytida tezda stenotik belgilar rivojlanishiga olib keladi, ko'pincha alohida (traxeitlar), xiqildoq bilan kombinirlangan zararlanishi (laringotraxeit) yoki bronxlar bilan (traxeobronxitlar) kuzatiladi. Bundan tashqari, traxeyaning harakatchanligi sababli bir tomonlama jarayonlar paytida (ekssudat, o'sma) uning siljishi kuzatiladi.

#### **Bolalarda bronxlarning o'ziga xos tuzilishi**

Bola tug'ilgan paytda bronxial daraxt shakllanib bo'lgan bo'ladi va uning shoxlarining soni keyinchalik o'zgarmasdan qoladi. Bifurkatsiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kattalarga nisbatan yuqoriroq joylashgan bo'ladi (III ko'krak umurtqasi sohasida joylashgan, kattalarda V ko'krak umurtqasi sohasida). O'ng bronx traxeyaning davomi bo'lib qariyb vertikal joylashgan bo'ladi.

#### **Klinik ahamiyati:**

Bolalarda yot jism 90% holatlarda aynan ana shu o'ng bronxga tushadi.

Chap bronx 90 gradus burchak ostida chiqadi;

Bronx tog'aylari juda elastik, yumshoq, chidamli, engil harakatlanuvchi bo'ladi;

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va 1 oylik bolalarda bronxlar devorining ichki qavati ayniqsa yaxshi rivojlangan bo'ladi;

Shilliq parda yupqa, qon tomirlariga boy bo'ladi;

Bronxlar shilliq qavatida shilliq bezlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi (klinik ahamiyati – nisbatan quruq va bronxlar orqali o'tayotgan havo etarlicha namlanmaydi);

Bronxlar mushak va elastik to'qimasi kuchsiz rivojlangan bo'ladi;

Mushaklar kuchsiz rivojlangan va hilpillovchi epiteliy harakatchanligi pasaygan.

**Klinik ahamiyati** –bronxlar motorikasining sustligi bronxial daraxtni drenaj va tozalovchi faoliyatini yetishmasligiga olib keladi. Mayda bronxlar bo'shlig'ini infeksiyalangan shilliq bilan bekilib qolishi o'pka to'qimasini o'lishiga (atelektaz) va uning zararlanishiga olib keladi.

**Klinik ahamiyati:**

Ertal yoshli bolalarda yo'tal turtkisini kuchsiz bo'lishiga sabab bo'ladi.

### BOLALARDA O'PKALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI:

Kattalarnikiga o'xshab chap o'pka ikkita (yuqori va pastki), o'ng o'pka – uchta bo'lakdan (yuqori, o'rta, pastki) iborat.

O'pkalarni segmentar tuzilishi chaqaloqlik paytidayoq yaxshi rivojlangan bo'ladi. O'ng o'pkada 10 ta, chap o'pkada 9 ta segment farqlanadi. Yuqori chap va o'ng bo'lak 3 ta segmentga – 1-, 2-, 3 chi, o'ng o'rta bo'lak 2 ta segmentga – 4- va 5 chi segmentga bo'linadi. Chap o'pkaning o'rta bo'lagi tilchali bo'lib, u ham 2 ta segmentdan – 4-, 5-dan iborat. O'ng o'pkaning pastki bo'lagi 5 ta segmentga – 6, 7, 8, 9 va 10-ga, chap o'pka 4 ta segmentga – 6, 8, 9 va 10-ga bo'linadi. Bolalarda pnevmonik jarayon ko'pincha ma'lum bir segmentlarda (6, 2, 10, 4, 5-da) joylashgan bo'ladi, bu aeratsiya xususiyatlariga, bronxlarning drenaj faoliyatiga, ulardagi shilliq evakuatsiyasiga va infeksiya tushish ehtimoliga bog'liq bo'ladi.

Bolalarda o'pkaning alohida qismlari bir xilda rivojlanmaydi.

- 1 yoshgacha bo'ilgan bolalarda chap o'pkaning yuqori bo'lagi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi;
- O'ng o'pkaning o'rta va pastki bo'lagining o'lchami bir xil bo'ladi;
- 2 yoshda o'pka bo'laklarning o'zaro nisbati kattalarnikiga o'xshash bo'ladi;
  - yangi tug'ilgan chaqaloqlarda terminal bronxlar alveolalar bilan emas, xaltachalar bilan tugaydi, uning qirrasidan yangi alveolalar shakllanadi;
  - yangi tug'ilgan chaqaloqlarda sinuslar soni kattalarga qaraganda 3 barobar kam bo'ladi;
  - erta yoshli bolada bo'laklar orasidagi yoriq yaqqol namoyon bo'lmaydi

**Klinik ahamiyati:**

- 1) patologik jarayonni diffuz tarqalishi,
- 2) qismlar orasida plevrit kuzatilmashligi.

Bolalar o'pkasini segmentar tuzilishi kattalarnikiga o'xshash bo'ladi (har bir o'pkada 10 tadan);

bolalarda o'pka ildizi ko'plab qon va limfa tomirlaridan, limfa tugunlaridan iborat.

**Klinik ahamiyati** –sil genezli bronxoadenit ko'p rivojlanadi;

o'ng o'pka ildizi chapga qaraganda yuqori joylashgan:

bolalarda alveolalar bir kamerali: keng, o'chamlari kattalarga nisbatan 4 marta kichik, alveolalarning umumiy soni 10-12 barobar kam bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda alveolalar soni (24 mln.) 10-12 barobar kam, diametri esa (0,05 mm) – 3-4 marta kichik, kattalarda (0,2-0,25 mm).

Elastik karkas kuchsiz rivojlangan bo'lib, siyrak biriktiruvchi to'qima ustunlik qiladi.

**Klinik ahamiyati:**

Erta yoshidagi bolalarda atelektaz, emfizema rivojlanishiga moyillik yaratadi, bunga yana ko'krak qafasining ekskursiyasini ham kamligi, bronxlarning torligi sabab bo'ladi. Bunga yana asosan chala tug'ilgan chaqaloqlarda surfaktantning kam hosil bo'lishi ham moyillik yaratadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning o'pka to'qimasi kam havoli, qon tomirlariga va atsinuslar to'sig'i sohasida biriktiruvchi to'qimaga boy va elastik to'qima kam bo'ladi. Bu oxirgi holat turli o'pka kasalliklarida emfizema oson rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Elastik to'qimaning kuchsiz rivojlanganligi erta yoshli bolalarda atelektaz rivojlanishiga moyillik tug'diradi, bunga yana ko'krak qafasi ekskursiyasini yetishmovchiligi, bronxlarning torligi muhit yaratadi. Bunga yana, asosan chala tug'ilgan bolalarda, surfaktant sintezi yetishmovchiligi ham moyillik yaratadi. Ma'lum vaqt birligi ichida o'pka orqali o'tadigan qon miqdori, kattalarga nisbatan bolalarda ko'p bo'ladi, bu ularda gazlar almashinuvi uchun yaxshi sharoit yaratib beradi.

**Nafas a'zolarining funksional xususiyatlari**

1. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va ko'krak yoshidagi bolalarda nafas olishi tez-tez va yuzaki bo'ladi;

2. Bola qancha kichik bo'lsa, nafas soni shuncha tez bo'ladi (shu yo'l bilan organizm hajmi kam bo'lgan olingen nafas bilan kislorod bilan ta'minlashni kompensatsiya qiladi):

3. Nafas chuqurligi va olingen nafas hajmi kattalarga nisbatan bolalarda ma'lum darajada kam bo'ladi. Bu o'pkalar massasining kichikligi va ko'krak qafasini tuzilishini o'ziga xos xususiyatlari bilan tushuntiriladi. Bola hayotining birinchi yilida ko'krak qafasining old-orqa o'lehami yon o'lehamlari taxminan bir xil bo'lganligi sababli ularning ko'krak qafasi xuddi nafas olayotganday holatda bo'ladi, qovurg'alar umurtqalardan to'g'ri burchak hosil qilganday chiqadi. Bu shu yoshda diafragmal tipdag'i nafasni ta'minlaydi. Oshqozonning to'la bo'lishi, ichaklarning damligi ko'krak qafasini harakatini chegaralab qo'yadi. Yoshi kattalashgan sari u inspirator holatdan asta-sekin normal holatga o'tadi, bu ko'krak tipdag'i nafas shakllanishiga imkon beradi. 6-7 yoshdan boshlab qiz bolalarda ko'krak tipdag'i nafas olish, o'g'il bolalarda esa – qorin tipdag'i nafas kuzatiladi.

4. Bolalarda nafas soni uning yoshia bog'liq bo'ladi:

- yangi tug'ilgan chaqaloqlarda – 40-60 ta
- 6 oylikda – 35-40 ta
- 1 yoshda – 30-35 ta
- 5 yoshda – 25 ta
- 10 yoshda – 20 ta
- 10 yoshdan kattalarda – 18-16 ta.

5. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va ko'krak yoshidagi bolalarda nafas aritmik bo'ladi;

6. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda, asosan chala tug'ilgan bolalarda qisqa muddatli apnoe (nafas to'xtashi, 5-10 sek. davom etadi) kuzatiladi. Nafas ritmi doimiy bo'lmaydi. Bu nafas markazini differensiatsiyasini tugallanmaganligiga va gipoksiyaga asoslangan.

7. Tug'ilgan paytda nafas hajmi etaricha bo'lmaydi, u 15-20 ml ni tashkil etadi, bu davrda organizmnini kislorodga bo'lgan ehtiyoji nafas olish sonini oshishi bilan ta'milanadi, yoshi kattalashgan sari nafas hajmi ortadi, 1-yoshda – 60-80 ml, 5 yoshda – 150 ml, 12 yoshda – 200-250 ml, yangi tug'ilgan chaqaloqda nafasning minutlik hajmi 600-700 ml tashkil etadi, yoshi kattalashgan sari ortib boradi va katta odamlarda 6-9 l ni tashkil etadi.

8. Ko'krak yoshidagi bolalarda o'pkalarini qon tomirlariga boyliga va yuqori diffuzion qobiliyatga ega ekanligi sababli gazlar almashinuvi intensiv kechadi.

#### *Klinik ahamiyati:*

Moddalar almashinuvi jarayonini jadalligi va u bilan birga fermentativ sistemaning etilmaganligi bolalarda nafas a'zoalir kasalliklarida tezda atsidoz rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Inson organizmida gazlar almashinuvi 50-90 m<sup>2</sup> maydonda kechadi. O'pka membranasining qalinligi 0,4-1,5 mkm ni tashkil etadi. Bu membrana orqali gazlar almashinuvi quyidagilarga bog'liq: 1) diffuziya kuzatiladigan yuzaga, 2) membrana qalinligiga, 3) alveola va qondagi gazlar bosimining gradientiga, 4) diffuziya koeffitsientiga, 5) membrana holatiga. Gazlar parsial bosim gradienti hisobiga diffuziya yo'li bilan membrananadan o'tadi. Ular 2 qavat hujayra (alveolalar epiteliysi va kapillyarlar endoteliysi) hamda ular orasidagi interstitsial bo'shliq orqali o'tadi.

Bolani kislorodga bo'lган ehtiyoji kattalarga nisbatan ko'proq bo'ladi. 1 yoshgacha bo'lган bolalarda kislorodga bo'lган ehtiyoj 1 kg tana massasiga 8 ml/min., kattalarda – 4,5 ml/min. Nafas olishning yuzaki ekanligi nafas olish sonining ko'pligi (yangi tug'ilgan chaqaloqlarda nafas soni – 1 minutda 40-60 ta, 1 yoshda – 30-35 ta, 5 yoshda – 25 ta, 10 yoshda – 20 ta, kattalarda – 16-18 ta) va nafasda o'pkaning katta qismini ishtirok etishi bilan kompensatsiya qilinadi. Nafas olish sonining ko'pligi sababli nafasnинг minutlik hajmi erta yoshdagи bolalarda 1 kg tana massasiga kattalarga nisbatan 2 barobar yuqori bo'ladi. O'pkalarning tiriklik sig'imi (O'TS), ya'ni, chuqur nafas olgandan keyin chuqur nafas chiqarish hajmi (millilitrda), kattalarga nisbatan bolalarda kam bo'ladi. O'TS alveollarning hajmini o'sishiga parallel ravishda oshadi.

Shunday qilib, bolalarda nafas tizimidagi anatomik va funksional o'ziga xos xususiyatlar kattalarga qaraganda bolalarda nafas buzilishini tez rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Nafas a'zolari patologiyasi bo'lган bolalarni tekshiruvdan o'tkazishda quyidagilarni aniqlash kerak:

- 1). ushbu bemorda asosan nafas a'zolarining zararlanganligi;
- 2). asosiy patologik jarayon qaerda joylashgan – yuqori nafas yo'llarida, xiqildoqda, bronxlarda, o'pkalarda, plevrada, ko'ks oralig'ida;

- 3). bronx-o'pkadagi jarayon xarakteri diffuzmi (tarqalgan) yoki lokal ekanligi;
- 4). ventilyasiya buzilishi tipi – obstruktiv yoki restriktiv;
- 5). ushbu jarayon o'tkirmi yoki surunkali jarayonni qaytalanishimi;
- 6). kasallik infeksiya bilan bog'liqni har qanday infeksiya (virus, bakteriya va h.) sababchi omil bo'lishi mumkin;
- 7). kasallik rivojlanishiga allergiya sababchi omilligi, uning tipi;
- 8). yoki kasllik rivojlanishiga irsiy moyillik borligi;
- 9). bemor hayoti uchun kasallik oqibati va turg'un o'zgarishlar rivojlanishi mumkinligi;
- 10).oldin o'tkazilgan davo samarasi qanday bo'lganligi.

Bu savollarga yoki ulardan ba'zilariga javob topish bilan, bemorni birinchi ko'rígidayoq kasallikni simptom va sindromlariga qarab kasalliklarni differensial diagnostika qilish va qo'shimcha tekshirishlarni o'tkazish mumkin. Nafas a'zolari kasalliklarida ko'p uchraydigan simptomlar sianoz, hansirash, yo'tal, ko'krak qafasidagi og'riq va h.

Sog'lom bolada teri va shilliq pardalarini och pushti rangda bo'lishi arterial va kapillyar qonda gemoglobinni kislorodga to'yiganligiga bog'liq. Normal holatda bu to'yinish arteriyalarda maksimal 95-96% gacha bo'ladi (har bir gramm gemoglobin 1,39 ml kislorodni bog'lab olishi mumkin, har 100 ml plazma 0,3 ml erigan kislorodni tashishi mumkin, 100 ml arterial qonda 19-20 ml kislorod bo'ladi, xuddi shu hajmdagi venoz qonda 13-15 ml kislorod bo'ladi). Bola kuchli yig'laganda va baqirganda, kuchanish simptomida arterial kislorod bilan to'yinish 92% gacha tushadi. Bu minimum to'yinrishdan pasayish patologik hisoblanadi.

### **Bolalarda nafas a'zolarini zararlanish semiotikasi va tekshirish usullari.**

Bemor bola bilan tanishish so'rovdan boshlanadi (shikoyatlarini yig'ish, hayot va kasallik anamnezi). Ko'pincha nafas a'zolari Patologiyasi bo'lgan bolalarni yo'tal bezovta qiladi, bu adashgan nerv va til-halqum nervi oxirini ta'sirlanishiga javoban reflektor akt hisoblanadi. Quruq va nam yo'tal farqlanadi.

1) Agar yo'tal quruq bo'lsa, u ovoz o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladimi, uni kuchayadigan paytini, hansirash bilan davom etishini, shovqinli ekanligini, "hushtaksimon" nafasni, uning davomiyligi va

davriyilagini aniqdash kerak. Quruq, kechasi kuzatiladigan, hansirash va shovqinli “hushtaksimon” nafas bronxial astma uchun xos hisoblanadi.

2) Ovoz dag‘alligi, ovoz bo‘g‘ilishi bilan kechadigan kechki **akkillovchi yo‘tal o‘tkir bo‘g‘uvchi laringotraxeit** uchun xos.

Agar yo‘tal nam bo‘lsa qo‘sishimcha ravishda balg‘am rangi va xarakterini (oq bo‘lishi – shilliqli yallig‘lanish uchun, sariq-yashil – yiringli uchun xos), uning miqdori va hidini, hamda qaytalanish xarakterini (erkin yoki ifloslangan) aniqlash kerak. Erta yoshli bolalarda til ildiziga shpatel bilan ta’sir qilib balg‘am ajralguncha yo‘tal chaqirish kerak.

Agar balg‘am rangi zangsimon rangda bo‘lsa – krupoz pnevmoniyanadan, toza ko‘piksimon qizil bo‘lsa – o‘pkadan qon ketishidan dalolat beradi.

#### *Nafas a‘zolarining turli kasalliklarida yo‘tal o‘ziga xos bo‘ladi:*

- Kechki, reprizli va yuzini qizarishi, quşish bilan davom etsa – bu ko‘kyo‘taldan kuzatiladi;
- nam yo‘tal yoki kalta-kalta yo‘talish – pnevmoniyaning boshlang‘ich davri uchun, tuberkulyoz uchun xos;
- Zo‘riqtiruvchi yo‘tal – O‘RI da;
- Kuchli zo‘riqtiruvchi ko‘pikli balg‘am ajralishi bilan – o‘pka shishida;
- Doimiy yo‘tal nafas yo‘llaridagi yot jismda, O‘Rida, laringotraxeitda;
- Quruq, dag‘al, xuddi “bochka ichida bo‘lganday”, uzoq vaqt bezovta qilsa – traxeitda;
- Ertalabki nam yo‘tal – gaymoritda, etmoiditda, sinusitda;
- Davriy nam yo‘tal – absessda, bronxoektazlarda;
- Yuzaki yo‘tal – plevritlarda;
- Bitonal, spastik yo‘tal – sil bronxoadenitida.

Uchrash chastotasi bo‘yicha keyingi shikoyat bu **hansirash**. Uni kelib chiqish sababi nima bilan bog‘liq ekanligini, u qancha vaqt davom etishini va dinamikada o‘zgarishini; tinch holatdami yoki jismoniy zo‘riqish paytida rivojlanadimi, nima bilan davom etadi, nafas aktida ta’sirini aniqlash kerak bo‘ladi.

Yana boshqa shikoyatlari – tana haroratining ko'tarilishi, umumiylizliksizlik, lohaslik, tez charchash, burun orqali nafas olishining qiyinlashuvi, ovoz o'zgarishi, teri rangining o'zgarishi, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish.

*Nafas a'zolarini ob'ektiv tekshirish quyidagilardan boshlanadi:*

**I. Bemorni obzor tekshirish, bunda quyidagilar baholanadi:**

1. Jismoniy rivojlanishi (o'pka gipoplaziyasida, mukovissedozda, surunkali pnevmoniyada, fibrozlanuvchi alveolitda, bronxial astmaning og'ir shaklida qoniqarsiz bo'lishi mumkin);

2. Bemorning holati (ortopnoe – bronxial astmada, zararlangan tomon bilan – ekssudativ plevritda);

3. Bolaning ovozi (bo'g'iqlashadi yoki yo'qoladi (afoniya)) – laringitda, burun orqali gapirganday – sinusitda, adenoitda;

- dag'al, past ovoz – meksidemada;

- bolani baqirishi (yig'lashi) – (past – asfiksiya bilan tug'ilgandi, emish paytidagi yoki qulogni bosib ko'rilmaga kuchayishi – qulog yallig'lanishida);

- ingrab nafas olish – bolalarda bronxo'o'pka patologiyasida (pnevmoniya, plevropnevmoniya);

4. Teri va shilliq paradalarining holati (nafas a'zolaraning patologiyasi uchun burun-og'iz uchburchagining sianozi, akrotsianoz yoki total sianoz xos) uning xarakterini, rivojlanish vaqtini yoki uning belgilarini kuchayish vaqtini aniqlash kerak;

- sianoz pnevmoniyaning og'ir shakllarida, tug'ma bronx-o'pka patologiyalarida va h. kuzatiladi;

5. Tirnoqlar holati (ko'karish, "soat oynasi" tipidagi deformatsiyasi, barmoq uchini qalinlashib "baraban tayooqchasi" shaklida bo'lishi – surunkali bronx-o'pka patlogiyasida);

6. Boshini holati (ko'krak yoshidagi bolalarda nafas aktida boshini harakatlanishi – nafas yetishmovchiligining belgisi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda burun qanolarning kerilishi va og'iz burchagida ko'piksimon ajralma ajralishi – pnevmoniyada, alveolitda, o'pka shishida);

7. Burun sohasi – ajralma bor yoki yo'qligi va uning xarakteri (tiniq, shilliq – gripp, laringit, allergik rinosinusit; shilliq-yiringli – gaymorit, difteriya; qon aralash – burunda yet jism);

- burun orqali nafas olish holati (ifloslangan – rinit, gaymorit, adenoid, yot jismda);

8. Tanglay ko'rigi (erta yoshli bolalarda to'liq fizikal tekshiruvdan keyin o'tkaziladi), bodomcha bezlarining shilliq pardasining holati, uning o'chhami, yara, yiring borligi va tanglay orqa devorining holati;

9. Ko'rik paytida ko'krak qafasining shakliga, konfiguratsiyasiga, simmetrikligiga, nafas aktida ikkala tomonini bir xil ishtirok etishiga va nafas aktida yordamchi mushaklar ishtirokiga e'tibor berish kerak;

- ko'krak qafasining bochkasimon ekanligi bronxial astmada, "tovuq" ko'krak qafasiga o'xhash bo'lishi – bronx-o'pka sistemasining surunkali kasalliklarida;

- asimmetrik – surunkali pnevmoniyada, silda, tug'ma lobar emfizemada;

- ko'krak qafasining bir tomonini nafas olishda orqada qolishi o'pkaning massiv yallig'lanishlarida, quruq plevritda;

10. Nafas soni va tipini aniqlash (yuzaki – plevritda, bronxial astmada);

taxipnoe – yangi tug'ilgan chaqaloqlarda fiziologik, katta yoshli bolalarda – hayajonlanganda va jismoniy zo'riqishda, nafas a'zolari kasalliklarida, anemiyada, isitmada, yurak kasalliklarida, og'riq sindromida;

bradipnoe – (nafas sonining kamayishi) – yangi tug'ilgan chaqaloqlarda distress sindromda, komada, zaharlanishlarda va h.);

Nafas aktida yordamchi mushaklar ishtiroki – nafas yetishmovchiligi belgisi;

inspirator hansirash (odatiy baland nafas olish, ko'pincha yuqori nafas yo'llarida to'siq bo'lganda, ko'rik paytida nafas olganda o'mrov usti va to'sh usti chuqurchasining tortilishi, mushaklarni intensiv qisqarishi (laringitda, nafas yo'llaridagi yot jismda, o'smada va kistalarida));

baland inspirator xirillash (stridor) – fiziologik holat, hiqildaq tog'ayining to'liq rivojlanmaganligi sababli rivojlanadi, yosh kattalashgan sari kamayadi va yo'qoladi;

## II. Ko'krak qafasining palpatsiyasi:



11-rasm. Ko'krak qafasining palpatsiyasi

1. og'riqli sohani aniqlash (yuzaki yoki chuqur), plevra zararlanishi uchun xos;
2. suyaklar karkasini xususiyatlarini aniqlash uchun (qovurg'alar oralig'i holati);
3. rezistentligi;
4. ovoz dirillashini aniqlash uchun (o'pka to'qimasi zichlashganda yoki bo'shliq bo'lqanda kuchayadi, bronxlar bekilib qolganda (atelektaz), bronxlar ekssudat yoki ko'krak qafasidagi o'sma bilan qisilib qolganda susayadi).

## III. Perkussiya o'tkazish (solishtirma (qiyoziy) va topografik)



12-rasm. Ko'krak qafasi perkussiyasi

Kichik yoshdagи bolalarda bevosita kattaroq bolalarda bilvosita perkussiya o'tkaziladi.

Bola vertikal holatga o'tqiziladi, 1 oygacha bo'lgan bolalardan tashqari. Maqsad o'pkalar maydonida simmetrik ravishda perkutor tovush xarakterini baholashdan (sog'lom bolalarda – aniq o'pka tovushi) va asosiy chiziqlar bo'ylab o'pka chegarasini, o'pka pastki chegarasini, o'pka cho'qqisini old va orqa tomondan holatini aniqlashdan iborat.

#### *O'pkalar topografik perkussiyasi:*

A) o'pka pastki chegarasini aniqlash:

1-bosqich: bola va studentning unga nisbatan holati.

bola tik turadi yoki o'tiradi. Student bolani oldida tik turadi yoki o'tiradi.

2-bosqich: 10 yoshdan katta bolalarda old tomondan o'pka perkussiyasi o'mrov ustidan boshlanadi, bunda o'pka cho'qqisi holatinig balandligi aniqlanadi, o'pkaning pastki chegarasi esa, bolaning yoshidan qat'iy nazar 3 ta asosiy vertikal topografik chiziq orqali aniqlanadi: o'rta o'mrov (faqat o'ng tomondan), o'rta qo'ltiq osti, kurak.

Plessimetr – barmoq 3-4- qovurg'a oralig'idan boshlab qovurg'alar oralig'iga parallel joylashtiriladi.

3-etap: aniq o'pka tovushidan to'mtoqqa qarab perkussiya qilinadi, o'pka chegaralari plessimetr barmoqni yuqori chegarasi bilan aniqlanadi.

B) o'pka cho'qqisini baland nuqtasini aniqlash

1 – bosqich: bolaning va studentning unga nisbatan holati.

bola o'tiradi yoki tik turadi. Student bolani old yoki orqa tomonidan turadi.

2 – bosqich: 10 yoshdan katta bolalarda perkussiya old tomondan o'rta o'mrov chizig'i bo'ylab chap va o'ng tomondan boshlanadi. Plessimetr – barmoq o'mrov suyagiga parallel qilib qo'yiladi, o'mrovdan yuqoriga vertikal ravishda perkussiya qilinadi, bunda plessimetr –barmoq har doim o'mrovga parallel turishi kerak.

3 – bosqich: o'pka tovushi to'mtoq tovushga o'tguncha perkussiya qilinadi. O'pka cho'qqisini yuqori chegarasi aniq o'pka tovushi tomonidan belgilab qo'yiladi (plessimetr-barmoqning ichki tomonidan). Normada o'pka cho'qqisi o'mrov ustidan 2-4 sm chiqib turadi.

4 – bosqich: orqa tomondan perkussiya kurak uchidan boshlanadi, plessimetr-barmoq unga parallel qo'yiladi VII bo'yin umurtqasini o'tkir o'sig'igacha perkussiya qilinadi. Normada o'pka cho'qqisi orqa

tomondan VII bo'yin umurtqasini o'tkir o'sig'i sohasida joylashgan bo'ladi.

#### V) o'pkalar Kreniga maydonini kengligini aniqlash

1 – bosqich: bolaning va studentning unga nisbatan holati bola tik turadi yoki o'tiradi. Student uni orqasida turadi.

2 – bosqich: Kerniga maydoning kengligi 10 yoshdan katta bolalarda aniqlanadi. Buning uchun bolani orqasida turiladi, plessimetr-barmoq o'mrov suyagiga perpendikulyar qilib o'mrov usti chuqurchasining o'rtasiga qo'yiladi.

3 – bosqich: o'pka tovushi to'mtoq tovushga o'tguncha ikki tomondan (elka qarab va unga qarama-qarshi tomonga – bo'yin asosi tomoniga qarab) perkussiya qilinadi. Kreniga maydoni aniq o'pka tovushi sohasida (plessimetr-barmoqning ichki tomonida) ikki tomondan belgilanadi. Normada Kerniga maydonining kengligi 3-5 sm ga teng.

#### *Perkussiyada patologik o'pka tovushi:*

Qisqaradi (pnevmoniya, o'pka shishi, atelektaz, plevrit, ko'krak qafasidagi o'sma, abssess);

o'pka to'qimasini havo bilan to'lishi kamligi yoki boshqa havosiz bo'shliq paydo bo'lishi, yoki plevra bo'shlig'ini to'lishi natijasida;

Timpanik (o'pka to'qimasini havo bilan to'lishishi oshganligi sababli – o'pka emfizemasida, bronxial astma xurujida, pnevmotoraksda, o'pka shishini boshlang'ich bosqichlarida, o'pka kavernasida, diafragma yuqori joylashganda va h.):

Qutichasimon – o'pka emfizemasida, bronxial astma xurujida, obstruktiv sindromda.

#### IV. O'pkalar auskultatsiyasini o'tkazish

O'pka auskultatsiyasi stetofonendoskop yordamida bemorni vertikal holatida odatiy nafas olishda (burun orqali) nafas tipi va nafas shovqinlari aniqlanadi, keyin forsirlangan (majburiy) nafas (og'iz orqali) fonida aniqlanadi. Bunda xirillashlar aniqlanadi, qo'shimcha ravishda yana yo'talganidan keyin ham xirillashlar baholanadi.

Bola hayotining 1-yilida nafas chuqurligini oshirish uchun, odatiy auskultatsiyadan keyin, chaqaloqni burnini biroz qisib turish yoki boldir, tovon sohasini siqish mumkin.

Nafas olishni quyidagi tiplari farqlanadi: pueril, vezikulyar, bronxial, amforik, qattiq va susaygan.

1-pueril- 5-6 oylikdan to 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda eshitiladi, u balandroq, tor bronxial daraxt, qisqa traxeya va nozik ko'krak qafasidagi kuchaygan nafas shovqinlaridir.

2-vezikulyar- nafas olish paytidagi davomli va nafas chiqarish paytidagi qisqa shovqinlar, bu alveolalar devorini tebranishi va o'pka to'qimasini zo'riqishi natijasida rivojlanadi;

3-susaygan vezikulyar- xiqildoq, traxeya, bronxlar sohasidagi nafas yo'llarining torayishida, yet jismda, limfa tugunlari kattalashganda, o'smada, bronxopnevmoniyada, plevritda, semizlikda, distrofiyalarda kuzatiladi;

4-kuchaygan vezikulyar- ba'zan yallig'langan o'pka to'qimasidagi sog'lom to'qima ustidan, hamda isitma, diabetik koma paytida eshitiladi;

5-qattiq - nafas chiqarishi kuchaygan (bronxitlar, bronxopnevmoniya, endobronxitda);

6-bronxial - o'pka to'qimasini zichlashishi bilan kechadigan o'pka patologik jarayonlarida (pnevmoniya, tuberkulyoz, atelektaz);

7-amforik - o'pkada bo'shliq bo'lganda, nafas olish va chiqarishda eshitiladi, ochiq pnevmotoraksda, diafragmal kilda muhim ahamiyatga ega;

Xirillashlar - nafas sistemasining havo o'tadigan sohasida shilliq, qon, shish suyuqligi, fibroz yopishqoq suyuqlik bo'lganida paydo bo'ladi.

Quruq xirillashlar - o'zgaruvchan, doimiy bo'lmagan xirillashlar, traxoit, laringit, traxeobronxit, bronxit va bronxial astmadagi bronxospazm uchun xos.

Nam xirillashlar - bo'shlig'idan ma'lum miqdorda shilliq yoki qon, shish suyuqligi bo'lgan turli kalibrdagi bronxlarda rivojlanadi, nafas olayotganda bronxlar orqali o'tayotgan havo oqimi pufakchalarni hosil qiladi, ular yoriladi va ho'l xirillashlarni hosil qiladi. Mayda-, o'rta-, va katta pufakchali xirillashlar farqlanadi, bularning o'lchami bronxlar kalibriga bog'liq bo'ladi.

Baland nam xirillashlar - o'pka to'qimasining zichlashgan sohasida eshitiladi (pnevmoniya).

Past xirillashlar - bronxitlarda, atelektazlarda, o'pka shishida. Krepitatsiya - tovush fenomeni, aveolalarda havo bilan birga suyuqlik va ekssudat (pnevmoniya), transsudat (o'pka shishi) bo'lganda paydo bo'ladi, xuddi nafas olish paytida alveolalarni havo bilan to'lishi va yorilishiday. Krepitatsiya faqat nafas olish paytida eshitiladi.

Plevra ishqalanish shovqini – plevrani visseral va parietal qavatlarini bir-biriga ishqalanishi natijasida rivojlanadi (plevrit, plevra tovushlari, sil va plevra o'smasida).

Bronxofoniya – ovozni bronxlardan ko'krak qafasiga o'tishiga o'xshash bo'lib, fonendoskop bilan aniqlanadi. Patologiyada – o'pka to'qimasi zichlashgan holatlarda (pnevmoniya, sil, atelektaz) kuchli ekanligi aniqlanadi, susayishi – semiz bolalarda va elka mushaklari yaxshi rivojlanganda aniqlanadi.

### O'pka tovushlari

#### Bemorlar parvarishi

1. Erta yoshli bolalarda nafas sonini sanash.

Bolalarda nafas sonini sanash ko'krak qafasini ko'zdan kechirish bilan birga olib boriladi. Erta yoshli bolalarda buni yaxshisi ular uxlagan paytda yoki tinch paytida qilish kerak, chunki, bolani bezovta bo'lishi nafas sonini oshiradi.

\*Uyqu paytida 1 oylikkacha bo'lgan bolalarda nafas soni stetofonendoskop orqali, burniga yaqinlashtirib, lekin burun uchiga tegmasdan sanaladi.

\*Nafas sonini vizual sanash quyidagidan iborat, hamshira bilintirmasdan ko'krak qafasini yoki qorin oldingi devorini harakatini kuzatadi.

\*Ko'krak qafasiga qo'yilgan qo'llar yordamida palpator yo'l bilan nafas harakati sonini sanash, bola nafas olayotganida ko'krak qafasini harakatini aniqlash.

#### Esda tutish kerak:

1).bolalarda nafas soni (nafas harakati) bemorga bilintirmasdan (4 yoshdan katta bolalarda) sanash kerak, ruhiy faktor ta'sirini bilish uchun;

2).nafas sonini aniq sanash uchun nafas harakatlarini 1 minut davomida sanash kerak.

Olingan natijalar normada bu yoshda bo'lishi kerak bo'lgan nafas soni bilan solishtiriladi

**Bolalarda nafas a'zolarini zararlanish semiotikasi va asosiy kasalliklari.**

#### Nafas yetishmovchiligi semiotikasi

*Nafas yetishmovchiligi (NE)* – bu arterial qon gazlar tarkibining o'zgarish natijasida yoki ortiqcha energiya sarfi hisobiga normal darajada saqlanib turadigan holat.

*NE ga eng ko'p sabab bo'ladi gan holatlar*

1-24 oylikda NE ga sabab bo'ladi gan omillar	2-12 yoshda NE ga sabab bo'luvchi omillar
Bakterial va virusli (bronxiolit) bronxopnevmoniya, aspiratsiya	Astmatik holat
YUqori nafas yo'llarini bekilib qolishi	Ko'krak qafasining, bosh miyaning tug'ma nuqsoni
Tug'ma yurak nuqsoni	travmatik shok
Astmatik holat	CHo'kish
Septitsemiya	Buyrak yetishmovchiligi
YOt jism aspiratsiyasi	
Intratorakal anomaliyalar, diafragma, tomir xalqasining rivojlanish nuqsonlari	
Ensefalist	

Nafas yetishmovchiligini, asosan, o'tkir nafas yetishmovchiligini keltirib chiqaruvchi sabablar etarli darajada ko'p. Bular – yuqori va pastki nafas yo'llari, o'pka parenximasi kasalliklari, quşish va regurgitatsiya oqibatida nafas yo'llari o'tkazuvchanligini buzilishi, yot jism, pnevmova pitoraks, ko'krak qafasining jarohati. Bundan tashqari, NE ga MNS jarohati va kasalliklari, nervlar o'tkazuvchanligini buzilishi, mushaklar distrofiyasi, miasteniya sabab bo'ladi.

NEning asosiy belgilari bu gipoksemiya, gipo – va giperkapniya. Bunda agar bola atmosfera havosidan nafas olayotgan bo'lsa, giperkapniya hech qachon gipoksiyasiz bo'lmaydi. Gipoksemiya ko'pincha gipokapniya bilan birga keladi.

Nafas yetishmovchiligi obstruktiv, parenximatoz va ventilyasion (o'pkadan tashqari) turlarga bo'linadi.

**Obstruktiv NE** – mexanik sabablar natijasida rivojlanishi mumkin – yot jism aspiratsiyasi, shilliq parda shishi (bo'g'uvchi laringotraxeit), bronxiolospazm (bronxial astma xuruji), nafas yo'llari tashqaridan bosilishi (tomirli xalqa yoki aorta ikkilanishi, qizilo'ngachdagi yot jism, og'iz-halqum yallig'lanish jarayoni va h.), hamda tug'ma rivojlanish nuqsonlari (xoanalar atreziyası, laringomalyasiya, mukovissidoz). Ko'pincha bir necha faktorlar birgalikda uchraydi (masalan, balg'am shishi va h.). yirik nafas yo'llarining zararlanishi inspirator hansirash

bilan namoyon bo'ladi, mayda bronxiolalar zararlanganda esa inspirator hansirash bilan namoyon bo'ladi. Bronzial astmada nafas yetishmovchiligin rivojlanish mexanizmi to'planib qolgan havo bilan alveolalarni birdan kengayib ketishidan iborat. Bu kapillyar qon almashinuvini buzilishini keltirib chiqaradi. Spazmini bartaraf qilish kengayib qolgan alveolalarni kichrayishiga imkon beradi. Bu – nafas yetishmovchiligin barataraf qilish oqibatida ham rivojalanadi.

Parenximatoz NE – alveolalar va kichik qon aylanish doirasidagi kapillyar qon aylanishini buzilishi bilan xarakterlanadi. Uning klinik ekvivalenti yoshga bog'liq respirator distress – sindromdir (RDS). RDSning patofiziologik asosi – kislorod difsuziyasi uchun alveolyar-kapillyar blok, o'pkalar bo'shashi va fiziologik qoldiq hajmini kamayishi. Odatda, bu endotoksemyaga makroorganizmni tizimli yallig'lanish bilan javob berish holati. O'pkaning yallig'lanishli kasalligi parenximatoz NE ga olib keladi. Bu holatda erta gipokapniya bilan birga gipoksemiya va aralash tipdagi hansirash birinchi planga chiqib qoladi.

Ventilyasion NE – tashqi nafas boshqaruvini buzilishiga asoslangan. Bu nafas markazi faoliyatini so'nishi (barbituratlar bilan zaharlanish, MNS jarohatlari va o'smasi, ensefalit va h.), asab tizimi (poliomielit va h.), sinaptik o'tkazuvchanlik buzilishi (miasteniya, mushak relaksantlarini qoldiq ta'siri), nafas muskulaturasidagi o'zgarishlar (mushaklar distrofiyasi, giperkatabolizmdagi mushaklar proteolizi va h.) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu tipdagi NE ning asosiy klinik belgilari gipoventilyasiya hisoblanadi. Bu holatga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: pnevmo-, gemo- yoki gidrotoraks, diafragmani yuqori joylashuvi (ichaklar parezi) yoki ko'krak qafasining travmasi. Ventilyasion NE uchun gipoksemiya va giperkapniyani birga kelishi xos. NE nafas olinadigan havo tarkibida RaO<sub>2</sub> ni kamayishi sababli ham rivojlanishi mumkin. Bu o'pka kapillyar qon tomirlarida qonni kislorod bilan to'yinishini kamayishiga va to'qima gipoksiyasi (yuqori tog'li joylarda, kyuvezlarda kislorod berilishini buzilishida) rivojlanishiga olib keladi. NE og'ir darajali anemiyalarda qon orqali gazlar tashilishini buzilishi, gemoglobin strukturasini buzilishi (met- yoki karboksigemoglobin) oqibatida ham rivojlanishi mumkin. qon aylanishi buzilishlarida qon oqimini susayishi natijasida organ va to'qimalarda dimlangan gipoksiya rivojlanadi. Asosan to'qima

gipoksiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu qondan kislorod utilizatsiyasiga yordam beruvchi hujayralarni ferment sistemasini zararlanishi (zaharlanishlarda, infeksiyalarda) bilan tushuntiriladi.

### *O'NE rivojlanishida uchta patogenetik bosqich farqlanadi:*

I bosqich – kompensator ravishda nafas olish va qon aylanishini tezlashuvi hisobiga gazlar almashinuvining buzilishi kuzatilmaydi

II bosqich – gipokapniya va gipoksiya ko'rinishida namoyon bo'ladigan dekompensatsiyani klinik va laborator birinchi belgilari paydo bo'ladi

III bosqich – to'liq dekompensatsiya, nafas yetishmovchiligi turlari orasidagi farq yo'qoladi.

NE ni klinik belgilari quyidagilardan iborat:

- asosiy kasallik simptomlari,
- tashqi nafas apparati faoliyatini o'zgarish semiotikasi, hamda
- gipoksemiya va giperkapniya belgilari,
- to'qima gipoksiyasi.

Gipoksemyadagi dekompensatsiya nevrologik buzilishlar va qon aylanishining buzilishidan iborat, buning natijasida ikkilamchi gipoventilyasiya va giperkapniya rivojlanadi. Tashqi nafas faoliyatining buzilishi kompensatsiyaga xos bo'lgan simptomlar bilan namoyon bo'ladi, nafas mushaklarini kuchayib ishlashi va tashqi nafas apparatini dekompensatsiyasi. Kompensatsiyaning asosiy belgilari hansirash va nafas olish yoki chiqarishning uzayishi va ular orasidagi nisbatning buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Nafas olish tezlashuvi qo'shimcha mushaklar ishtiropi – bo'yin va chuqur qovurg'alararo mushaklar hisobiga amalga oshadi. Bu nafas olish paytida ko'krak qafasining bo'rtib turgan sohalarini (o'mrov osti va usti sohasi, to'sh usti, qovurg'alararo, to'sh) tortilishi, hamda erta yoshli bolalarda nafas aktida boshini qimirlashi bilan namoyon bo'ladi. Bradiaritmik tipdagi nafas, uning patologik tiplari, nafas markazining so'nishi belgilari dekompensatsiyadan dalolat beradi.

**Giperkapniya va gipoksemyaning klinik belgilari erta va kechki bo'ladi.**

*Ertaliklinik belgilari* birinchi navbatda yurak-qon tomir sistemasi tomonidan namoyon bo'ladi – bu taxikardiya, arterial gipertensiya, teri

qoplamlarining oqarishi. Bular MNSni kislorod bilan ta'minlanishi ushlab turish uchun qon aylanishini markazlashganligidan dalolat beradi.

*Kechki klinik belgilar* yurak – qon tomir, nafas sistemasi va MNS tomonidan kuzatiladigan dekompensatsiyadan dalolat beradi. Bu sianoz, yopishqoq ter ajralishi, bolani jismoniy va ruhiy bezovtaligi yoki uni tormozlanishidir. Sianozni baholashda uni tarqalganligini va olinadigan nafas tarkibidagi kislorodni turli konsentratsiyasi ta'sirida o'zgarishini hisobga olish shart. Agar 45% li kislorod bo'lgan havo bilan nafas olganda reaksiysi saqlanib qolsa, bu ventilyasion NE va diffuz buzilishlar shunti yo'qligidan dalolat beradi. Agar tarkibida 100% kislorod bo'lgan havodan nafas olganda reaksiya ijobiy bo'lsa, alveolyar-kapillyar membrana orqali diffuziya qo'zg'alishi uchun xos, o'pka ichi arteriovenoz shuntida esa, aksincha samara bermaydi.

Xos bo'lgan simptomlar guruhiga yana – to'qima gipoksiyasi natijasida rivojlangan MNS, qon aylanishi va nafas dekompensatsiyasi belgilari va u bilan bog'liq bo'lgan metabolik atsidozdir. Bu simptomlar orasida hayot uchun xavf soluvchi belgilar MNS gipoksik zararlanish belgilari, shoshilinch davoni talab qiladigan koma va talvasadir. Bu bilan bir vaqtida to'qima gipoksiyasiga javoban yurak – qon tomir sistemasi ham arterial gipotensiya, bradikardiya va boshqa ritm buzilishlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Keyinchalik nafasni kompensator – adaptatsion zararlanishi rivojlanadi, nafas to'xtashi bilan tugaydi.

O'NEda surunkalidan farqli ravishda oraganizmda kompensatsiya mexanizmlari rivojlanishga ulgurmaydi, shuning uchun, bu holat uchun arterial qondagi RaSO<sub>2</sub> va RaO<sub>2</sub> va klinik ko'rinishi o'ttasidagi aniq bog'liqlik xos.

Gipoksemyaning birinchi klinik belgilari – RaO<sub>2</sub> ni 70 mm.sim.ust.gacha pasayganda rivojlanadigan sianoz, taxikardiya, xulq buzilishi. RaO<sub>2</sub> miqdori 45 mm.sim.ust.dan pasayganda bemorda nevrologik buzilishlar rivojlanadi. O'lim holati RaO<sub>2</sub> miqdori 20 mm.sim.ust bo'lгanda rivojlanadi. RaSO<sub>2</sub> uchun bu bog'liqlik quyidagicha: RaSO<sub>2</sub> miqdori 60 mm.sim.ust.dan yuqori bo'lganida chuqur bo'yin va qovurg'alararo mushaklar nafas aktida ishtirok eta boshlaydi, nafas dekompensatsiyasi belgilari RaSO<sub>2</sub> miqdori 90-120 mm.sim.ust.dan yuqori ekanligidan dalolat beradi.

*O'pka va oshqozon-ichakdan qon ketishini klinik jihatdan farqi:*

Belgilari	O'pkadan qon ketishi	Oshqozon-ichakdan qon ketishi
Sabablari	1) nafas a'zolari kasalliklari (pnevmoniya, sil); 2) yuqumli kasalliklar (ko'kyo'tal, qizamiq, gripp)	Oshqozon-ichak tizimining kasalliklari (yara kasalligi, ichak polipozi, invaginatsiya)
Klinik belgilari	Yo'tal	Ko'ngil aynishi
Qusuq massasining xarakteri	Tiniq – qizil rangli, ko'piksimon	"Kofe quyqasi" (to'q jigarrangli) ovqat qoldiglari bilan
Ajralmaning rNi	Ishqoriy	Nordon
Axlat xarakteri	Odatdagidek, qonni yutib yuborganda – axlat rangi qorayadi	YUqori qismidan – ko'mirsimon, pastki qismidan – toza qon aralash yoki qon laxtasi bilan

- a) bolani tinchlanirish, yarim o'tirgan holatda o'tqizish;  
 b) ko'krak qafasiga muz xaltachasi qo'yish;  
 v) kichik qon aylanish doirasida bosimni kamaytirish maqsadida, o'pka tomirlarida oyoqlarida venoz jgut qo'yiladi, vena ichiga 2,4%li eufillin 3-5mg/kg hisobida qilinadi;  
 g) yo'tal holatida kodein ichiriladi;  
 d) qon va uni preparatlarini (fibrinogen, plazma) quyish;  
 j) qon to'xtatuvchi preparatlar parenteral yo'l bilan kiritiladi: vikasol, 10% kalsiy xlor, ditsinon, 5%li aminokapron kislotosi.

**3.2. Bronxitlar**

«Bronxit» atamasi bilan xarkanday kalibrga ega bronxning «bronxiolit» - asosan mayda bronxlarning, «traxxit» - traxeyaning shikastlanishi.

Klassifikatsiyasida O'tkir bronxit, O'tkir obstruktiv bronxit, bronxiolit, retsidiiv beradigan obstrukтив va surunkali bronxitlar. Etiologiya va patogenezi.

O'tkir bronxit - ko'pincha respirator infeksiyaning namoyon bo'lishi, u kimyoviy va fizikaviy omillarning, shuningdek allergenlar ta'sirida xam rivojlanishi mumkin.

Ko'pchilik O'RVida bronxlar shillik pardasining shikastlanishi kuzatiladi, lekin bronxit klinikasi xar doim ham rivojlanavermaydi. Rino-, RS-virus va paragrippoz 3 tip infeksiya kupincha katta yoshdag'i bolalarda yukori nafas yullari kataral yalliglanishni chikargani xolida, kukrak yoshidagi bollarda bronxitlar chakiradi. Mikoplazma chakiradigan bronxitlar, aksincha, kichik yoshdag'i bolalarda kam uchraydi. A va B grippda bronxlar epiteliyi shikastlansa xam ko'pincha toksikoz va bakterial pnevmoniya bronxit simptomlarini noaniqlashtirib yuboradi. Bakterial bronxitlar bolalarda bronxlar tozalanishining buzilishlari (g'ayritabiyy tanachalar, xiqildoq stenozi, intubatsiya, traneostoma, ovqatning odat bulib qolgan aspiratsiyasi, mukovissedoz) bo'lgan bolalarda uchraydi.

**Tarqalishi va dolzarbliji.** Retsidiv beradigan bronxitlarda xam O'tkir ko'rinish rivojlanishida asosiy rolni O'RVIda o'ynaydi, lekin, bronxit klinik kurinishi ko'proq rivojlanishi faktining o'zi qo'shimcha omillarning rolini kursatadi. Qo'shimcha omillar, birinchi navbatda, havoning ifloslanishi, shuningdek bolaning allergik reaksiyalarga moyilligi, ba'zan -IgAning selektiv defitsitligi kiradi. Retsidiv beradigan bronxitli bolalarda, odatda, biriktiruvchi tuqima displaziysi belgilarini topadilar.

O'tkir bronxitning asosiy simptomi - boshlanishda quruq, 1-2 kundan keyin balg'am ajralishi, uning miqdori ko'payishi bilan xarakterlanadigan yo'tal. Traxeitda kukrak suyagi ortida bosim va og'riq sezilishi mumkin. Obstruksiya klinik belgilari bulmasada, ba'zan uyqu paytida nafas chiqarishda xushtaksimon xirillashlar paydo bo'ladi. Balg'am ko'pincha shilliqli, 2-xaftada yashilroq rangli (fibrin aralashgan) bo'lishi mumkin. Bu mikroblı yallig'anish belgisi emas. Yo'tal odatda 2 xasta davomgacha, ko'proq yoshidagi bolalarda RS-virusli infeksiyada, kattaroq bolalarda - mikoplazmali va adenovirusli infeksiyada uzoqroq, davom etadi. 4-6 xasta davomidagi boshqa belgilarsiz yo'tal traxeitdan keyin uchrashi mumkin. Bronxitda diffuz quruq va katta - yoki o'rta pufakchali, kamdan-kam mayda pufakchali, yo'talganda o'zgaradigan xirillashlar eshitiladi. Perkutor o'zgarishlar yo'q. Bronxitda gematologik uzgarishlar doyimiy emas, mikoplazmatik infeksiyada leykotsitlar soni normal, yoki kamaygan fonda ECHT ortishi mumkin.

#### *Bolalarda o'tkir bronxit belgilari*

Bolalarda bronxit belgilari boshqa nafas kasalliklari belgilaridan farq qiladi. Bolalarda bronxit belgisi deganda birinchi bo'lib yo'tal

tushuniladi. Ammo, yo'tal nafas yo'llarining boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi. Xo'sh, bronxitda yo'talning o'ziga xos xususiyatlari nimasi bilan farqlanadi? Bolalarda bronxitning ilk belgilari quruq yo'taldan boshlanadi, ya'ni balg'am ajralmaydigan yo'tal. Balg'am ko'chishi va nam yo'tallar boshlanishi kasallik tuzalayotganidan dalolat beradi. Balg'am rangsiz, sarg'ish yoki yashil rangda bo'lishi mumkin. O'tkir bronxitda bolalarda yana bir belgi - tana harorati ko'tarilishi ham kuzatiladi. Ammo, bronxit kasalligida ko'rsatkichlar juda yuqori bo'lmaydi, ko'pincha subfebril ko'rsatkichda, ayrim holatlarda 390C gacha ko'tarilishi mumkin. Bu ko'rsatkich o'pka to'qimasining yallig'lanishida tana harorati oshishiga nisbatan past hisoblanadi. Kataral (oddiy) bronxitda tana harorati 380C dan oshmaydi. Bronxitning yana bir simptomi umumiy intoksikatsiya belgilari - bosh og'rig'i, holsizlik, ko'ngil aynishi, emizikli bolakaylarda uyqu buzilishi va ovqatlanishdan bosh tortish kabi holatlar kelib chiqadi. Bolalarda bronxit kasalligida nafas yo'llari auskultatsiyasida ko'krak sohasida quruq xirillashlar eshitiladi. Mikoplazmalar **chaqirgan bronxitd** tana harorati yuqori bo'ladi, ammo umumiy intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, bronxit ko'pincha yuqori nafas yo'llari kasalliklari asorati sifatida rivojlanadi. Demak bronxit belgilari bilan birga faringit, laringit, rinit belgilari ham yuzaga chiqadi, masalan burun bitishi, tomoqda og'riq, burun oqishi, shilliq qavatlar giperemiyasi.

**Traxeit bilan birga keluvchi bronxitda** - ko'krak sohasida og'riq va og'irlilik hissini sezish ham kuzatiladi.

### Bolalarda bronxiolit va obstruktiv bronxit belgilari

Bolalarda bronxiolit va obstruktiv bronxitning belgilari oddiy (kataral) bronxit belgilardan farq qiladi. Bronxiolitda ham yo'tal va tana harorati oshishi kuzatiladi. Ammo, bronxiolit va obstruktiv bronxit belgilariga nafas yyetishmovchiligi alomatlari ham qo'shiladi nafas olish soni ortadi, og'iz-lab uchburghagida ko'karish kelib chiqadi, nafas olish shovqinli bo'ladi va nafas olishda qo'shimcha mushaklar ham ishtirok etadi. Bolalarda obstruktib bronxitda ko'krak sohasida xirillashlar eshitiladi. Odatta nam va xushtaksimon xirillash kuzatiladi. Ba'zida bunday tovushlarni fonendoskopsiz ham masofadan eshitsa bo'ladi. Nafas chiqarish esa uzayadi. Emizikli bolalarda obstruktiv bronxitda hansirash belgisi sifatida nafas olish sonining bir daqiqada 60 martagacha amalga oshishini keltirsak bo'ladi, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda - 50 martagacha, 2 yoshdan katta bolalarda - 40 martagacha nafas olish


hansirash alomatidir. Bronxiolit kasalligida hansirash -1 daqiqada 80-90 martagacha nafas olish bilan namoyon bo'ldi, bunda yurak tomonidan taxikardiya holatlari ham kelib chiqishi mumkin, hamda yurak tonlari bo'g'iqlashishi kuzatiladi.

### Bronxit kasalligini tashxislash.

Kasallikka tashxis qo'yishda shifokor avvalo bronxit kasalligi turi (obstruktiv yoki oddiy) va uning etiologiyasini (virusli, bakterial, allergik) aniqlab olishi zarur. Hamda, oddiy bronxitdan bronxiolitni farqlab olishi ham muhim. Obstruktiv bronxitni esa bronxial astmadan farqlash kerak. Diagnostikada bemor umumiy ko'rigi va ko'krak qafas auskultativ tekshiruvlari o'tkaziladi. Shifoxonaga qabul qilish uchun bola ko'krak qafasi rentgenografiyasi kerak bo'ldi, rentgenogrammada bronxlar va o'pkalarning umumiy ahvoli aniq ko'rindi. Bundan tashqari, kasallik qo'zg'atuvchisini aniqlash maqsadida balg'amdan namuna olib bakteriologik ekma, PZR yordamida viruslarni aniqlash amaliyoti ham bajariladi. Umumiy qon analizida ECHTga, leykotsitar formulaga e'tibor qaratiladi. Leykotsitlar sonining oshishi (leykotsitoz) bakterial infeksiyadan darak beradi. Leykotsitlar sonining kamayishi (leykopeniya) va bir vaqtning o'zida limfotsitlar sonining oshishi (limfotsitoz) virusli infeksiyadan dalolat beradi. Ammo, surunkali bronxitning xuruj davrida umumiy qon analizida o'zgarishlar kuzatilmasligi mumkin. Qo'shimcha sisatida bronxogramma, bronxoskopiya va kompyuter tomografiyasi tekshiruvlari ham buyuriladi. (13- rasm).



Sog'lom bronx



O'tkir bronxit

## Oqibat va asoratlар

Bolalarda bronxitni o'z vaqtida, to'g'ri davolasa oqibati – ijobiliydir. Ammo, bronxit - bu uzoq muddat davom etadigan kasallik, bolaning kasallikdan butunlay qutulib ketishi uchun bir necha hafta sarflanishi mumkin. Eng asosiysi oddiy bronxitni og'ir ko'rinishlariga (obstruktiv bronxit va bronxiolit) o'tib ketishiga, hamda o'pkalar yallig'lanishi bilan asoratlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalarda obstruktiv bronxit hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin ekanligini unutmaslik zarur. Ayniqsa kichik yoshdagi bolalat xavf guruhida turadilar. Gap shundaki, bronxlarning spazmi yoki ular bo'shlig'ida shifliq to'planib qolishi nafas yyetishmovchiligidagi olib kelishi mumkin.

Bronxitning asoratlari sifatida - bronxial astma, qaytalanuvchi bronxit, surunkali bronxit rivojlanishi mumkin. Infeksiyaning organizmda tarqalishi natijasida og'ir asoratlар - endokardit, buyraklar yallig'lanishi kelib chiqishini unutmaslik lozim.

## Bronxit kasalligi profilaktikasi

Bronxit profilaktikasi sovuq qotmaslik, immunitetni oshiruvchi chora tadbirlar, to'g'ri ovqatlanish ratsioniga rioya etish, bolalarni tutunli xonada bo'imasligini ta'minlash (oilada chekuvchilar bo'lsa bolalar yonida chekmaslik kerak), o'tkir respirator kasalliklarni o'z vaqtida davolash va boshqalardan iborat.

## 3.3.Pnevmoniyalar

Pnevmoniya (yunoncha pneumon - o'pka)- o'pka to'qimasining yallig'lanishi bo'lib, go'dak bolalar o'rtasida uchraydigan kasallanish va o'lim strukturasida yetakchi o'rinda turadi.

Bolalarda pnevmoniya - o'pkaning o'tkir infekcion kasalligi bo'lib, rentgenogrammadagi infiltrativ o'zgarishlar va nafas yo'llarining pastki sohasidagi zararanishlar bilan namoyon bo'ladi. Pnevmoniyaning bolalar orasida tarqalish darajasi erta yoshdagi bolalarda har 1000 ta bolaning 5-20 tasida, 3 yoshdan katta bolalarda har 1000ta bolaning 3 tasida uchraydi. Bolalar o'rtasida pnevmoniya bilan kasallanish gripp epidemiyasining mavsumiy tarqalgan vaqtida ko'payib ketadi. Nafas yo'llarining barcha kasalliklari ichida pnevmoniya 1-1,5 % ni tashkil etadi. Bolalarda pnevmoniya - o'pka parenximasining barcha struktur funksional birligida kechadigan o'tkir infekcion yallig'lanishli kasallik. Pnevmoniya bolalarda intoksikatsiya belgilari, yo'tal, nafas

yyetishmovchiligi kabi belgilar bilan kechadi. Bolalarda pnevmoniya tashxisi auskultativ, klinik laborator va rentgenologik tekshiruvlar asosida qo'yiladi. Bolalarda pnevmoniya davosi anbiotikoterapiya, bronxiolitik, balg'am ko'chiruvchi, antigistamin preparatlardan foydalangan holda olib boriladi. Bola o'pkasining anatomo-fiziologik xususiyatlari, yosh orga-nizmning immun holati, atrof- muhit omillariga aloqador bo'lgan organizm reaktivligi yosh bolalarda pnevmoniyalarning ko'p uchrashi va og'ir o'tishiga sabab bo'ladi.

**Etiologiyasi.** Pnevmoniya polietiologik kasallik hisoblanadi. Turli xil bakteriyalar(pnevmonokkk, streptokokk, enterokokk, vulgar protey, ichak tayoqchasi va boshqalar), viruslar (gripp, paragripp viruslari, adenoviruslar, qizamiq viruslari va boshqalar), parazitlar (pnevmosistalar, askaridalar va boshqalar), zamburug'lar, mikoplazmalar ham kasallikni keltirib chiqarishlari mumkin. Bolani noto'g'ri ovqatlantirish, parvarishdagi nuqsonlar, kun tartibiningbuzilishlari, turmush sharoitlarining yaxshi emasligi, shuningdek, o'tkir kasalliklar bilan tez-tez og'rib turish, raxit, oqsil energetik yyetishmovchiligi, anemiya, konstitutsiya anomaliyalarining mavjudligi bolalar organizmi reaktivligining anchagina pasayib qolishiga olib keladi. Bola organizmi- ning sovqotishi ham kasallik kelib chiqishida muhim o'rinn egallaydi.

### Bolalarda pnevmoniya klassifikatsiyasi

Pnevmonianing klinik ko'rinishi, rentgenologik tasvir, og'irlilik darajasi, kasallik davomiyligi, etiologiyasi va boshqa jihatlarini e'tiborga olib turli xil klassifikatsiyasi bor. Bolaning kasallanish sharoitiga qarab: shifoxonadan tashqari va shifoxona ichi, hamda tug'ma pnevmoniylar farqlanadi; Shifoxonadan tashqari, pnevmoniya uy sharoitida, O'RVI kasalliklari asorati sifatida rivojlanadi. Shifoxona ichi pnevmoniysi bola shifoxonaga kelganidan 48-72 soat o'tib va bola shifoxonadan chiqarilgandan 48-72 soat o'tgandan keyin kasallanishdir. Shifoxona ichi pnevmoniysi bolalarda og'ir kechadi va oqibati salbiy bo'ladi. Chunki kasalxonada ichida pnevmoniya chaqiruvchi bakteriyalar antibiotiklarga chidamliligi yuqori bo'ladi. Immun tanqis bolalarda tug'ilganidan 48-72 soat ichida kasallanishi tug'ma pnevmoniya deyiladi. Bolalarda rentgenomorfologik belgilarga qarab pnevmoniya quyidagicha bo'lishi mumkin:

*O'choqli* – infiltrat o'chog'i 0,5-1 sm kattalikda, bir yoki bir necha o'pka segmentlarida joylashadi, ba'zida bilateral holda namoyon bo'ladi. O'pka to'qimasining yallig'lanishi kataral xarakterga ega bo'ladi, alveola bo'shlig'ida seroz ekssudat to'planishi bilan kechadi.

*Segmentar* - o'pkaning butun segmenti yallig'lanishi va uning atelektazi bilan kechadigan pnevmoniya turi. Segmentar pnevmoniya ko'pincha bolalarda cho'zilgan pnevmoniya ko'rinishida bo'ladi va oqibati o'pka fibrozi yoki deformatsiyalaruvchi bronxit bilan tugaydi.

*Krupoz* (tarqoq) - yallig'lanishning giperergik ko'rinishi, lobar yoki sublobar joylashuvga ega bo'lgan, plevra ham zararlanishi bilan kechadigan pnevmoniya (plevropnevmoniya). Intersitsial – o'pka intersitsial (biriktiruvchi) to'qimasining infiltratsiyasi va proleferatsiyasi bo'lib, u o'choqli yoki diffuz ko'rinishida bo'ladi. Intersitsial pnevmoniya ko'pincha pnevmotsistalar, viruslar, zamburug'lar ta'siri natijasida kelib chiqadi.

**Klinikasi.** Kasallikning klinikasi uning turiga va keltirib chiqaruvchisabablariga bog'liq bo'lib, juda xilma-xildir.

O'choqli pnevmoniya odatda tumov, aksirash, quruq yo'tal, uncha yuqori bo'lmanan isitma, bolaning injiqlanishi, burunning bitib qolishi bilan boshlanadi. Kasallikning asosiy sababchisi **respirator viruslar hisoblanadi**. 5-7 kunlarga kelib bolaning rangi o'zgaradi, yo'tal kuchayadi, isitmasi ko'tarilib, unda hansirash paydo bo'ladi. Bola yig'laganda va emayotganida lablari, og'iz atrofida sianoz kuzatiladi. Asta-sekinlik bilan bu belgilar kuchayadi, nafas olish va yurak urishlari soni ortadi. Nafas olishda burun qanotlarining uchishi, qo'shimcha muskullarning qatnashuvi aniqlanadi (qovurg'alar aro aro muskullar va bo'yinturuq chuqurchalarining ichkariga tortilishi va boshqalar).

Kasallik o'tkir kechganda 6 haftadan oshmaydi, bordiyu 8 haftagacha davom etsa, cho'zilgan pnevmoniya deb qaraladi. Pnevmoniyaning 8 haftadan ko'pga cho'zilishi esa uning surunkalitus olganligini bildiradi.

O'tkir mayda o'choqli pnevmoniya ko'pincha go'dak bolalarda uchraydi **va** og'irroq kechadi. Segmentar pnevmoniya odatda turli yoshdagи bolalarda uchrashi mumkin, lekin ko'proq 3-7 yoshli bolalar kasallanishi kuzatiladi.

*Krupoz* pnevmoniya esa aksariyat maktab yoshidagi bolalarda uchraydi **va** og'irroq kechishi bilan xarakterlanadi. Interstsial pnevmoniyaga ko'proq viruslar, pnevmotsistalar, mikoplazma va

zamburug'lar sabab bo'ladi va u aksariyat hollarda chaqaloqlarda, chala tug'ilgan bolalarda, oqsil energetik yyetishmovchiligi, anemiya va boshqa ikkilamchi kasalliklar bilan og'rigan nimjon bolalarda rivojlanadi. Chaqaloqlarda pnevmoniylar o'ziga xos tarzda, odatda og'ir formada o'tadi. Chala tug'ilgan bolalardagi pnevmoniylar markaziy asab tizimi, nafas va issiqlikni idora etuvchi markazlarning yetilmaganligini, nafas va tomirlar tizimining morfologik va funksional jihatdan yetilmaganligi tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bolaning umumiylar ahvoli juda tez og'irlashadi, yuqorida sanab o'tilgan belgilar chala tug'ilgan bolalarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi, bola ovqatdan bosh tortib, emgan sutini qaytarib chiqaradi, qayt qilib turadi, ichaklari dam bo'lib, ichi ketadi, tanasining vazni keskin kamayadi. Bolaning og'zi, ba'zida burnidan ko'pikli shilimshiq kela boshlashi xatarli belgi sanaladi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, perkutor va auskultativ ma'lumotlar kam ifodalangan bo'ladi.

**Asoratlari.** Go'dak bolalarda pnevmoniyalardan so'ng asoratlар ancha ko'p uchraydi, lekin kimyoterapeutik dori-darmonlar keng qo'llanilayotganligi munosabati bilan so'nggi yillarda bularning soni ancha kamayib qoldi. Go'dak bolalarda bo'ladiGAN pnevmoniyalarning eng ko'p uchraydigan asoratlari otoantritga o'tib ketadigan kataral yoki yiringliotit, yiringli plevrit, o'pka abscesslari, ensefalit, meningit, meningoensefalitdir. Mayda o'choqli pnevmoniyaning birmuncha kamroq uchraydigan asoratlari jumlasiga yiringli perekardit, peritonit, artrit, osteomiyelit, piyelonefrit va boshqalarini kiritish mumkin.

**Oqibati.** Kasallik vaqtida aniqlanib, tegishli davo va parvarish choralarini olib borilsa batamom tuzalish bilan yakunlanishi mumkin. Lekin yetarli e'tibor berilmagan hollarda, bolada qo'shimcha kasallik lar bo'lganda yuqoridagi asoratlari kelib chiqadi.

**Qo'shimcha tekshiruvlar.** Umumiylar qon, siydk, axlat tahlillari, balg'amni turli tekshiruvlari, rentgenologik tekshiruvlar va boshqalar.

**Profilaktikasi.** Bolalarda pnevmoniyalarning profilaktikasi quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi: Antenatal davrdan boshlaboq bo'lg'usi onaning vaqtida uxbab, vaqtida turishi, vaqtida mehnat qilib, vaqtida dam olishini ko'zda tutadigan to'g'ri rejim belgilash kerak. Qish kezlarini sutkasiga 3-4 soatdan, yoz mahallari 8 soatgacha ochiq havoda yurishni nazardatutadigan havo rejimiga rioya

qilish ham ancha muhim. Homiladorayolning ovqatlanish rejimi ham katta rol o'ynaydi.

### 3.4.Qon va qon yaratish a'zolari kasallikkleri

#### ANEMIYA

Anemiya -qondagi eritrotsitlar sonining kamayib, qonning hajm birligida gemoglobin miqdori va bitta eritrotsitdagagi o'rtacha gemoglobin miqdorining kamayib qolishi bilan xarakterlanadigan holatdir.

*Anemiyalarni tasnifi*

Klinik amaliyotda anemiyalarning quyidagi tasnifi eng keng tarqalgan:

1. O'tkir qon yo'qotish tufayli anemiya
2. Eritrotsitlar ishlab chiqarishining buzilishidan kelib chiqqan anemiya

- *Aplastik*
- *Temir yetishmasligi*
- *Megaloblastik*
- *Sideroblastik*
- *Surunkali kasalliklar anemiyasi*
- 3. Qizil qon hujayralarining ko'p parchalanishi tufayli anemiyalar
- *Gemolitik*

Gemoglobinning pasayishining og'irligiga qarab, anemiyaning uch og'irligi darajasi ajratiladi:

*Yengil - gemoglobin darajasi 90g/l dan yuqori;*

*O'rta - gemoglobin 90-70 g/l oralig'ida;*

*Og'ir - gemoglobin darajasi 70 g/l dan kam.*

**Etiologiyasi.** Katta yoshdagi bolalarda anemiyaning kelib chiqishida turli sohalardan qon ketishi, gelmintozlar sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, anemiya boshqa tizim hamda organlar kasallikkleri - leykoz, nefrit, jигарнинг diffuz zararlanishi, infeksiyalar, intoksi-katsiyalar, irlsiy kasallikklar va boshqalarning alomati sifatida ham paydo bo'lishi mumkin. Yosh go'dak bolalarda (aksari 6-18 oylik) uchraydigan barcha anemiyalarning 90 foizi infeksiyon-alimentar tabiatga ega. Buning sababi, emadigan bola qon yaratish apparatining funksional jihatdan labil hamda juda nozik bo'lishidir. Yosh go'daklarda bo'ladigan infeksiyon-alimentar anemiyalar ko'pincha temir yetishmasligi sababli kelib chiqadi va shuning uchun bunday anemiyalar

- temir defitsitli anemiyalar deyiladi. Bundan tashqari, keltirib chiqargan sabablarga asoslangan holda kamqonlikning vitamin yoki oqsil yetishmasligidan kelib chiqqan turi, postgemorragik (ko'p qon yo'qotish), gemolitik (qonning parcha-lanishi), postinfektion (yuqumli kasallikkardan so'ng), gipoplastik va aplastik (qon ishlab chiqarishning pasayishi yoki batamom yo'qolishi) turlari ham farqlanadi. Anemiyalarning postgemorragik, gemolitik, postinfektion va gipoaplastik turlari odatda katta yoshdagi bolalarda ko'proq uchraydi.

### **Temir yetishmovchilik kamqonligi**

Temir yetishmovchilik kamqonligi (TEK) - temir tanqislikligining ko'rinishi bo'lib, birlik qon hajmida va eritrositlarda hemoglobin konsentrasiyasining kamayishi, mikrositoz, anisositoz, poykilositoz, rang ko'rsatgichining pasayishi, qon zardobida temir va ferritin miqdorining kamayishi, transferrinining temir bilan past darajada to'yinishi, temir bog'lovechi xususiyati va eritrositar protoporfirinining oshishi bilan xarakterlanadi.

TEK bolalik davrida kamqonlikning eng ko'p ko'rinishidan biri hisoblanadi. Bola hayo'tining ikkinchi yilda va o'smirlig davrida, erta yoshdagi bolalarda juda ko'p kuzatiladi. Yashirin temir tanqisliklik davri temir yetishmovchilik kamqonligidan 1,5-2 marta ko'p uchraydi.

Temir yetishmovchilik kamqonligi sabablar:

1. Tug'ilganda temir miqdorining kamligi. Xavf guruhi: chala tug'ilganlar; homiladorlik vaqtida kamqonlikka uehragan onalar, shuningdek "tashlandiq bolalar"; homila ichi rivojlanishidan orqada qolgan bolalar; perinatal davrda ko'p qon yo'qotgan bolalar.

2. Alimentar omillar - temir yetishmovchiligi kamqonligining yetakchi sababi. Xavf guruhi: moslashtirilmagan aralashmalar bilan sun'iy ovqatlantiriladigan bolalar; qo'shimcha ovqatni kech berish; har qaysi yoshda faqat osimlik, sabzavo'tlar bilan ovqatlantirish; rasionda sutni ko'p ishlatish (sutkada 0,5 l dan yuqori).

3. Temirni ko'p miqdorda yo'qotish yoki unga bo'lган yuqori talab. Xavf guruhi: o'tkir va surunkali yuqumli kasalliklar, asosan oshqozon-ichak trakti; oshqozon-ichak traktining surunkali noinfektion, yalliglanish kasalliklari (malabsorbsiya sindromida temirni ko'p yo'qotish yo'ki yetarli darajada organizmiga tushmasligi); yaqqol (melena, burundan qon ketish, gematuriya va boshqalar) va yashirin qon ketishi; yuvenil gormonal o'zgarishlar; toksik omillar; essensial.

Temir tanqisligida birinchi o'zgarish to'qimalarda sodir bo'ladi - qimada temir zahirasi kamayadi, zardobda ferritinning kamayishiga olib keladi, keyin transferrinning temir bilan to'yinishi pasayadi, zardobning umumiy temir bog'lovchi xususiyati ortadi va erkin eritrositar pro'toporfinlar miqdori - gem manbalari ko'tariladi. Yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishlar bola qon zardobida temir miqdori va gemoglobin konsentrasiyasi, eritrositlar hajmining pasayishigacha, ya'ni kamqonlik rivojlanishidan ollin kuzatiladi.

Gemoglobinning pasayish darajasiga qarab, anemianing yengil (gemoglobin 90-110g/l), orta-og'ir (60-80 g/l) va og'ir (gemoglobin 60 g/l dan kam) turlari ajratiladi. Klinik ko'rinishida quyidagi sindromlar kuzatiladi:

*Astenonevrotik sindrom:* tez charchash, qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish, emosional no'turg'unlik, ko'p terlash, jismoniy va psixomo'tor rivojlanishdan orqada qolish; lanjlik, asteniya, apatiya, ishtaha pastligi, diqqat e'tiborni pasayishi, hushdan ketish, katta yoshdagida bolalarda bosh og'rishi, bosh aylanishi, quloqlarda shovqin, ko'z oldida bijirlash, yurak sohasida ogriq, shuningdek, ishtaha va hid bilishning o'zgarishi, dizurik buzilishlar.

*"Epitelial"sindrom.* Terining oqimtirligi (asosan kaftda, tirnoqlarda, shilliq qavatlarda va quloq supralarida; terining quruqligi va kepaklanishi; teri, tirnoq, soch, og'iz shilliq qavati, tilning distrofik o'zgarishi (og'iz burchagida bichilish, angulyar stomatit, til sorgichlarining yassiligi, laklangan til, tilning qizarishi, atrofik glossit), qattiq ovqatlarni yutishning buzilishi; gastrit; duodenit, malabsorbsiya va maldigestiya bilan kechuvchi enteropatiya, no'turg'un najas; ko'ngil aynashi; ba'zida terining alebastr-yashil rangda bo'lishiha (xloroz) kuzatiladi.

*Yurak qon-tomir sindromi:* taxikardiya, arterial gipotoniyaga moyillik, yurak tonlarining susayishi va yurak nisbiy chegarasining kengayishi, yurak cho'qqisida funksional sistolik shovqin, ba'zida yirik tomirlar ustida shovqin eshitilishi. *Mushak sindromi:* gipo'toniya, tez charchash, peshobni ushlab turaolmaslik, qabziyat. Ikkilamchi immunitet tanqisligi sindromi: temir yetishmasligini yanadi og'irlashishiga olib keluvchi tez-tez ORVI, pnevmoniya, ichak infeksiyalari bilan kasallanish.

Temir yetishmasligi kamqonligining tashxisoti gematologik ko'rsatgichlarning siljishini aniqlashga asoslangan - gemoglobinning pasayishi (5 yoshgacha 110g/l dan kam va katta yoshdagilarda 120 g/l dan kam), rang ko'rsatgichi 0,8dan past, bitta eritrositda gemoglobinning

o'rtacha miqdori 927 pg/eritrositdan past, eritrositlar o'rtacha hajmining pasayishi, temir almashinuvi ko'rsatgichi - qon zardobida ferritinning pasayishi (30 ng/ml dan past), transferrinning temir bilan toyinganligi (25%dan past), temir (11.6 mkmol/l dan past; qon zardobida umumiy temir bog'lovchi funksiyasining yuqoriligi (50 mkmol/l dan yuqori). Laborator belgilariga shuningdek, mikrositoz, anizo va poykilositoz kiradi. Rang korsatgichining pasayishi temir yetishmovchiligining erta bosqichlarida rivojlanmaydi, shuning uchun normoxrom rang ko'rsatkichi temir yetishmovchilik kamqonligini inkor hilmaydi. Eritrositlar sonining pasayishi faqatgina og'ir kamqonliklarga xarakterlidir. Suyak ko'migida eritropoezning yosharish belgilari xarakterlidir, bu qonda retikulositoz bilan tasdiqlanadi.

Differensial tashxis juda kam uchraydigan mikrositar gipoxrom kamqonliklar bilan o'tkaziladi: talassemiya, kumush, simob bilan zaxarlanish; sideroblast kamqonlik.

**Profilaktikasi.** Ayollarda temir tanqisligini oldini olishdan boshlanadi. Chala tug'ilgan bolalarda 1-oyligidan boshlab profilaktik doza sutka davomida 2 mg/kg beriladi. Bolalar ovqatlanishida tarkibiga temir dorilari qo'shilgan bo'tqalarni berish tavsiya qilinadi.

## MEGALOBLASTIK ANEMIYALAR

Megaloblastik anemiya -  $B_{12}$  vitamini va folat kislotasi yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladigan eritroid hujayralarining DNA va RNA sintezining buzilishi bilan oldindan belgilangan anemiya. Anamnez: kasallikning asta-sekin rivojlanishiga, umumiy darmonsizlikka e'tibor berish.

Bemorni tekshirish - sindromlarning xarakterli uchligi:

1. Anemiya (teri va shilliq pardalarning rangsizlanishi, teri va skleraning nozikligi;
2. Ovqat hazm qilish traktining shikastlanishi (tilning shilliq qavati - birinchi bosqichda, yorqin qizil, og'riqli, keyinchalik - silliq, porloq; atrofik gastrit);

3. Nevrologik sindrom (funikulyar miyeloz).

laboratoriya dagi xarakterli o'zgarishlar: giperxrom turdag'i anemiya (rang indeksi  $> 1,0$ ), leykopeniya, trombotsitlar sonini kamaytirish mumkin. Qon tekshiruvi o'tkazilganda, makrositoz, ovalotsitoz, anizotsitoz, eritrotsitlardagi bazofilik granulalari, Kebot halqalari va Jolli

tanachalarni o'z ichiga olgan eritrotsitlar, giper segmentli yadroga ega neytrofillar topiladi;

Makrositar anemiya (o'rtacha EH 100 m<sup>3</sup> dan ortiq) megaloblastik va megaloblastik bo'limganlarga bo'linadi. Megaloblastik anemiya B<sub>12</sub> vitamini yoki folat kislotasi yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi va periferik qon va suyak iligi xarakterli manzarasi bilan taysiflanadi. Megaloblastik bo'limgan makrositar anemiya jigar kasallikkleri va mielodisplastik kasallikkarda uchraydi. Makrotsitoz retikulotsitar kriz (retikulotsitlar 10% dan yuqori) bo'lgan bemorlarda ham aniqlanadi. Bunday holda, tashxis periferik qonni, suyak iligini, shuningdek qon zardobidagi B<sub>12</sub> vitamini va folat kislotasi miqdorini aniqlashni talab qiladi. Yakuniy tashxis va terapiyani buyurish odatda gematolog bilan maslahatlashishni talab qiladi.

### VITAMIN B<sub>12</sub> DEFITSIT ANEMIYASI DIAGNOSTIKASI

B<sub>12</sub> yetishmovchiligi anemiyasini tashxislash uchun qo'shimcha tekshiruvlar talab etiladi:

1. Qonda B<sub>12</sub> vitaminining miqdorini aniqlash.
2. Aspiratsiya qilingan suyak iligi biopsiyasi (qonda B<sub>12</sub> vitaminini aniqlash imkoniyati bo'limganida yoki 5-8 kun ichida davolanishga javob bo'lmasa).

Vitamin B<sub>12</sub> – folat kislotasi yetishmovchiligi anemiyasi. Ushbu anemiyalar, qonni etarlicha qabul qilmaslik yoki gemostimulyatsion xususiyatlarga ega bo'lgan B<sub>12</sub> vitamini va folat kislotasidan foydalana olmaslikdan kelib chiqadi. B<sub>12</sub> vitamini va folat kislotasi qizil qon hujayralarini shakkantirishda ishtirok etadi. Agar ular oz bo'lsa yoki yo'q bo'lsa, unda qizil qon hujayralarining kamolotga uchrashi sodir bo'lmaydi va natijada anemiya bo'ladi. B<sub>12</sub>-folat etishmasligi anemiyasi megaloblastik anemiya guruhiiga kiradi. Ular uzoq vaqtadan beri ma'lum, ammo ularning sababi bizning asrimizning 40-yillarida aniqlangan. Klinik ko'rinish va laboratoriya xususiyatlariga ko'ra, ular juda o'xshash, ularni farqlash qiyin. B<sub>12</sub> vitamini va folat kislotasi yetishmovchiligidagi anemiya paydo bo'lishi holatlari mavjud. B<sub>12</sub> vitamini (cyancobalamin) 1948 yilda birinchi marta sintez qilindi va anemiyaning sababi birinchi bor aniqlandi. Ilgari u ichki omil natijasida rivojlanadi deb ishonilgan. Kasl omili - me'da shilliq qavatining asosiy hujayralari tomonidan ishlab chiqariladigan gastronomukoprotein (oqsil). Keyinchalik, Kasl omilining

tashqi antianemik omili B<sub>12</sub> vitamini ekanligi to'g'risida qaror qabul qilindi. Vitamin etishmasligi anemiyasi ekzogen yoki endogen bo'lisi mumkin. B<sub>12</sub> vitamini va folat kislotasi tabiatda keng tarqalgan va oziq-ovqat bilan ta'minlanadi: go'sht, tuxum, sut, pishloq, hayvonlar buyraklari, ismaloq va xamirturush. Kattalar tanasida B<sub>12</sub> vitaminining miqdori 2-5 mg, folat kislotasi kamroq. B<sub>12</sub> vitaminining va folat kislotasining asosiy ombori jigardir. Ularning kunlik yo'qotishlari ahamiyatsiz. Agar B<sub>12</sub> tanaga kirmasa, faqat 5-6 yildan keyin anemiya paydo bo'lisi mumkin. B<sub>12</sub> vitamini DNK va RNK, xususan, qizil qon tanachalari sintezida ishtirok etadi. Shuning uchun uning yetishmovchiligi bilan qizil qon hujayralarining tuzilishi buziladi. Suyak iligi hujayralarida kamolotga va differentsiatsiyaga kirishish jarayoni sekinlashadi. Gemoglobin hosil bo'lish jarayoni buzilmaydi (B<sub>12</sub> va folat kislotasi bu jarayonda ishtirok etmaydi). Vitamin B<sub>12</sub>, oshqozon-ichak traktiga kirib, oshqozonda parchalanadi va bo'shashadi, uning ichki omili bilan birlashadi. Ichakda villi hududiga kirgandan so'ng, kompleks parchalanadi va allaqachon toza B<sub>12</sub> ichak devori orqali so'rildi va qon oqimiga kiradi. Faktor transport va assimilyatsiya qilish uchun kerak. Qonda B<sub>12</sub> oqsillarni transkobalamin orqali tashiydi, ular bir nechta turlar bilan ajralib turadi (1, 2, 3, 4). Asosiy transport funktsiyasi 1 va 2 transkobalaminni tomonidan amalga oshiriladi, ular B<sub>12</sub> vitaminini depoga - jigarga yetkazib beradi, ularning zaxiralari juda katta. Agar kerak bo'lsa, B<sub>12</sub> sianokobalamin yordamida suyak iligiga etkaziladi, u erda u qizil qon tanachalari qurilishida ishtirok etadi. B<sub>12</sub> vitamini yetishmasligi anemiyasi yoki Addison-Birmer kasalligi ko'plab mamlakatlarda uchraydi. Ko'pincha, 40 yoshdan oshgan ayollar kasal. Kasallik asta-sekin rivojlanib, keyinchalik surunkali takroriy kursni oladi.

B<sub>12</sub> va folat kislotasi etishmasligi anemiyasining rivojlanish sabablari.

I. B<sub>12</sub> vitaminini (folat kislotasi) so'rilishini buzilishi.

1. Oshqozon fundal bezlarining atrofiyasi (Addison-Birmer kasalligi).

2. Oshqozonni shikastlanishi (polipoz, saraton).

3. Ichak kasalligi (terminal ileit, divertikuloz, ichak oqmalari, o'smalar).

4. Oshqozon va ichakda jarrohlik amaliyoti (oshqozonni subtotal rezektsiya qilish, gastrektomiya, ichak rezektsiyasi).

II. B<sub>12</sub> vitaminini (folat kislotasi) ko'p sarflanishi va suyak iligida utilizatsiyasini buzilishi.

1. Ichak parazitlari (difilobotriaz).
2. Ichak disbakteriozi.
3. Homiladorlik, tug'ish.
4. Jigar kasalliklari (surunkali gepatit, sirroz).
5. Gemoblastozlar (o'tkir leykemiya, eritromiyeloz, osteomielofibroz).
6. Ba'zi dorilarni qabul qilish (talvasaga qarshi dorilar, sulfanilamidlar, folat kislotasi antagonistlari).

III. B<sub>12</sub> (folat kislotasi) alimentar tanqisligi.

1. Bolalarda echki suti va sut poroshogi bilan boqish tufayli.
2. Kattalarda, ba'zi ijtimoiy-etnik guruhlar orasida.

Folat kislotasi (ftryoylglutamin kislotasi) inson tanasida oz miqdorda bo'ladi va oziq-ovqat bilan birga keladi: ismalooq, go'sht, sut, tuxum. Agar mahsulotni issiqlik bilan ishlov berish paytida B<sub>12</sub>vitamini 10-15% faollilikni yo'qotsa, folat kislotasi - 50%. Folat kislotasi ingichka ichakda so'rildi. Ammo B<sub>12</sub> vitaminidan farqli o'laroq, qon oqimiga kirganda, u erkin va bog'langan holatda bo'lishi mumkin (qon oqsillari bilan). Erkin holatda u najasda, siydkda, terda bo'lishi mumkin. Foliy kislotasi zaxiralari kichik, yetishmovchilik 3-6 xafta, folat kislotasi zaxirasi - jigar. Zarur bo'lganda, jigardon suyak iligiga kiradi.

B<sub>12</sub> yetishmasligi anemiyasining klinik ko'rinishi. Kasallik davriy ravishda davom etadi: remissiya davri retsidiy bilan almashadi. Bu qon aylanish tizimiga, ovqat hazm qilish tizimiga va asab tizimiga zarar etkazadigan alomatlar majmuasi bilan tavsiflanadi. Anemiyaning sekin rivojlanishi unga moslashish uchun sharoit yaratadi. Anemiyaning sezilarli bo'lishiqa qaramay, bemorlar uzoq vaqt davomida, klinik va gematologik dekompensatsiyaning og'ir alomatlari paydo bo'lguncha ishlashlari mumkin.

Alomatlarning umumiy guruhi: darmonsizlik, tez jismoniy charchoq, bosh aylanishi, ko'z tinishi, yurak urishi, nafas qisilishi. Limon-sariq rangdagi terining o'tkir rangparligi. Teri quruq, mo'rt tirnoqlar. Ko'pgina bemorlarda isitma 38°С gacha. Gyunter simptomi anemiyaning asosiy alomatidir, unda tilning uchida qon nuqtasi paydo bo'lishi, tilda og'riq hissi, yonish, qichishish qayd etiladi. Agar issiq ovqat tilga tushsa, yoqimsiz hissiyot paydo bo'ladi. Til "laklangan" bo'ladi (silliq), bunday sirt og'iz va qizilo'ngachning shilliq qavatida bo'lishi mumkin. Me'da

shilliq qavatiga albatta ta'sir ko'rsatiladi, doimiy achishish bilan atrofik gastrit qayd etiladi. Ichak shilliq qavatiga tarqaladigan epigastral og'riq, ko'ngil aynish, quşish, qorin og'rig'i va diareya xarakterlidir. Markaziy asab tizimidagi o'zgarishlar qayd etilgan: orqa miya lateral va orqa ustunlari ta'sirlanadi. Yon ustunlar avtonom markazlarga (ichki organlarning ishi) javobgardir, orqa ustunlardan markazgacha sezgir impuls mavjud. Bunday bemorlarda yurak ishi (taxikardiya, aritmiya), siyidik pufagi, ichak buziladi, parez va falaj kuzatiladi. Megaloblastik anemiya rivojlanadi. Gemapoezning turi o'zgaradi (sog'lom odamda gemapoezning normoblastik turi). Gemapoezning megaloblastik turi bilan qizil va oq qon hujayralarining tuzilishi o'zgaradi. Periferik qonning surati qizil qon hujayralarda degenerativ o'zgarishlar bilan giperxrom makrositar anemiya bilan tavsiflanadi. Suyak iligi hujayralarda yadro va sitoplazmaning etilish jarayoni buziladi. Sitoplazma yadroning etilish jarayonidan oldin rivojlanadi. Shuning uchun yadro yosh, sitoplazma esa eski. Kasallik avjiga chiqqanida, qonning bir birlik hajmiga qizil qon tanachalari soni 1 g/l ga keskin kamayishi mumkin. Gemoglobin hosil bo'lish jarayoni buzilmaydi, gemoglobin miqdori normal chegarada, rang ko'rsatkichi 1,3-1-1,5. Agar eritrotsitlarda (MCH) gemoglobinning o'rtacha miqdori 31 pg dan oshsa, anemiya giperxrom turga kiradi. Giperxrom anemiya odatda makrositar ( $MCV > 95$  fl). MCHC qiyamti me'yordan oshib ketmaydi va gemoglobinning pasayishi odatda katta hajmli hujayralar (makrositlar) ko'payib ketadigan qizil qon tanachalari sonining keskin kamayishi bilan izohlanadi. Anemianing bu turiga  $B_{12}$  yetishmovchiligi, folat kislotsasi yetishmovchiligi va autoimmun gemolitik anemiya kiradi. Kasallikning o'trkir davrida xarakterli belgilardan biri yetilish jarayonining buzilishi tufayli periferik qonda retikulotsitlarning pasayishi yoki yo'qolishi hisoblanadi. Agar  $B_{12}$  folat kislotsasi etishmasligi anemiyasiga shubha bo'lsa, retikulotsitlarni albatta aniqlash kerak. Kuchlanish paytida qizil qon tanachalarining degenerativ turlarii paydo bo'ladi - poikilotsitlar, shizotsitlar, bazofilik granulali eritrositlar. Poikilotsitoz - bu qizil qon hujayralari, makrositlar va megalotsitlar shaklidagi o'zgarish. Shizotsitlar vayron qilingan, yirtilgan qizil qon hujayralari.

Qizil qonning o'zgarishi bilan bir qatorda anemianing qaytalanishi, gigant polysegmentli neytrofillar ishtirokida 1,5 g/l gacha bo'lgan leykopeniya bilan xarakterlanadi. Chapga, miyelotsitlarga siljish bilan neytrofiliya qayd etiladi. Bemorlarning kam sonida leykotsitoz qayd

etiladi, eozinofillar, monotsitlar kamayadi. Trombotsitopeniya 50 g/l ga etadi, tepalik davrida bu aniqroq bo'lishi mumkin, ammo trombotsitopeniya tufayli hech qachon qon ketmaydi. EChT deyarli har doim tezlashadi. Suyak iligida qizil hujayralar ko'payishi sababli oq va qizil hujayralar nisbati o'zgaradi. Ko'p miqdordagi bosofil megaloblastlar qayd etiladi. Bilvosita bilirubinemiya qon zardobida qayd etilgan - 18-36 mkmol/l, najasda sterkobelin miqdori ko'payishi, siyidikda urobilin borligi aniqlanadi.

$B_{12}$  tanqisligi anemiyasining diagnostik mezonlari:

- MCH ning yuqori qiymati ( $> 31 \text{ pg}$ ):

Makrositoz (MCV qiymati  $> 95 \text{ fl}$ ), megalotsitoz:

- yadro qoldiqlari bo'lgan qizil qon tanachalari (Jolli tanasi, Kebot halqasi);

- retikulotsitopeniya;

Neytrophillar giper segmentatsiyasi;

- leykopeniya (neytropeniya);

- trombotsitopeniya;

Suyak iligida megaloblastik gemapoez.

## FOLAT TANQISLIK KAMQONLIGI

Folat tanqislik kamqonligi (FTK) megablast kamqonlik guruhiiga kiradi. Megablast kamqonlik (MK) - samarasiz eritropoez natijasidagi kamqonlik bo'lib, eritrositlarning shakllanishi va morfologiyasining o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

FTK kam uchraydigan kasallik, ko'krak yoshidagi bolalarda, asosan chala tug'ilganlarda kuzatiladi.

**Etiologiyasi va patogenezi.** Yetuk tug'ilgan, ratsional tabiiy ovqatlanishda bo'lgan chaqaloqlarda folat kislota qon qoniglarli bo'ladi.

**Sabablari:** absobrsiyaning tug'ma buzilishi va folat almashinuvining buzilishi (kam hollarda), orttirilgan malabsorbsiya (seliakiya, ekssudativ enteropatiya); chala tug'ilganlarda folat kislota qon qoniglarli bo'ladi. Folat kislota tanqisligi kamqonligi echki suti bilan tug'ilgan bolalarda kuzatiladi. Suyak iligida va periferik qonda megablast

o'zgarishlar 3-3,5 oydan keyin paydo bo'ladi. Oq'irlik darajasiga qarab klassifikasiya qilinadi.

**Klinikasi.** Chala tug'ilgan bolalarda 3-6 oyligidan boshlab, lanj, anoreksiya, glossit, diareya, qon talashlar va bakterial infeksiya yuzaga keladi. Periferik qonda megablast o'zgarishlar, neytropeniya neytrofillar olchami kattalashgan, trombositopeniya kuzatiladi. Nevrologik buzilishlar xarakterli emas.

**Diagnostikasi.** Periferik qonda eritrositlar orasida megalositlar ustunlik qiladi - 10 dan 12 mkmgacha diametrdagi hujayralar, aylana yo'ki ellips shaklida bo'ladi. Eritrositlarning o'rtacha hajmi 100 dan 146 flga teng. Periferik qon surtmasida anizositoz va poykilositoz, neytrofillar gipersegmentasiyasi aniqlanadi.

Suyak iligida eritroidli giperplaziya va barcha gemopoetik hujayralarning katta olchami xarakterlidir.

**Differensial diagnostikasi.** B12 tanqislikli kamqonlik bilan o'tkaziladi. B12 tanqislikligi kamqonligida peshobda metilmalon kislo-tasi ajralishi ko'tarilgan, uni folat kislo'ta kamqonligidan farqlaydi.

## IV BOB. TIBBIY GENETIKA.


Genetika termini 1906-yilda U. Betson tomonidan taklif qilingan bo'lib, yunoncha «*genetikos*» so'zidan olingan va kelib chiqishiga taalluqli degan ma'noni anglatadi. Genetika fani tirik organizmlarning ikki asosiy xususiyatlari – irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganadi. G.Mendel o'zining no'xatlar ustida o'tkazilgan klassik tajribalari bilan irsiyat va o'zgaruvchanlik hodisalarini ilmiy o'rganishni boshlab berdi (1865). Lekin Mendel kashf qilgan irsiyat qonuniyatlarini 35 yilgacha zamondoshlarning e'tiborini jalb etmadi, faqat 1900-yildan boshlab, irsiyat qonuniyatlarini qayta kashf qilingandan keyin, Mendel qonunlari hamma olimlar tomonidan e'tirof etildi va genetika alohida fan sifatida rivojlanan boshladidi. O'sha vaqtidan boshlab genetika fani uzoq va murakkab yo'lни bosib o'tdi va ko'p sonli mustaqil bo'limlarga ajratildi. Bu bo'limlar alohida fan sifatida rivojlanmoqda, ular genetika fanining yangi kashfiyotlari – matematika, fizika, kimyo, evolyutsion ta'limot, sitologiya, tibbiyot va boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanish natijasida tashkil topdi. Genetika fundamental (poydevor) va amaliy fan hisoblanadi. Uning fundamentalligi – tiriklikning asosiy xususiyatlari – irsiyat va o'zgaruvchanlikni o'rganishi, boshqa fanlarga katta ta'sir ko'rsatishiga bog'liqidir. Genetikaning amaliy xarakteri uning yutuqlarining amaliy maqsadlarda, seleksiyada, sog'liqni saqlashda foydalanishiga bog'liqidir. Hozirgi zamon genetikasining asosiy tushunchalaridan biri *gen* hisoblanadi. Gen irsiy informatsiyaning saqlanishi, uzatilishi va amalga oshirilishi birligidir. XIX asrning ikkinchi yarmigacha irsiyat hodisasi ilmiy jihatdan umuman o'rganilmagan edi. Ammo o'sha davrdayoq bolalarning hamma vaqt ham ota-onalarga o'xshayvermasligi, ba'zi kasalliklarning ayrim oilalarda uchrashi aniqlangan, tibbiyot sohasida ayrim empirik qonunlar keltirib chiqarilgan edi. Masalan, gemofiliya bilan faqat o'g'il bolalar kasallanishi, kasallik onalardan o'tishi (Nasse qonuni) aniqlangan edi. Lekin odam genetikasining rivojlanishiga ijtimoiy va siyosiy munosabatlar hamma vaqt ta'sir ko'rsatib keldi. Shuning uchun ham antropogenetikaning «sof fan» bo'lib qolishi qiyin edi. Hatto hozirgi davrda ham IK (intellekt koeffitsienti) irsiylanishi, xulqning tug'ma shakllarining mavjudligi muammolari jamiyatda har xil bahsning kelib chiqishiga sabab bo'lib kelmoqda. Irsiyat to'g'risida dastlabki tushunchalarni antik davrdagi qadimgi Yunon faylasuflarining asarlaridan topish mumkin. Masalan,

Gippokrat shunday yozgan edi: «urug<sup>+</sup> butun tanani hosil qiladi, sog<sup>+</sup>lom urug<sup>+</sup>dan tananing sog<sup>+</sup>lom qismlari, kasal urug<sup>+</sup>laridan esa kasal qismlar hosil bo<sup>+</sup>ladi. Kaldan kal bola, ko<sup>+</sup>k ko<sup>+</sup>zlidan ko<sup>+</sup>k ko<sup>+</sup>zli bola, g<sup>+</sup>ilaydan g<sup>+</sup>ilay, tuxumsimon kallalidan tuxumsimon kallali farzandlar dunyoga keladi». Anaksagor va Aristotelning ham irsiyat va jins shakllanishi to<sup>+</sup>g<sup>+</sup>risidagi dunyoqarashlari diqqatga sazovordir. Platon o<sup>+</sup>zining «Siyosat» degan asarida jismoniy va ma<sup>+</sup>naviy sog<sup>+</sup>lom bolalar tug<sup>+</sup>ilishi uchun er-xotinlarni qanday tanlashni, bolalarni qanday tarbiyalashni tushuntiradi. Sharq va Osiyo olimlarining asarlarida ham bu sohada ancha qimmatli ma<sup>+</sup>lumotlarni topish mumkin. Buyuk Ibn Sino tibbiyot fanining rivojlanishiga katta hissa qo<sup>+</sup>shdi, uning asarlari Yevropa universitetlarida tibbiyot sohasida asosiy qo<sup>+</sup>llanma sifatida keng qo<sup>+</sup>llanildi.

Ibn Sino asarlarida odam tabiatining shakllanishida uning belgilari (hozirgi zamон)

#### 4.1. Irsiyatning molekulyar asoslari. Irsiyatga muhit omillarining ta'siri.

**Hujayra** - eukariot organizmlarning strukturaviy va funksional elementlar birligi hisoblanadi (eukariot organizmlarga odam ham kiradi). Eukariotlar - haqiqiy yadroga ega bo<sup>+</sup>lgan hujayralar. Hujayra o<sup>+</sup>z-o<sup>+</sup>zini hosil qiluvchi, yangilovchi va idora qiluvchi tirik elementar tizim hisoblanadi, ya ni «tiriklik» tushunchasiga javob bera oladigan eng kichik birlik hisoblanadi. Eukariot hujayralarda yadro bilan sitoplazmani membrana ajratib turadi (14-rasm).




14-rasm. Hujayra.

1-yadro; 2-sitoplazma; 3-mitoxondriya; 4- hujayra markazi; 5- pinotsitoz pufakcha; 6- lizosoma; 7-Golji kompleksi; 8- silliq endoplazmatik to'r; 9-donador endoplazmatik to'r; 10- ribosoma; 11- hujayra qobig'i; 12-mikrovorsinkalar; 13- yadroqobig'i; 14- yadro qobig'idagi teshiklar; 15- yadrocha.

**Yadro.** Irsiyatning molyekulyar asoslarini o'rganish uchun yadroning strukturasi va funksiyalari bilan tanishamiz. Hujayraning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'slib vegetativ (hujayra faoliyatini boshqaradi) va generativ (irsiy informatsiyani saqlaydi va qizlik hujayralariga uzatadi) funksiyalarini bajaradi. Eukariotning yadrolari quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: 1) yadro qobig'i; 2) yadro shirasi; 3) yadrocha; 4) xromatin (15-rasm).

**Yadro qobig'i** 2 biomembranadan hosil bo'ladi, bu membranalar orasida membranalar oraliq bo'shlig'i joylashgan. Tashqi yadro membranasi boshqa hujayra membranalari bilan dinamik bog'langan. Shu sababli uning funksiyasi faqat shakllantirish bilangina cheklanib qolmasdan, sintez jarayonlarida ham faol ishtirot etadi. Tashqi va ichki membranalar birikkan joylarda porasomalar – yadro teshikchaları shakllanadi. Teshikchalar soniga qarab yadroning funksional faolligi to'g'risida gapirish mumkin. Ichki membranaga zinch plastinka - oqsil qavvati birikadi. Bu oqsil qavvatiga interfazada xromatin birikadi. Natijada irsiy materialning tartibli joylashishi ta'minlanadi. Zinch oqsil qavvati hatto membranalar jarohatlanganda ham yadro shaklining o'zgarmasdan saqlanishiga imkon yaratadi.




15-rasm. Hujayra yadrosi ko'ndalang kesimining sxematik tasviri.

**Yadro shirasi (nukleoplazma)** – yadro matriksi, uning ichki muhiti, har xil oqsillarni saqlaydi. Fermentativ oqsillar metabolizm jarayonida qatnashadi, fibrillyar oqsillar esa tayanch funksiyalarini bajaradi. **Yadrocha (nukleola)** asosan RNK dan tashkil topadi. Ribonukleoproteid

iplar yadrochaning fibrillyar qismini tashkil etadi, yadrochaning donador qismi esa preribosomalardan iborat.

**Xromatin** – saol, funksiyani amalga oshiradigan yadroning irlsiy moddasi. Hujayra bo‘linishi davrida xromatin xromosomalarga aylanadi. Despiralizatsiyalashgan xromatinda nukleogistonning har xil kondensatsiyalashadigan qismlari tafovut etiladi. Ipsimon, sust bo‘yaluvchi qismlar euxromatin deyiladi, ular odatda, strukturaviy genlardan tashkil topadi. xromosoma yelkalarining tarkibida uchraydi. Geteroxromatin yuqorida darajada spirallashgan bo‘ladi. Geteroxromatinning ikki turi bor:

1. Strukturaviy geteroxromatin - genlarni saqlamaydi, sentromera va yo‘ldosh qismlarida bo‘ladi (yo‘ldosh ikkilamchi belbog‘ bilan ajratilgan xromosoma yelkasining qismi); 2. Fakultativ geteroxromatin ikkita gomologik xromosomalarning birining kondensatsiyalanishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan X- xromosomalardan biri kondensatsiyalashib jinsiy xromatinni (Barr tanachasini) hosil qiladi (16-rasm).



16-rasm. Jinsiy xromatin.

A-ayol terisi epidermisi hujayrasining yadrosi:

1-kariolemma,

2-xromatin,

3-jinsiy xromatin.

B- ayol neytrofil leykotsiti:


1- yadro,

2-jinsiy xromatin.

Xromatin hamda xromosoma morfologik va funksional jihatdan farq qiladi: xromatin – irsiy moddaning dekondensatsiyalashgan funksional faol holati, xromosoma esa nukleogistonning maksimal spirallashgan holati bo‘lib, unda irsiy axborot nusxa ko‘chirilishi kuzatilmaydi. Xromatinning spirallashishi va kondensatsiyalanishi (zichlashishi) natijasida xromosomalar hosil bo‘ladi. Bunda ingichka iplar zichlashib, xarakterli tuzilishga ega bo‘lib qoladi: har bir xromosoma ikkita yelka va birlamchi belbog’ – sentromeradan tashkil topadi. Sentromeraning joylashishiga qarab xromosomalar bir qancha turlarga bo‘linadi. Ba’zi xromosomalarda ikkilamchi belbog’ bo‘ladi. Masalan, odamlarning 13, 14, 15, 21, 22 just xromosomalarida ikkilamchi belbog’ bor, o’sha joylarda yadrocha hosil qiluvchilar joylashadi. Hujayraning bo‘linish davrida ikkilamchi belbog’larda yadrocha moddalari taqsimlanadi. Xromosomalarning strukturasi mitozning metafazasida aniq ko‘rinadi, shu tufayli sitogenetik tahlillarda, xromosomalarni tasniflanishida metafaza xromosomalari tekshiriladi. Xromosomalar kimyoviy tarkibi asosan DNK, oqsildan va kam miqdorda RNK; uglevodlar, lipidlar, mikroelementlardan tashkil topgan. Xromosomalar DNKsi 3 fraksiyadan iborat:

1. Nukleotidlarning unikal (nodir) ketma-ketligidan tashkil topgan strukturaviy va regulyator genlar (DNKnинг 56%).
2. O‘rtamiyonada takrorlanuvchi ketma-ketliklar (100-1000 nusxalar), ular gistonlar, rRNK va tRNK strukturaviy genlarini hosil qiladilar (8%).
3. Ko‘p takrorlanuvchi ketma-ketliklar, ularning 100000-1000000 nusxalari mavjud. DNKnинг 12 % ni tashkil qiladi, funksiyalari haligacha aniqlanmagan. Bu fraksiya xromosomada o‘z joyini o‘zgartirib turadigan —sakrovchi genlar|| yoki transpozonlardan iborat, yoki ular speyserlar (genlar orasidagi qismlar) tarkibiga kirib, gomolog xromosomalar kon‘yugatsiyalanishida ularning bir-birini —tanishigal imkon yaratadi degan dunyoqarashlar bor. Somatik hujayralarda xromosomalarning diploid ( $2n$ ) to‘plami, jinsiy hujayralar – gametalarda esa gaploid, ( $n$ ) to‘plami bo‘ladi. Diploid to‘plamda har bir xromosomaning o‘ziga o‘lchami, shakli va irsiy axboroti bilan o‘xhash bo‘lgan gomologi (jufti) bo‘ladi (xromosomalar juftligi qoidasi). Gaploid to‘plamda har bir xromosoma toq bo‘lib, boshqa xromosomalarga o‘xshamaydi. (Xromosomalar unikalligi, (nodirligi) qoidasi). Xromosomalarning diploid to‘plamida o’sha organizm uchun xos bo‘lgan irsiy axborotning


hammasi kodlashgan. Diploid to‘plamdagি majmuasi *genotip* deyiladi. Gaploid to‘plamdagи irsiy informatsiya *genom* deyiladi. Organizmning har bir biologik turi faqat o‘sha tur uchun xos bo‘lgan xromosomalar to‘plami – kariotipga ega. Odamda somatik hujayralarda 46 ta xromosoma ( $2n$ ); gametalarda esa 23 ta xromosoma ( $n$ ) bor. Gametalar qo‘shilishi natijasida diploid to‘plam tiklanadi. Gametalarda gaploid to‘plam meyoz (reduksion bo‘linish) jarayonida hosil bo‘ladi. Gametalarning yetilish jarayoni *gametogenet* deyiladi. Xromosomalarning bir turi *autosomalar* deyiladi, ular o‘zida tana belgilarini (ko‘z rangi, qon guruhlari, fermentlar miqdori va boshqalar) kodlashtiruvchi genlarni saqlaydi. Autosomalar har xil jinslarda bir xil. Jinslar bir-birlaridan jinsiy xromosomalari – *geterosomalari* bilan farq qiladi. Geterosomalar geni jinsiy belgilarni rivojlanishini kodlashtiradi. Lekin ularda somatik belgilarni aniqlovchi genlar ham bor. Masalan, X-xromosomada rangni ajrata olish, qon ivishi genlari va boshqa belgi genlari ham joylashadi. Odamda erkak jinslar *geterozigotali* (*geterogametali*) hisoblanadi, chunki ular hujayrasida ikki xil geterosomalar (X va Y) bor. Ayol jinsida ikkita bir xil XX xromosomalar bo‘lganligi uchun *gomozigotali* va *gomogametal* hisoblanadi. Shunday qilib, erkaklarda xromosomalar to‘plami 44 autosoma + XY ayollarda esa 44 autosoma + XX dan iborat (17-rasm).



A  
B  
17-rasm. Geterosomalar taqsimlanishi


Xromosomalar strukturasini hozirgi zamon usullari yordamida o‘rganish ularning nafis tuzilishini to‘liq o‘rganish imkonini berdi. Mitozning metafazasida har bir xromosoma ikkita *xromatidadan* tashkil topganligi yaqqol ko‘rinib turadi (5-rasm). Xromatida *xromonema*

iplaridan iborat bo'lib, uning uzunasiga to'q bo'yaladigan qismlari **xromomeralari** ko'rinishi turadi. Xromomeralar gen yoki genlar guruhining ko'rinishi deb taxmin qilinadi. Elektron mikroskop yordamida xromosomalarning elementar strukturasi **nukleogiston iplarin** (diametri – 10-13 nm) yaxshi ajratish mumkin. Bu iplar HI gistoni bilan o'ralgan DNK bispirali va nukleosomadan tashkil topgandir. Nukleosoma 8 molekula, 4 xil gistonlardan (H2A, H2B, H3, H4) tashkil topgan yumaloq tanachalar bo'lib, tanachalarni DNK bispirali o'rab turadi (2,5 o'ram hosil qiladi). Nukleosomalar xromosoma uzunligini 7 marta qisqartiradi. Xromosomalar uzunligi spirallar va superspirallar hisobiga yanada qisqaradi. O'sha jarayonlar hisobiga mitozning metafazasida xromosomalar shakllanishi kuzatiladi. Nukleogistonning ko'p marta zichlashishi natijasida odamning eng uzun I xromosomasi (uzunligi 6,8 1, 4 mkm) uzunligi 7,3 sm bo'lgan DNK bispiralidan tashkil topadi. Kondensatsiyalashgan holatda DNKning zichlashishi 190 00 ga teng bo'ladi.



18-rasm. Xromosoma tuzilishi va tiplari.

- a- Xromosoma tuzilishi:
1. Sentromera
  2. Xromosoma yelkachasi
  3. Xromatid
  4. D NK molekulasi
  5. Oqsil



b- Xromosoma tiplari.

1-akrosentrik

2-submetasentrik

3-metasentrik

Shunday qilib, xromosomalarning eng muhim vazifasi irlsiy axborotni saqlash va uni avloddan-avlodga o'tkazishdir. Bu esa nuklein kislotalar – DNK va RNKnning nodir xususiyatlari natijasidir.

DNK – dizoksiribonuklein kislotasi makromolekula (polimer birikma) bo'lib, monomerlardan (nukleotidlardan) tashkil topgandir. Har bir nukleotid azotli asos (adenin, timin, guanin, sitozin), oddiy uglevod pentoza – dezoksiriboza va fosfat kislotasi qoldig'idan tashkil topadi. DNKda nukleotidlar soni minglab yoki o'n minglab takrorlanishi mumkin. Shuning uchun ham ularning molekulyar massasi milliongacha yetishi mumkin. Eukariotlarda DNK bispiral holatda bo'lib, ikkita polipeptid zanjir bir-biriga o'ralgandir

Ikkita zanjirning birikishi azotli asoslarning komplementarligi hisobiga amalga oshiriladi. DNKda adeninga (A), timin (T), guanining (G) esa sitozin (C) komplementardir. Bispiralning mahkamlanganligining sababi – bunday birikishda ko'p sonli vodorod bog'lar hosil bo'ladi. Adenin bilan timin orasida ikkita, sitozin va guanin orasida esa uchta vodorod bog'lari hosil bo'ladi. Zanjirlar orasidagi masofa 18 nm ga teng. Fosfat guruhlar spiralning tashqi tomoniga, azotli asoslar esa ichki tomoniga joylashadi. Nukleotidlarning o'zaro birikishi dezoksiribozalar orqali fosfat guruhlar hisobiga amalga oshiriladi. Komplementarlik universal prinsip bo'lib, hujayra bo'linishidan avval DNKnning replikatsiyasini (ikkilanishini) va oqsil biosintezida transkripsiyanini (DNK matriksasida RNK sintezini) ta'minlaydi.

RNK – ribonuklein kislotasi ham polinukleotid zanjir bo'lib, DNK molekulasidan farqi – zanjir bitta bo'lib, timin o'rniغا uratsil (U),

dezoksiriboza uglevodi o‘rniga esa ribozaning bo‘lishidir. O‘z tuzilishi va vazifasiga kora farq qiluvchi 3 xil RNK bor. Bular ribosomal (rRNK), transport (tRNK), informatsiyali (iRNK) ribonuklein kislotalaridir. Hujayrada RNKning hamma turlari RNK-polimeraza fermenti ishtirokida DNK matritsasida sintezlanadi. Sintezlangan RNK DNKga komplementardir, chunki RNKda nukleotidlар ketma-ketligi tartibi DNKdagi nukleotidlар ketma-ketligi tartibiga bog‘liq. Hujayrada rRNK miqdorida eng ko‘p (hamma RNKning 80%iga yaqin), ular yuqori molekulalı bo‘lib yadrochada sintezlanadi, oqsil bilan bog‘lanib preribosomalar holatida sitoplasmaga chiqariladi va u yerda yetilib ribosomalar hosil bo‘ladi. tRNK – quyi molekulyar kislota bo‘lib, o‘ziga xos —beda bargil tipida ko‘rinishga ega. tRNK ribosomalarga aminokislotalarni tashigani uchun hujayrada 20 xil tRNK mavjuddir. Ularning har birida faqat ma’lum aminokisloti biriktira oladigan maxsus tripleti bo‘ladi, iRNK (yoki matritsa RNK, mRNA) hujayradagi RNK umumiyligi miqdorining 2% ini tashkil etadi va molekulyar massasi xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Ular yadroda sintezlanib, informosomalar (maxsus rubonukleoproteid zarrachalar) tarkibida sitoplasmaga chiqaziladi. Eukariotlarda, yadroda uzun molekulalı boshlang‘ich – RNKlar (pro-iRNK) sintezlanib, ular sitoplasmaga chiqishdan avval —yetiladil. Bu jarayon *processing* deyiladi. Bunda yetilgan iRNKning ayrim noinformativ qismlari uzib tashlanadi, qolgan informativ qismlari esa bir-biriga qayta ulanadi. Bu hodisa *splaysing* deyiladi. Shunday qilib, oqsil tuzilishi to‘g‘risida axborot (oqsillar hujayra, to‘qima, a’zo va organizmning maxsusligini ta’minlaydi) DNK da yoziladi. DНK yadroda joylashadi, oqsil molekulalari esa (eukariotlarda) sitoplazmada, ribosomalarda sintezlanadi. DНK bilan ribosomalar orasidagi vositachilikni, informatsiyani tashuvchi iRNK bajaradi. Avval DНK matritsasida iRNK sintezlanadi. Bu jarayon *transkripsiya* deyiladi. Ribosomalarda esa bu axborot sintezlanadigan oqsil molekulalariga ko‘chiriladi. Ribosomalarda oqsil sintezlanishi jarayoni *translyatsiya* deyiladi. DНKda axborot nukleotidlар ketma-ketligi shaklida, oqsilda esa aminokislotalar ketma-ketligi shaklida yozilgan. Shunday qilib, axborot 2 xil tilda: nuklein kislotalarda nukleotidlар tilida, oqsilda esa aminokislotalar tilida yoziladi. Hujayrada axborotni go‘yo bir tildan ikkinchi tilga tarjima qiluvchi tizimli – lug‘at, —*irsiy kod*” mavjuddir. Irsiy kodda 20 xil aminokislotalar to‘g‘risida axborot ifodalangan nukleotidlар soni faqat 4 ta bo‘lganligi uchun 1 ta

aminokislota haqida axborot 3 ta yonma-yon joylashgan nukleotidlari tomonidan belgilanadi, ya'ni kod triplet xarakteriga egadir. To'rt nukleotid uchtdan bo'lganda 64 ta variant, ya'ni 20 ta aminokislotani belgilash uchun keragidan ham ortiqcha tripletlarni hosil qiladi (11-jadval).

11-jadval

		Genetik kod			1-jadval.
Birinchi		Ikkinci azotli asos			Uchinchi
azotli asos	U	C	A	G	azotli asos
U	Fen	Ser	Tir	Cis	U
	Fen	Ser	Tir	Cis	C
	Ley	Ser	nonsens	nonsens	A
	Ley	Ser	nonsens	Tir	G
C	Ley	Pro	Gis	Arg	U
	Ley	Pro	Gis	Arg	C
	Ley	Pro	Glu	Arg	A
	Ley	Pro	Glu	Arg	G
A	Ile	Tre	Asp	Ser	U
	Ile	Tre	Asp	Ser	C
	Ile	Tre	Liz	Arg	A
	Met	Tre	Liz	Arg	G
G	Val	Ala	Asp	Gli	U
	Val	Ala	Asp	Gli	C
	Val	Ala	Glu	Gli	A
	Val	Ala	Glu	Gli	G

Tripletlarning ortiqchaligi irlsiy kodning aynishiga sabab bo'jadi: 1 aminokislota faqat bitta triplet bilangina emas, ba'zan 2-4 xil tripletlar bilan shifrlanishi mumkin. Masalan, fenilalanin aminokislotasi 2 ta, leysin aminokislotasi esa 6 triplet orqali kodlashishi mumkin. **Birorta oqsil molekulasi (to'g'rirog'i bitta polipeptid zanjiri) tuzilishi haqida axborotni saqlovchi DNKnинг bir qismi gen deyiladi.** Genlar oqsil sintezida bevosita ishtirok etmaydi. DNK iRNKga axborot yozib olinadigan namuna yoki matritsa hisoblanadi. DNK tripletlarining nusxasi bo'lgan iRNKning uchta nukleotidi (tripleti) kodon deyiladi. Ayrim kodonlar hech qanday aminokislotani kodlashtirmaydi, ularni **ma`nosiz (nonsense) kodonlar** deyiladi. 3 ta nonsens kodonlar mavjud bo'lib, ular polipeptid zanjiri sintezini to'xtatuvchilar hisoblanadi. Irsiy kodning yana bir muhim xususiyatlaridan biri – uning **universal xarakteridir** – chunki

u viruslar, bakteriyalar, hayvonlar va odamlar uchun bir xil. Irsiy kodning universalligi organik olamning rivojlanish birligini ko'rsatuvchi asosiy dalillardan biridir. Translyatsiya jarayonida axborotning ko'chirilishini amalga oshirayotgan ferment ma'nosiz kodonlarga yetganda biosintez darhol to'xtaydi. Informatsiyaning ko'chirilishi bir yo'nalishda boradi. Irsiy kod bir-birini to'ldirmaslik xarakteriga egadir: har bir nukleotid bir vaqtning o'zida faqat bitta triplet tarkibiga kira oladi: masalan,-UUU-CUU-AUU holati UUC -UUA-UU...holatiga o'tishi mumkin emas. DNK (genlar) barqarorlik xususiyatiga ega bo'lgani uchun har bir tur uchun xarakterli bo'lgan belgilar avloddan-avlodga o'zgarmay o'tadi. Lekin ba'zi sharoitlarda, har xil omillar ta'sirida irsiy axborot o'zgarishi mumkin. Bu hodisa **mutatsiya** deb ataladi. Mutatsiyalar irsiy o'zgaruvchanlikning asosidir. Irsiy o'zgaruvechanlik esa tirk tabiat evolyutsiyasining negizidir. Mutatsiyalar irsiy axborot o'zgarishi natijasida kelib chiqadi. Mutatsiyalarni genotipga, fenotipga, moslanuvchanlikdagi ahamiyatiga, uni keltirib chiqargan sabablarga qarab va boshqa prinsiplarga asoslanib klassifikatsiyalash mumkin. Irsiy axborotning o'zgarish miqdoriga qarab genom, xromosoma va gen mutatsiyalari tafovut etiladi. **Genom mutatsiyalari** – xromosomalar sonining o'zgarishidir. Xromosomalar soni ortishi va kamayishi mumkin. Genomda xromosomalar toq to'plami mavjudligi – **gaploidiya**, ko'payishi esa **poliploidiya** deyiladi (3n-triploidiya, 4n-tetraploidiya, 5n-pentaploidiya va hokozolar). Gaploidiya va poliploidiya odamda uchrasa o'limga sabab bo'ladi. Spontan abortuslarda homilada poliploidiya aniqlanishi mumkin, poliploidiya bilan tug'ilgan chaqaloqlar juda kam holatlarda 3-5 kungacha yashashi mumkin. Bunday chaqaloqlarda ko'plab rivojlanish nuqsonlari kuzatiladi. Ba'zan mozaik shakllar uchraydi (ayrim hujayralarda 2n, boshqalarda esa 3n). Bunday 2n/3n mozaik organizmlar yashashi mumkin, lekin ularda har xil anomaliyalar, jismoniy va ruhiy rivojlanishda o'zgarishlar kuzatiladi. Ayrim xromosomalar sonining o'zgarishi **geteroploidiya (aneuploidiya)** deyiladi, ular irsiy kasalliklar (sindromlar)ga olib keladi. Geteroploidiyada ham homila o'limi kuzatiladi. Geteroxromatini ko'p bo'lgan, strukturaviy genlar kam xromosomalar geteroploidiyasida odatda zigotalar o'imaydi. 13, 18, 21 autosomalar geteroploidiyasida geterosomalar monosomiyasi va trisomiyalari ko'p uchraydi. Geteroploidiya meyoz va mitoz jarayonlari buzilishi natijasida kelib chiqadi. Agar geteroploidiya mitoz buzilishi natijasida bo'lsa mozaik

organizmlar (45, XO/ 46, XX) hosil bo'ladi. Mutant hujayra liniyalari ontogenetda eliminatsiyalanib borishi tufayli, fenotipik anomaliyalar yaqqol ko'rinib tursa ham bunday kasalliklarga laboratoriya tashxisi qo'yish juda qiyindir.

*Ayrim xromosomalar tuzilishining o'zgarishi (xromosoma aberratsiyalari) natijasida kelib chiqadigan kasalliklarning alomatlarilari genom mutatsiyalariga nishbatan ancha yengil kechadi.* Hozirgi vaqtida 4000 dan ortiq gen kasalliklari aniqlangan, poligen (multifaktorial) kasalliklar esa odam patologiyasining 93% ga yaqinini tashkil qiladi. Gen kasalliklari autosoma genlari (fenilketonuriya) yoki jinsiy xromosoma genlari (gemofiliya) mutatsiyalar natijasida kelib chiqishi mumkin. Agar mutatsiya gomologik xromosomalardan birida uchrasa, xromosoma aberratsiyasi va gen mutatsiyasi geterozigotalikka sabab bo'lishi mumkin. Geterozigotalik aberratsiyalarda kariotipni o'rganib, retsessiv gen mutatsiyalarida esa biokimyoiy usullar bilan aniqlanadi. Agar mutatsiyalar gametalarda uchrasa (*generativ mutatsiyalar*) u gametasida mutatsiya bo'lgan odamlarda emas, balki ularning bolalarida yuzaga chiqadi. *Somatik hujayraladagi* mutatsiyalar taqdiri har xil bo'ladi. Agar mutatsiya embriogenezing dastlabki bosqichlarida kelib chiqsa, mozaik organizm hosil bo'ladi. (Masalan, bitta odamning ko'zlari har xil rangda bo'lishi mumkin). Somatik mutatsiyalar differentsiyalashgan hujayrada kelib chiqsa yomon sisatli o'sma rivojlanishi mumkin. Har xil to'qimalar o'smasi kasalliklarida o'xshash tipdagи xromosoma aberratsiyalari aniqlangan. Masalan, suyak ko'migining qon hosil qiluvchi to'qimasi o'smalarida 8, 9, 21 va 22 xromosomalarda deletsiya va translokatsiyalar aniqlangan. Agar mutatsiyalar sababi aniq bo'lsa bunday mutatsiyalar *indutsirlashgan mutagenez* deyiladi. Mutatsiyalar sababi aniq bo'lmasa *spontan mutagenez* deyiladi. Indutsirlangan mutagenez genomga mumkinligidan ortiq darajada muhit omillarning ta'siri natijasida kuzatiladi. Mutatsiyalarni qanday muhit omillar hosil qilishiga qarab, fizik, biologik va kimyoiy mutagenez tafovut etiladi.

*Fizik omillarga* har xil nurlar, vibratsiyalar, harorat va boshqalar kiradi. Shulardan hozirgi davrda ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida kelib chiqadigan radiatsion mutagenez ko'proq o'rGANILGAN. Ilmiy-texnika rivojlangan hozirgi davrda odam uchun *kimyoiy mutagenlarning* xavfi tobora ortib bormoqda. Bunday mutagenlarga turmushda va ishlab

chiqarishda uchraydigan, moddalarni, hamda dori preparatlarini kiritish mumkin.

Dori preparatlarining mutagenligini o'rganish ko'p is'temol qilinadigan kofe tarkibidagi kofeining mutagen samarası aniqlangan vaqtan boshlanadi. Kofe va teofillin bakteriyalarida xromosoma buzilishlarini indutsiyalashi aniqlandi. Alkaloidlar, ayniqsa birinchi navbatda morfin ham xromosoma aberratsiyalarini keltirib chiqarishi aniqlandi. Ba'zi sulfanilamidlar, tiazin qatori hosilalari, nitrosuranlar, antibiotiklar yuqori konsentratsiyada mutagen ta'sir qilishi aniqlandi. Shuning uchun har qanday yangi dori preparatining sut emizuvchilar va ularning homilalari hujayralarida mutagenligini aniqlanishi shartdir. Bunday qilinmasa, shistosomatozni davolashda qo'llanilgan gikanton ta'siriga o'xshagan holat kuzatilishi mumkin. Bu preparat bolalar va o'smirlarni davolashda keng qo'llaniladi. Uning ta'sirida saglarda, achitqilarda, salmonellalarda, drozofila, sichqon hujayralarida, odam leykotsitlarida xilma xil mutatsiyalar kelib chiqishi aniqlandi. 1979-yilda har qanday yangi dorilar mutagenligini albatta tekshirish to'g'risida qonun qabul qilingan. O'sma kasalligiga qarshi dorilar, masalan, sitostatiklar (uretan, sarkolizin) tinchlantiruvchi (meprobamat, etaperazin) tomir tortishishiga qarshi va boshqa dorilar mutagen faoliyka ega. Shuning uchun ham kasallarga dorilarni buyurishda juda ehtiyoj bo'lish kerak. Har bir shifokor jinsiy hujayradagi mutatsiyalar keyingi avlodga o'tishini somatik mutatsiyalar esa onkologik kasalliklarga sabab bo'lishi mumkinligini unutmasligi kerak. Dorilarni berishda kasalliklarning generativ funksiyalariga, immunologik holatga va boshqa fiziologik ko'rsatkichlariga e'tibor bermoq zarur.

**Biologik omillarga** viruslar (qizamiq, qizilcha, suvchechak, gerpes, parotit viruslari va boshqalar) parazitlar, noto'liq ovqatlanish (ekzogen omillar), odam organizmida hosil bo'lувчи gistamin, steroid gormonlar (endogen omillar) kiradi.

**Komatagenlarga** tashqi mutagen omillar ta'sirini kuchaytiruvchi omillar, masalan, gelmint invaziyalari natijasida hosil bo'lувчи toksinlarni kiritish mumkin. Hozirgi davrda mutagenezning oldini ojish imkoniyatlari ancha kengaydi. Bu maqsadda — jumladan, **antimutagenlar** ishlataladi, kuchli mutagen faoliyka ega og'ir metallar (platina, xrom tuzlari) bilan doimo aloqada bo'lувчи sanoat korxonalarini ishchilari o'tasida vitamin komplekslari kabi antimutagenlar keng qo'llaniladi. Har xil moddalar orasida mutagenlar miqdori har xil bo'ladi.

Kimyoviy birikmalar orasida 5-10% moddalar mutagen faollikka ega, pestitsidlar o'rtasida esa 50% moddalar mutagen faollikka egadir. Tashqi muhit mutagenlari axborot markazi ma'lumotlariga ko'ra kimyoviy birikmalarning juda ko'p xillari mutagen faollikka egadir, ularning orasida dori preparatlari, ovqat qo'shimchalari, pestitsidlar ham mavjud.

Klinik qo'llanish bosqichigacha dori-darmonlarning mutagen faolligini baholash 3 ta bosqichda olib boriladi.

1. *Mutagenlik samarasini aniqlash.*

2. *Mutagenlik faolligini miqdoriy aniqlash (test-ob'ektlardagi tajribalarda aniqlash), mutagenning o'rtacha ta'sirlovchi dozasini aniqlash — mutMTD.*

3. *Mutagenning yo'l qo'yiladigan dozasini aniqlash, mutYQD.*

**Birinchi bosqich** moddaning mutagen faolligini aniqlashga imkon beradi. Agar birikma mutagen samaraga ega bo'lsa bu bosqichda indutsirlangan mutatsiya tiplari (generativ va somatik mutatsiyalar, gen va xromosoma mutatsiyalar), o'rganilayotgan mutagenning metabolitlarining mutagen samarasini aniqlanadi. Mutagenlarning gen mutatsiyalarini keltirib chiqara olishi ma'lum mikroorganizmlarda, drozofilalarda, sutemizuvchilarining sun'iy o'stiriladigan hujayralarida tajribada tekshiriladi. Keyin — in vitro tekshirish natijalari, odamlardagi kuzatishlar (aholini epidemiologik tekshirish, turli kasbda ishlovchilar kontingentlari, davolanish maqsadida yoki tasodifan ba'zi moddalarni qabul qilgan shaxslarda), sutemizuvchilarda va boshqa test ob'ektlarda o'tkazilgan tajribalar natijasi tahlil qilinadi.

Mutagen faollikka ega bo'lgan moddalarni **ikkinci bosqichda** tekshirish davom ettiriladi. Mutagenlar faolligining miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlashda sutemizuvchilarining somatik va jinsiy hujayralarida tajriba o'tkazish zarur: chunki har ikkala tipdagi mutatsiyalar ham odam uchun real xavf tug'diradi, undan tashqari somatik va jinsiy hujayralarning har xil mutagenlar uchun sezuvchanligi turlichadir. Tekshirishning asosiy sharti mutagen samarani proqnozlashtirish uchun mutagen moddaning ta'sir qilish vaqtini bilan uning dozasi orasidagi bog'lanishni aniqlashdir. Ikkinci bosqichni o'tkazish jarayonida mutagenning o'rtacha ta'sirlovchi dozasi (mutMTD) aniqlanadi. Ko'p holatlarda mutagen modda dozasining ortishi, mutatsiyalar chastotasining ortishi bilan korrelyatsiyalanadi. Har bir mutagen modda uchun maksimal yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza, mutatsiyaning spontan darajasini ikki baravar orttirishi mumkin. Bu

qoidadan radiatsion mutagenezni tekshirishda soydalanish mumkin. Ammo bunda radiatsiyaning va kimyoviy mutagenlarning har xil mexanizmlarini, indutsirlashgan mutatsiyalarning har xil spektrlari, gametogenezning va hujayra siklining har xil bosqichlarining radiatsiyaga va kimyoviy mutagenlarga har xil sezgirligini hisobga olish zarur. Uchinchi bosqichda mutagenning yo'l qo'yiladigan dozasi (mutYQD) aniqlanadi. Bu doza kimyoviy moddalar uchun mutatsiyalar spontan darajasidan 1% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Bu doza quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{mutYQD} = \text{mut MTD}/200$$

Bunda mutMTD — sutevizuvchilarda tajribalarda aniqlangan o'rtacha ta'sirlovchi doza;

200 — odamga o'tkazish koefitsienti.

Ayrim tashqi muhit omillari mutagen faolligini baholashning oddiy va to'g'ri usullarini ishlab chiqish orqali, muhitning (havo, suv, tuproq-sanoat chiqindilari va hokazolar) umumiy mutagen va kanserogen faolligini aniqlash masalasini hal qilish mumkin. Tashqi muhit omillarining mutagen ta'sirini o'rganishning kompleks usullarini amaliyatga tadbiq etish, odamning salomatligini muhosaza qilish choralarini ishlab chiqish uchun zarurdir. Yangi mutatsiyalarni hosil qiluvchi omillarning kamayishi populyatsiya genetik yukining dinamikasiga ta'sir qiladi va irsiy patologiyali kasallar sonining kamayishiga olib keladi. Mutatsiyalar chastotasi bitta avlodda, bitta lokusda  $10^{-5}$  ga teng. Odamda genlar soni  $10^5$  ga teng bo'lgani uchun, har bir avlodda o'rtacha hisobda 1-10 tagacha yangi mutatsiyalar kelib chiqishi mumkin. Har xil genlarning mutatsiyalanish chastotasi har xildir, shuning uchun ham barqaror va mo'tadir genlar tafovut etiladi. Genomda boshqa genlarning mutatsiyalanish chastotasini orttiruvchi mutator genlar ham bor. Har qanday tirik organizm genotipi tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan o'zaro ta'sir qiluvchi genlarning barqaror dinamik tizimi hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir biologik tur nuqtai nazardan olganda muvozanatni buzuvchi mutatsiya noqulay holatdir. Tabiiyki evolyutsiya jarayonida organizmlarda mutatsiyalardan tiklanish, **reparatsiya** mexanizmlari paydo bo'lgan. Mutatsiyalarning xromosomalarning juftliligi genotipda geterozigota holatida retsessiv

mutatsiyalar ta'sirini cheklaydi, rRNK, tRNK, giston genlarning ko'p nusxalarining mavjudligi, irlsiy kodning to'ldirilmasligi, ayniganligi ham mutatsiyalarini chekllovchi tabiiy omillardan hisoblanadi. Har xil usullar bilan gen mutatsiyalarining reparatsiyalanishi organizmga DNKnинг normal strukturalarini tiklashga, "tuzatishga" imkon beradi. Odamning yoshi o'tishi bilan reparatsiyalar sistemasi bo'shashib boradi, natijada qarish jarayonida yomon sifatli o'sma kasalliklari ham ortib boradi. Yuqorida keltirilgan qisqacha ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: tibbiyot genetikasi muammolarini o'rGANISH uchun birinchi navbatda irlsiyat va o'zgaruvchanlikning molekulyar genetik asoslari haqida bilimlarga ega bo'lish lozim.

#### 4.2. Tibbiy genetikaning o'rGANISH usullari.

Antropogenetikaning bir qismi bo'lgan tibbiyot genetikasida asosiy genetik tekshirish usullaridan tibbiyot amaliyotiga moslashtirilgan holda foydalaniлади. Odam irlsiyatini o'rGANISH usullarini ishlab chiqishda Frensis Galtonning xizmatlari buyukdir. U o'z tadqiqotlarida genealogiya va egizaklar usullaridan keng foydalandi, shogirdi K. Pirson bilan hamkorlikda biometrik genetikaga asos soldi. Hozirgi davrda tibbiyot genetikasining usullari soni ancha ko'payib, hatto molekulyar biologiyaning eng yangi usullarini ham o'z ichiga oladi. F.Galton o'zining 1865 yilda yozgan "Talantning va xarakterning irlsiylayishi" asarida o'z zamonining eng mashhur odamlarining biografiyalarini o'rGANIB, ularning tanlagan kasblarida qo'lga kiritilgan katta muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan irlsiyatga bog'liq ekanligini aniqladi. F.Galton dan ham ancha oldin odam belgilarining irlsiyanishi to'g'risida ayrim ma'lumotlar mavjud edi. Moperti (XVIII asrda) polidaktilyanining ayrim oilalarda ko'proq uchrashini aniqladi. Nassye (XIX asr boshlarida) gemofiliyaning irlsiylanishi haqidagi empirik qonunini taklif etdi. Odam genetik tekshirish ob'yekti sifatida ancha kamchiliklarga ega. Bularning eng asosiysi — odamlarda duragaylash, ya'ni eksperimental duragaylash usulini qo'llash mumkin emasligidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan kishilik jamiyatida nikohning har xil tiplarini topish mumkin, kerakli nikoh tiplarini topish uchun izchillik bilan tekshirish lozim. Uzoq qarindoshlar to'g'risida aniq ma'lumotlar to'plash ham ancha qiyin, holbuki bularsiz to'g'ri genealogik kartalarni tuzish mumkin emas. Noqulayliklardan yana biri - oilalarda farzandlar sonining ancha emas.

kamligidir. Bu noqulayliklarga barham berish uchun ma'lum belgi (kasallik) uchraydigan ko'proq oilalarni o'rGANISH lozim. Odam xromosomalarining sonining ancha ko'pligi (23 juft) ham noqulayliklardan biridir. Ammo hozirgi davrda butun dunyo miqyosida o'tkazilgan "Odam genomi" loyihasisi muvaffaqiyatlari tufayli odam xromosomalari va ulardag'i birikish guruhlari to'liq o'rGANILDI. Shunday qilib, antropogenetikaning hozirgi zamon usullari odam irlsiyati to'g'risida ancha to'liq, mukammal axborot to'plashga imkon beradi.

### Genealogiya usuli.

Avlodlar shajarasini (genealogiyasini) tuzishga asoslangan usul bo'lib, amaliyot shifokorlari uchun keng ma'lum bo'lgan, eng qulay usuldir. Genealogiya usuli probandning (genetik shifokorning nazoratiga tushib, o'rGANILA boshlangan birinchi shaxs) qarindoshlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash, shajara tuzish va uni tahlil qilish bosqichlaridan iborat. Bunda probandda irlsiyanishi o'rGANILAYOTGAN belgining (kasallikning) fenotipik namoyon bo'lishi kuzatilmasligi ham mumkin. Bu usul ancha qulay va oson tuyulishiga qaramasdan birmuncha qiyinchiliklarga ham egadir. Ulardan biri — to'PLANAYOTGAN axborotning buzib ko'rsatilishidir. Agar oilada irlsiy patologiya bo'lsa har bir oila a'zosi bunda o'zining aybdorligini his qilishi tabiiyidir. Shuning uchun ham ba'zan so'ralayotgan shaxs o'zining avlodida shunday kasallikning borligini yashiradi, yoki erining (xotinining) avlodida shunday kasallik bo'lganligi haqida noto'g'ri ma'lumot beradi. Shifokor probandni yoki uning qarindoshlarini aybdorlik hissidan xalos qilishga, unda o'ziga ishonch uyg'otishga harakat qilmog'i lozim. Iloji boricha shajara a'zolarini shaxsan shifokorning o'zi tekshirishi, qarindoshlarning bergen ma'lumotlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Agar bunday qilishning iloji bo'lmasa, ayniqsa qarindoshlar boshqa joylarda yashasa anketalar orqali ma'lumotlar to'planadi. Anketani oila shifokorlari to'ldirishi maqsadga muvofiqdir. Anketa savollarini tuzish katta mahoratni talab qiladi. Genetik shifokor o'zi shaxsan tekshirganda turli rivojlanishning kichik anomaliyalarini (RKA yoki stigmalar, mikroanomaliyalar) o'zi ko'rishi mumkin, anketa tuzganda esa savollar mutaxasisi bo'Imaganlar ham to'g'ri javob bera oladigan qilib yozilgan bo'lishi kerak. Masalan shifokorlar ham bu qanday stigma ekanligini yaxshi bilmasligi mumkin. Ko'z qorachiqlari orasidagi masofa qanday deb so'ralgani to'g'riroqdir. Hozir stigmalarning 150 ga yaqin turlari aniqqangan.

Stigmalar irsiy kasallikka moyillik markeri (belgisi), disembriogenezning, mutant genning kam penetrantligi yoki ekspressivligining dalili bo'lishi mumkin. 4-bobda asosiy stigmalarning turlari keltirilgan. Faqat to'liq va ishonchli ma'lumotlarga oilaning shajarasini to'g'ri tuzishga imkon beradi. Shajara sxemasini chizishda umumiyl qabul qilingan belgilardan foydalaniladi

Genealogiya usulidan foydalanish quyidagi savollarga javob berishga imkon beradi.

1. O'rganilayotgan belgi (kasallik) irsiymi yoki **irsiymas** ekanliga.
2. Irsiylanish tipining qandayligi, belgining penetrantligi va ekspresivligi.

3. Kelajak avlodning prognozi.


4. Bundan tashqari bu usuldan odam populyatsiyalarida mutatsion jarayonning jadalligini o'rganishda, tibbiy-genetik maslahatini o'tkazishda, genlarning birikishi va o'zaro ta'sirini tahlil qilishda va ularni kartalashtirishda ham foydalanish mumkin.

Shajarani tuzishni probanddan boshlanadi. Keyin esa uning I, II, III, IV darajadagi qarindoshlari so'raladi va tekshiriladi, qon-qarindosh bo'Imagan qarindoshlar ham tekshiriladi. Tibbiyotda bu usul klinik-genealogik usul deb ham ataladi, chunki shajara birona kasallikka nisbatan tuziladi. Hozirgi davrda shajara tuzish ko'proq kasallikka nisbatan emas (chunki ko'p holatlarda bu juda qiyin, mutant gen shajara a'zolaridan birida bo'lsa ham kasallik yuzaga chiqmasligi mumkin) balki kasallikning asosiy belgisiga nisbatan amalga oshiriladi. Masalan, gipertoniyaning irsiylanishi o'rganilayotganda oilaning kichik a'zolari - bolalar o'rganilayotgan bo'lsin. Tabiiyki, ularda hali gipertoniya bo'Imaydi. Shuning uchun bolalarda jismoni mashq bilan test o'tkazish va qancha vaqt dan keyin qon bosimi meyoriga tushishini aniqlash mumkin. Shunday kilib, bunda qon bosimining reguliyatsiyasi o'rganiladi. Ma'lumotlar to'plangandan keyin shajarani grafik tasvirlanadi, har bir shajara a'zosining probandga qarindoshligini ko'rsatiladi. Avlodlar rim raqamlari bilan chap tomonda yuqorida pastga ifodalanadi, avlod a'zolari esa chapdan o'ngga arab raqamlari bilan belgilanadi. Keyin genetik tahlil variantlaridan biri — genealogik tahlil o'tkaziladi. Bunda shu narsani unutmastlik kerakki, belgi (kasallik) shajarada bir necha marta uchrashi, lekin u irsiy bo'lmasisligi mumkin. Agar bitta patologik omil ayolga uning har bir homiladorlik davrida bir xil ta'sir ko'rsatgan bo'lsa bu fenokopiya bo'lishi mumkin.

Yoki tashqi muhit omili o'zining zararli ta'sirini oila a'zolarining hamma a'zolariga ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Agar belgining irsiy ekanligi aniqlansa, irsiylanish tipini aniqlashga o'tiladi. Bunda shajara ma'lumotlari statistik usulda hisoblanadi. Bu usullar K.Shtern, V.Makkyusik monografiyalarida batassil bayon qilingan. Statistik ishlov berishni oilalarni registratsiyalashni qanday usullar bilan o'tkazilganligini aniqlashdan boshlash lozim (to'liq, to'liqmas, takroriy usullar). Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan qo'llanmalardagi jadvallardan foydalaniлади. Belgilar kodominantlik (masalan ABO, MN qon guruhlari); utosoma-dominant (braxidaktiliya), autosoma-retsessiv (DNKning ultrabinafscha nur ta'siridan keyin reparatsiyalanganligi natijasida kelib chiqadigan pigmentli kseroderma), yoki geterosoma-dominant, geterosoma-retsessiv tipida irsiylanishi mumkin.

*Autosoma-dominant (A-D) tipida irsiylanishda* (19-rasm) quyidagi xarakterli belgilar kuzatilishi mumkin:

- Belgi shajara a'zolarining ko'pchiligidagi, har bir avlodda, "vertikal" tipda kuzatiladi;
- Ota-onalardan sog' bolalar tug'iladi;
- Belgi erkaklarda va ayollarda bir xil uchraydi;
- Agar belgi kam uchraydigan bo'lsa, avlodning taxminan 50% da kuzatilishi mumkin;
- Kasal ota-onalardan sog' bolalar tug'iladi;
- Kasallik gomozigotalarda og'irroq kechadi yoki letal bo'ladi.



19-rasm. *Autosom-dominant irsiylanish.*


Bunday irsiylanish tipiga Marfan sindromi, Axondroplaziya, Elers-Danlo sindromining 1, 2, 3, 4, 7, 8 tiplari misol bo'ladi.

*Autosoma-retsessiv (A-R) irsiylanish tipining* (20-rasm) xarakterli belgilari:

- Kasallarning soni shajarada kam bo'ladi;

- Belgilar "gorizontal" tipda irsiylanadi. Ayrim avlodlarda umuman kuzatilmasligi mumkin;
- Fenotipik sog'lom ota-onalardan 25% holatda kasal bolalar tug'ilishi mumkin;
- Ota-onadan biri kasal bolsa sog'lom bolalar tug'ilishi mumkin;
- Kasal ota-onalardan sog'lom farzand tug'ilmaydi;
- Erkaklar va ayollarda belgi bir xil uchrashish mumkin;

Bunday shajalaralarni tahlil qilganda belgi fenotipik namoyon bo'lgan oilalarda qon-qarindoshlar orasidagi nikohlar umumiyl populyatsiyaga nisbatan ko'proq ekanligi aniqlanadi.




20-rasm. Autosoma-retsessiv irsiylanish.

A-R irsiyanish tipiga misollar: mukovitsidoz, fenilketonuriya, galaktozemiya, Vilson-Konovalov kasalligi, adrenogenital sindrom, mukopolisaxaridozlar. Autosoma-dominant va autosoma-retsessiv irsiyanishning xarakterli xususiyatlari genotipda kam ekspresiyalanuvchi, kam penetrantlikka ega genlar bo'lganida, yoki epistatik gen bo'lganida o'zgarishi mumkinligini unutmayslik kerak.

*Kodominantlik* va chala dominantlik tipida irsiyanishda geterozigotalarda dominant gomozigotalarga qaraganda belgining sost namoyon bo'lishi kuzatiladi. Geterosomalarga bog'liq irsiyanish ham xarakterli belgilarga ega.

*X-xromosomaga birikkan irsiyanishning o'ziga xosligi* shundan iboratki bunda erkak organizm X-xromosoma genlariga nisbatan

gemizigotali hisoblanadi (faqat bitta xromosomasi bo'lgani uchun), belgini faqat qizlariga o'tkazadi.



**21-rasm X-xromosomaga birikkan dominant (X-D) irsiylanish tipida**

Quyidagi o'ziga xosliklar kuzatiladi:


- Belgi ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq uchraydi;
- Agar ona kasal bo'lsa hamma bolalariga o'tishi mumkin (ona gomozigotali bo'lganda);
- Agar belgi otada bo'lsa, hamma qizlarida namoyon bo'ladi, hamma o'g'illar sog'lom bo'ladi;
- Ota-onalar sog'lom bo'lsa hamma bolalari sog'lom bo'ladi;
- Ayollar ko'pincha geterozigotali bo'lgani uchun yengil kasallanadi, erkaklar gemizigotali bo'lgani uchun og'irroq kasallanadi. X-D tipidagi irsiylanishga misollar: D vitaminga rezistent raxit, qandsiz diabet, tish emali qo'ng'ir bo'lishi, 2- kurak tish bo'lmasligi va boshqalar.

**X xromosomaga birikkan retsessiv (X-R) irsiylanish (22 -rasm)** tipida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar tafovut etiladi:

- Ko'proq kasallik erkaklarda uchraydi;
- O'g'ilga hech qachon otaning belgisi o'tmaydi;
- Agar proband kasal ayol bo'lsa, uning otasi va o'g'illarining hammasi kasal bo'ladi;
- Kasal erkak va sog'lom ayol nikohidan tug'ilgan hamma bolalar sog'lom, lekin ularning qizlaridan tug'ilgan o'g'il bolalar kasal bo'lishi mumkin;


- Sog'lom erkak va geterozigotali ayol nikohidan 50% o'g'il bolalar kasal tug'ilishi va qizlar hammasi sog'lom bo'lishi mumkin.

- X-R tipida irsiylanishga misollar: X frigil oligofreniya, gemofiliya, daltonizm, Dyushenn mushak distrofiyasi, Lesh-Nixan sindromi.



22-rasm. X-xromosomaga birikkan retsessiv irsiylanish.

Belgining geni Y xromosomaga birikkan bo'lsa golandrik irsiylanish kuzatiladi. Belgi otadan faqat o'g'illariga o'tadi (23-rasm). Misollar: sindaktiliya shakllaridan biri, aurikulyar gipertrixoz.



23-rasm. Yxromosomaga birikkan, golandrik irsiylanish.

#### *Sitoplazmatik (mitochondrial) irsiylanish (24-rasm).*


Bu irsiylanish tipi mitoxondriya genlariga bog'liq. Mitochondrial irsiylanish tipining xarakterli xususiyatlari:

Kasallik faqat onadan o'tadi;

O'g'illar ham, qizlar ham kasallanishi mumkin;

Kasallik otadan bolalariga o'tmaydi.

Irsiylanish tipiga misollar: ko'rish nervining Leber distrofisiyasi, mitoxondrial miopatiya (Melas, Merfi sindromlari), onkositoma, progressivlanuvchi oftalmoplegiya.



24-rasm. Sitoplazmatik (mitochondrial) irsiylanish

### Egizaklar usuli.

Bu usul 1875- yilda F.Galton tomonidan taklif etilgan. Galton egizaklarni bir tuxumli (monozigot-MZ) va ikki tuxumlilarga (dizigot-DZ) ajratmagan. Keyinroq bu usul boshqa olimlar tomonidan ancha takomillashtirildi. Usulning mohiyati quyidagidan iborat: avval MZ va DZ egizaklar va umumiy populyatsiyadan nazorat guruhlari tuziladi. Keyin alohida-alohida MZ va DZ lar bir-biri bilan solishtiriladi, so'ogra MZlar DZlar bilan, eng oxirida esa egizaklar nazorat guruhi bilan solishtiriladi. Egizaklar usuli yordamida belgining (kasallikning) rivojlanishida irisiyat va muhit ta'sirining nisbatan roli aniqlanadi. Ammo belgilarning *konkordantligi* (o'xshashligi) va *diskordantligini* (o'xshamasligi) tahlil qilishdan avval egizaklarning qanday zigotaligini (monozigotali yoki dizigotalicini) aniqlab olish zarur. MZ lar maydalishning dastlabki bosqichlarida bitta zigotadan ikkiga bo'linib, mustaqil rivojlangan bolalardir. Shuning uchun ham MZ lar genotiplari bir-biriga to'liq o'xshashdir (somatic mutatsiyalar, kelib chiqishi mumkinligini e'tiborga olmaganda). MZ larda uchraydigan farqlar muhit ta'sirining natijasi hisoblanadi (25-rasm). DZlar bir vaqtida otalangan ikki tuxum hujayradan rivojlanib tug'ilgan bolalardir. DZ lar oiladagi oddiy sibslar kabi bir-biriga o'xshashi yoki o'xshamasligi mumkin, chunki ularning *umumiy genlari 50%*ga tengdir. Ularning boshqa sibslardan farqi embriogenezda va tug'ilgandan keyin bir xil muhit omillarining ta'sirida bo'lishidir. Agar ular har xil jinsli bo'lsa darhol DZ larga kiritish mumkin. Bir jinsli egizaklarni zigotaligini aniqlash uchun ularni har xil mezonlar bo'yicha solishtirish lozim (14-rasm). Eng aniq usul — bu *terini transplantatsiyalashdir*. Transplantantning yaxshi qo'shilib ketishi monozigotalikdan darak beradi. Zigotalikni aniqlashda egizaklarda *HLA-tizim gaplotiplari bo'yicha solishtirish* ham yaxshi natija beradi. Bu tizim juda katta polimorfizmga ega bo'lgani uchun HLA gaplotiplari bo'yicha DZ larning konkordant bo'lishi mumkin emas. Egizaklarning zigotaligi to'g'risida aniq ma'lumotlarni, boshqa emas. Egizaklarning zigotaligi to'g'risida aniq ma'lumotlarni, boshqa monogen irsiyanuvchi polimorfizm belgilarni, masalan *eritrotsitlar qon tizimlarini* (ABO, MN, Rh, Lyutera, Daffi, Levis va boshqalar), *zardob tizimlarini* (gaptoglobinlar, transferrinlar, gammaglobulinlar) solishtirganda ham olish mumkin.



25-rasm. Bir tuxumli egizaklar

Lekin bunda egizaklarning ota-onalari shu belgilarni bo'yicha bir xil bo'lganda, olingan ma'lumotlar aniq chiqmasligini unutmashlik kerak. 1924-yilda Simens tomonidan taklif etilgan *polisimptom o'xshashlik* usuli ham ancha qulaydir, chunki bu usul solishtirish oson bo'lgan, tor reaksiya me'yoriga ega bo'lgan fenotipik belgilarni o'rganishga asoslangan. Bunday belgilarga — qosh, burun, quloq suprasi, qo'si tirnoq, soch shakkllari, ko'z, teri, soch ranglari boshqalarni kiritса bo'ladi. Belgilar uchun maxsus baholash shkalalari ishlab chiqilganligiga qaramasdan, bu usulda sub'yektiv xatoliklarga yo'si qo'yish mumkin. Zigotalikni aniqlashda *anketalar to'ldirish* ham foydalanish mumkin. Anketaga: "Sizlarni ota-onalaringiz, qarindoshlaringiz, yaqin do'stlaringiz adashtiradilarmi?", va shunga o'xshash savollarni kiritish mumkin. Zigotalikni aniqlashda yaxshi natija beruvchi yordamchi usullardan biri *dermatogifika* usulidir. Bu usulda faqat sifat ko'rsatkichlarinigina emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilish mumkinligi, ko'pincha aniq natijalarni beradi. Hamma tekshiriladigan holatlarda monozigotalik yoki dizigotalikni aniqlashda asosan ularning o'xshashligi einas, balki o'xshamasligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ilgari ko'p qo'llanilgan zigotalikni *xorionlar* va *yo'ldoshlar soniga qarab aniqlash* usuli ko'pincha aniq natija bermaydi, chunki MZ larda 20% holatda 2 ta xorion uchrashi mumkin, undan tashqari ko'pincha bunday ma'lumotlarni olish ham qiyin. Bunda shuni ham e'tiborga olish zarurki, egizaklar tug'ilish chastotasi 1%ga yaqin bo'ladi (ulardan -1/3- 1/4- qismi monozigotalardir). Har xil populyatsiyalarda bu ko'rsatkich

o'zgaruvchan bo'lishi ham mumkin. Bunday o'zgarishlar asosan dizigotalilarga bog'liq. Shuning uchun ham ishni boshlashdan avval Vaynberg usuli yordamida o'rganilayotgan populyatsiyada MZ lar va DZ lar nisbatini aniqlab olish, keyin esa o'rganilayotgan guruhni ajratib olish zarur. Bu ayniqsa irsiy kasalliklarni o'rganilayotganda katta ahamiyatga ega. Egizaklar usulining oxirgi bosqichi MZ lar va DZ lar guruhlarini o'zaro va bir-birlari bilan solishtirishdir. Konkordantlikni sifat va miqdoriy belgilariiga qarab hisoblashga imkon beradigan maxsus formulalar mavjud. Muhitning va irsiyatning rolini aniqlash uchun ham maxsus formulalardan foydalaniladi.

Masalan, Xoltsingyer formulasi *irsiyat* (*H*) va *muhit* (*E*) rolini aniqlashga imkon beradi.

$$H = \frac{MZC}{100 DZC} \times 100$$

Bunda:  $H = \text{irsivlanish koeffitsiyenti}$

MZC = monozygotalar konkordantligi

DZC - dizigotalar konkordantligi

E=100-H

E — muhit ta'sirining ko'rsatkichi.

Masalan, qon guruhi misolida muhitning va irsiyatning rolini ko'rib chiqamiz. Monozigotalilarda qon guruhi konkordantligi 100% yoki 1 ga teng, dizigotalilarda esa 40% ga (0,4) teng.

$$\text{Demak, H} = \frac{10040}{10040} \times 100 = 100\%$$

$$E = 100 - H = 100 - 100 = 0$$

Shunday qilib, qon guruhi kabi belgi asosan genotip orqali aniqlanadi. Ko'pchilik belgilarning rivojlanishi uchun irlsiy axborot mavjudligidan tashqari muhit omillarining ta'siri ham zarurdir. Agar  $H=70\%$  (0,7) dan yuqori bolsa belgining rivojlanishida *irlsiyatning roli* hal qiluvchi bo'ladi, H ko'rsatkichi 40% dan 70% gacha bo'lganda belgining rivojlanishida *irlsiyat ham muhit ham* qatnashadi:  $H=40\%$  (0,4)dan kam bo'lganda esa belgi asosan *muhit omillari* ta'sirida rivojlanadi. 2-jadvalda ba'zi kasalliklarning konkordantligi va diskordantligi keltirilgan. Mayzuni o'zlashtirishda, masalalar yechishda

shu ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Bu ma'lumotlar odamning har xil kasalliklarda muhitning va irsiyatning rolini aniqlashga imkon beradi. Egizaklar usuli yordamida hatto yuqumli kasalliklarda (ko'k yo'tal, sil) tashqi muhit omillari (infeksiya) ta'siri aniq bo'lganda ham kasalliklar patogenezida ozgina bo'lsa ham irsiyatning roli borligini anglash qiyin emas. Chuqur solishtirish natijalarini puxta o'rganish shu narsani ko'rsatadiki faqat kasallikning o'zi o'xshash bo'libgina qolmasdan ularning klinik ko'rinishlarida va kechishida ham o'xshashlik kuzatiladi. Shuning uchun ham egizaklar usulida multifaktorial kasalliklarga irsiy moyillikni o'rganishda keng foydalanish mumkin.

12-jadval

*Egizaklarda irsiy kasalliklar konkordantligi*

Kasallik	Konkordantlik	
	MZ	DZ
Sonning tug'ma chiqishi	41	3
Qizamiq	98	94
Maymoqlik	32	3
Parotit	82	74
Sil	67	23
Revmatizm	47	17
Qandli diabet	65	18
Shizofreniya	69	10
Epilepsiya	67	23

Pedagoglar va pediatr shifokorlar egizaklar usuli yordamida muhit va irsiyatning intellekt, ruhiy qobiliyatlarni rivojlanishidagi rolini aniqlash mumkinligini unutmasliklari kerak. Bolaning tabiiy tug'ma qobiliyatlari faqat muhitning ma'lum sharoitlari mayjud bo'lgandagina yuzaga chiqishi mumkin. Shuningdek eng qulay muhit sharoitlari bo'lganida ham qobiliyatning irsiy jihatdan genotipda belgilovchi genlari bo'lmaganida yuzaga chiqishi mumkin emas. Shuning uchun ham avval bolada qanday qobiliyatlar borligini ma'lum testlar yordamida aniqlash, undan keyin esa uning rivojlanishi uchun zarur sharoitni yaratish lozim. Hozirgi davrda egizaklar usuli farmakogenetikada keng qo'llanilmoqda. Bu *egizak-sherik* bo'yicha nazorat usulidir. Usulning mohiyati shundan iboratki, bunda kasal MZ lar guruhi ikkita kichik guruhlarga ajratiladi. Bitta kichik guruhni yangi preparat (samaradorligi aniqlanishi lozim

bo'lgan) bilan ikkinchi kichik guruhni esa eski qo'llanib kelinayotgan preparat bilan davolanadi. MZ lar bir xil genotipga ega bo'lganligi uchun ularidan olingan ma'lumotlar umumiyl populyatsiyadagi nazorat guruhidan olingan natijalarga nisbatan shubhasiz ishonchli bo'ladi. Shuning uchun ham bu usul qo'llanilganda tekshirilayotgan guruhlar soni MZ lar uchun kam (20 juft), umumiyl populyatsiya uchun esa juda ko'p bo'lishi lozim. Bundan tashqari umumiyl populyatsiya olinganda tekshirilayotgan shaxslarni yoshiga, jinsiga, kasallikning og'ir-yengilligiga qarab tanlab olish lozim. Umumiyl populyatsiya tekshirilganda davolash samarasini aniqlashda yanglishish mumkin, chunki, har bir preparatga nisbatan turli shaxslarning individual sezuvchanligi turlicha bo'ladi.

### **Dermatoglifika usuli.**

Dermatoglifika termi yunoncha derma-teri, gliphe-chizmoq so'zlaridan olingan bo'lib, barmoqlarda, kaftda va tovonlarda teri relefini o'rghanishga asoslangan. Shu joylarda terining tuzilishi o'zgacharoq bo'lib, epidermal do'ngliklar - qirralarni hosil qiladi. Qadimdan Xitoyda, Hindistonda, Yaponiyada, Suriyada, Markaziy Osiyoda barmoq va kaftdagi teri izlarining individualligini bilishar va undan imzo o'tnida foydalanilar edi. Dermatoglifika to'g'risida dastlabki ilmiy ma'lumotlar XVII asrda paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib teri iz larining o'ziga xosligi to'g'risidagi ma'lumotlar N. Gryu (1684), M. Malpigi (1686), Ya. Purkinye (18 23) asarlarida bayon qilindi. Dermatoglifika alohida ilmiy yo'nalish sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllandi. F. Galtonning ilmiy ishlari natijasi bayon qilinganidan so'ng teri chiziqlarini o'rghanish sud tibbiyotida jinoyatchilarni aniqlashda odam genetikasida oilalar va egizaklarni o'rghanishda keng qo'llanila boshlandi. Dermatoglifika terminini fanga birinchi bo'lib amerikalik olimlar G. Kammins va Ch. Midl kiritishdi. Teri relefining irlsiylanishi, etnik dermatoglifika muammolarini o'rghanishga rus olimlari M. I. Vilyamovskaya, I. I. Katayeva, T. D. Gladkovalarning qo'shgan hissalarini katta bo'ldi. Dermatoglifika usuli asosan uch qismiga bo'linadi: 1) daktiloskopiy - barmoq chiziqlarini o'rghanish; 2) palmoskopiy - qo'l kafti chiziqlarining o'ziga xosligini o'rghanish; 3) plantoskopiy - oyoq tovoni chiziqlarining o'ziga xosligini o'rghanish. Dermatogliflarni olish uchun oddiy tipografiya bo'yoxlaridan foydalaniladi. Buning uchun bo'yoxni vazelin yog'ida yoki skipidarda bir oz eritilib 15 x 25 sm

o'chamli oynaga tomiziladi va fotografiyada ishlataladigan oddiy rezina rolik bilan bir tekis qilib yoyiladi. Tekshirilayotgan shaxsnинг kafti oynaga bosiladi. Agar bo'yoq kaftining hamma joyi to'liq bo'yamasa, rolikni kaft ustida aylantirish mumkin. Keyin kaft oddiy qog'ozga bir tekis bosiladi. Qog'ozning tagiga yumshoq rezina qo'yilsa kaftning chuqur joylaridagi izlari ham qog'ozga to'liq tushadi. Kaftni qog'ozga ohista qo'yib o'rtasidan sekin bosiladi. Kaftni qog'ozdan birdaniga yuqoriga ko'tarib olish lozim Barmoq izlari alohida olinadi. Buning uchun har bir barmoqqa bo'yoq surtilib radial qismidan ulnar qismgacha birin-ketin qog'ozga bosiladi.

**Daktiloskopiya.** Barmoqlarda papillyar chiziqlar joylashishining asosan uch xil varianti uchraydi (25-rasm): yoy A harfi bilan belgilanadi (inglizcha Arch - yoy), sirtmoq -L harfi bilan belgilanadi (inglizcha Loop - sirtmoq ), o'rama — W bilan belgilanadi ( inglizcha Whorl - o'rama). Yoymalar eng kam tarqalgan variant bo'lib (6%), triradi uslari bo'lmaydi. Uning qirralari barmoq yostiqchasini ko'ndalangiga kesib o'tadi. Sirtmoqlar eng ko'p tarqalgan variant (60% ga yaqin) hisoblanadi. Barmoqning bir tomonidan boshlanib ikkinchi tomoniga yetmasdan yana boshlang'ich nuqtaga - orqaga qaytadi. Sirtmoqlarda bitta delta bo'ladi. Sirtmoq radial tomonga ochilsa radial sirtmoq deyiladi (Lr), ulnar tomonaga ochilsa ulnar sirtmoq deyiladi (Lu). O'ramalar o'rtacha chastotada tarqalgan bo'lib (34%), konsentrik yo'nalgan izchalardan tashkil topadi.O'ramalarda ikki delta mayjud. Yuqorida ko'rsatilgan uchta asosiy chiziqli shakllardan tashqari boshqa shakllar ham uchraydi. Murakkab ikki deltali chiziqlar shakli ham o'ramalar variantiga kiritiladi.

Teri chiziqlarining shakllanishi embriogenezning 10- 19 haftalaridan boshlanadi. 20 -haftada pushtda teri chiziqlari aniq ko'rindi. Papillyar relef shakllanishi asab tolalarining tarmoqlanishiga bog'liqidir. 6 oydan keyin papillyar relef to'liq shakllanib, keyin umrning oxirigacha umuman o'zgarmasdan saqlanadi. Har xil ta'sirlar natijasida (kuyish, sovuq oldirish, shikastlanish) teri jarohatlanishidan keyin avvalgi holatdagi papillyar chiziqlar shakli yana qaytdan tiklanadi. Faqat jarohatlar juda chuqur bo'lib, biriktiruvchi to'qima chandiqlari hosil bo'lgandagina avvalgi holat qayta tiklanmaydi. Daktiloskopianing miqdoriy ko'rsatkichi sifatida umumiy qirralar soni (UQS) hisoblanadi

(qirralar sonini hisoblash uchun markazdan deltagacha bo'lgan chiziqlar sanaladi). O'rtacha olganda bitta barmoqda 15-20 qirralar mavjud. Hammasi bo'lib o'nta barmoqda o'rtacha olganda erkaklarda umumiy qirralar soni  $144,88 \pm 51,08$ , ayollarda esa  $127,23 \pm 52,51$  ga tengdir. UQS kariotipda X xromosomalar soniga bog'liq. Shershevskiy – Terner sindromida UQS 180 ga teng, Klaynsfelter sindromida -50, X pentosomiyada esa 0 ga teng.

**Palmoskopiya.** Kaftning relefı juda murakkab bo'lib, unda maydonchalar,yostiqchalar, kaft chiziqlari tafovut etiladi. Ularni farqlay olish uchun kaftning topografiyasini yaxshi bilish lozim. Kaftning katta barmoq yonidagi chegarasi radial, uning qarama-qarshi tomoni esa ulnar qismlar deyildi. Kaftning yuqori chegarasi kaft-falangalar burmasi bilan, pastki chegarasi kaft orti (bilakuzuk) burmasi bilan chegaralangandir. Uchta asosiy bukuvchi burmalar mavjud, katta barmoq burmasi, distal (uch barmoqli) va proksimal (besh barmoqli) burmalar. Markaziy kaft chuqurchasini 6 ta kaft yostiqchalari o'rabi turadi. Katta barmoq asosidagi yostiqchani tenar, unga qarama - qarshi qirradagisini esa gipotenar deyildi. Barmoqlar orasida 4 ta yostiqchalar mavjud. 2, 3, 4, 5 barmoqlar asosida a, b, c, d barmoq triradiuslari joylashgan. riradius (delta) deb uchta har tomoniga yo'nalgan papillyar liniyalar yo'nalishlarining uchrashgan nuqtasiga aytildi. Kaft orti burmasi yaqinida, 4-kaft suyagidan uzunasiga yo'nalgan chiziqdha asosiy o'zak triradius t joylashadi. Agar a va d triradiuslaridan t triradiusiga chiziqlar o'tkazsak a t d kaft burchagi hosil bo'ladi. Me'yoriy holatlarda uning kattaligi  $57^\circ$  dan ortmaydi, har xil xromosoma kasalliklarida esa kattalashishi yoki kichrayishi mumkin.

O'naqaylarda murakkab teri chizig'i shakllari o'ng qo'llda ko'proq uchraydi. Ayollarda o'ramalar erkaklarga nisbatan kamroq, sirtmoqlar va yoylar esa ko'proq uchraydi. Teri chiziqlari relefı irlsiy jihatdan determinatsiyalangan bo'lib va poligen irlsiylanish tipida nasldan-naslga o'tadi. Monozigot egizaklarda teri chiziqlari shakli konkordantligi 0,8-0,9 ga, dizigot egazaklarda esa 0,3-0,5 ga teng, shuning uchun ham bu usuldan egizaklarning zigotaligini aniqlashda keng foydalaniлади. Keyingi yillarda dermatoglifika usuli tibbiyot genetikasida keng qo'llanilmoqda. Bu usul xromosoma sindromlariga tashxis qo'yishda qo'shimcha usul sifatida qo'llanilishi mumkin. Masalan, jinsiy xromosomalar soni o'zgarganda (aneuploidiya) umumiy papillyar

qirralar soni o'zgaradi. X xromosomalar soni qancha ko'p bo'lsa, umumiy qirralar soni shuncha kamayib boradi. D, C, E trisomiyalarda bosh kaft chiziqlarining yo'nalishlari ham o'zgaradi. Autosomal aneuploidiyalari ham umumiy qirralar sonining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan o'ramalar deyarli uchramaydi, radial sirtmoqlar ko'proq IV barmoqda uchraydi, E trisomiyasida faqat yoylar uchraydi (umumiy qirralar soni 0 ga teng bo'ladi). Daun kasalligida ulnar sirtmoqlar ko'proq uchraydi, atd burchagi  $80^{\circ}$  ga yaqin bo'ladi, kaftda chuqur ko'ndalang burma ("maymun" burmasi) uchraydi. Jimjiloqda yolg'iz bukuvchi burmacha 40% gacha uchraydi (2% o'rniqa). Patau sindromida yoylar miqdori ortadi, umumiy qirralar soni kamayadi, IV va V barmoqlarda radial sirtmoqlar ko'proq uchraydi (umumiy populyatsiyada esa II-barmoqda), t triradiusining distal siljishi natijasida atd burchagi  $108^{\circ}$  gacha ortadi) Edvards sindromida ham yoylar soni ortadi (6 yoki undan ko'proq barmoqlarda), kaft chiziqlari soddalashishi kuzatiladi. Multifaktorial patologiyada ham dermatoglifikaning o'zgarishlari kuzatiladi (S.A.Rahimov). Shizofreniya, qandli diabet, semirish va shu kabi irsiy moyilli kasalliklarda dermatoglifika o'zgaradi. Odam xromosoma kasalliklarida qo'lda (palmoskopiya) va oyoqda (plantoskopiya) har xil chiziqlar o'zgarishining sxematik ifodasi.

A- Daun sindromida kaftning ko'ndalang burmasi (*—maymun burmasil*),

B- me'yorda dermatoglifika,

C-D trisomiyasida,

D-G trisomiyasida,

E -E trisomiyasida.

Lekin bunday kasallikda dermatoglifikaning o'ziga xos o'zgarishlari kuzatilmaydi. Shuning uchun ham dermatoglifik tekshirishlar irsiy kasallikka tashxis qo'yishning birdan-bir asosi bo'lishi mumkin emas. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan kasal proband va uning senotipik sog'lom ota onalari hamda sibslar genotipida o'xshashlik elementlarini aniqlash lozim bo'lganda dermatoglifika qulay usul hisoblanadi. Masalan, dermatoglifika o'xshashligi asosida kasal proband qarindoshlari o'rtasida xatar darajasi yuqori bo'lgan guruhlarni ajratib olib ularni dispanser nazoratiga qo'yish mumkin. Dermatoglifik ma'lumotlarning prognoz ahamiyati bo'lishi ham mumkin.

Dermatoglifika ko'rsatkichlari umum populyatsiya darajasidan qancha katta farq qilsa, proband uchun prognoz shuncha noqulay hisoblanadi.

### Statistik - populyatsiya usuli va populyatsiyalarda genetik jarayonlar.

Bu usul populyatsiyaning genetik strukturasini, ya'ni undagi allellar va genotiplar uchrash chastotasini aniqlashga imkon beradi. Genetikada odam populyatsiyasi deganda uzoq vaqt (bir nechta avlod davomida) ma'lum arealda yashaydigan, shu arealga moslashgan, panmiksiya bilan xarakterlanadigan ko'p sonli odamlar guruhi tushuniladi. Panmiksiya yoki erkin nikoh shunday holatki, bunda populyatsiyaning har bir a'zosining o'sha populyatsiyadagi istagan shaxs bilan nikoh qura olishi imkoniyati nazariy jihatdan mavjuddir. Kichik populyatsiyalar - demlar (aholi soni 1500 dan 4000 gacha) yoki izolyatlarda (aholi soni 1500 gacha) panmiksiya emas balki inbriding kuzatiladi. Odamlar populyatsiyalarida inbriding qon-qarindoshlar orasidagi nikohlar tizimidir. Demlar va izolyatlarda 3-4 avlod almashinishidan (75-100 yil) keyin deyarli hamma shaxslar uchinchi avlod sibslaridan iborat bo'lib qoladi. Bunday shaxslar inbredlar deyiladi. Odamning ijtimoiyligi tufayli odam populyatsiyalarida nikoh quruvchilar qandaydir belgilarga qarab tanlanadi, ya'ni tanlangan (assortativ) nikohlar ko'proq uchraydi. Ammo nikoh qurish milliy, etnik, diniy belgilarga, ijtimoiy holatga asoslanganda morfologik, biokimyoiy, fiziologik belgilarga nisbatan tanlanmaydi (noassortativ bo'ladi). Irsiy kasalliklarning uchrashi yuqorida ko'rsatilgan guruhlarda har xil bo'lishi mumkin bo'lganligi uchun bunday nikohlarni genetik jihatdan o'rganish ahamiyatlidir. Lekin genetik shifokorlarni qiziqtiradigan belgilarga nisbatan nikohlar tanlanmagan bo'lganligi uchun populyatsiyalar panmiksiyalı hisoblanadi. Panmiksiyalı populyatsiyalarda tabiiy tanlash, demlarda va izolyatlarda esa genlar dreyfi ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni statistik- populyatsiya usulini qo'llashda nazarda tutish lozim, chunki allellar va genlar chastotasi Xardi-Vaynberg qonuniga (1908 y) asosan hisoblanadi. Bu qonunni esa faqat "ideal" populyatsiyalar uchungina qo'llash mumkin. "Ideal" populyatsiyalar quyidagi talablarga javob beradi: 1) Ko'p sonli bo'ladi; 2) Populyatsiyada panmiksiya kuzatiladi; 3) O'rganilayotgan allelning yangi mutatsiyalari kuzatilmaydi yoki to'g'ri mutatsiya va teskari mutatsiya chastotalari bir-biriga teng bo'ladi; 4) Hamma genotiplarining mutatsiya chastotalari bir-biriga teng bo'ladi;

o'zaro moslanuvchanligi bir xil bo'ladi (tanlash ba'zi genotiplarga nisbatan ijobiy, boshqa genotiplar uchun esa salbiy bo'lmaydi); 5) O'rganilayotgan populyatsiya shu turning boshqa populyatsiyalaridan izolyatsiyalangan – ajratilgan bo'ladi. Tabiiyki, tabiatda bunday "ideal populyatsiya"lar uchramaydi. lekin ko'p sonli populyatsiyalarda Xardi-Vaynberg qonunini shartli ravishda qo'llasa bo'ladi. Nazariy hisoblashlar natijasini real populyatsiyalardan olingan ma'lumotlar bilan solishtirish bu xulosaning to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Xardi-Vaynberg qonuni populyatsiyaning irlsiy jihatdan barqaror ekanligini ta'kidlaydi: tabiiy tanlash ta'siri kuzatilmaganda va yuqorida keltirilgan ayrim sharoitlar saqlanganda panmiksiyali populyatsiyada allellar va genotiplar chastotasi avlodlar almashinishi jarayonida o'zgarmaydi. Bu qonunning matematik ifodasi allellar va genotiplar chastotasini hisoblashga imkon beradi. Masalan, populyatsiyada biron belgining ikki alleli: A va a mavjud. O'z-o'zidan ma'lumki bunday populyatsiyada AA; Aa, aa genotiplari uchraydi. A ning uchrash chastotasini p bilan, a ning uchrash chastotasini esa q bilan belgilasak, ularning yig'indisi  $pA+qa=1$  yoki 100% ga teng bo'ladi, chunki populyatsiyada faqat ikki xil allel bo'lganligi uchun ularning yig'indisi 100% ga tengdir. Shundan kelib chiqqan holda genotiplar yig'indisi  $AA + Aa + aa = 1$  ga tengdir. Ma'lum bo'lishicha genotiplar chastotasi yig'indisi allellar yig'indisi kvadratiga teng ekan

$$(pA - qa)^2 = p^2AA + 2pqAa + q^2aa = 1 / 100\%.$$

Bundan kelib chiqadiki allellar chastotasi ma'lum bo'lsa genotiplar chastotasini ham hisoblab chiqish mumkin ekan. Buni aniq misollarda ko'rib chiqamiz. Populyatsiyada rezus manfiy shaxslar chastotasi 16% (0,16) ga, rezus musbat shaxslarniki esa 84% (0,84) ga teng. Rezus-manfiylikni aniqlovchi gen retsessiv bo'lganligi uchun 16% (0,16) shaxslarning hammasi dd genotipiga ega, dominant gomozigotalar (DD) va geterozigotalar (Dd) yig'indisi 84% (0,84) ga teng. Agar  $q^2dd = 0,16$  bo'lsa,  $qd = 0,16 = 0,4$  (40%)ga teng. A allelining chastotasi  $pA = 1 - qd = 1 - 0,4 = 0,6$  (60%) ga teng. Bundan  $p^2AA$  genotip chastotasi  $0,62 \cdot 0,36$  (36%) ga teng ekanligi kelib chiqadi. Geterozigotalar chastotasi esa  $2pqDd = 2 \times 0,6 \times 0,4 = 0,48$  (48%).

Geterozigotalar chastotasini quyidagicha hisoblash ham mumkin:  
 $2pqDd = 1 - (p^2DD + q^2dd) = 1 - (0,36 + 0,16) = 1 - 0,52 = 0,48$   
(48%). Shunday qilib, W populyatsiyada rezus-omilga nisbatan dominant va retsessiv allellar, retsessiv, gomozigot, geterozigot, dominant gomozigot genotiplar chastotasini hisoblab chiqish mumkin. Bunday hisoblashlarni patologik allellar chastotasini aniqlashda qo'llash mumkin. Odatda patologik genlarni tashuvchi shaxslarning yashovchanligi sust bo'lib, ular eliminatsiyalanishi mumkin, lekin ularning o'rni yangi kelib chiquvchi mutatsiyalar hisobiga to'ldiriladi. Populyatsiyalarning genetik strukturasini aniqlash katta ahamiyatga ega bo'lib, irlsiy kasalliklarning oldini olish choralarini ishlab chiqishda foydalaniлади. Agar retsesiv mutant alleli bo'lган geterozigotalar chastotasi ma'lum bo'lsa, oldindan kelajak avlodda mutant allelning gomozigotlari chastotasini hisoblab, profilaktik choralarни ishlab chiqish va bunday kasallarni davolashga tayyorlanish mumkin. Populyatsiyaning genetik strukturasini aniqlash ayni populyatsiyada tanlashning har xil shakllarining ta'sirini o'rGANISHGA ham imkon beradi. Tabiiy tanlash populyatsiyaning genetik tarkibining doimiyligini buzadi. Tanlash ijadalligini o'rGANISH uchun tanlash koeffitsientidan ( $S$ ) foydalaniлади. Bu koeffitsient malum genini tashuve hi shaxsnинг avlod qoldirish imkoniyati qandayligini, ya'ni genotipning moslanuvchanlik samarasini ifodalaydi. Tanlash koeffitsienti 1(100%) ga teng bo'lsa, bu genni tashuvchilar eliminatsiyalanadi (keyingi avlodga genlarini o'tkazmaydi). Aksincha 0 bo'lsa, genotipning moslashuv samarasi 1 ga teng bo'ladi (maksimal moslanuvchanlik kuzatiladi). Odamlar populyatsiyasida patologik allelning dominantligida tanlash ta'siri gomozitotalarga qarshi qaratilgan bo'ladi. Masalan, axondroplaziya genida selektiv samara  $0,195 = 20\%$  ga teng, shuning uchun ham axondroplaziya genining juda kam qismigina keyingi avlodga o'tadi, chunki kasallarning ko'pchiligi reproduktiv davrgacha o'lib ketadi ( $S=0,8$ ). Nikoh qurganlari ham sog'lom oilalarga nisbatan kam farzand ko'radi. Gentington xoreyasi asosan 40-45 yoshlarda yuzaga chiqadi (juda kam holatlardagina bundan oldin yoki keyin yuzaga chiqishi mumkin). Ko'pincha ota yoki ona fen otipik jihatdan sog'lom bolalar tug'ilganidan keyin kasallanishi mumkin. Ya'ni ota yoki onanining kasal ekanligi aniqlanganida patologik dominant gen avlodga allaqachon o'tgan bo'ladi. Shifokor yondoshuvi bu holatlarda shun day oilalarda bolalar


tug‘ilishini chegaralashga qaratiladi. Retsessiv genlarga qarshi tanlash holatlarida geterozigotalarda (Aa) retsessiv allel tanlashning eliminatsiya ta’siridan qutulib qolgani uchun ham ularning profilaktikasida qiyinchiliklarga uchraladi. Populyatsiyaning genetik strukturasi juda ko‘p evolyutsiya omillari tomonidan nazorat qilinadi, ularning orasida tanlashdan tashqari mutatsion jarayon ham katta ahamiyatga ega. Masalan: hatto ba’zi allel tanlash ta’sirida keyingi avlodga o’tgan taqdirda ham uning konsentratsiyasi 100%ga yetmaydi, chunki o’sha allelga nisbatan yangi mutatsiyalar hosil bo‘ladi. Foydali allelarning konsentratsiyasi shakllanishida mutatsion jarayon bilan tanlash ta’sirini o‘zaro munosabati katta rol o‘ynaydi. Odamlar populyatsiyasida axondroplaziyaning chastotasi 1:10000 ga teng. Odamlar populyatsiyasida geterozigotalarga qarshi tanlash patologik genga nisbatan ham (axondroplaziya geniga qarshi), retsessiv genga nisbatan ham (rezus omil geniga qarshi) kuzatilishi mumkin. Gomozigotalarga qarshi tanlash (HBS HBS gomozigotalar o‘roqsimon hujayrali kamqonlik bilan kasallanadi), geterozigotalar foydasiga tanlash (ayrim regionlarda HBA HBS geterozigotalar selektiv ahamiyatga ega bo‘ladi) shakllari ham kuzatiladi. Tanlashning har xil shakllarining ta’siri natijasida mutatsiyalar jarayonida hosil bo‘lgan genetik polimorfizm mustahkamlanadi. Ayrim allelarning har xil populyatsiyalardagi chastotalarining farqlari ham tanlashning ta’siri natijasidir. Masalan, gemoglobinning 130 dan ko‘proq shakllari, G- 6-FDG fermentining 70 dan ortiq variantlari mavjud bo‘lib, ularning har bir variantining yuqori chastotasi ayrim populyatsiyalarda kuzatiladi. HBS subtropik va tropik areal larda 1% chastotada, III qon guruhi (JB) Osiyoda, I (J<sup>o</sup>) qon guruhi esa Avstraliyada va Polineziyada ko‘proq uchraydi. Hozirgi zamon populyatsiyalar genetikasi bu fenomyenlarni statistik — populyatsiya usuli yordamida tushuntiradi. Populyatsiyaning genetik tarkibini aniqlashdan odamlar populyatsiyalari tarixini, kelib chiqishini aniqlashda, ham foydalananadi va bu antropogenezning ko‘p jumboqlarini yechishda katta ahamiyatga ega.

### Sitogenetik usul.

Bu usul XX asrning 50-yillardan boshlab qo‘llanilayotgan bo‘lib, bu usul xromosomalarni mikroskopda tekshirishga asoslangandir. Shu yillarda leykotsitlarni sun‘iy o‘sirish usuli ishlab chiqib, ularda


xromosomalarning metafaza holatini olish va xromosomalarni mikroskopda tekshirish usullari yo'lga qo'yildi. Sitogenetik usulni qo'llashning birinchi muvaffaqiyatlari natijasi 1959 yilda Lejen tomonidan Daun sindromida xromosomalar sonining anomaliyasini aniqlanishi bo'ldi. Hozirgi vaqtida sitogenetik usuldan xromosomalar tuzilishi va sonining o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan kasalliklarni o'r ganishda, xromosomalarni kartalashtirishda, ularning polimorfizmini o'r ganishda va boshqa irsiy muammolarni aniqlashda keng foydalilanadi. Faqat sitogenetik usulgina xromosoma patologiyalarida tashxis qo'yishga imkon beradi, shuning uchun ham qiyosiy tashxisda bu usul juda qulaydir. Masalan, Daun kasalligining klinik ko'rinishi aniqlanganda faqat sitogenetik usulning yordami bilangina trisomiya variantini (47, XX+21) translokatsiya sindromlaridan (46,XX,t(15+21)) ajratish mumkin. Buni aniqlash esa kasal bola bo'lgan oilada avlod prognozini aniqlashda juda muhim ahamiyatga egadir. Sitogenetik usulni qo'llashning asosiy bosqichlari quyidagilardir: 1) hujayralarni ajratib olish va sun'iy o'stirish; 2) xromosomalarning metafaza holatini olish; 3) metafaza holatidagi xromosomalarni mikroskopda o'r ganish va kariotipni aniqlash. Hozirgi davrda interfaza holatida ham xromosomalarni ajratib olish usullari ishlab chiqilgan, lekin ularning aniq tuzilishini faqat mitoz yoki meyoz metafazalaridagina yaxshi o'r ganish mumkin.

Tekshirish uchun hujayralarni *suyak ko'migidan, teridan, urug'dontlardan* olish mumkin, lekin eng qulay ob'yeqt – *qonning yadro saglovchi hujayrataridir*. Periferik qoning leykotsitlarini (a) 2-3 kun davomida *FGA (fitogemagglyutinin)* (b) qo'shilgan muhitda sun'iy o'stiriladi. FGA hujayralarning bo'linishini tezlashtiradi. Metafaza bosqichida xromosomalar juda yaxshi ko'rindi, shuning uchun ham bo'linayotgan hujayralari bo'lgan oziq muhitga *kolxitsin* (c) moddasini qo'shamiz. Bu modda bo'linish duki iplarini parchalaydi va mitozni metafazada to'xtatadi. Keyin yadro membranasini parchalash uchun hujayralarga *gipotonik eritma* qo'shiladi, *fiksatsiyalanadi*, buyum oynachalariga o'tkazilgan hujayralar *bo'yaladi va mikroskopda* (d) tekshiriladi.



26-rasm. Sitogenetik usul.

Xromosomalarni bir-biridan ajratish uchun avval ularning *mikrotasviri* tayyorlanadi, keyin *kariogramma (idiogramma)* tuziladi (16-rasm). Xromosomalarni individual farqlash uchun Parij nomenklaturasiga asoslangan xromosomalar tasnididan foydalaniladi (26-rasm). Xromosomalar asosan uzunligiga va sentromerasining joylanish tartibiga qarab (metasentrik, submetasentrik, akrosentrik, yo'ldoshli va boshqa tiplar) ajratiladi. Oddiy bo'yash usuli qo'llanganda xromosomalar bir tekis bo'yaladi, ammo bu o'xshash xromosomalarni ajratishga imkon bermaydi. Bu kamchiliklarni tuzatish uchun *qiyosiy* bo'yash usuli qo'llaniladi. Hozirgi davrda avtoradiografiya, 5 bromdezoksiuridin bilan tekshirish, fluoroxromlar bilan (Q), Gimza bo'yoqlari (S — disklar) bilan *qiyosiy bo'yash*, shu usullarning xilma-xil o'zgartirilgan variantlarini qo'llash, xromosomalarni ma'lum guruhlarga (A, B, C, D, E, F, G) aniq ajratishga imkon beradi. Qiyosiy bo'yalganda xromosomalarda to'q (geteroxromatin) va och (euxromatin) bo'yalgan qismlar yaxshi ko'rinadi.



27-rasm. Sog'lom ayol (a) va erkak (b) xromosomalari to'plami

Sitologik preparatlarda nuklein kislotalarini duragaylash usu li ham yaxshi natija berishi mumkin. Sitologik preparatlarda nuklein kislotalarini duragaylash usuli ham yaxshi natija berishi mumkin. Nishonlangan DNK va RNK yordamida xromosoma 46 DNK sining duragaylashishi, xromosomalarning nozik tuzilishi va interfaza yadrosida genlarning joylashishini aniqlash mumkin. Bu usullarning aniq bayoni ko'pgina monografiyalarda keltirilgan. Sitogenetikada keng qo'llaniladigan usullardan biri, odam somatik hujayra larida jinsiy xromatinni aniqlashdir. Sog'lom ayol epitelial hujayrasi yadrosida jinsiy xromatin. 1-kariolemma, 2- xromatin, 3- jinsiy xromatin. Bu usulning afzalligi - uning soddaligi va tez tekshirish o'tkazib, xulosa olish mumkinligidadir. Lunj shilliq pardasidan qirib tayyorlangan va epitelial hujayralardan tashkil topgan surtma yoki periferik qon leykotsitlari preparati ma'lum bo'yoqlar bilan (atsetorsein, lakkmoid) bo'yaladi va mikroskopda ko'rilib. Jinsiy xromatin tanachalarini kamida 100 hujayralarda sanab, xromosoma to'plamida X xromosoma sonini aniqlash mumkin. Tajribada tasdiqlangan Layon gipotezasiga asosan to'plamda 2 ta X xromosoma bo'lsa, ulardan biri ( tasodifan ) reduplikatsiyadan orqada qoladi va giperpiknoz holida bo'lib jinsiy xromatin tanachasini hosil qiladi. Bu holat embrional rivojlanishning 16 kunidan boshlab kuzatiladi, uning asosida 2 ta xromosomadan birini inaktivatsiyalanishi natijasida "genlar dozasi kompensatsiyalanishi" sindromi yotadi. Yirik X xromosomada 3000 tagacha genlar mavjud, kichik Y xromosomada esa genlar 230 tagacha. Shuning uchun ham 2 ta

X xromosomasi bo'lgani uchun ayollarda faol holatdagi genlar miqdori erkaklardagiga nisbatan ikki baravar ortiq bo'lmasligini ta'minlash uchun ayollarda 2 ta X xromosomadan bittasining nofaol holatiga o'tishini ta'minlovchi mexanizm paydo bo'lган. Faqat urg'ochi jinsiy bezlarning o'zak hujayralaridagina 2 ta faol X xromosoma bo'ladi. Agar X- xromosomalar soni 2 dan ortiq bo'lsa (ya'ni XXX yoki boshqa variantlar), jinsiy xromatin tanachalari soni ham ortadi, chunki hamma shunday holatlarda faqat 1xromosoma faol bo'ladi. Shunday qilib jinsiy xromatin soniga qarab X-xromosomalar sonini aniqlash mumkin: X xromosomalar soni  $n+1$  ga teng ( bundan-jinsiy xromatin tanachalari soni). Bu usul yordamida odamning jinsini genetik jihatdan tez aniqlash (ekspress usul) mumkin (masalan, interseksual holatidagi bola tug'ilganda). Shuningdek bu usul yordamida X-xromosomalar sonining o'zgarishiga bog'liq kasalliklarga (20-rasm) (X trisomiysi — 47, XXX, Klaynfelder sindromi — 47, XXY, Shershevskiy — Terner sindromi — 45, XO, bu sindromlarning boshqa variantlari, X - xromosoma mozaitsizmi — 46, XX /45, XO va boshqalarga tashxis qo'yish mumkin. Ayollarda ikkinchi X- xromosomaning tasodifiy inaktivatsiyalanishi tekshirilganda juda qiziq natijalar aniqlandi. Ma'lumki turli hujayralarda kelib chiqishiga nisbatan har xil bo'lган X-xromosomalar inaktivatsiyalanishi mumkin. Masalan, daltonizm geniga yoki gemofiliya geniga nisbatan geterozigotali ( XDXd yoki XHXh) bo'lган ayollarda, ular mutant genni otasidan olgan bo'lsa, ko'pchilik holatlarda onadan o'tgan ( ya'ni XD yoki XH) X xromosomalar inaktivatsiyalanadi, ota X xromosomalari (Xd yoki Xh) faol holatda bo'ladi. Bunday ayollarda dominant genlar (D yoki H) bo'lishiga qaramasdan daltonizm yoki gemofiliya namoyon bo'lishi mumkin. X-xromosomalar, Lunj shilliq pardasi epithelial hujayralardagi Barr tanachalari, va leykotsitlar yadrolaridagi —nog'ora tayoqchalaril, soni orasidagi bog'lanish. Shunday qiziqarli hodisa ma'lumki monozigot egizak opa-singillarda har xil Xxromosomalar inaktivatsiyalanishi natijasida ularning bitti gemofiliya bilan og'rigan, ikkinchisi esa gemofiliya genining geterozigot tashuvchisi bo'lib sog'lom bo'lган. XD xromosomaning inaktivatsiyalanganligini geterozigotalar (XDXd) ko'zining to'r pardasini qizil rangli nur to'plami bilan yoritib, ular rangni sezmay qolganiga qarab ( nur faol Xdli hujayraga tushganda ) aniqlash mumkin. Sitologlar Barr va Bertram birinchi bo'lib urg'ochi mushukning bosh miyasi neyronlari yadrosi membranasida bo'yalgan tanachalarni

topishdi, erkak mushuklarda esa bunday tanalar topilmaganligi uchun ular bu tanachalar ni jinsiy xromosoma deb atadilar. SHuning uchun ham bu tanachalarni Barr tanachalari deb nomlanadi. Sitogenetik tekshirishlar tibbiy genetik kabinetlarda va tibbiy-genetik maslahatlarda o'tkaziladi. Sitogenetik usul ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun uni shifokor genetik tavsiyasi bilan quydagi holatlarda o'tkazish maqsadga muvosiqidir:

- klinik belgilariiga ko'ra xromosoma kasalliklariga guman tug'ilganda (tashxisni tasdiqlash maqsadida);
- bolada gen sindromlariga aloqador bo'lмаган tug\*ma nuqsonlar aniqlanganda:
  - homiladorlikda spontan abortlar, o'lik tug'ilishlar, rivojlanish nuqsonlari ketma-ket kuzatilganda;
  - reproduktiv funksiya buzilganda (birlamchi amenoreya, bepushtlik);
  - bolani aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishi;
  - prenatal tashxis qo'yishda;
  - leykozlarda;
  - mutagenezni o'rganishda.

#### **4.3. Irsiy kasalliklarning (preklinik) klinika aniqlanguncha diagnostikasi.**

Prenatal diagnostika. Irsiy kasalliklar profilaktikasida asosiy usul homila rivojlanishining ilk etaplarida (22 haftagacha) erta tashxis qo'yish (prenatal diagnostika) va og'ir irsiy kasalliklar aniqlansa ularni eliminatsiyalashdir (Teratanaziya).

Prenatal diagnostikani tashkillashtirishda quyidagi sharoitlar bo'lishi shart.

1. Qo'llaniladigan muolajalar ona va pusht sog'lig'iga zarar yetkazmasligi lozim.

2. Muolajalar o'tkazilganidan keyin yoki vaqt o'tganidan so'ng asoratlar xatari iloji boricha kam bo'lishiga harakat qilish kerak.

3. Prenatal diagnostika ikki bosqichda o'tkazilishi kerak. Birinchi bosqichda homila rivojlanishida genetik xatar yuqori bo'lgan ayollarni aniqlash, ikkinchi bosqichda esa prenatal diagnostikani o'tkazish.

4. Mutaxasislar laboratoriya tahlillari va muolaja standartlariga qat'iy amal qilishlari, bajarilayotgan ishlari sifatini doim nazorat qilib

borishlari, homiladorlik qanday yakunlanganligi va qo'yilgan tashxisdag'i xatolarning statistik tahlillarini amalga oshirib borishlari lozim.

**Prenatal diagnostika usullari quyidagi 3 ta guruhga bo'linadi:**

1. Skrining
2. Noinvaziv
3. Invaziv

**Skrining usullari**

Skrining(inglizcha screen-elakdan o'tkazish, tanlab olish) usullari bilan irlsiy yoki tug'ma kasalliklari bo'lgan bolani tug'ush xatari yuqori bo'lgan ayollar ajratib olinadi.

Bu usullar kam xarajat va keng qo'llanilishi mumkin bo'lishligi lozim.

1. Ota-onalaridan birida biokimyoiy buzilish aniqlangan autosoma-dominint kasallik bo'lganida;
2. Onaning yoshi 35dan yuqori, otaning yoshi 45dan yuqori bo'lganida;
3. SHajarada irlsiy kasallik bo'lganida;
4. Populyatsiyada irlsiy kasallik chastotasi yuqori bo'lganda;
5. Ota yoki onaning muolajalar va Teratogenlar ta'sirida bo'lganda (onaning homiladorlik davrida ham) aniqlanadi;.
6. Ota-onalar yaqin qarindosh bo'lganida;
7. Akusherlik anamnez noqulay bo'lganida ( takroriy spontan abortlar, rivojlanish nuqsoni bo'lgan bola tug'ilganida).

**Prenatal tashxis zarurligini aniqlashga imkon beradigan skrining usullariga quyidagilar kiradi:**

1. Homilador ayloning qonida alfafetoprotein (AFP) konsentratsiyasini aniqlash
2. Xorion gonalotropini (HG) miqdorini aniqlash
3. Birikmagan estriol (E3) miqdorini aniqlash

**I. Alfafetoproteinni (AFP) aniqlash** AFP homiladorlik vaqtida jigarda sintezlanadigan oqsildir. Uning miqdori homiladorlik davomida o'zgaradi, har xil irqlarda, geografik xududlarda ham har xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun laboratoriyada mazkur sharoitlar uchun uning standart ko'rsatkichlar bo'lishi shart. Bu usul asab naychasi va qorin dyevori tug'ma nuqsonlariga gumon tug'ilishga imkon beradi. Bunday patologiyalarda homilador ayol qon zardobida AFP normaga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Ba'zi populyatsiyalarda asab naychasi patologiyasi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'lganligi uchun shu

populyatsiyalarda hamma homilador ayollarda AFP aniqlash zarur. Qarindoshlari orasida asab naychasi anomaliyasi bo'lgan kasal uchragan hollarda AFP tekshiriladi. Daun sindromli bola tuqqan yoki yoshi 35 dan oshgan ayollarda ham AFP aniqlanadi, chunki Daun sindromli bolaga homilador bo'lgan ayol qon zardobida AFP miqdori normaga nisbatan kam bo'ladi. AFP miqdori o'zgarishi aniqlanganda, qo'shimcha tekshirishlar o'tkaziladi. AFP miqdori oshganda ultratovush tekshirishlari o'tkaziladi. Amnion suyuqligida AFP miqdori aniqlanadi. Agar AFP miqdori kamligi aniqlansa sitogenetik tekshirishlarga yo'llanma beriladi.

**II. Xorion gonadotropinini (XG) aniqlash ham samarali usuldir.** Normada homiladorlikning 1 trimestrida XG miqdori ancha kamayadi. Xromosoma patologiyalarida ayniqsa Daun sindromida XG konsentratsiyasi 2 baravar ortadi.

**III. Birikmagan estriol miqdori** Daun sindromli bola rivojlanayotganda ancha kam bo'ladi.

Yuqoridagi uchta usuldan birga foydalanish samarali natijalar beradi.

#### **Noinvaziv usullar**

Noinvaziv usullar deganda jarrohlik muolajasiz amalga oshiriladigan usullar tushuniladi. Bu usulga asosan **ultratovush tekshirishlar (UTT)** kiradi. Radiografiya va rentgenografiya usullari hozirgi davrda qo'llanilmaydi. UTT homiladorlikning 17-22 haftalarida (eng optimal davr) o'tkaziladi. Bu usul tug'ma rivojlanish nuqsonlarini aniqlashga imkon beradi. UTTni skrining maqsadida ham, aniqlovchi usul sifatida ham ishlataladi.

#### **Chuqur UTT quyidagi holatlarda o'tkaziladi:**

1. Homiladorlikning 16-18 haftalarida qon zardobida AFP yuqori miqdori aniqlanganda.
2. Homiladorlikning noqulay kechishi, pusht rivojlanishi orqada qolishida
3. Avvalgi farzand tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilgan bo'lsa.
4. Er xotinlardan birida yoki ularning yaqin qarindoshlarida tug'ma nuqsonlar mavjudligida.
5. Ayolda tug'ma nuqsonli bola tug'ilish xatarini oshiruvchi diabet, epilepsiya, alkogolizm, giyohvandlik kabi kasalliklar kuzatilganida.
6. Homiladorlikning 10 haftasigacha teratogen omillar (ximiyaviy, fizikaviy omillar, infektsion va parazitar kasalliklar) ta'sir qilganda.

## UTT yordamida tug‘ma rivojlanish nuqsonlarini aniqlash Invaziv usullar.

Invaziv usullar maxsus jarrohlik muolajalari orqali amalga oshiriladi. Ularga xorionbiopsiya, platsentobiopsiya, amniotsentez, to‘qimalar biopsiyasi, xordosentez, fetoskopiya usullari kiradi.

**Xorionbiopsiya (a) va platsentobiopsiya (b)** homiladorlikning 7 haftasidan 16 haftasigacha o‘tkaziladi. Xorion burmalaridan yoki platsentadan bioptatlar olib tekshirishga asoslangan.

Invaziv usullar Xorionbiopsiya (a) va platsentobiopsiya (b)

Muolaja UTT nazoratida transabdominal yoki transtservikal usulda amalga oshiriladi. Xorionbiopsiya osonroq usul hisoblanadi. Transabdominal biopsiyadan keyin 10%gacha qon ketish asorati kuzatilishi mumkin, juda kam hollarda bachadon infeksiyasi rivojlanishi mumkin. Transtservikal biopsiya ancha qiyin, ko‘p asoratlar bergani uchun uncha qo‘llanilmaydi. Xorionbiopsiya asoratlaridan biri spontan abortlardir (2,5-3%gacha). Xorionbiopsiyani homiladorlikning 8 xafasidan keyin, platsentobiopsiyani esa 11-hafasidan keyin amalga oshirish tavsiya etiladi.

Olingan xorion va platsenta bioptatlarini sitogenetik, biokimiyoviy, molekulyar-genetik usullarda tekshiriladi.

**Amniotsentez** homiladorlikning 15-18 haftalarida amnion suyuqligini olib, undagi hujayralarni tekshirishga asoslangan usul. Amniotsentez juda kam asorat beradi (0,2%). Amniotsentez transabdominal usulda amalga oshiriladi, transservikal usul deyarli amalga oshirilmaydi. 8-10 ml amnion suyuqligi olinadi. Amnion suyuqligidagi homila hujayralar sentrafugalash yo‘li bilan ajratib olinadi va 2-4 hafta davomida sun‘iy o‘stiriladi. Ularni keyin sitogenetik, biokimiyoviy, molekulyar-genetik usullarda tekshiriladi. Faqat polimeraza zanjir reaksiyasi uchun hujayralarni sun‘iy o‘stirish shart emas. Amniotsentez usuli bosqichlarining sxematik tasviri. Xordosentez. UTT nazorati ostida kindikdan qon olib tekshirishga asoslangan (59-rasm). Usul homiladorlikning 18-22 haftalarida o‘tkaziladi. Olingan qon sitogenetik, biokimiyoviy, molekulyar-genetik usullarda tekshiriladi. Buning uchun avval limfotsitlar ajratib olinib, sun‘iy ustiriladi. Xordosentez usuli amniotsentez usuliga nisbatan qulayroq, chunki limfotsitlarni 2-3 kun davomida o‘stiriladi, amniotsitlarni o‘stirish uchun ko‘proq vaqt ketadi.

Xordosentez usulidan xromosoma sindromlariga, qon kasalliklariga, immunodefitsitlarga, irlsiy ona bola nomosliklariga (Rh), noma'lum bachadon infeksiyalariga tashxis qo'yishda foydalaniadi. To'qimalar biopsiyasi usuli UTT nazoratida homiladorlikning 2 trimestrda o'tkaziladi, ixtioz, epidermoliz kabi og'ir irlsiy kasalliklarga tashxis qo'yish uchun pusht Terisi biopsiya qilinib tekshiriladi. Olingen bioptatlар morfologik usullarda o'rganiladi. Dyushenn mushak distrofiyasini aniqlash uchun pusht mushak to'qimasi bioptatlari immunoflyuoretsent usulda tekshiriladi. Dyushenn mushak distrofiyasida muhim oqsil - distrofin sintezlanmaydi. Distrofin oqsil bo'lmasa flyuoretsentsiya kuzatilmaydi. Bu usul molekulyar-genetik usulga flyuoretsentsiya kuzatilmaydi. Fetoskopiya kam ishlatalidigan usul bo'lib, nisbatan aniqroq natija beradi. Fetoskopiya 7-8%gacha maxsus zond yordamida pushtni tekshirishga asoslangan. Homiladorlikning 18-22 haftalarida qo'llaniladi. Fetoskopiya 7-8%gacha asorat berishi mumkin (bola tushishi) unga nisbatan UTT usuli qulayroq, samaraliroq va asorat bermagani uchun fetoskopiya deyarli qo'llanilmaydi.

#### Preimplantatsion diagnostika

Hozirgi davrda tuxum hujayralarni in vitro sharoitida otalantirilib, blastotsista bosqichigacha rivojlantirish va bachadonga implantatsiya qilish usuli keng yo'lga qo'yilgan. Bu usuldan bachadon nayi bitib qolganligi tusayli kelib chiqadigan bepushtlikni davolashda muvaffaqiyatli foydalanimoqda. Ekstrakorporal otalanish natijasida olingen 8-16 blastomerali bosqichdagи zigotadan 1-2 blastomerasini ajratib olib preimplantatsion diagnostikasi mikrometodlar yordamida amalga oshirish mumkin. Preimplantatsion diagnostika uchun homilanı bachadondan ham olish mumkin. Otalanishdan keyin homila 90-130 soat davomida bachadon nayidan bachadonga tushadi. O'sha vaqtida hali implantatsiyalangan homilani maxsus moslamalar yordamida bachadondan chiqarib olish mumkin. Tekshirish o'tkazilguncha homilani chuqur muzlatib qo'yiladi. Agar irlsiy kasalliklar aniqlanmasa homila yana bachadonga qaytarib kiritiladi. Bunday muolaja o'tkazilgan homilar 50%gacha normal rivojlanishi mumkin. Olingen hujayralarni polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), monoklonal antitelolar, ultramikronalitik usullar yordamida tekshiriladi. Preimplantatsion diagnostika birlamchi profilaktika usuli hisoblanadi. Uni yaxshi yo'lga qo'yilsa prenatal diagnostika o'tkazishga abortlarga xojat qolmaydi.

## Skrining dasturlari.

Irsiy kasalliklar ba'zan fenotipik nomoyon bo'lmaydi yoki kasallikning klinik belgilari yaqqol yuzaga chiqmaydi. Bunday holatlarda skrining tekshirish usullari qo'llaniladi. Skrining tekshirishlarning harakterli xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. YOppasiga, tanlamasdan o'tkaziladi
2. Kasallikning oldini olishga qaratiladi
3. Tashxis kamida ikki bosqichda o'tkaziladi.

Skrining tekshirishlari oddiy.arzon, tez natija beruvchi testlar yordamida amalga oshiriladi. Ommaviy tekshirishlar natijasida ma'lum kasallik gumon qilingan shaxslar aniqlanib, ularni murakkab, aniq natija beruvchi usullar yordamida takroriy tekshiriladi.

Ommaviy skrining tekshirishlar quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

1. Agar o'z vaqtida profilaktik davolash o'tkazilmasa hayot qobiliyati cheklanib, nogironlikka olib keluvchi irsiy kasalliklarda.
2. Aniqlanadigan kasalliklarga nisbatan samarali profilaktik davolash usullari mavjud bo'lganda.
3. Aniqlanadigan kasallikning uchrash chastotasi 1:10000 va undan yuqori bo'lganda.
4. Klinik nomoyon bo'lguncha aniq tashxisga imkon beruvchi biokimoviy va molekulyar-genetik usullar mavjud bo'lganda.

Ommaviy skrining tashxis usullari quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

1. Oddiy, arzon, qimmatbaho reaktivlar, asboblar talab qilmaslik
2. Tekshiruv natijalarida xatoliklar deyarli bo'lmasligi
3. Tekshiruvlar har xil tadqiqotchilar tomonidan bemalol o'tkazila olinishi.
4. Tekshirish uchun qulay material bo'lishi, bu materiallarni kam miqdorda olinishi mumkinligi, ularning yaxshi saqlanishi, markaziy laboratoriyalarga yubora olish imkoniyati bo'lishi. Shunday qilib skrining dasturlarining asosiy maqsadi chaqaloqlarda mavjud irsiy kasalliklarni erta aniqlash va davolashni tashkillashtirishdir.

Skrining dasturlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. CHaqaloqlarda tekshirish uchun material olib uni laboratoriya ga yetkazish.
2. Laboratoriya da skrining tekshirish o'tkazish
3. Skrining tekshirishda ijobiyl natija olingan shaxslarning ikkinchi bosqichda aniq, murakkab tekshirishlar o'tkazish

4. Aniqlangan kasallarni davolash va dispanser nazoratiga olish

5. Oilani tibbiy genetik maslaxatdan o'tkazish Skrining dasturlar uchun ketgan xarajatlar davlat miqyosida bir nechta baravar iqtisodiy foyda keltiriladi, chunki bu usul bilan davolanishi qiyin va ko'p xarajat talab qiluvchi og'ir irsiy kasalliklar oldini olish mumkin.

Hozirgi davrda faqat ayrim irsiy kasalliklar uchungina skrining dasturlar qo'llaniladi, ular quyidagilar: fenilketonuriya, tug'ma gipotireoz, buyrak ubti bezi tug'ma giperplaziysi. Bu kasalliklarni skrining tashxisi yaxshi yo'lga qo'yilgan, ko'p xarajat talab qilmaydi va ularni profilaktik davolash mumkin.

**Fenilketonuriya skrining tashxisi uchun biologik material xromatografik** yoki filtr qog'oziga olinib, quritilgan qon tomchisi hisoblanadi. Materialni pochta orqali 2-3 kun muhlat ichida laboratoriyaga yuborish mumkin. Qonni tug'ruqxonada 3-5 kunlik chaqaloqlardan olinadi. Markaziy biokimiyoviy laboratoriyada qon tomchisida fenilalanin miqdori quyidagi usullardan biri yordamida aniqlanadi. Gatri mikrobiologik testi, flyuorimetriya, qog'ozda aniqlanadi. Taqsimlanuvchi xromotografiya, nafis qatlamlari xromotografiya. Ijobiy natiya olingan holda aniqloychi biokimiyoviy tashxis o'tkaziladi. Bu tekshirishlar ko'p bosqichli va murakkabdir va fenilketonuriyaning qanday shakli ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Markaziy biokimiyoviy laboratoriyada qon tomchisida fyenilalanin miqdorini aniqlash jarayoni. Diagnoz tasdiqlansa bola fenilalaninsiz sun'iy dietaga o'tkaziladi. 1 yoshdan keyin dieta tarkibiga oz miqdorda fenilalanin qo'shilishi mumkin. Davolash muntazam biokimiyoviy nazorat ostida o'tkaziladi. 1 oygacha har haftada 2 marta, 6oygacha har haftada 1 marta, 6oydan 1 yilgacha bir oyda ikki marta, keyin har oyda bir marta. Agar shu sxemaga qat'iy amal qilinsa fenilketonuriyaning hech qanday alomatlari nomoyon bo'lmaydi. 6-8 yildan keyin dieta talab qilinmaydi.

#### **4.4. Xromosoma kasalliklarining umumiy xususiyatlari**

Xromosoma kasalliklari (sindromlari) - bu rivojlanish anomaliyalari bilan namoyon bo'lgan va somatik xromosomalarning (autosomal sindromlar) yoki jinsiy xromosomalarning (gonosomal sindromlar) soni yoki tuzilishidagi anormallikklardan kelib chiqadigan tug'ma patologik holatlar guruhi. Ularning populyatsiyada umumiy chastotasi taxminan 1% ni tashkil qiladi. Ularning aksariyati xromosoma va genomik

mutatsiyalarning turlicha bo'lishiga bog'liq ravishda sporadik hoatlardir. Xromosomal kasalliklarning genetik determinizm gipotezasi ham mavjud bo'lish huquqiga ega. Xromosoma anomaliyalarining tavsiflangan turlari soni 1000 ga yaqin bo'lib, ularning 100 dan ortiq shakllari klinik jihatdan aniq ko'rinishga ega va sindrom deb ataladi.

**Xromosoma kasalliklarini tasnifi bir necha tamoyillarga asoslanadi:**

**I. Xromosomalar sonining buzilishi bilan bog'liq xromosoma kasalliklari.**

*1. Autosomalar sonining buzilishi bilan bog'liq xromosoma kasalliklari*

- Daun sindromi
- Patau sindromi
- Edvards sindromi

*2. Jinsiy xromosomalar sonining buzilishi bilan bog'liq xromosoma kasalliklari*

- X-xromosoma polisomiya sindromi
- Klaynfelter polisomiya sindromi
- Y-xromosoma polisomyasi sindromi
- Shershevskiy-Terner sindromi

**Xromosomalar tuzilishining buzilishi bilan bog'liq xromosoma kasalliklari**

- "mushuk qichqirishi" sindromi
- Angelman sindromi.

Ko'pincha bu sindromda aorta koarktatsiyasi uchraydi. Arterial gipertenziya ko'pincha yoshga qarab, hatto koarktatsiyasiz nuqsonlarda ham paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari buyrak kasallikkлari va gemangiomalar ham tez-tez uchraydi. Ba'zida oshqozon-ichak traktida telangiectaziyalar paydo bo'lishi natijasida oshqozon-ichakdan qon ketishi yoki oqsil tanqisligini kuzatish mumkin. Chaqaloqlarda toz son bo'g'imlarning displaziyasи rivojlanish xavfi bo'ladi. O'smirlarning 10 %da skolioz bo'ladi. Osteoporoz va sinishlar Terner sindromi bo'lgan ayollar orasida juda keng tarqalgan. Ayollarning 90% da gonadal disgeneziya paydo bo'ladi (tuxumdonlar tolali to'qimalarning ikki tomonlama qatlamlari bilan almashtiriladi va tuxum ishlab chiqara olmay qoladi). Terner sindromi bo'lgan o'spirinlarning 15% dan 40% gacha o'z-o'zidan balog'at yoshiga yetadi, va atigi 2-10% o'z-o'zidan hayz ko'radi. Aqliy zaiflik kamdan-kam uchraydi, ammo ko'plab qizlarda IQ testlarining og'zaki tarkibiy qismlarida o'rtacha yoki yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishiga qaramay, og'zaki bo'limgan ta'lim qiyinchiliklari, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi va shu sababli harakat va matematik testlarda past ko'rsatkichlar mavjud bo'ladi. Ko'pincha yangi tug'ilgan Terner sindromli chaqaloqlar zaif bo'ladi; ba'zilarida qo'l va oyoqlarda yaqqol naimoyon bo'lgan dorsal limfa

shish, boshning orqa qismida esa limfa shish yoki bo'shashgan teri burmalari mavjud bo'ladi. Boshqa keng tarqalgan anomaliyalardan bo'yinda qanotsimon burma (pterigium) va keng ko'krak qafasi, hamda keng joylashgan ko'krak so'rg'ichlarini ko'rish mumkin. Kasal qizlarning odatda bo'yisi past bo'ladi. Bo'yining orqa qismidagi sochlari kam, ptoz, ko'p miqdordagi pigmentli nevus va tirnoqning gipoplaziyasi uchraydi. Jinsiy bezlar disgeneziyasi balog'at yoshida ko'krak to'qimalarining rivojlanishiga yoki hayz ko'rish boshlanishiga olib kelishi mumkin. Terner sindromi bilan bog'liq boshqa nuqsonlar yoshga qarab rivojlanadi va tekshiruv�iz sezilmasligi ham mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda Terner sindromi tashxisini limfa shishi yoki qanotsimon bo'yin burmasining borligiga qarab qo'yish mumkin. Bunday belgilar bo'lmasa, ba'zi bolalarga keyinchalik bo'yisi pastligi, balog'at yoshiga yetishmaganligi va amenoreya asosida tashxis qo'yilishi mumkin. Tashxis sitogenetik sinovlar bilan tasdiqlanadi (kariotiplash, fluorescent gibridizatsiyasi [FISH tahlili] va xromosoma mikromatrik tahlili (XMT).

Yurak nuqsonlarini aniqlash uchun exokardiyografi yoki MRT tavsija etiladi. Gonadal disgeneziya bo'lgan barcha shaxslar uchun sitogenetik tahlil va Yga xos tahlil Y-tashuvchisi hujayra chizig'inining mozaikasini istisno qilish uchun amalga oshiriladi (masalan, 45, X/46, XY). Bu odamlar odatda Terner sindromining turli xil xususiyatlarini namoyish etishi mumkin bo'lgan fenotipik ayollardir. Ularda tuxumdon o'smalari, ayniqsa blastomalar xavfi ortadi, ularning ba'zilari saratonga aylanishi mumkin. Malignizatsiya xavfi yuqori bo'lganligi sababli, tuxumdonlarni profilaktik ravishda olib tashlash tavsiya etiladi, garchi bu tavsiya munozarali bo'lsada.

Asosiy kasalliklarni davolashning o'ziga xos individual ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi. Aortaning koarktatsiyasi odatda jarrohlilik yo'lli bilan tuzatiladi. Boshqa yurak nuqsonlari tekshiriladi va agar kerak bo'lsa davolanadi. Limfatik shishni, odatda, elastik paypoq kiyish va massaj kabi boshqa usullar bilan bartaraf qilish mumkin. O'sish gormonlari bilan davolash orqali o'sishni stimulyatsiya qilish mumkin. Odatda, 12-13 yoshda buyuriladigan estrogen terapiyasi zarur bo'ladi. O'sish gormoni estrogen o'rnini bosuvchi terapiya bilan birga epifiz yopilib to'xtaguncha berilishi mumkin. Estrogenni almashtirish terapiyasining davom etishi suyaklarning optimal zichligini va skelet rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

## IRSIY KASALLIKLARNI DAVOLASH PRINSIPLARI

Hozirgi davrda genetika, nazariy va klinik meditsina fanlari rivojlanishi natijasida ko'p irsiy kasalliklarni muvaffaqiyatli davolash imkonи tug'ildi. Boshqa kasalliklar kabi irsiy kasalliklarni davolash ham patogenetik va etiologik prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Irsiy kasalliklarni davolashda etika va deontologiya prinsiplariga alohida e'tibor berish lozim, chunki kasallik yoshlikdan davom etib surunkali kechadi.

### Simptomatik davolash

Simptomatik davolash asosiy usul bo'lmasa ham, ishonchli patogenetik davolash usullari mavjud bo'lgan hollarda ham hamma irsiy kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Simptomatik davolash usullaridan biri dori preparatlari bilan davolashdir. Buni mukovitsidozni davolash misolida ko'rib chiqamiz. Mukovitsidoz kasalligida Terlash orqali juda ko'p tuz ajratilganligi uchun ovqatga osh tuzini ko'proq qo'shib beriladi. Oshqozon osti bezi faoliyatini buzilganligi uchun kasallarni oshqozon osti bezi fermentlarini saqlovchi panzinorm, pankreatin, mezim, kreon, festal kabi preparatlar va o't suyuqligini haydovchi dorilar beriladi. Jigar faoliyatini buzilganda essensial kabi dori preparatlari bilan davolash kursi o'tkaziladi.

Mukovitsidozning eng og'ir alomatlari nafas sistemasida kuzatiladi. Bronxlar obstruktsiyasini davolash uchun bronxospazmolitiklar, balg'an ajralishini osonlashtiruvchi mukolitik preparatlar beriladi. Mukovitsidoz ayniqsa o'pkada infektion kasalliklar kuzatilishi bilan nomoyon bo'lganligi uchun intensiv antibiotikoterapiya o'tkaziladi.

Simptomatik davolash uchun fizioterapiya usullari ham keng qo'llaniladi (iqlimi o'zgartirish, balneoterapiya, elektroterapiya, termoterapiya). Irsiyatga bog'liq onkologik kasallikkarda jarrohlik muolajalaridan keyin o'tkaziladigan ximioterapiya va rentgeno-radioterapiyanı ham kiritish mumkin.

### Patogenetik davolash

Patogenetik davolash ancha samarali usul hisoblanadi, uning asosiy maqsadlari quyidagilar:

1. O'rnnini to'ldiruvchi davolash-organizmga yetishmagan moddalarni kiritish.
2. Kasalning ovqatiga organizmda hazm bo'lmaydigan moddalarni qo'shmaslik.

3. O'rnnini to'ldiruvchi terapiyani patogenezga asoslangan parhez bilan olib borish

4. To'planadigan anomal mahsulotlarni organizmdan chiqarish.

Eng ko'p tarqalgan patogenetik davolash usullaridan biri **parhez orqali davolash (dietoterapiya)** hisoblanadi.

Dietoterapiyadan davolash maqsadida, hamda profilaktika maqsadida foydalaniш mumkin. Bu usulni qo'llash ancha oson bo'l shiga qaramasdan birdan-bir davolash usuli bo'lib qolmasligi lozim. Dietoterapiyaning qo'llanilishining klassik misoli qilib FKU ni keltirish mumkin. Bu kasallikning birlamchi mexanizmi aniqlangan bo'lib, u senilalanin-4-gidroksilaza fermenti genining nuqsonidir. Bu ferment senilalanining tirozinga aylanishida ishtirok etadi. Ferment bo'lmasa senilalanin fenilpirouzumkislotaga yoki odatda uchramaydigan metabolitlarga aylanadi, natijada metabolik reaksiyalar zanjirida buzilishlar kuzatiladi. Bunda markaziy asab sistemasida qaytmas o'zgarishlar kelib chiqadi va bolaning ruhiy rivojlanishi susaya boshlaydi. Fenilalanin o'rnnini to'ldirib bo'lmaydigan aminokislotalar qatoriga kirgani uchun bolaning ovqati tarkibida bu aminokislotani batamom chiqarib tashlash mumkin emas, chunki bunda bola jismoni y rivojlanishidan orqada qoladi. Shuning uchun bolaning ovqati uchun ishlataladigan oqsil gidrolizatlarida 21% gacha senilalanin bo'lshi lozim. Agar biokimyoviy usulda qonda va siydikda senilalanin miqdorini nazorat qilib borib, dietoterapiyani 2-3 oylik davrdan boshlansa, bolaning normal ruhiy va jismoni y rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu misol hozirgi zamон fani va amaliyoti imkoniyatlarining ko'zga ko'rinarli dalilidir. Bunday dietoterapiya metabolizm, —xatoliklarli kuzatiladigan ko'pgina uglevodlar va aminokislotalar almashinuvি kasallikkari uchun ishlab chiqilgan (galaktozemiya, fruktozuriya, argininemiya, tirozinemiya va h.).

Dietoterapiyani uzluksiz biokimyoviy nazorat ostida amalga oshirish talab qilinadi.

**Dietoterapiyaning ikkinchi xili ovqat tarkibiga organizmda yetishmaydigan moddalarni qo'shib davolashdir.** Masalan, Kartnap sindromida ichak hujayralari funksiyalari buzilishi natijasida triptofan aminokislotsi so'rilmaydi, natijada qonda triptofan bo'lmaydi, nikotin kislota defitsiti kuzatiladi. Bu holat pellagra kasalligining dermatologik, asab va ruhiy ko'rinishlariga olib keladi. Agar kasal ovqatida ko'p

miqdorda oqsil (1kg massaga 4g) bo'lsa va nikotinamid, nikotin kislota qo'shsila, kasallik alomatlari ancha kamayishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin.

III darajali glikogenoz kasalliklari (amilo-1,6-glyukozidaza yetishmasligi) ertalabki gipoglikemiya, mushak atrofiysi, kardiomiopatiya, gepatosplenomegaliya, progressivlashuvchi miopatiya kuzatiladi, kasallik sababi alanin aminokislotsasi yetishmasligidir, shu sababli mushaklarda aminokislotalar parchalanadi. Ovqatda oqsil kaloriyasi 20-25% uglevodlar kaloriyasi 40-50% bo'lganda bu kasallar ahvolini ancha yaxshilanishiga erishish mumkin.

Ba'zi irsiy kasalliklarda metabolizm buzilishi natijasida organizm uchun zaharli ta'sir qiluvchi metabolitlar to'planadi. Bunday holatlarda zaharli metabolitlar chiqarilishini tezlashtiruvchi preparatlar bilan davolanadi. Gepatolyentikulyar degeneratsiya kasalligida hujayra ichida mis ionlari konsentratsiyasi ortib ketadi. Shuning uchun bu kasalliklarni davolash uchun misni organizmdan tez chiqarilishiga ta'sir qiluvchi preparatlar beriladi.

Gemoglobinopatiyalarda temir ionlari to'planadi (gemosideroz). Uni davolash uchun temirni o'ziga biriktirib organizmdan chiqaruvchi preparatlar beriladi.

Zaharli metabolitlardan organizmnii **fizik-kimyoviy usullar (plazmoforez, gemosorbsiya)** bilan ham tozalash mumkin.

Plazmoforez yo'li bilan qon ortiqcha lipidlar, yog' kislotalaridan tozalanadi. Lizosomal irsiy kasalliklarda ham shu usul qo'llaniladi.

Gemosorbsiya usuli bilan oilaviy giperxolesterinemiya kasalligida qonni heparin yordamida quyi zichlikka ega lipoproteidlardan tozalanadi.

Patogenetik davolashni **gen mahsulotini korrektsiyalash** yo'li bilan ham amalga oshirish mumkin. Patogenezi gen mutatsiyasi natijasi bo'lgan anomal fermentga bog'liq bo'lgan irsiy kasalliklarda mahsulot sintezlanmayadi. Bu holatlarda yetishmagan mahsulotni kiritish orqali davolanadi. Misollar: gipotireoidzmda tiroksin, gipofizar pakanalikda o'sish gormoni, buyrak usti bezi giperplaziyasida steroid gormonlar beriladi. Gemofiliya kasaligi – antigemofil globulin, diabet – insulin bilan davolanadi.

Gen injeneriyasi va biotexnologiya sohalarida keyingi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlar natijasida irsiy kasalliklarni patogenetik

davolash imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda, insulin, somatotropin, interferon kabi preparatlar genetik injeneriya va biotexnologiya yordamida olinmoqda.

Patogenetik davolashda **ferment faolligini modifikatsiyalash usuli** ham samarali hisoblanadi. Fermentlar faolligi buzilishlari gen mutatsiyalari natijasida kelib chiqadi va enzimopatiyalarga sabab bo'ldi. Anomal ferment aniq bo'lgan irsiy kasalliklarni kofaktor qo'shish yo'li bilan, dorilar yordamida ferment faolligini indutsirlab yoki ingibrlab, yetishmagan fermentni kiritish yo'llari bilan davolash mumkin. Ko'p irsiy kasalliklarda vitaminlarning katalitik funksiyalari kofaktor yetishmasligi natijasida buziladi. Kofaktorlar yordamida bunday kasalliklarni davolash mumkin. Masalan gomosistinuriyani piridinoksin, leytsinozni tiamin kofaktorlari bilan davolanadi. Irsiy kasalliklarda fermentlar faolligini maxsus dori preparatlari yordamida kuchaytirish yo'li bilan davolashga Djilbert, Krigler-Nayyar sindromlarini fenobarbital bilan davolashni misol qilish mumkin. O'tkir porfiriya kasalligida aminolevulinsintetaza faolligini susaytirish uchun gematin preparati beriladi.

Irsiy kasalliklarni faol fermentlar kiritib davolash (**fermentoterapiya**) hozirgi davrda keng rivojlanmoqda. Fermentlarni vena ichiga yoki Teri osti orqali kiritish ko'pincha uncha yaxshi samara bermaydi. Chunki fermentlar zarur to'qimalarga yetib borguncha ularni faolligi ancha kamayadi. Hozirgi davrda fermentlarni zarur to'qimalar, hujayralar, hatto organoidlargacha yetib borishini ta'minlovchi maxsus usullar ishlab chiqilmoqda. Bularga sun'iy sintezlangan mikrokapsulalar – **liposomalar** va tabiiy elyementlar – **autologik eritrotsitlar** yordamida fermentlarni zarur hujayralarga yetkazish usullari kiradi. Bunday usullarni takomillashtirish hozirgi zamон meditsinasining eng dolzarb muammolari hisoblanadi, chunki ular irsiy kasalliklardan boshqa patologiyalarni davolashda ham qo'llaniladi.

Liposomalar ko'p qavatli pufakchalar bo'lib, lipid va suv qatlamlaridan tuzilgan. Liposomalar membranasiga dori yuborilishi kerak bo'lgan hujayraga nisbatan antitelolar qo'shilgan bo'lishi mumkin. Shu antitelolar yordamida ichida fermentlari bo'lgan liposomalar kerakli hujayralar bilan bog'lanadi. Liposoma qobig'ini endogen lipaza eritadi, ferment substratga ta'sirini ko'rsatadi. Gomologik yoki autologik

eritrotsitlar ichiga ham fermentlarni maxsus usullar yordamida kiritib, ularni kerakli hujayralarga faolligini kamaytirmasdan yetkazish mumkin.

### **Xirurgik usullarda davolash**

Irsiy kasallikkarning ko'p turlarini samarali xirurgik davolash mumkin. Irsiy kasallikkarni xirurgik davolashni quyidagi 3 xil usulda amalga oshiriladi: rezektsiya, korrektsiya, transplantatsiya.

Irsiy kasallikkarning kesib olib tashlash (rezektsiya) usuli bilan umumiy xirurgik davolashga misollar: yo'g'on ichak polipozida poliplarni olib tashlash, gemoglobinopatiyalarda splenoktoniya, Vilms o'smasida buyrakni olib tashlash va **Rekonstruktiv xirurgiya** yoki korrektsiya usullari «bo'ri tanglay», «quyon lab»alomatlarini davolashda, tug'ma yurak nuqsonlarida, oshqozon-ichak atreziyasida, suyak-mushak sistemasi nuqsonlarini davolashda qo'llaniladi.

Irsiy kasallikkarni davolashda a'zolar, to'qimalar, hujayralar transplantatsiyasi tobora keng qo'llanilmoqda. Suyak ko'migi, timus, jigar, oshqozon osti bezi, buyrak usti bezi, taloq va buyraklar **allotransplantatsiyasi** yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi davrda **hujayralar transplantatsiyasi** ham yo'lga qo'yilmoqda. Mukopolisaxaridozlarni davolash uchun fibroblastlar yetishmagan fermentlarni sekretsiyalab bu kasallikklardagi almashinish buzilishlarini tuzatishga imkon beradi. Diabetni davolashda ham Langergans hujayralarini Teri ostiga transplantatsiyalash ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **Etiologik davolash.**

Etiologik davolash eng samaralidir, chunki bundan kasallikning asosiy sababi yo'qotiladi. Alomatistik va patogenetik davolash qancha samarali bo'lishiga qaramasdan irsiy kasallikning sababini butunlay yo'qotishga imkon bermaydi. Irsiy kasallikkarning asosiy sababi irsiy axborotning o'zgarganligi, ya'ni gen mutatsiyasi bo'lganligi uchun ularni davolash, o'sha mutant genlarni sog'lom genlar bilan almashtirish lozim. Buning uchun murakkab molekulyar-genetik usullar yo'lga qo'yilishi lozim. Bunday yo'nalish genoterapiya deb ataladi.

Normal genlarni hujayralarga maxsus vyektor sistemalari yordamida kiritiladi. Genetik injeneriya yo'li bilan har qanday genni olish yo'lga qo'yilgan. Bu genlar tashuvchi molekulalar – viruslar, plazmidalar, transpozonlar tarkibiga kiritilib ryekombinant DNK molekulalari hosil

qilinadi va ular kasal hujayralariga kiritiladi. Irsiy kasallar genoterapiyasi asosan 1990 yilda boshlandi.

Genoterapiya 2 xil usul bilan amalga oshiriladi: 1) Organizmdan ajratilib olingan somatik hujayralarga transgenozni amalga oshirish; 2) organizmning o'zida in vivo hujayralarga transgenozni amalga oshirish.

**Transgenoz** – bu kerakli genni ma'lum hujayraga kiritish usulidir.

Organizmdan ajratib olingan somatik hujayralarga tarsnogenozni amalga oshirishning quyidagi usullari mavjud: kimyoviy, hujayralarni duragaylash, fizikaviy (mikroinyeksiya, elektroporatsiya, lazer mikroinyeksiyasi) viruslar yordamida.

Eng samarali transgenoz – viruslar yordamida amalga oshiriladi. Agar transgenoz hujayralarning kamida 5%da amalga oshsa, uni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin.

Transgenoz amalga oshirilgan somatik hujayralar organizmga **reimplantatsiya** qilinadi. Masalan, jigar hujayralari qopqa venasi orqali (organotrop reimplantatsiya), suyak ko'migi hujayralari vena orqali (ektopik reimplantatsiya).

**To'g'ri transgenoz** (in vivo) ryekombinant genetik vektorni (kerakli genni o'zida saqlovchi) organizmga kiritish orqali amalga oshiriladi. Mishyen hujayralarga yoki boshqa hujayralarga vektor molekula kerakli genni kiritadi va transgenoz amalga oshadi.

Geneoterapiya muvafqaqiyatli amalga oshirilgan kasallikkлага adenozindezaminaza yetishmasligi, oilaviy giperxolesterinemiya misol bo'la oladi.

#### **Adenozindezaminaza                      yetishmasligi                      kasalligi**

adenozindezaminaza (ADA) geni mutatsiyasi natijasida kelib chiqadi va bunda birlamchi immunodefisit holati kuzatiladi. ADA yetishmasligini davolash uchun kasalning qonidan limfotsitlar ajratib olinadi, ajratilgan limfotsitga retroviruslar yordamida ADA geni kiritiladi. Bu gen injeneriyasi amalga oshirilgan limfotsitlar kasalga kiritiladi. Natijada 20-25% limfotsitlar kasal organizmda normal faoliyat ko'rsatadi. Kasalning ahvoli ancha yaxshilanadi va uni steril bokslarda saqlashning hojati qolmaydi.

**Oilaviy giperxolesterinemiya** kasalligida kam zichlikdagi lipoprotein (KZLP) retseptori geni mutatsiyasi kuzatiladi.

KZLP retseptori jigar hujayralarida sintezlanadi. Kasallikni davolash uchun qisman qepatoektomiya amalga oshiriladi (15%), kollagenaza fermenti yordamida gepatotsitlar bir-birlaridan ajratiladi. Keyin gepatotsitlar sun'iy sharoitda (*in vitro*) o'stirilib ularga retroviruslar yordamida normal gen kiritiladi. Transgen hujayralar qopqa vena orqali organizmga kiritiladi va bu genning ayrim gepatotsitlarda funksiyalanishiga erishiladi. KZLP miqdori 15-30%gacha kamayishi mumkin.

Hozirgi vaqtda faqat monogen kasalliklarnigina emas, balki multifaktorial kasalliklarni ham genoterapiya usulida davolash usullari yaratilmoxda. Masalan, tajribalarda yomon o'smani genoterapiya orqali davolashga urinishlar amalga oshirildi va ba'zi holatlarda ishonchli ijobiy natijalarga erishildi. Shunday qilib irsiy kasalliklarning genoterapiyasi bir nechta holatlarda ijobiy natijalarga erishildi. Lekin bu usul hali ommaviy qo'llanilishdan ancha yiroq. Genetik injeneriyaning qo'lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlari genoterapiyaning yaqin yillarda irsiy kasalliklarni davolashning eng ishonchli usuli bo'lib qolishiga umid bag'ishlaydi.

## V BOB. IRSIY KASALLIKLAR PROFILAKTIKASINING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Keyingi yillarda irsiy kasalliklar xaqida tobora ko'proq ma'lumotlar to'planmoqda, ularning turlari 7000 dan ortib ketdi. Har yili irsiy kasalliklarning 100 dan ortiq yangi xillari aniqlanmoqda. Bunga sabab, birinchidan – inson belgilarining genetik, fiziologik, biokimyoiy mexanizmlari tobora chuqur o'r ganilmoqda, ikkinchidan – inson yashaydigan ekologik muhit tobora ko'proq ifloslanmoqda, ko'p joylarda ekologik tanglik holatlari yuzaga kelib, ularning inson irsiyatiga zararli ta'siri tobora kuchayib bormoqda, uchinechidan – irsiy kasalliklar diagnostikasi usullari tobora takomillashib borishi ilgari noma'lum bo'lgan yangi kasallik xillari aniqlanishiga imkon bermoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, irsiy kasalliklar boshqa somatik kasalliklarga nisbatan juda og'ir kechadi, ularning ko'pchiligining samarali davolash usullari hozirgi kungacha topilmagan. Bu kasalliklarning irsiy omillari (mutatsiyaga uchragan genlar, xromosomalar, irsiyatga moyillik) avloddan-avlodga o'tib, populyatsiyada uchrash tezligi tobora ortib borishi ular profilaktikasining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham irsiy kasalliklar profilaktikasi tibbiyot genetikasining eng dolzarb, ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biz quyida irsiy kasalliklar profilaktikasining eng muhim yo'nalishlari haqida ma'lumotlar keltiramiz.

**Birinchi guruh tadbirlari** atrof-muhitni muhofaza qilishga bog'liq. Buning uchun gigiyenik me'yorlarga amal qilinishi, muhitda mutagenlarni aniqlash, ular bilan birga Teratogenlar va kanserogenlarni ham bartaraf etish lozim. Muhitning hamma yangi omillari ham mutagen ta'sir qilavermaydi. Shuning uchun genetik olimlar kimyoviy omillarning inson hujayralariga mutagen ta'siri faolligini aniqlashning yangi sezgir usullarini ishlab chiqishlari zarur.

Buning uchun pestitsidlar, gerbitsidlar, defoliantlar va qishloq xo'jaligida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan boshqa kimyoviy preparatlarni kompleks tahlil qilish, ya'ni ularning mutagen, Teratogen va kanserogen ta'sirini aniqlash zarur. Bunday kompleks tahlilni bakteriyalarda, o'simlik hujayralarida va sun'iy o'stirilayotgan inson hujayralarida o'tkazish lozim.

Aholi o'rtaasida qishloq xo'jaligida ko'p qo'llanilayotgan kimyoviy preparatlarning zararli ta'sirini tushuntirish ishlarini kengroq olib borish

lozim. Masalan, juda ko‘p ishlatilayotgan nitratlar qondagi gemoglobinning tuzilishiga ta’sir qilib, uni metgemoglobinga aylanirishi oqibatida to‘qimalar nafas olishini qiyinlashtiradi. Nitratlar organizmda ko‘p bo‘lganida kuchli mutagen va kantserogen bo‘lgan nitrozaminlarga aylanishi aniqlangan.

Irsiy kasalliklar profilaktikasida ayollarning homiladorlik davrida har xil zararli ta’sirlardan saqlanishlari juda katta ahamiyatga ega. Har xil kamchiliklar bilan tug‘ilgan chaqaloqlar 4,5-5% ni tashkil qiladi, ularning 1,5-2,0% igma irlisyatning buzilishlari natijasida kelib chiqadi. Bunday nogiron bolalar tug‘ilishining asosiy sabablari ayollarning homiladorlik davrida shifokor nazoratisiz har xil dorilarni iste’mol qilishi, tamaki chekishi, infeksion va parazitar kasalliklar bilan og‘rishi kabilardir.

Eng ko‘p iste’mol qilinadigan aspirin uch oygacha homilaning o‘pkasi va jigariga zararli ta’sir qilishi, gepatit va herpes viruslari homilador ayollardan 3-5% gacha nogiron bolalar tug‘ilishiga sabab bo‘lishi aniqlangan.

Alkogol va uning parchalanish mahsulotlari oqsil sintezi buzilishi, xromosoma aberratsiyalari natijasida homilaning o‘lik tug‘ilishi, chala tug‘ilishi, mayib majruhliklar, asab sistemasi buzilishlariga sabab bo‘ladi.

**Genetik monitoring** inson populyatsiyalarida genetik jarayonlarni tinimsiz, oldindan belgilangan rejalar asosida kuzatib borishdir.

Genetik monitoring quyidagicha amalga oshiriladi:

a) genetik kasllik dinamikasini o‘rganish (zararli muhit omillari tomondan indutsirlangan gen va xromosoma mutatsiyalari chastotalarini aniqlash);

b) tibbiy-statistik ma'lumotlar asosida spontan abortlar, o‘lik tug‘ilish holatlari chastotasini, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar vaznini, bo‘y uzunligini, ularning yashab qolish ko‘rsatkichlarini, jinslar mutanosibligini, tug‘ma va orttirilgan kasalliklar chastotasini, bolalarning o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash;

v) qon zardobi va eritrotsitlarda oqsillarni elektroforez usulida tekshirib, mutant oqsillarni aniqlash;

g) spontan abortlangan homilalarni, o‘lik tug‘ilish holatlарини, tug‘ma nuqsonlar bilan tirik tug‘ilgan bolalarni sitogenetik usullarda tekshirish. Irsiy kasalliklarning katta guruhi ekogenetik kasalliklar bo‘lib, ular irsiy moyilligi bo‘lgan shaxslarda, ma'lum omillar ta’sirida kelib chiqadi. Bunday kasalliklar profilaktikasida ham atrof-muhitni muhofaza qilish katta ahamiyatga ega.

**Irsiy kasalliklar profilaktikasining ikkinchi yo'nalishi – oilalarni rejalashtirishga asoslangan.** Oilalari rejalashtirish chora-tadbirlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) qon-qarindoshlar orasidagi nikohlar (inbriding)ga yo'l qo'ymaslik;

b) geterozigot tashuvchilar orasidagi nikohlarni cheklash;

v) irsiy patologiya xatari yuqori bo'lgan holatlarda farzand ko'rishga maslahat bermaslik.

Ma'lumki, ko'pchilik irsiy kasalliklarning asosiy sababichisi retsessiv holatdagi mutant genlardir. Qarindoshlar nikohi natijasida bu genlarning gomozigot holatga o'tish ehtimoli juda kuchayib ketadi. Bu holat Markaziy Osiyo respublikalarida, ayniqsa O'zbekistonning ayrim viloyatlarida ko'p uchraydi. Qarindoshlar orasidagi nikohlar 13-15% va undan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Bunday inbriding nikohlarning oldini olish hisobiga autosoma-retsessiv irsiy kasalliklar uchrashini ikki hissaga kamaytirish mumkin. Irsiy kasalliklar profilaktikasida onaning farzand ko'rish yoshi ham katta ahamiyatga ega. Tibbiyot xodimlari va genetiklarning ma'lumotlariga ko'ra farzand ko'rish uchun onaning 20-35 yoshda bo'lishi eng muqobil hisoblanadi. Bundan erta yoki kech farzand ko'rish har xil irsiy va tug'ma kasalliklar uchrash tezligining ancha ortishiga sabab bo'ladi. Masalan, 35 yoshdan keyin farzand ko'rishning kamayishi natijasida Daun sindromi bilan tug'iladigan chaqaloqlar chastotasining 15-20% gacha kamayishi mumkinligi aniqlangan.

Oilani rejalashtirishning samaradorligini oshirishda aholini dispanser nazoratiga keng jalb etish, tibbiy xizmatni oilaviy shifokorlar tipida amalga oshirish, tibbiy-genetik maslahatxonalar ishini keng yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga egadir.

**Irsiy kasalliklar profilaktikasining uchinchi yo'nalishi – tug'ilguncha tashxis qo'yishdir (prenatal diagnostika).** Prenatal tashxis tibbiyot genetikasining eng ishonchli, samarali usullaridan bo'lib, irsiy kasalliklar rivojlanish anomaliyalari bilan tug'ilish chastotasini kamaytirish vositalardan biridir.

Prenatal tashxis usullarini 3 ta: 1) skrining; 2) noinvaziv; 3) invaziv turuylarga ajratish mumkin.

Skrining usullari irsiy yoki tug'ma kasal bola tug'ish xatari katta bo'lgan ayollarни aniqlashga asoslangan. Bu usullar qulay, ko'p harajat talab qilmaydigan va keng qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Hamma tekshirish usullari yordamida olingan hujayra va to'qimalarni sitogenetik, immunogenetik, biokimiyoviy, molekulyar genetik va boshqa genetik tahlil usullari bilan tekshiriladi. Prenatal tashxis usullari uchun sarf qilinadigan xarajatni irsiy kasallar, tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilgan bolalarni parvarish qilish, davolash uchun sarflanadigan xarajatlar bilan solishtirib bo'lmaydi. SHuning uchun xam umumiy amaliyot shifokorlari, oilaviy shifokorlar prenatal tashxis usullari haqida tushunchalarni, ularning imkoniyatlari, kamchiliklari, qanday holatlarda yo'llanma berish mumkinligini yaxshi bilib olishlari zarur.

Irsiy kasalliklar profilaktikasining eng universal usuli - genlar ta'sirini idora qilish yoki patologik gen ta'sirini fenotipik korreksiyalashdir. Genlarning ta'sir mexanizmini bilganimizda uning fenotipik yuzaga chiqish darajasini, ya'ni ekspressivligini har xil choratadbirlar bilan kamaytirishimiz mumkin. Masalan, bu sohada fenilketonuriya, gipotireoz, galaktozemiya, mukovitsidoz kasalliklari rivojlanishining oldini olish choralar juda yaxshi o'rganilgan. Buning uchun tug'ilgan chaqaloqning tashxisi iloji boricha erta qo'yilishi lozim. Diagnoz aniqlangandan keyin kasallikning klinik namoyon bo'ishining oldini olish uchun parhez (fenilketonuriya, galaktozemiyada) yoki dori preparatlardan (gipotireoz, mukovitsidoda) foydalanamiz. Bunday korrektsiya usullarini homila davridanoq boshlash mumkin. Buning uchun homila paydo bo'lгungacha butun homiladorlik davrida onaning ovqatida fenilalanin miqdori cheklanadi. Bu esa bola tug'ilganidan keyin fenilketonuriyaning namoyon bo'lish darajasini ancha kamaytiradi. Bo'lajak onalarning ovqatlanish ratsionida oqsil, vitaminlar, mineral tuzlar miqdoriga katta e'tibor berish zarur. Ularning yetishmasligi homilaning rivojlanishi buzilishlariga, anomaliyalariga sabab bo'lishi mumkin.

Homilador ayollarning C, E va foliy kislota vitaminlarini yetarli darajada iste'mol qilishi asab naychasi tug'ma anomaliyalari bilan tug'ilish holatlarini ancha kamaytiradi. Katta yoshdagilarda ham irsiy kasallar profilaktikasini samarali amalga oshirish mumkin. Ayniqsa fenotipik namoyon bo'lishida tashqi muhit omillari katta ahamiyatga ega bo'lgan multifaktorial kasalliklar oldini olish chora tadbirlari ko'pincha yaxshi natija beradi. Multifaktorial kasalliklar rivojlanishida ko'p genlar (poligenlar) ta'siridan tashqari fenotipni yuzaga chiqaruvchi omillar ta'sirini shifokorlar maslahatiga asosan kamaytirib, gipertoniya, ateroskleroz, qandli diabet kabi kasalliklar rivojlanishini

ancha kamaytirish mumkin. Sulfanilamid preparatlarni cheklash yo'li bilan gemolitik eritrotsitar enzimopatiyalar oldini olish, 1-antitripsin yetishmasligi ta'sirida kelib chiqadigan o'pka emfizemasi rivojlanishining oldini tamaki chekishni tashlash, changli ishlab chiqarish sharotida ishlamaslik yo'li bilan olish mumkin. Shunday qilib irlsiy kasalliklar profilaktikasi chora-tadbirlarining ikki xilini ajratish mumkin.

**Birlamchi profilaktikasiga** irlsiy kasal homila paydo bo'lishi va irlsiy kasal rivojlanish anomaliyasi bo'lgan bolalar tug'ilishining oldini olish, ikkilamchi profilaktikaga esa patologik genotipning fenotipik namoyon bo'lishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar kiradi.

**Ikkilamchi profilaktika** irlsiyatga moyilli kasalliklarni oldini olishda samarali natija beradi. Bunday chora-tadbirlarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish natijasida patologik jarayonni anchayengillashtirish, hatto butunlay oldini olish, rivojlantirmaslik mumkin. Irsiy kasalliklarning profilaktikasi bilan shugullanish faqat genetik shifokorlar, meditsina genetika maslahatxonalarining vazifasi bo'libgina qolmasdan, bu muhim muammoni hal qilishda umumiy amaliyot shifokorlari, oilaviy shifokorlar ham saol qatnashishlari lozim. Buning uchun ular: - tinimsiz ravishda tibbiyot genetikasi sohasida o'z bilimlarini takomillashtirib borishlari; - aholi orasida irlsiy kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish chora-tadbirlari haqida bilimlarni xalq orasida ommalashtirishlari; - Bu sohada genetik shifokorlarga yordam berishlari lozim.

### TIBBIY-GENETIK MASLAHAT (TGM)

XX asrning 30-yillarda S.N.Davidyenkov asab sistemasining irlsiyatga moyil kasalliklari uchragan oilalarga tibbiy-genetik maslahatni amalga oshirdi va buning asosiy prinsiplarini ishlab chiqdi. TGM genetik-shifokor tomonidan irlsiy patologiyasi bo'lgan kasalga va uning oilasiga ko'rsatiladigan ixtisosli tibbiy yordam bo'lib, u maxsus tibbiy muassasa — tibbiy-genetik maslahatxonasida amalga oshiriladi.

TGMning asosiy vazifasi — irlsiy kasallika nisbatan moil bo'lgan oilada prognozni (irlsiy patologiyaning namoyon bo'lish ehtimolligi) aniqlash va shu prognoz asosida profilaktika choralarini amalga oshirishdir. Profilaktika chora-tadbirlari deganda oilada irlsiy kasalligi bola tug'ilishining oldini olish tushuniladi. SHuningdek maslahatxonaga kelganlarga irlsiy xavf mazmunini va ularga farzand ko'rish mumkin yoki

mumkin emasligi tushuntiriladi. Genetik shifokorning vazifasiga irlsiy kasallik tashxisini aniqlash uchun, xatarli guruuhnij ajratish uchun maxsus irlsiy tekshirishlarni amalga oshirish va bu guruhlarga kiruvchilarini dispanser nazoratidan o'tkazib turish ham kiradi.

Umumiy amaliyot shifokorlari o'z mijozlariga **tibbiy-genetik maslahatga quyidagi vaziyatlarda yo'llanma berishi mumkin:**

1. Agar oilada irlsiy patologiyali bola tug'ililib o'lgan yoki hayot bo'lsa;
2. Agar oilada irlsiy patologiyali bola tug'ilishi guminib o'lganida;
3. Oilaning bir nechta a'zolarida o'xshash patologik alomatlar yoki kasalliklar, ba'zi ovqatlarni yoki dorilarni ko'tara olmaslik holatlari kuzatilganda;
4. Bolalarda jismoniy va ruhiy rivojlanishdan orqada qolish, har xil tug'ma rivojlanish nuqsonlari kuzatilganda;
5. Homiladorlikning odatda oxirigacha yetmasligi, spontan abortlar, bola tushishi, o'lik tug'ilish holatlari;
6. Birlamchi amenoreya, jinsiy a'zolar gipoplaziysi yoki oilada birlamchi bepushtlik holatlari;
7. Homiladorlikning 3 oyigacha teratogenlar ta'siri kuzatilganda.
8. Er-toxinlar qon-qarindosh bo'lгanda.
9. Tez-tez qaytalanuvchi va an'anaviy davolash samarasiz kechadigan bronx-o'pka kasalliklari.
10. Raxit kasalligini og'ir kechishi va davolashga berilmasligi.
11. Oilaviy nevrologik kasalliklar (mushaklarning rivojlanmasligi, to'g'ri yura olmaslik, titrash).

**Tibbiy-genetik maslahatning (TGM) asosiy maqsadi** – irlsiy kasal bola tug'ilishini oldini olish, populyatsiyaning genetik o'zgarishini kamaytirish, oilalarga farzand ko'rish yoki ko'rmaslikda to'g'ri qarorga kelishiga yordam berishdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra TGMga murojat qilgan har 100 ta oiladan 3-5 tasida kasal bola tug'ilmaydi (TGM dan o'tmaganlarida ularda shu bolalar tug'ilishi mumkin edi). 25-30% holatlarda TGMDan o'tgan oilalar genetik shifokorning tavsiyalariga amal qilmaydi. Tibbiy genetik maslahatxonalar hamma viloyat markazlarida, yirik shaharlarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. To'plangan ma'lumotlarga ko'ra aholining 5-10% genetik maslahagta muhtojdir. Shuning uchun ham 1 million aholiga bitta tibbiy-genetik maslahatxonasi zarur deb hisoblanadi.

Ko'pchilik sog'liqni saqlash tizimi yaxshi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda TGM uch darajada o'tkaziladi:

1) Oddiy holatlarda avlod prognozi oilaviy shifokor tomonidan aniqlanadi;

2) Murakkabroq holatlarda avlod prognozini yirik tibbiyot markazida ishlovchi genetik shifokor aniqlaydi;

3) O'ta murakkab holatlarda prognoz maxsuslashtirilgan genetik maslahatxonalarda aniqlanadi. Davolash profilaktika muassasalarida TGM umumiy profilli yoki ixtisoslashtirilgan bo'lishi mumkin. Umumiy profilli maslahatga har xil patologiyali probandlar murojat qilishi mumkin. Davolash muassasasida har xil sohadagi shifokorlar borligi va maxsus tekshirish usullarini o'tkazish imkoniyati mavjudligi tibbiy genetik maslahat o'tkazishni osonlashtiradi. Ixtisoslashtirilgan TGMLarni yirik ixtisoslashgan kasalkonalarda tashkil qilinadi. Probandni va uning ota-onalarini birlamchi ko'rikdan o'tkazish uchun 1,5-2 soat, takroriy ko'rik uchun 30 daqiqa vaqt ketadi. Ish kuni davomida genetik-shifokor 5 ta oilani qabuldan o'tkazishi mumkin. TGMga shifokor yo'llanmasiz, o'zları mustaqil murojat qilganlar 10%dan 50% gachani tashkil qiladi. TGMga murojat qilganlarning 90% sog'lom bola ko'rishni, 10% esa kasal bolasini davolash uchun kelishadi.

TGMni ikki xil tarzda amalga oshirish mumkin:

1. Prospektiv maslahat — kasal bola tug'ilishi ehtimoli bo'lganda, masalan er yoki xotinga tashqi muhitning zararli omillari ta'sir qilganda, homiladorlik paytida virusli infeksiya kuzatilganida o'tkaziladi. Prospektiv maslahat homiladorlik boshlanguncha yoki homiladorlikning ilk bosqichlarida genetik xatar yuqori bo'lganda o'tkaziladi.

2. Retrospektiv maslahat — oilada kasal bola tug'ilgandan keyin, keyingi bolalar qanday tug'ilishini aniqlash uchun o'tkaziladi.

**Tibbiyot-genetika maslahati 4 bosqichda amalga oshiriladi:**

**1-bosqichda** tashxis aniqlanadi. Buning uchun genetik shifokorning mijozni maslahatga yuborgan mutaxasisi — shifokor bilan hamkorligi talab qilinadi. Mutaxassis shifokor o'z sohasidagi usullardan foydalanib tashxisni aniqlashga harakat qiladi va aniq genetik tashxis qo'yish uchun maslahatning maqsadini ko'rsatib TGMga yo'llanma beradi. O'z navbatida genetik shifokor ham klinik tashxisni aniqlash uchun mutaxasis shifokorlarga murojat qilishi mumkin. Tashxisni aniqlash uchun genetik tahlilning hamma usullaridan foydalilindi.

**2-bosqichda** kasal bolaning tug'ilishi xatari darajasi (prognoz) aniqlanadi.

**3-bosqichda** – genetik shifokor malum xulosaga keladi. Xulosa yozma ravishda tayyorlanadi.

**4-bosqichda** genetik-shifokor maslahatga kelgan shaxsga o'z xulosasi ma'nosini tushuntirib maslahat beradi va aniq bir qarorga kelishiga yordam beradi. Prognozning aniq tuzilishi tashxisni aniq qo'yilishiga, to'plangan genealogik ma'lumotlarning ishona chililingiga, shifokorning tibbiyot genetikasi sohasida to'liq ma'lumotga egaligiga bog'liqdir. To'g'ri qo'yilgan tashxis genetik xatarni aniq hisoblashga imkon beradi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, hatto xatar ko'rsatkichi 0% bo'lganida ham sog'lom bola tug'ilishiga to'liq kafolat berishi qiyin. Chunki bu bolada genetik xatar aniqlangan kasallikkdan boshqa kasallik ham namoyon bo'lishi mumkin. Har qanday oilada turli anomaliyalari bo'lgan bolalarning tug'ilish ehtimoli 3-5% ga teng (umumiy populyatsiya xatar ko'rsatkichi). Masalan, Dyushenn miopatiyasiga nisbatan xatar ko'rsatkichi 0% bo'lganda, oilada Ayyer sindromli bola tug'ilishi mumkin. Bu esa yangi mutatsiyaning natijasidir. Kam holatlarda xatar ko'rsatkichi 100% bo'lishi mumkin. Masalan otada ham onada ham autosoma — retsessiv tipda irsiylanadigan fenilketonuriyaning klassik shakli uchraganda, yoki otada ham onada ham daltonizm (X-ga birikkan irsiylanish tipi) uchraganda xatar ko'rsatkichi 100% ga teng bo'ldi.

Xatar ko'rsatkichini hisoblashni 2 xil yo'l bilan amalga oshirish mumkin:

1. Genetik qonuniyatlarga asoslangan nazariy hisoblash yordamida aniqlash. Bu usul monogen kasallikkarda qo'llaniladi. Bunday hisoblash ota-onalar genotipi aniq bo'lgan holda qanday tipdag'i gametalar hosil bo'lishi, populyatsiyada geterozigotalar chastotasi, penetrantlikni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2. Empirik usul — xatar ko'rsatkichlarini jadvallar yordamida aniqlash. Bu usul xromosomalar soni va strukturalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan kasallikkarda hosil bo'ladigan gametalar (14-jadval) va ularning eliminatsiyasi hisobga olingan holda va multifaktorial kasallikklar uchun qo'llaniladi (15-jadval). Bazi holatlarda har ikkala usulni qo'shib foydalanish mumkin. Bunday hisoblash ota-onalardan birida muvozanatlashgan translokatsiya uchraganda foydalaniлади.

#### 4.5. Genetik atamalar.

Abberatsiyalar-irsiy informatsiyaning yo'qolishiga (deletsiyalar), ikkilanishiga (duplicatsiyalar), yangi ketma ketliklar hosil bo'lishiga (inversiyalar) yoki uning bir qismining boshqa xromosomaga o'tishiga (translokatsiya) olib keluvchi xromosoma mutatsiyalari. Abberatsiyalar yuqoridagi o'zgarishlarga qarab xromosoma ichida yoki xromosomalar aro mutatsiyalar tufayli yuzaga keladi.

Alell- genlar gomologik xromosomalarning bir xil lokuslarida joylashgan va alternativ belgilarni namoyon qiladi. Alell genlarni belgilash uchun lotin alfavitining bir xil harflari olinadi.

Amniotsentez-prenatal diagnostika maqsadida pushtning amnion bo'shlig'iда amnion suyuqligini olish muolajasi.

Amflikatsiya-rRNKnı kodlashtiruvchi genlarning ko'p nusxalarini hosil bo'lishi. Qisqa vaqtida ko'p oqsil sintezlanishi lozim bo'lgan hujayralarda uchraydi.

Antigen – ayni organizm uchun genetik jihatdan yet bo'lgan modda. Autbrinding- qarindosh bo'lmagan shaxslar orasidagi nikohlar.

Axondroplaziya-naysimon suyaklar o'shshining susayishi bilan xarakterlanadigan autosom-kasallik.

Belgi- ma'lum gen tomonidan aniqlanadigan va ma'lum muhit sharoitida yuzaga chiqadigan morfologik, biokimyoiy va fiziologik sifat.

Genetik kod-irsiy axborotning DNK (retroviruslarda RNK) zanjirida nukleotidlardan ketma-ketligi sifatida yozilish sistemasi.

Genom-gaploid to'plamdag'i ( $n$ ) xromosomalar yig'indisi. Genom turni xarakterlaydi, genotip esa individni.

Genotip-organizmning genetik konstitutsiyasi, uning diploid to'plamdag'i hamma allelar yig'indisi.

Diskordantlik-egizaklarda uchraydigan belgilardagi farqlar. Egizaklar zigotaligini aniqlashda ishlataladi va % bilan ifodalanadi.

Duplicatsiya-xromosoma abberatsiyalarining bir xili bo'lib, uning qismlaridan birining ikki xissa ortishidir.

Yevgenika-odamining genetik statusi va uni yaxshilash haqidagi ta'limot bo'lib, uning asoschisi F.Galton xisoblanadi.

Jins-organizmning jinsiy ko'payishda ishtiroy etishga va irsiy axborotni gametalar orqali avlodlarga o'tkazishga imkon beruvchi xususiyatlar yig'indisi.

Irsiylanish-ko'payish jarayonida irsiy moddaning bir avloddan ikkinchisiga o'tkazilishi. Irsiy kasalliklar-mutatsiyalar natijasida kelib chiquvchi avlodlarga o'tadigan kasalliklar.

Kariogramma-bitta hujayraning sistemalashtirilgan va aniq tuzilgan to'plami. Gomologik xromosomalar aniqlanib, o'lchami va sentromerasining joylashishiga qarab (Parij nomenkulurasiga ko'ra) joylashtiriladi, ma'lum xarflar (A.V.S.D.Ye.F.G) yoki raqamlar bilan belgilanadi. Ko'pincha bu atama idiogrammaning sinonimi sifatida ishlatalidi.

Kariotip- xromosoma to'plami belgilarining yig'indisi (soni, shakli, o'lchami) bo'lib har bir tur uchun o'ziga xos bo'ladi.

Lokus-xromosomaning genetik kartasida ma'lum genning joylashgan o'rni.

Mozaik-har xil genotipli hujayralardan tashkil topgan organizm.

Mutatsiya-yangi belgi yoki xususiyatning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi gen, xromosoma yoki genom darajada irsiy axborotning o'zgarishi.

Penetrantlik-gen ta'sirining fenotipik yuzaga chiqishining miqdoriy ko'rsatkichi, foizlar bilan ifodalanadi. Masalan penetrantlik 50% bo'lsa mazkur gen 100 shaxsdan 50 tasida namoyon bo'ladi.

Pleyotropiya-bitta genning ko'p belgiga ta'sir qila olish xususiyati-genning ko'p tomonlama ta'siri.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rizayev J.A., Muxamadiyeva L.A., Mamatkulova D.X., Bosimov.Klinik genetika.Дарслик.Samarqand 2023.
2. K.N.Nishonboev, O.E.Eshonqulov, M.Sh.Bosimov. Tibbiyot genetikasi. Darslik. Toshkent.. "Geo fan poligraf. 2011 у.
3. L.A.Muxamadiyeva, N.O.Turayeva, B.I.Zokirova, K.T.Azimova, G.R.Rustamova. Monogen va xromosoma kasalliklari, о'quv qo'llanmaSamarqand 2022
4. Клиническая генетика : учебник / Н. П. Бочков, В. П. Гузырев, - 4-е изд., доп. и перераб.М. : ГЭОТАР-Медиа, 2013.+ 2006г. - 592 с. : ил. + Приложение ДИСК
5. Odam genetikasi. S.S. Fayzullayev. / darslik - Т.: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018, 200 b.
6. Медицинская и клиническая генетика для стоматологов / Янушевич О. - М., 2009
7. Erta yoshdagи bolalar kasalliklari : darslik / N.M. Shavazi, M.R. Rustamov, M.S. Atayeva. Samarqand 2022 у. 400 bet.
8. Bolalar kardiologiyasi asoslari. O.A. Sharipova. О'quv qo'llanma. Samarqand 2023.
9. Болалар кардиоревматологияси / О.А. Шарипова, Т.А. Бобомуратов, Д.Х. Маматкулова, Ж.Н. Абдурахмонов.
10. Детская гастроэнтерология : о'quv qo'llanma / N.M. Shavazi, M.R. Rustamov, M.S. Atayeva, L.M. Garifulina, M.V. Lim, N.O. Turayeva.
11. Алгоритм и критерии оценки практических навыков в педиатрии: учебное пособие / N.M. Shavazi, M.F. Ibragimova, M.V. Lim, M.S. Atayeva, N.O. Turayeva, J.Sh. Gaybullayev.
12. Bolalarda organ vatizimlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari: о'quv qo'llanma / D.T. Rabbimova, Sh.M. Ibatova, Sh.M. Uralov, M.M. Qodirova

RIZAYEV J.A., MUXAMADIYEVA L.A., MAMATKULOVA  
D.H., TURAYEVA N.O.

## PEDIATRIYA. TIBBIY GENETIKA

*Darslik*

*Guvohnoma raqami: G/000139-2023*

Nashriyot litsenziya raqami: 143413

“SAMARQAND” nashriyoti

*Mas’ul muharrir — Dildora TURDIYEVA  
Musahhib — Anvar UMRZOQOV  
Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV  
Sahifalovchi — Dilshoda ABDIAXATOVA  
Dizayner — Davron NURULLAYEV*

“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.  
Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.  
Samarqand shahar, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 3-uy.  
Bosishga 1.11.2023 ruxsat etildi. Bayonnomma raqami: 3  
Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>. “Times New Roman” garniturasи. 13,49 bosma taboq.  
Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 19/2024  
Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail:[sarvarmexrojbaraka@gmail.com](mailto:sarvarmexrojbaraka@gmail.com)

